

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Samarqand shahri, 2024-yil, 16-oktabr

*(Anjuman Samarqand derivatologiya maktabi asoschisi professor
Ne’mat Qayumovich Turniyozovning 85 yillik yubileyiga bag‘ishlanadi.)*

UO‘K: 74.202.2, 81.2.(-5)-9

Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: “SamDCHTI” nashriyoti, 2024. – 184 bet.

Ushbu to‘plamdan “Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilarining maqolalari o‘rin olgan bo‘lib, undan barcha tilshunos, adabiyotshunos va pedagoglar foydalanishi mumkin.

Tahrir hay‘ati:

Professor v.b. B.A.Xolikov	rais
Professor O.G‘aybullayev	rais o‘rinbosari
Professor Sh.S.Safarov	a‘zo
Professor T.A. Bushuy	a‘zo
Professor X.Z.Xayrullayev	a‘zo
Professor A.M.Turobov	a‘zo
Dotsent B.Turniyozov	a‘zo
Dotsent Sh.N.Turniyazova	mas‘ul muharrir
Dotsent M.A.Xalova	mas‘ul kotib

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘ul.

I SHO‘BA

TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI

B.A.Xolikov
SamDChTI rektori

ZABARDAST OLIM

Samarqand derivatologiya maktabining asoschisi, atoqli olim va mohir pedagog, filologiya fanlari doktori, professor Ne‘mat Qayumovich Turniyozov nafaqat Respublikamiz, balki qo‘shni Hamdo‘stlik mamlakatlari tilshunoslarining ham nazariga tushgan shaxs sifatida taniqlidir. Olimning hayoti va ijodiy faoliyati ilm zahmati yo‘lidan borayotgan har bir kishi uchun, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yoshlar uchun, ibrat maktabi vazifasini o‘tashi shubhasizdir.

N.Q.Turniyozov Samarqand viloyati Paxtachi tumanining hozirgi Sh.Nazarov nomli jamoa xo‘jaligida ziyoli oilasida tavallud topdi. U bolaligidanoq ilmga, shuningdek, adabiyot va san‘atga alohida mehr qo‘yib unib-ulgaydi. Bo‘ljak olim tarbiya topgan xonadonda ilm, adabiyot va san‘at qadrlanar, uning inson kamolotidagi o‘rniga alohida ahamiyat berilar edi. Oiladagi ushbu muhit N.Q.Turniyozovning hayot yo‘lini belgilashida o‘ziga xos poydevor bo‘lib xizmat qildi. Ne‘mat Qayumovich maktabda o‘qib yurgan kezlari til va adabiyot faniga bo‘lgan ishtiyoqi nihoyatda baland bo‘lganligi va bunda o‘qituvchilari Nazar aka Qorajonov, Qahhor aka Rasulovlarning sermazmun saboqlari katta ta‘sir qilganligini hamisha hurmat bilan eslardi. “Ular har doim til va adabiyot fanlarining hali k”pchilikka ma‘lum bo‘lmagan sirlari, jumboqlari ko‘pligini ta‘kidlar edilar. Bu mening filologiya, xususan, tilshunoslik ilmini sevishimga turtki bo‘lgan desam, mubolag‘a bo‘lmaydi”, - derdi olim.

Ilm-fanga, ayniqsa, chet tillarga bo‘lgan qiziqish Ne‘mat Qayumovichni 1957 yili SamDU (o‘sha paytdagi O‘zgu) filologiya fakultetining frantsuz tili bo‘limiga yetaklab keldi. Talabalik yillarida universitet va fakultet jamoa ishlarida faolligi, tirishqoqligi va ilmga bo‘lgan muhabbati bilan hamkurslaridan ajralib turar, bu, o‘z navbatida, uning fakultet professor-o‘qituvchilari nazariga tushishiga sabab bo‘ldi. Natijada, u universitetni tugatgach, o‘zi o‘qigan fakultetning chet tillari kafedrasiga ishga taklif qilindi. Bu esa bo‘ljak tilshunos hayotidagi asosiy sahifaning ochilishi uchun katta imkoniyat bo‘ldi.

Binobarin, talabalik yillarida til ilmini chukur o‘zlashtirishga alohida mehr qo‘ygan Ne‘mat Qayumovichda o‘z ilmiy rejalarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyat tug‘ildi. Xususan, u 1968 yili hozirgi Jahon tillari universitetining aspiranturasiga kirdi va uni tugatib, 1972 yilda O‘zFA til va adabiyot institutining ixtisoslashgan Kengashida taniqli olim M.Abdurazoqovning ilmiy rahbarligida tayyorlangan “Hozirgi zamon o‘zbek va frantsuz tillarida aniqlovchi ergash gaplar” mavzusida nomzodlik dissertasiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi.

Shundan so‘ng u Samarqand davlat universitetining frantsuz tili kafedrasining mudiri (1972-1978 yillar), 1978-1985 yillarida esa fakultet dekani lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. Bu muddat ichida uning bir qator ilmiy ishlari, jumladan, monografiyalari, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqolalari chop etildi. Ana shu asnoda Ne‘mat Qayumovich o‘zining yozilajak doktorlik dissertasiyasi uchun zamin yaratib bordi.

Ilmga bo‘lgan chanqoqlik va intilish yosh olimni 1985 yilda SSSR Fanlar akademiyasining Moskvadagi Tilshunoslik institutiga yetakladi. Bu erda u E.R.Teneshev, N.A.Baskakov, S.N.Ivanov, I.X.Axmudov, A.A.Koklyanova kabi taniqli tilshunos olimlar suhbatidan bahramand bo‘ldi, ulardan fan sirlarini o‘rgandi va o‘z ilmiy qarashlarini shakllantirdi, tajriba orttirdi. Buning natijasi o‘laroq, 1986 yilning iyun oyida Moskvada “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi gipotaktik qurilmalarning sintaktik derivasiyasi” mavzusidagi doktorlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Himoya qizg‘in bahslar bilan o‘tdi. Savollar o‘ta qaltis va murakkab bo‘lsa-da, ularning har biri tegishli javoblarga ega bo‘ldi. Ishga SSSR FA muhbir a‘zosi, filologiya fanlari doktori

E.R.Tenishev, O‘zFA FA akademigi, filologiya fanlari doktori G‘.A.Abdurahmonov, filologiya fanlari doktorlari C.N.Ivanov, H. Baskakov, I.X.Axmadov kabilar yuksak baho berdilar. Mazkur ish vaqtli matbuotda (hozirgi “Zarafshon” gazetasida) chop etilgan maqolalardan birida “Respublikamiz tilshunosligining ulkan yutuqlaridak biri bo‘lib qoladi”, deb e’tirof etilishining o‘ziyoq o‘zbek tilshunosligida yangi bir iqtidorning paydo bo‘lganidan dalolat berar edi. Darhaqiqat, ustoz tomonidan mazkur davrda qo‘lga kiritilgan ulkan yutuq o‘zbek tilshunosligiga zamonaviy tahlil tamoyillarining kirib kelishida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, ushbu dissertasiya mavzusining asosini tashkil etadigan derivasiya hodisasi jahon tilshunosligida hozirgi kunda ham til va nutq birliklarining vujudga kelishi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda samarali tatbiq etilib kelinayotganligi misolida ham Ne‘mat Qayumovich tomonidan ko‘tarilgan mavzuning naqadar dolzarb ekanligini anglash mumkin. Ne‘mat Qayumovichning nafaqat o‘zbek tilshunosligiga, balki umumiy tilshunoslikka qo‘shgan hissasi ilm ahllari tomonidan e’tirof etilganligi ko‘zga ko‘ringan tilshunoslar, xususan professorlar N.A.Baskakov, I.R.Tenishev, C.N. Ivanov, A.A.Koklyanova, I.X.Ahmadov, A.Berdialiev va boshqalar bilan olib borilgan yozishmalardagi iliq va samimiy, mehr-muhabbat bilan yo‘grilgan satrlar misolida o‘z ifodasini yaqqol topgan. O‘zining shaxsiy hayoti va ijodida samimiylik, kamtarlikni shior qilib olgan ustoz suhbat chog‘ida o‘z umr yo‘li mobaynida ana shunday iqtidorli va xolis insonlarga duch kelganiga doimo shukronalar aytishni kanda qilmasdi. Ular bilan bo‘lgan qiziqarli ilmiy munozaralar, ibratli voqealardan kafedra aspirantlari va yosh tadqiqotchilarga hikoya qilishni xush ko‘rardi.

Ana shunday suhbatlar chog‘ida “mevali daraxtning shoxi egikdir, mevasiz daraxt-chi, hamisha tikdir” degan ibratli satrni ta’kidlagan holda, olim uchun xolislik, kamtarlik eng zaruriy fazilat ekanligini shogirdlariga bot-bot uqtirardi.

Ne‘mat Qayumovich o‘zining zahmatli mehnatlari tufayli ilmiy maktab yaratishga erishgan olimlardandir. Xususan, 2008 yilda “Til taraqqiyotining derivasion qonuniyatlari” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy anjumanida Samarqand derivatologiya maktabi rasmiy ravishda tan olinganligi anjuman qarorlarida alohida qayd etilgan edi. Albatta, bunday sharafga muayassar bo‘lish uchun, avvalo, ilm fidoiysi, chuqur salohiyat egasi bo‘lish bilan bir qatorda, fan istiqbolini ko‘ra bilish qobiliyati ham talab qilinadi. Ustozning ana shunday salohiyat sohibi ekanligi uning 1998 yilda chop etilgan “Nazariy grammatikadan ocherklar” risolasi misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Binobarin, risolada o‘zbek tili materiali asosida derivatologik tadqiqotlarning rivojlanish istiqboli tahliliy faktlar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur risolani Samarqand derivatologik maktabining vujudga kelishi uchun qo‘yilgan poydevor, deyishga haqlimiz, albatta. Binobarin, hozirgi kunga kelib aynan ana shu risolada ko‘zda tutilgan ilmiy rejalar birin-ketin doktorlik, nomzodlik dissertasiyalari sifatida ro‘yobga chiqmoqda.

Bir necha yillar davomida SamDChTI umumiy va amaliy tilshunoslik kafedrasini boshqargan olim o‘zining sermahsul ilmiy salohiyatini yoshlar tarbiyasiga, tilshunos olimlarning yangi avlodini yaratishdek savobli ishga yo‘naltirgan edi. Professor N.Q.Turniyozovning chop etilgan ilmiy ishlari soni 200ga yaqin bo‘lib, ular ichida “Очерки по сопоставительному изучению сложноподчиненного предложения во французском и узбекском языках” (Samarqand, SamDu nashri, 1980), “Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчиненного предложения в современном узбекском языке” (Tashkent: O‘kituvchi, 1985), “Nazariy grammatikadan ocherklar” (Samarqand, SamDChTI, 1998), “Matn lingvistikasi” (Samarqand, 2004), “Funksional sintaksisga kirish” (Toshkent: Fan, 2003. Hammuallif K.Turniyozova), “Tilshunoslikka kirish” (Samarqand: SamDChTI, 2006), “O‘zbek tili” (Samarqand: 2007. Hammuallif A.Rahimov), “ Struktur sintaksis asoslari” (Toshkent: Fan, 2009, Hammualliflar K.Turniyozova, X.Xayrullaev) kabi asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Olim yaratgan ilmiy ishlar tilshunoslik fanining yetakchi namoyandalarining doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, N.Q.Turniyozovning “Очерки по сопоставительному изучению сложноподчиненного предложения во французском и узбекском языках” kitobiga moskvalik olima R.A.Ageeva tomonidan yozilgan takrizda mazkur ishga yuksak baho berilganining o‘ziyoq, o‘zbek olimining ilmiy izlanishlari e’tirof etilganidan darak beradi.

Mazkur kitobga o‘zbek tilshunoslari ham yuqori baho berishib, uni Respublikamiz filologiya fani hayotida katta hodisa, deb qayd qilishgan edi. N.Q.Turniyozovning yana bir kitobi haqida fikr bildirgan H.Orziqulov, mazkur asar: “Har ikkala tilning hozirgacha fanga noma’lum bo‘lgan qonunlarini o‘rganishda ulkan ahamiyatga ega”, - deb qayd qilgan edi. Olimning hayotining keyingi yillari mobaynida chop etilgan “Funksional sintaksisga kirish”, “Matn lingvistikasi”, “Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari”, “Struktur sintaksis asoslari” kabi monografiya va o‘quv qo‘llanmalari Respublika oliy o‘quv yurtlarining lingvistika mutaxassisligi sohasida tahsil olayotgan magistrlar uchun eng zaruriy manbalardan biri sifatida foydalanilib kelinmoqda.

N.Q.Turniyozov ko‘plab olimlarning mehribon murabbiy, talabchan rahbari va samimiy ustози bo‘lgan. Uning rahbarligida bir nechta fan nomzodlari hamda fan doktorlari tayyorlandi. Shuningdek, M.Qurbonova, C. Mahmatmurodov, D.Lutfullaeva, J.Yakubov, X.Usmonova, D.Xudoyberganovalarning doktorlik ishlari va bir necha nomzodlik ishlariga rasmiy opponentlik qildi. Olimning timsolida o‘zbek derivatologiyasining asoschisi va rahbarini ko‘ramiz. Keng qamrovga ega bo‘lgan N.Q.Turniyozovning ilmiy faoliyati ko‘p qirrali ekanligi, sermahsul ilmiy ijodi esa tilshunosligimizni yuqori cho‘qqilarga olib chiqishda muhim hissa bo‘layotganligi bugungi kunda barcha holis fikrli olimlar tomonidan e’tirof etilmoqda.

Garchi ustoz bugun oramizda bo‘lmasalar ham, ustozning asarlari, yosh avlodga bergan bilimlari kelajagi buyuk O‘zbekiston yoshlarini bilimli va ma’naviyatli, komil inson qilib tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shishda doimo hozirjavobdir.

Hamidulla Dadaboyev
Filologiya fanlari doktori, professor

NE‘MAT TURNIYOZOV – O‘ZBEK DERIVATOLOGIYASI QURUVCHISI

Eradan oldingi V-IV yuzyillarda sanskritda bitilgan veda adabiyoti namunalari tahliliga bag‘ishlangan Yaska va Panini singari hind olimlarining grammatik asarlari zaminada shakllangan tilshunoslik ko‘p asrlik rivojlanish va taraqqiyot bosqichlarini boshidan o‘tkazdi. Ijtimoiy hodisa sanalmi til bashariyat bosib o‘tgan formatsiyalarda yuz bergan turli ekstralingvistik omillar, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy jarayonlar, voqea-hodisalarni eks ettiruvchi “barometr” vazifasini o‘tash qatori, o‘zining ichki qonuniyatlariga qat’iy suyangan holda fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik kabi asosiy, shuningdek, morfonologik, so‘z yasalishi, frazeologiya singari oraliq sathlar satharning uzluksiz boyishi va kengayishi, turfa hamda rang- barang bo‘lishga erishdi. Ikki yarim ming yil davomida ko‘pdan ko‘p vazifalarni bajarishni zimmasiga olgan til fenomeni, ma’lumki, an’anaviy tilshunoslik, sistem-struktur tilshunoslik hamda o‘tgan yuz yil oxiri-XXI yuzyil boshlarida oyoqqa turgan antropotsentrik tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish nishoniga aylandi.

I.Boduen de Kurtene va Ferdinand de Sossyurdek olimlar tomonidan nazariy poydevori qurilgan sistem-struktur tilshunoslik Praga funksional maktabi, Kopengagen glossematika maktabi, AQSH deskriptiv tilshunoslik maktabi vakillarining samarali va sidqidildan amalga oshirgan sa’y harakati tufayli tilni tadqiq etishning uch ustunidan biriga aylangani soha egalariiga yaxshi ma’lum.

E’tirof etish joizki, talay yillar mobaynida til ilmi namoyondalari asosiy diqqatni tilning murakkab tizimi, undagi muammolarni tadqiq etishga yo‘naltirganlari natijasida nutq tilshunosligi tahlili va talqini masalasi biroz nazardan chetda qoldi. Antropotsentrik tilshunoslikning yuzaga chiqishi tilning nutqda qo‘llanishi, nutqning voqelanishida inson omili, uning o‘rni, u bilan chambarchas bog‘langan kognitiv-pragmatik muammolarni atroflicha o‘rganish imkoniyatini yaratish qatori, til taraqqiyotining derivatsion qonun-qoidalari talqini hamda tadqiqi masalasining ham kun tartibidan mustahkam o‘rin olishini tezlashtirdi.

“Yasalish, shakllanish” semasida qo‘llanayotgan derivatsiya termini tilshunoslikning alohida yo‘nalishi tarzida 1981- yilda Perm universitetida o‘tgan ilmiy anjumanda hayotga yo‘llanma olgan derivatologiya bilan uzviy aloqaga ega.

Derivatologiya tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida hayotga yo'llanma olgan, so'z yasalishidan birmuncha farqlanadigan, o'z ta'limoti, nazariy asosi, dunyoqarashiga tayangan holda so'z birikmasi, gap, murakkab sintaktik qurilma va matnga o'xshash nutq birliklarining shakllanishi masalalari tadqiqida keng istifoda etilmoqda. Asosan rus-slavyan tilchilari ta'limotlari negizida shakllangan dervatologiya, chunonchi, sintaktik derivatsiya ta'mal toshining Respublikamizda qo'yilishi o'zbek til ilmining yorqin namoyondasi, umrini tilshunosligimizning taraqqiyoti, ravnaqiga bag'ishlab, sidqidildan tolmay mehnat qilgan, sinchkov va fidoyi, o'ta kamtarin, haqiqiy olim va qadrdon do'st, professor Ne'matjon aka Turniyozov nomi bilan bevosita bog'liq.

Ustozning 1896-yilda Moskvada yoqlagan "Hozirgi o'zbek tilidagi gipotaksisning sitaktik derivatsiyasi" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tilshunosligida voqelangan yangi yo'nalishning poydevori vazifasini o'tagani sir emas. Ushbu tadqiqot hozirga qadar dunyo yuzini ko'rgan qator izlanishlar uchun nazariy manba rolini o'ynagan yaxshi ma'lum.

Madomiki, so'z Ne'matjon Turniyozov domlaning o'zbek derivatologiyasi shakllanishiga qo'shgan ulkan ulushi to'g'risida ketar ekan, olimning yuqorida nomi qayd etilgan dissertatsiyadan tashqari "Transformatsion va derivatsion jarayonlar to'g'risida (O transformatsionnom i derivatsionnom protsessax//Sovetskaya terminologiya.1989, № 2); O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish.-Samarqand, 1990; Nazariy grammatikadan ocherklar.- Samarqand, 1998; Funktsional sintaksisga kirish.-Toshkent, 2003 (K. Turniyozova bilan hamkorlikda); Struktur sintaksis asoslari.-Toshkent, 2009 (K.Turniyozova, X.Xayrullayev hammuallifligida); So'z birikmasi va gap bo'laklari haqida ba'zi mulohazalar// Roman-german tilshunosligining dolzarb masallari.-Toshkent, 2009; Abzats va uning lingvistik maqomi xususida// Filologiyaning dolzarb muammolari.-Samarqand,2011 singari nazriy jihatdan puxta ishlarini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Olimning B.Turniyozov hamda Sh.Turniyozova hammuallifligida 2011- yili "Navro'z" nashriyoti tomonidan chop etilgan "O'zbek tili derivatsion sintaksisi" nomli monografiyada derivatologiya. uning shakllanishi, so'z birikmasi, gap, murakkab sintaktik qurilma va matn sintaktik derivatsiyasi bilan aloqador masalalar, gapning nominativ aspekti, predikativlik, ustpredikativlik singari hodisalar borasida batafsil mulohaza yuritilgan. To'rt bobdan iborat asarning dastlabki ikki bobi Ne'matjon aka tomonidan bitilgan bo'lib, ularda so'z birikmasining sintaktik, dervatsion, gap hamda uning derivatsion xususiyatlari chuqur tahlilga tortilgan. Derivatsion grammatikaning ilk kurtaklari qadimgi hind tilshunosligi, xossatan, Panini asarlarida shakllana boshlagani, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" qomusiy asarida tub hamda yasama so'zlar paradigmasi, chunonchi, otdan ot yasalishi va fe'llarning voqelanishi haqida ham keng qamrovli ma'lumot berilgani, eng muhimi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisining so'z yasalishi m salasiga jiddiy diqqat qaratgani, bu jihat esa bugungi derivatologiyaning tarixiy ildizlarini turkiy tillar materiallarida kuzatish mumkinligini ko'rsatishi urg'ulangan.

Dekartning ratsionalizm falsafasi zaminida yuzaga chiqqan, 1660- yili Por-Royal ibodatxonasi rohiblari A.Arno va K.Lanslo tomonidan e'lon qilingan "Umumiy mantiqiy grammatika" asarida inson fikrini ifolalashda jumla qurish, alohida fikr bildirish mumkin bo'lgan jumlar yordamida murakkab ifodaga ega gap tuzishga harakat qilishi ashyoviy misollar ko'magida ochiqqlangan. Sodda jumlar birlashib, murakkab qurilmali gapni voqelantirishi e'tirof etilgan. Bunining oqibatida, domla N.Turniyozovning ta'kidicha, sintaktik derivatsiya bo'y ko'rsatadi. Ushbu holat, shubhasiz, universal grammatika qo'lga kiritgan yutuqlarning eng salmoqlisi sifatida baholangan. Gap shakllanishini bu tarzda tasavvur etishning nafaqat XVII-XIX yuzyillar tilshunosligi, balki hozirgi derivatologiya uchun ham o'ta qimmatliligi ta'kidlangan.

Por-Royal grammatikasining dunyo tilshunosligiga sezilarli ta'sir o'tkazgani, XVII-XVIII asrlar davomida rus tilshunosligi rivojida ham ko'rinishi, M.Lomonosov, N.Grach, F.Buslayev kabi tilchilar izlanishlarida hosila strukturalar to'g'risida mulohaza yuritilgani qaydlangan. Hosila strukturani sintaktik aspektda tadqiq qilish masalasi birinchi bor polyak tilshunosi Yeji Kurilovichning 1936- yilda nashrdan chiqqan "Derivation lexicale et derivation syntaxique" asarida kun tartibiga qo'yilgani va yoritilgani xususida to'xtalgan N.Turniyozov domla ayni asarga

ko'p yillar davomida kerakli ahamiyat berilmagani, u faqat 1962- yilda "Derivatsiya sintaksicheskaya i derivatsiya leksicheskaya" nomi ostida rus tilida chop etilgach, uning rus tilshunosligida derivatologiya sohasida sodir bo'lgan burilishga turtki bergani, amalga oshirilgan izlanishlarning aksariyati sintaktik derivatsiya masalalari tavsifi bilan uzviy aloqadorligi, XX yuzyilning 50-yillarida deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan generativ grammatikaga xos tadqiqotlarning bajarilgani, generativ grammatikaning transformatsion ta'limot bilan uzviy munosabatdaligi, ya'ni transformatsion g'oyaning asosan sintaktik tuzilmalar doirsida ishlatilishi, sintaktik derivatsiya muammolarining leksik yoxud semantik derivatsiya masalalariga qaraganda puxta tadqiq etilishida ayni jihat o'rning yetakchiligi borasida fikrlar yuritilgan.

1986-2010- yillar mobaynida o'zbek tilshunosligida derivatologiya muammolariga yo'naltirilgan tadqiqotlarni sanab o'tgan ustoz, ko'pchilik tilchilar leksik derivatsiyani so'z yasalishi hodisasining muqobili, deb tasavvur etishlari, leksik derivatsiya so'z yasalishini taqozo etishi, ularga doir asosiy tamoyillarning mushtarakligi, chunonchi, so'z yasalishi asosi va yasovchi formant tushunchalarining derivatsiya nuqtai nazaridan ham ahamiyat kasb etishi, faqat terminlararo farq kuzatilishi, ya'ni leksik derivatsiya so'z yasalishining asosi o'rnida *operand*, yasovchi formant o'rnida esa *operator* terminlaridan istifoda etilishi, ammo leksik derivatsiya so'z yasalishidan farqli o'laroq, hosila struktura (derivat) sathida voqelanuvchi morfemalarning ichki munosabatini ham tekshirishini ishchi so'zi misolida obyekt bilan ijrochi o'zaro to'g'ridan to'g'ri aslo bog'lanolmasligi, shu bois ular harakat semasi orqali bir- biri bilan munosabatga kirishi, obyekt-harakat-ijrochiaro gorizantal chiziqdagi sintagmatik bohlanishning shakllanishi oqibatida yasama so'z sathida sintaktik munosabatning yuzaga kelishi, ushbu hodisa esa, o'z navbatida, so'z sintaksisi masalasining tadqiqotlar predmeti sifatida tahlil etilishga olib kelganligi, leksik va sintaktik derivatsiya tushunchalari bir-biriga yuqori darajada yaqinlashishi, lekin ularni qorishtirib yubormaslik zarurligi, zotan, yasama so'zlar shakllanishi bmlan shug'ullanuvchi leksik derivatsiya dinamik xarakter kasb etmasligi, statik belgilariga ko'ra ajralib turishi, va aksincha, sintaktik derivatsiyaning har doim dinamik xarakterligi alohida ta'kidlangan.

Olim hozirgi o'zbek tilshunosligida murakkab sintaktik qurilma, parsellyativ hamda ilovalni qurilmalar, matn derivatsiyasi masalalari tadqiqiga oid izlanishlar paydo bo'lgani, ularda til birliklarining nutqqa ko'chirilishi, ular o'rtasida pog'onali munosabatning shakllanishi, sintaktik paradigmatika muammolari o'rganilishini ijobiy baholab, ayni chog'da, tahlilga tortilishi, yechimi topilishi zarur bo'lgan quyidagi dolzarb masalalarni sanab o'tgan: 1) mustaqil fan maqomiga ega nutq lingvistikasi doirasida murakkab sintaktik qurilma va matn derivatsiyasini tadqiq qilish; 2) semantik derivatsiya tadqiqi bobida olib borilayotgan izlanishlarning qoniqarli emasligi, chunonchi, parafrazalar, frazeologik iboralar shakllanishining semantik derivatsiya hodisasi qamrovida ro'y berishi masalasining tadqiqtalab bo'lib qolayotgani; 3) semantik derivatsiyani tekshirish maslasining uzil-kesil hal etilmagani; 4) semantik derivatsiyaning ma'no majoziyiligi bilan uzviy bog'liqligini hisobga olib, frazemalar va parafrazalarga uning tekshiruv obyektini sifatida qarash maqsadga muvofiqiligi; 5) so'z yasalishining affiksatsiya hodisasi leksik derivatsiya, konversiya hodisasining esa semantik derivatsiya doirasida ro'y berishi masalasini alohida tadqiqot obyektini tarzida belgilash; 6) semantik derivatsiya va uning tadqiq obyektleri muammosini yanada oydinlashtirish kerakligi; 7) teng tarkibli so'z birikmalari haqida tom ma'noda birorta monorafik tadqiqotning mavjud emasligi; 8) gap va u bilan aloqador masalalarning nutqa tegishli izlanish obyektini sifatida tahlil qilishni taqozo etishi; 9) jonli matnning ilmiy tahlili masalasiga yetarli e'tibor berilmayotgani; 10) transformatsiyaga nisbatan sintaktik derivatsiya hodisasi qamrovi kengligini hisobga olib, transformatsiyani sintaktik derivatsiyaning ish mexanizmlaridan biri shaklida o'rganish muammosini yaqin istiqbolda amalga oshiriladigan tadqiqotlar kun tartibiga chiqarish.

O'zbek derivatologiyasi maktabi quruvchisi, professor Ne'mat aka Turniyozov tomonidan o'n uch yil muqaddam belgilab berilgan yuqoridagi dolzarb vazifalarning muayyan qismi u kishining shogirdlari, farzandlari, izdoshlari amalga oshirgan va oshirayotgan tadqiqotlarda aksini topmoqda. Shu bilan birga, o'zbek derivatologiyasi ta'mal toshini mustahkam qo'ygan ustoz ilgari surgan muammolarni to'la hal etish masalasi o'zbek tilshunosligida hanuz dolzarbligni saqlab qolmoqda.

Atoqli tilshunos, bag‘rikeng ustoz va murabbiy, mehribon ota, o‘ta kamtarin va tavoze egasi Ne‘matjon aka Turniyozov domlanning porloq siymosi oldida hamisha bosh egaman. Alloh u kishiga jannat ul-firdavs bog‘laridan o‘rin ato qilgan bo‘lsin. Amin.

Мирзаев И.К.,

СамДУ профессори, филология фанлари доктори

ДЕРИВАТ, ДЕРИВАЦИЯ, ДЕРИВАТОЛОГИЯ

I. Раҳматли устозимиз, ўзбек замонавий тилшунослигининг забардаст вакилларида бири, профессор Турниёзов Неъмат Қаюмович ўзининг узоқ ва самарали илмий фаолияти давомида дериватология масалалари билан ҳам жиддий шуғулланган. Ўзбекистонда дериватологиянинг фан сифатида шаклланиши бевосита устознинг номи билан боғлиқ. Бугунги кунда домланинг фарзандлари, шогирдлари ва издошлари лингвистик деривациянинг турли соҳаларида фаол илмий-тадқиқот ишларини олиб бормоқдалар.

Гарчи проф. Неъмат Қаюмовичнинг бевосита шогирди бўлмасам-да¹, унинг нафақат дериватология, балки синтаксис, структурал тилшуносликка доир ишларини катта қизиқиш билан ўқиб борганман.

Ушбу мақолада биз устознинг лингвистик деривацияга оид ишларидан илҳомланган ҳолда “дериват”, “деривация” ва “дериватология” тушунча/терминларини яна бир марта эслаш ва улар билан боғлиқ айрим мулоҳазаларимизни баён этишни лозим топдик.

II. Бирор нарсанинг бошқа нарса асосида ясалганлигини англатувчи дериват (лот. *derivatus*) – набобот ва ҳайвонот оламининг турли соҳалари, чунончи, қон, сафро (ўт), мушк, темир, ҳайвон, медикамент, ҳуқуқ, санъат ва бошқалардан ясалган дурагай маҳсулотларни ифодаловчи полисемантик терминдир.

Айрим мамлакатларда дериват (дурагай) маҳсулотларнинг тегишли давлат органи томонидан тасдиқланган рўйхатлари ҳам бор. Масалан, Қозоғистон Республикаси қишлоқ хўжалик вазирлиги 2015 йил 16 февралда шундай рўйхатлардан бирини тасдиқлаган². Дериватлар контрабандасига қарши кураш ҳозир бутун дунёда авж олган³.

Бирор бирлик асосида ясалган дериватлар тилшуносликнинг барча сатҳларида кўплаб учрайди: $y + o = yo$, $n + g = \eta$; $s + h = sh$, $c + h = ch$ (фонетика); гул + зор = гулзор, ота + лик = оталик, хурмат + талаб = хурматталаб (лексика) ва б.

Дериватология соҳасига мансуб “дериват” термини тор ва кенг маъноларда қўлланади. Тор маънода дериват ясама сўзни, кенг маънода эса тузилиши ёки мураккаблиги даражасидан қатъи назар, иккиламчи номинация бирлигини англатади.

Тор маънодаги дериват сўз ясаши (ёки деривацион морфология) термини сифатида истифода этилса, кенг маънода сўзшакл, сўз, гап, матн кабиларни ўз ичига олувчи иккиламчи бирликларни англатади⁴.

“Деривация” термини ҳам наботот, ҳайвонот ва ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида фаол қўлланадиган тушунчалардандир.

Деривация дериват каби тор ва кенг маъноларда ишлатилади. Тор маънода аффиксация (*но + тўғри = нотўғри*; *кел + тир = келтир*) ёки сўзларни кўшиш (*қора + майиз = қора майиз*) йўли билан тил бирликларини яшаш жараёнлари, кенг маънода деривация сўз ясаши ва сўз ўзгариши билан боғлиқ жараёнларни бирлаштириш тушунилади ва бу жараёнлар, кўпинча, гап ҳосил қилишда кузатилади. Масалан, *баҳор келди* (тўғри сўз тартиби), *келди баҳор* (тезкари, экспрессив сўз тартиби). Деривациянинг асосий тушунчаларидан бири, юқоридагилардан англашилаётганидек, деривацион жараён

¹ Проф. Турниёзов Н.К. бизга 1963-1964 йилларда “Француз тили амалий грамматикаси” фанидан дарс берган.

² Қаранг: Об утверждении перечня дериватов//www.google.com.

³ Қаранг: Борьба с контрабандой дериватов//www.google.com.

⁴ Қаранг: Дериват (лингвистика) // ru.m.wikipedia.org.

ҳисобланади. Тилда кузатиладиган барча парадигматик ва синтактик муносабатлар ана шу жараён билан белгиланади.

Манбаларда деривацион жараёнларнинг қуйидаги кўринишлари қайд этилади:

- фонетик ёки морфонологик деривацион жараён;
- сўз ясаиш деривацияси жараёни;
- лексик деривация жараёни;
- синтактик деривация жараёни;
- коммуникатив – семантик деривация жараёни ва б.

Бу жараёнларнинг барчаси просодик воситалар, сўз ясовчи формантлар семантик маркерлар, сўз тартиби каби кўплаб лисоний воситалар ёрдамида амалга оширилади.

Деривацияни ўрганишда ясаиш жараёнларининг мунтазамлигига, маҳсулдорлиги, асос ва ясама дериватнинг алоқаси, уларнинг асосланганлигига, типологик хусусиятларига эътибор қаратилади.

“Деривация” тушунчаси ўтган асрнинг 30-йилларида Ежи Курилович томонидан фанга олиб кирилган. У деривация ҳодисасини лексик ва синтактик турларга бўлиб ўрганиш лозимлигини асослаб берган. Проф. Н.Қ.Турниёзов Е.Курилович тавсияларидан ташқари мутлақо асосли равишда, матн ва унинг таркибий қисми бўлмиш абзац, период каби фанимизда жуда кам ўрганилган синтактик бирликларни ҳам таҳлилга тортган.

Ш. Дериватология – тилшуносликнинг деривация йўли билан ҳосил қилинган бирликларини ўрганувчи фан. У, акад. Л.В.Шчербанинг сўзлари билан айтганда, ясама сўзларни динамик (сўз қандай ясалади) ва статик (сўзлар қандай ясалган) аспектларда ўрганади. Шунга кўра, диахрон дериватология ва синхрон дериватология ўзаро фарқланади¹.

Анъанавий сўз ясаиши билан деривацион сўз ясаиши, бизнингча, бир хил тушунча / терминлар эмас. Уларнинг биринчиси лексик қатламга, иккинчиси ҳам лексик, ҳам грамматик қатламга тегишли. Шу нуқтаи назардан айрим манбаларда сўз ясаиши (словообразование) доирасида дериватологик бирликларнинг ясаишини ўрганиш дуруст эмас. Кейинги тадқиқотларда бу мунозарали масалага нуқта қўйилса, ажаб эмас.

Adabiyotlar

1. Арутюнова Н. Д. Предложение и его смысл / Ответственный редактор Г. В. Степанов. - М.: Наука, 1976.

2. Арутюнова Н. Д. Теоретические аспекты деривации. - Пермь, 1982.

3. Кацнельсон С. Д. Порождающая грамматика и процесс синтаксической деривации // *Progress in linguistics*. - The Hague, 1970.

4. Кубрякова Е. С. Деривация, транспозиция, конверсия // *Вопросы языкознания*. - М.: Наука, 1974. - № 5. - С. 64-76.

5. Кубрякова Е. С., Панкрац Ю. Г. О типологии процессов деривации // *Теоретические аспекты деривации*. - Пермь, 1982.

6. Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // *Очерки по лингвистике. Сборник статей*. - М.: Издательство иностранной литературы, 1962. - С. 57-70.

7. Lightner T.M. The role of derivational morphology in generative grammar (англ.) // *Language*. - New York: Linguistic Society of America, 1975. - Vol. 51, no. 3. - P. 617-638.

8. Marchand H. Expansion, Transposition, and Derivation (англ.) // *La Linguistique*. - Paris: Presses universitaires de France, 1967. - No. 1. - P. 3-26.

9. Москальская О. И. Синтаксическая парадигматика и синтаксическая деривация // *Проблемы общего и германского языкознания. Посвящается доктору филологических наук профессору Н. С. Чемоданову / Редкол.: Э. М. Медникова, Н. И. Филичева, А. Г. Широкова*. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1978.

¹ Қаранг: Словообразование (раздел лингвистики) // ru.m.wikipedia.

10. Мурзин Л. Н. Синтаксическая деривация. Анализ производных предложений русского языка: пособие по спецкурсу. - Пермь: Пермский университет, 1974. - 128 с.
11. Никитевич В. М. Словообразование и деривационная грамматика: спецкурс по общ. языкознанию для студ.-филологов. - Гродно: Гродненский государственный университет, 1978.
12. Храковский В. С. Деривационные отношения в синтаксисе // Инвариантные синтаксические значения и структура предложения / Н. Д. Арутюнова (ред.). - М.: Наука, 1969. - 138–147 с.

Интернет сайтлари

13. Борьба с контрабандой дериватов//www.google.com.
14. Дериват (лингвистика) // ru.m.wikipedia.org.
15. Об утверждении перечня дериватов//www.google.com.
16. Словообразование (раздел лингвистики) // ru.m.wikipedia.

*Маматов Абди Эшонкулович,
ЎЗМУ профессори, филология фанлари доктори*

ЎЗБЕК ДЕРИВАТОЛОГИЯСИНИНГ САРДОРИ

Устоз! Биргина ушбу табаррук, ёқимли сўз замирида олам-олам маъно мужассам. Халқимизда устозни улуғлаб айтиладиган бир неча каломлар мавжуд. **Устоз – отангдек улуғ! Устоз – маънавий ота! Устоз кўрмаган шогирд ... !**

Агар устоз тушунчасига фалсафий нуқтаи назардан ёндошсак, энг катта устоз – бу ҳаёт, яъни ҳаёт мактаби. Инсон борки ҳаёт мактабидан умр бўйи ниманидир ўрганади ва ўрганган билимлари, тажрибаси асосида ўзининг ҳаётини ташкил этади, оила куради ва умргузаронлик қилади. Бу қонуният инсониятнинг мутлақ асосий қисмига тегишли бўлган ҳақиқатдир.

Лекин, ҳаётда шундай инсонлар борки, ҳаёт деб аталмиш мактабнинг бутун сир-асрорини, паст-баландликларини ва рационал билимларини ўзи пухта эгаллаши, ўрганиши билан бир қаторда, ўзгаларга ўргатишни ўзига касб айлаган. Бундай бахт ниҳоятда санокли, таъбир жоиз бўлса, Оллоҳнинг назари тушган инсонларга насиб этади.

Устоз деган шараф Президент фармони, Вазирлар Маҳкамасининг қарори ёки вазирликнинг буйруғи билан берилмайди, устоз деган бу шарафли номни халқ эътирофи этган, илмий жамоа томонидан тан олинган, шогирдлар устозим дея олқишлаган кишиларгагина насиб қилади ва умумжамоа ҳеч иккиланмасдан устоз деган табаррук “унвон”ни беради.

Устозим – Неъмат Қаюмович Турниёзов ана шундай тоифадаги мўътабар инсон эдилар. Ўйлайманки, ҳаётимда эришган ютуқларим замирида бир томондан, ота-онамининг берган тарбияси, қилган дуолари бўлса, иккинчи томондан устозим Неъмат Қаюмовичнинг ўргатган илмлари, кўрсатган йўл-йўриқлари ва одамийликдан берган сабоқлари мужассам.

Мен устоздан, аввало, илм сирларини, тиришқоқликни, камтарликни ва энг муҳими, инсонийликни ўргандим. Ҳақиқатан ҳам Неъмат Қаюмович ғоят камтар инсон эдилар. Лекин, бу камтарлик ортида буюк қалб, улкан илмий салоҳият ва инсоний буюклик яширин эди. Ушбу таъкидланган хислатларни устоз билан кимки бир неча бор ҳамсуҳбат бўлган бўлса, дарров эслайди. Дарҳақиқат, Неъмат Қаюмович ўзининг самимийлиги, очик кўнгиллиги ва меҳрибонлиги билан одамда тез ижобий таассурот қолдирадиган инсон эдилар.

Устоз ўзининг ибратли ҳаёти билан ҳаёт мактабининг муҳим қоидаларидан бири – сидқидилдан меҳнат қилган инсон кам бўлмаслиги, турмушнинг турли йўналишларида муайян муваффақиятларга эришиш мумкинлигини исботлаган **ШАХС**.

Мозийдан маълумки, жамиятда илм аҳли, олимлар, зиёлилар, муррабийлар барча даврда ғоят қадрланган, уларга иззат-икром кўрсатилган. Лекин, барча замон олимларининг яшаган давридан қатъи назар уларда муҳим бир муштараклик бор.

Ушбу муштараклик шундан иборатки, ҳақиқий олим қуёшга ўхшайди. Қуёш ўзининг нури билан оламни ёритади, унинг ҳароратидан бутун тириклик баҳра олади, ўсади, унади. Олим ҳам атрофига илму-толибларни йиғиб, жамиятга зиё тарқатади, ёшларга сабоқ беради. Олим ҳам қуёш каби жамиятни ёритади, унинг аъзоларига ҳарорат улашади, инсонларнинг тафакқурини кенгайтиришга, бойитишга хизмат қилади.

Неъмат Қажумович ҳам ўз умрини ёшларни тарбиялаш, ёш олимларга раҳнамолик қилиш, мамлакатимиз филологик таълимини юксак чўққиларга олиб чиқишга бахшида этган забардаст, фидойи олим эдилар. Бу табаррук зотнинг бевосита илмий раҳбарлиги остида бир неча ўнлаб филолог-тилшунос олимлар, фан докторлари, филология фанлари бўйича фалсафа докторлари, магистрлар етишиб чиққан.

Меҳнатсевар инсон, фан фидойиси Неъмат Турниёзовнинг 20 дан ортик монографиялари, дарсликлари, ўқув қўлланмалари ҳамда 300 дан зиёдроқ илмий мақолалари ва ўқув-услубий ишлари нашр этилиб, матбуотда эълон қилинган. Айниқса, тилшуносликнинг энг муҳим соҳаларидан бири саналадиган дериватология фанидан замон талабларига жавоб берадиган ўқув қўлланма ва дарсликлар яратишда фаннинг ёш авлодда бунёдкорлик ғояларини шакллантириш, уларнинг илмий дунёқарашини кенгайтириш каби муҳим масалаларга алоҳида эътибор қаратган.

Тилнинг нутқда қўлланилиши масаласи тилшунослик фанининг бугунги тараққиёти даврида ўта муҳим аҳамият касб этиши изоҳ талаб қилмайди. Бунинг асосий сабаби шундаки, тилшунослар диққати кўп йиллар мобайнида тилнинг мураккаб системаси ва унинг ўзига хос муаммоларини ўрганишга қаратилди ва ана шу боис нутқ лингвистикаси талқини масалалари иккинчи даражали аҳамият касб этди. Бироқ тилшунослик фанида бугунги даврга келиб, тилнинг нутқда қўлланилиши, бунда инсон омилининг ўрни ва бу билан боғлиқ бўлган когнитив-прагматик муаммоларни ўрганишга ҳам эҳтиёж туғилаётганлигини сезган нуктадон устоз тил тараққиётининг деривацион қонуниятларини ҳам ўрганиш муҳимлигини кенг тилшунослар оммасига кўрсатиб берди. Равшанки, дериватология муаммоларининг ҳар қандай тури ҳам тил системаси бирликларининг нутқда реал қўлланиши билан узвий боғлиқ. Айниқса синтактик деривация ҳодисаси тамойиллари бу жиҳатдан ғоятмуҳим аҳамият касб этади. Чунки сўзларнинг нутқ жараёнида ўзаромуносабатга киришуви кишилар ўртасида мулоқот шаклланишининг асосийвоситасини тақозо этади.

Домланинг “Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш” асарининг асосий мақсади синтактик деривация ҳодисаси ва у билан узвий алоқадор масалаларнинг илмий талқинини беришдан иборат бўлгани учун, унда дастлаб дериватология фани ва унинг шаклланиши тарихи хусусида, шундан сўнг эса сўз бирикмалари, гап, мураккаб синтактик қурилма ва макроматн деривацияси ҳақида мукамал маълумот берилган. Бундан ташқари, синтактик деривация асосланадиган туб ва таянч структуралар, синтактик структураларнинг предикативлик ҳодисасига муносабати, номинативлик ҳодисаси, шунингдек, структур тилшунослик методлари – бевосита иштирокчилар ҳамда трансформация хусусида ҳам атрофлича сўз юритилган.

Устознинг “Функционал синтаксисга кириш” ва “Структур синтаксис асослари” монографияларида синтаксис фани бажариб келаётган муҳим масалалар, мураккаб синтактик қурилмалар, абзац деривацияси муаммолари тадқиқи, умуман дериватология муаммолари ҳақида илмий-назарий фикрлар юритилган.

Юқорида келтирилган монографик тадқиқотлар сирасига кирадиган “Принципы синтаксической деривации гипотаксиса в современном узбекском языке” ва “Ўзбек тили

деривацион синтаксиси” асарлари ҳам дериватология соҳасига бағишланган жуда катта илмий аҳамиятга эга бўлган ишлардир.

Домла ўзининг илмий-педагогик фаолияти давомида бир неча дарслик ва ўқув кўлланимлари яратди, жумладан: “Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчиненного предложения в современном узбекском языке”. - Ташкент: Укитувчи, 1985, “Гап ва унинг структураси”. -Самарқанд, 1985, “Очерки по сопоставительному изучению сложноподчиненных предложений во французском и узбекском языках”. - Самарқанд: СамГУ, 1980, “Ўзбек тили структурал синтаксисига кириш”. -Самарқанд: СамДУ, 1989, “Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш”. Самарқанд: СамДУ, 1990, “Ўзбек тили структур-функционал синтаксиси асослари”. Самарқанд: СамДУ, 1993, “Кўшма гап синтаксиси”. -Самарқанд, 1993, “Тилшуносликка кириш”. -Самарқанд, 2006. “Матн лингвистикаси”.-Самарқанд, 2004, “Ўзбек тили”. -Самарқанд, 2006, “Хорижий мамлакатлар лингвистик назариялари”. -Самарқанд, 2007, “Тил бирликларининг нутқда кўлланилиши ва структур функционал талқини”, “Лингвистик назариялар”. Самарқанд, 2021 кабилардир.

Н.Қ.Турниёзов жамиятимизнинг келажаги бўлган талабаларни ўзларининг кенг дунёқарашларини шакллантиришга, чуқур фикр-мулоҳаза юритишга ундашда фаннинг энг янги усулларидан моҳирона фойдаланар эди ва ўз мақсадини амалга ошира олар эди. Ёш филолог-тилшунос олимлар тарбияси, уларнинг комил инсон, етук олим бўлиб вояга етиши, баркамол шахс сифатида шаклланиши, маънавий пок, илму фанга садоқат туйғулари билан улғайишига муносиб ҳисса қўшган устоз-олим ва инсон эдилар. Биз домланинг бу фазилатларини, албатта, кадрлаймиз. Устозимизнинг жойлари жаннатда бўлсин. Сизнинг барҳаёт сиймонгиз биз шогирдларнинг қалбида, юрагида доимо сақланади.

*Хайруллаев Хуришиджон Зайниевич,
СамДЧТИ профессори, филология фанлари доктори*

АТОҚЛИ ОЛИМ, МЕҲРИБОН УСТОЗ, КАМТАРИН ИНСОН

Шундай инсонлар бўладики, уларнинг ҳаётдаги ўрни, қилган ишларининг аҳамияти вақт ўтиши билан борган сари кўпроқ намоён бўла бошлайди. Атоқли тилшунос олим, мохир педагог, профессор Неъмат Қаюмович Туринёзов шундай инсонлардан эди.

Н. Турниёзов 1941 йил 5 февралда Пахтачи туманидаги ҳозирги Шамси Назаров номли жамоа хўжалигида зиёли оиласида туғилди. Мактабда ўқиб юрган вақтларидаёқ она тили ва адабиёт, француз тилига қизиқиш билдирди. Бу қизиқиш кейинчалик уни Самарқанд давлат университетининг (ўша пайтда Ўзбек давлат университети) филология факультетига етаклади. Кириш имтиҳонларини аъло баҳолар билан топшириб, француз филологияси бўлими талабаси бўлди.

Ўқиш давомида у факультет ҳаётида фаол иштирок этиш билан бир қаторда, француз тили, умумий тилшунослик назарияларини пухта эгаллашга киришди. Тиришқоқлиги, илм-фанга интилиши билан профессор-ўқитувчилар назарига тушди. Шу боисдан бўлса керак, ўқишни тугаллагач уни факультетда ишга қолишга таклиф этишди. Шундай қилиб, у 1962 йил чет тиллари кафедрасида ўқитувчи лавозимида ишлай бошлади.

Бу ерда у педагогик сирларини ўрганиш билан бир қаторда, фанни ҳам ташлаб қўймади. Устози, Тошкент давлат чет тиллар институти профессори М. Абдураззоқов маслаҳати билан илмий иш мавзусини аниқлаб, диссертацияга назарий жиҳатдан яхши тайёрланиш учун илмий адабиётларни мутоала қилишга киришди, материал йиғди ва ниҳоят 1968 йил диссертация устида жиддий ишлаш мақсадида Тошкент давлат чет тиллар институтининг аспирантурасига ўқишга кирди.

Туну кун тинмай ишлаш ўз натижаларини берди ва Н.Турниёзов 1972 йилда ЎзФА Тил ва адабиёт институтининг ихтисослашган кенгашида «Ўзбек ва француз тилларида

аниқловчи эргаш гаплар» мавзусида диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди ва фан номзоди илмий даражасига эришди.

Самарқандга қайтгач, университетнинг француз ва латин тиллари кафедрасининг мудири лавозимида фаолият кўрсата бошлади. Бу ерда у ўзини яхши ташкилотчи сифатида ҳам кўрсатди. Шунинг учун университет раҳбарияти уни 1978 йилда чет тиллар факультетининг декани лавозимига муносиб топди. 1984 йилда «За отличные успехи в работе» кўкрак нишони билан тақдирланиши унинг бу ишончни тўлиқ оқлаганидан далолат беради.

Н. Турниёзов кафеда мудири ҳамда факультет декани лавозимида ҳам иши жуда кўплигига қарамай фан билан шуғулланди. Жаҳон тилшуносларининг ишларини тинмай ўқиди, назарий билимларини ошириб борди, халқаро илмий конференцияларда иштирок этди, ўз даврининг кўзга кўринган олимлари билан суҳбатда бўлди. Тил ва нутқ тизимлари, жамиятдаги коммуникация муаммоларини чуқур ўрганди. Домланинг ўзи айтишича, унга россиялик атоқли тилшунос олим, лингвист-турколог, профессор, СССР ФА муҳбир аъзоси, Россия Фанлар академиясининг Тилшунослик институти урал-олтой тиллари бўлими мудири, «Советская тюркология» журнали ҳамда «Туркий тилларнинг тарихий-киёсий грамматикаси» кўп томли нашрининг бош муҳаррири Эдгем Рахимович Тенишевнинг таъсири катта бўлди. Н.Турниёзов ўз устози тавсияси билан СССР Фанлар Академиясининг Тилшунослик институтига докторантурага ўқишга кирди. Бу ерда у Н.А.Баскаков, С.Н.Иванов, И.Х.Ахмадов, А.А.Коклянова сингари йирик тилшунослар билан ҳамсуҳбат бўлди ва ниҳоят 1986 йил шу институтда «Ҳозирги ўзбек тилида гипотактик қурилмаларнинг синтактик деривацияси» мавзусида докторлик диссертациясини ҳимоя қилди.

Самарқандга қайтгач, домла СамДУ, Самарқанд давлат чет тиллари институтида кафедра мудири лавозимларида ишлади, бу ерда у тилшунослик муаммоларига бағишланган кўплаб халқаро конференцияларни ташкил этди, илмий мақолалар, дарсликлар, ўқув қўлланмалар, монографиялар чоп этди, номзодлик, докторлик ишларига раҳбарлик қилди, шогирдлар тайёрлади.

Н.Турниёзов тилшунослик фанида ўз мактаби – Самарқанд дериватология мактабини яратганлиги аллақачон эътироф этилган. Бу ўринда унинг “Очерки по сопоставительному изучению сложноподчиненного предложения во французском и узбекском языках» (Самарқанд: СамДУ нашри, 1980), «Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчиненного предложения в современном узбекском языке» (Тошкент: Ўқитувчи, 1985), «Назарий грамматикадан очерклар» (Самарқанд, СамДЧТИ, 1998), «Матн лингвистикаси» (Самарқанд, 2004), “Функционал синтаксиста кириш” (Тошкент: Фан, 2003. Ҳаммуаллиф К.Турниёзова), “Тилшуносликка кириш” (Самарқанд: СамДЧТИ, 2006), “Ўзбек тили” (Самарқанд: 2007, ҳаммуаллиф А.Раҳимов), “Структур синтаксис асослари” (Тошкент: Фан, 2009, ҳаммуаллифлар К.Турниёзова, Х.Хайруллаев) каби асарлари алоҳида аҳамият касб этади.

Айниқса домланинг 1998 йилда чоп этилган “Назарий грамматикадан очерклар” рисоласини алоҳида кўрсатиб ўтиш лозим. Рисоланинг назарий жиҳатдан қиммати шундаки, унда ўзбек тили материали асосида дериватологик тадқиқотларнинг ривожланиш истикболлари кўрсатиб ўтилган. Мазкур рисола Самарқанд дериватологик мактабининг вужудга келиши учун қўйилган пойдевор дейиш мумкин. Ҳозирги кунга келиб айнан ана шу рисолада кўзда тутилган илмий режалар бирин-кетин докторлик, номзодлик диссертациялари сифатида рўёбга чиқмоқда.

Домла фан фидойиси бўлиш билан бир қаторда, камтарин инсон, меҳрибон устоз ҳам эди. Унинг шогирдлари ҳозир нафақат республикамиз, балки Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари илм даргоҳларида ҳам фаолият кўрсатишмоқда ва домла бошлаб берган ишларни давом эттиришмоқда.

O‘ZBEK DERIVATOLOGIYASINING ASOSCHISI

Seminar Samarqandda bo‘lishidan xabar topgach, behad quvondim. Nabiralarimni ham yonimga olib yo‘lga ravona bo‘ldim. Seminar boshlandi hamki, domlaga hamon yetib kelmadilar. Vaholanki, domla bunday ilm majlislariga doim qatnashar edi. Seminardan so‘ng domlani ziyoratiga shoshdim. Bu zabardast olim bilan nabiralarimni tashishtirgim, domla bilan suhbat qurgim keldi. Domlani fayzli uyiga yetib keldik. Ayoli ham ziyoli, xushmuomala ayol ekan. Bizni iliq kutib oldilar. Borsam, ne ko‘z bilan ko‘rayki, yiqilib tushib oyog‘i lat yegach, yurishga qiynalib qolibdilar. Suhbatimiz boshidan oxirigacha ilm-fan haqida bo‘ldi. Domla bu mavzuda gaplashishni yoqtirar edilar. Sog‘ligida muammo, zirqirab og‘riyotgan oyoq ham esidan chiqib, seminar haqidagi savollarga ko‘mib yubordilar. Qarab turib, bu fidoiy olimga havas bilan boqdim. O‘z kasbiga sodiqlikning jonli namunasi. Eh, o‘zbek tilshunosligi jonkuyar olimingni ko‘r. Domla gapiryapti-yu, hayolim uzoqlarga ketib qoldi.

Domlani onalari Oybuvi ayaning orzulari amalga oshdi. Oy yorug‘ida qilgan duolari bo‘y ko‘rsatdi. Farzandi yetuk olim, zabardast tilshunos. Bir ona uchun bundan ortiq baxt bormi? Farzandining ko‘ksida bir nechta ko‘krak nishonlari, faxriy unvonlar.

Turniyozov domlani bugun barcha farzandlari ilm yo‘lida dadil qadam bosmoqdalar. Besh farzand besh xil olam, besh xil muvaffaqiyat. Hayotda o‘z o‘rnini topishida otasining yo‘l-yo‘riqlariga suyangan farzandlar hech ham kam bo‘lmaydi. Ot o‘rnini toy bosar...

Domla yoqqan ilm chirog‘i hali uzoq yillar o‘chmaydi. O‘z nuri bilan atrofni nurafshon etayotganini nabiralar muvaffaqiyatidan ham ko‘rishimiz mumkin. Bugun ulardan bobosi haqida so‘ralsa, ko‘zi to‘la yosh bilan ayni damda faxr bilan so‘zlay boshlaydi. Bir inson butun umri davomida qancha yaxshilik urug‘i eksa, ilm-fanga manfaatli ilmiy izlanishlar olib kirishi mumkin bo‘lsa, Turniyozov domla buni ortig‘i bilan uddaladilar. Nabiralarining qalbidan ham o‘rin olishga ulgurgan “qahramon” bobo timsolini chizib keta oldilar. Buning isboti o‘laroq uchinchi avlodga qaraymiz. Olimlikka tomon bosilayotgan qadamlar e‘tiborni tortadi. 16 nabira, har birining qalbi ilmga tashna. Ular ham ulgayib, oliy dargohlarni bitirib, bobolarining izifan ketib ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanmoqdalar.

Olimlikning mas‘uliyati katta, yuki og‘ir bo‘ladi. Qator-qator shogirdlarga ilm sirlarini o‘rgatgan, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlaganligining yaqqol namunasi o‘laroq shogirdlarini misol qilish mumkin. O‘ndan ortiq nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalar domlani rahbarligida himoya qilingan. Derivatologiyaga bag‘ishlab respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlar ilm-fan uchun qilingan mehnatlarning bir ko‘rinishi deb aytishimiz mumkin.

Toshkentda domla bilan uchrashib qoldik. Qizim Shahnoza Aliyeva bilan domla bilan mazmunli suhbat bo‘ldi. Qizim bilan tilshunoslikka oid mavzularda jo‘shib, zavqlanib gaplashdi. Qizim domladan derivatsiyaga oid kitob so‘radi. Domla kitobni topib qo‘yishni va‘da berdi. Bir qancha muddat o‘tganidan so‘ng seminarda uchrashadigan bo‘ldik. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, domla seminariga qizim so‘ragan kitobni qo‘lida ushlagancha kirib kelar edi. Ilmga chanqoq yoshlarni qo‘llab-quvvatlashi, maslahatlar berishini asl fidoiylik, vatanparvarlik deb atash mumkin desam adashmagan bo‘laman.

A. Туробов,
СамДЧТИ профессори

ТИЛ ИЛМИНИ “БУЛБУЛ ҚИЛИБ САЙРАТГАН” ОЛИМ

(ёхуд устозга таъзим ўрнида портретга чизгилар)

Орамизда шундай одамлар борки, уларнинг тақдири ўз замонасини, умргузаронлик қилган даврини кўзгудек акс эттириб туради. Ақл қаламини чархлаб, эҳтиросни жиловлаб,

бир қадам ортга чекинган ҳолда чуқурроқ назар солсангиз, бундай инсонларнинг бутун борлиғи, ташқи кўриниши-ю маънавий оламида жамият, қолаверса бутун бир олам акс этади.

Филология фанлари доктори, профессор Неъмат Қаюмович Турниёзов шундай инсонлардан бири эди.

Самарқанд давлат чет тиллар институтида Неъмат Қаюмович Турниёзов билан бирга ишлаш бахти менга насиб қилди. Устозим профессор Бозорбой Ўринбоевдан кейин, иккинчи устозим Неъмат Қаюмович Турниёзов умумий ва амалий тилшунослик кафедрасига мудир этиб сайланди. Ниҳоятда камтар, тақвадор, олим одам. Олим бўлма, одам бўл дейди, доно халқимиз. Неъмат Қаюмович Турниёзов том маънода ҳам олим, ҳам одам. У киши ҳамма билан бирдек жилмайиб кўришади. Иложи бўлса, кучоқ очиб кўришсам, дейди. Қанчалик ўзбекона фазилат. Оқ ва қорани кескин фарқлайди. Француз, рус тилларининг яхши билимдони. Самарқанд дериватология мактабининг асосчиси. Монография, ўқув, ўқув-услубий ва илмий мақолаларининг сони жами 200 тадан ошиши сермахсул олим эканлигидан далолатдир. Комил ишонч билан айтаманки, домланинг бу ишларини ўқиган ва англай олган ҳар қандай тилшунос, қайта-қайта таъзим бажо қилишига, менда заррача шубҳа йўқ. Кўплаб шогирдлар етиштирган, уларни эл ардоғи даражасига чиқарган, хокисор, донишманд, устоз Неъмат Қаюмович Турниёзов ҳаёт бўлганларида шу йил муборак 85 ёшни қаршилардилар.

Ўзбек тилшунослигида устоз Неъмат Қаюмович Турниёзов номи билан бевосита боғлиқ бўлган: *деривация, дериват, операнд* каби жуда кўплаб тушунчалар борлиги, тилшунослар оламида ҳеч кимга сир эмас. Домланинг илмий услуби ниҳоятда тиниқ, содда ва тушунарли тилда ёзилиши билан характерланиб, ишларида илмий услубга тегишли бўлган *зеро, зотан* каби кириш сўзларнинг ишлатилиши, айтилган назарий фикрлар ўқувчилар учун тушунарли бўлиши учун бадиий адабиётлардан олинадиган мисоллар билан далилланиши, илмий лаборатория апаратининг ўзига хос бетакрорлигидан далолат беради. Қайси мавзуда ёзмасин тушунарли тилда ёзарди. Буларнинг ҳаммаси домланинг тиним билмай самарали меҳнат қилаганлигидан далолатдир. Бу сифат домланинг заҳматқашлигидан бир муждадир. Муқаддас ҳадису шарифларда илм аҳлига берилган бир таъриф бор, мен бу таърифни заҳматқаш, зукко фикрловчи, филология фанлари доктори, профессор Неъмат Қаюмович Турниёзовдек олимларга бергим келади. Мана ўша таъриф: “У дунё саодатини изласанг тоат қил, ибодат қил, бу дунё саодатини изласанг тижорат қил, икки дунё саодатини изласанг илм қил”. Дарҳақиқат, Неъмат Қаюмович Турниёзов ўзининг бутун умрини, онгли фаолиятини илмга бахшида этди, икки дунё саодатини излади ва қайсидир маънода эришди десам муболаға бўлмайди.

Самарқанд дериватология мактабига асос солиш баробарида, 20 дан ортиқ фан номзодлари, фан докторлари етказдилар. Назарий илмий концепсияларга бой, янги – янги монографик тадқиқотлар, илмий мақолалар домла қуввайи ҳофизининг теран фикрлари ҳосиласидир.

Шу ўринда домла яратган дериватология мактаби вакилларининг бажарган ишлари ҳақида тўхталмоқчиман. Ҳозирги тилшуносликда деривация назариясидан сўз бирикмалари, гап, мураккаб синтактик қурилма ва матн каби нутқ бирликларининг шаклланиши муаммоларини ўрганишда кенг фойдаланилмоқда. Инчинун, профессор Неъмат Қаюмович Турниёзов бугунги кунда дериватологик тадқиқотларда истеъмолга киритилиши лозим бўлган терминлар ва дериватология шуғулланиши лозим бўлган вазифаларни аниқ белгилаб берган.

Домланинг ўзи ва шогирдлари дериватология муаммолари устида ишлаб бир неча монографик тадқиқотларни бажарди. Бу соҳада бажарилган куйидаги: Турниёзов Н.К. Синтаксическая деривация гипотаксиса в современном узбекском языке (докт.дис. – М.,1986); Бобоев У.Н. Синтаксическая деривация придаточного предложения времени в современном узбекском языке (в сопоставлении с французским языком) Канд.дис. – Алмата, 1992; Ғаффоров А.А. Ҳозирги ўзбек тилида парселлятив ва иловали қурилмаларнинг

синтактик деривацияси (Номз. дис. – Самарқанд, 1997); Хайруллаев Х.З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати (Номз. дис. Тошкент, 2001), Яхшибоев Ғ.Х. Ҳозирги ўзбек тилида содда гап синтактик деривацияси (Номз. дис. – Самарқанд, 2004); Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси (Номз. дис. – Самарқанд, 2006); Шодиев Ф.Т. Ҳозирги ўзбек тилида бир бўғинли сўзларнинг структур-семантик талқини ва деривацион хусусиятлари (Номз. дис. – Тошкент, 2008); Турниязова Ш.Н. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари (Номз.дис. – Тошкент, 2010); Хайруллаев Х. “Тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабатлари” (DSc. дис. – Тошкент, 2018), Туробов А. “Кичик синтаксис муаммолари”. (DSc. дис. – Самарқанд, 2023), Самандаров Р. “Содда гап синтактик шаклининг апликатив модель доирасида кенгайтиши” (Номз. дис. – Самарқанд, 2019), Шодиев С. “Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси” (Номз. дис. – Самарқанд, 2020) каби кўплаб диссертацион ишлар фикримиз далилидир.

Шунингдек қуйидаги: Турниёзов Н.Қ. Назарий грамматикадан очерклар. – Самарқанд: СамДЧТИ. 1998, Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. – Самарқанд, 2008, Турниёзов Н., Турниёзова К., Хайруллаев Х. Структур синтаксис асослари. – Тошкент, 2009, Каримова Г. Ўзбек тилида грамматикализация ҳодисаси. – Тошкент, Наврўз, 2010, Турниёзов Н., Турниёзов Б., Турниёзова Ш. Ўзбек тили деривацион синтаксиси. – Тошкент, Наврўз. 2011, Раҳимов А.С. Лексик ва семантик деривация муаммолари. – Тошкент, Наврўз, 2012, Туробов А.М. Сўз синтаксиси. – Самарқанд, 2014, Туробов А.М. Кичик синтаксис. – Самарқанд, 2023, Туробов А.М. Сўз грамматикаси. – Самарқанд, 2024 каби ишлар Самарқанд дериватология мактабининг бугунги замонавий ўзбек тилшунослиги тараққиётига кўшган ҳиссаси сифатида қадрлидир.

Мазкур ишлар ўзбек тилшунослиги фанининг узвий бир қисми сифатида фан тараққиётига хизмат қилиб келмоқда.

Шуни ҳам айтиш лозимки, профессор Неъмат Қаюмович Турниёзов номи билан боғлиқ бўлган кўпгина илмий-назарий қарашлар ўзбек тилшунослиги учун том маънода янгилик ҳисобланади, фикримиз далили учун биргина мисол: Кўпчилик тилшунослар лексик деривацияни сўз ясалишининг синоними сифатида талқин этадилар. Лексик деривация сўз ясалишини тақозо этади. Уларнинг асосий тамойиллари муштараклиги домланинг ишларида ўз илмий тасдиғини топди.

Турниёзовлар сулоласининг оила бошлиғи филология фанлари доктори, профессор Неъмат Қаюмович Турниёзов 5 нафар фарзанд – уч ўғил, икки қизнинг отаси, 13 нафар неваранинг суюкли бобоси сифатида самарали меҳнат қилган. Эътиборли жиҳати шундаки, турмуш ўртоқлари филология фанлари номзоди, доцент К.Абдуллаева билан бирга барча азиз фарзандларини ўзлари танлаган, муқаддас касби бўлган, филолог қилиб жамиятга етказдилар. Бу оила том маънода зиёлилар, тилчилар оиласидир. 488 мингдан зиёдрок аҳоли яшайдиган Ўзбекистоннинг энг йирик шаҳарларидан бири Самарқандек азим шаҳарда бундай бахт камдан-кам оилага насиб қилган бўлса, не ажаб. Шулардан иккитаси Б.Турниёзов ва Ш.Турниёзовалар филология фанлари докторлари, профессорлардир. Айни пайтда ҳар иккаласи ҳам муборак оталари изидан бориб деривация масалалари илмий ишлари устида тадқиқот ишларини олиб бормоқдалар.

Энг олий мавқе саналмиш халқ ардоғига эришган, бизнинг қалбимизда ҳамisha барҳаёт устозимизнинг жойлари жаннатдан бўлсин.

*Turniyazova Sh.N.
SamDChTI dotsenti*

DADAM HAQIDA

Olamda inson manfaatiga xizmat qiladigan juda ko‘p qadriyatlar mavjud. Odamlar keng ko‘lamli faoliyati jarayonida ana shu boyliklardan foydalanish bilan birga ularni boyitib,

takomillashtirib boradilar. Dunyoda shunday qadriyat borki, hech kim va hech qachon uni inkor etmasdan doimo foydalanib kelganlar. Bu boyluk inson va jamiyatning mahsuli bo'lmish tildir.

Til odamlar o'zaro aloqa qilishining asosiy vositasi, aniqrog'i, jamiyat rivojini ta'minlashning yagona ijtimoiy vositasidir. Ana shu qadriyatni insonlar hamisha asrab takomillashtirganlar. Tilni takomillashtirishning birdan bir quroli uni tadqiq etish va o'rganish ekan, bu jadhada tilshunos olimning o'rni beqiyos. Til qonuniyatlarini mushohada qilish jarayonida olimning dunyoqarashi, ma'naviy va mafkuraviy qiyofasining o'zgarishi tabiiydir. Zero, tilning tabiatini bilish va undan ta'lim beradigan insonning o'zi til boyluklariga ega bo'lmog'i kerak. Aks holda, til madaniyatini rivojlantirish amri mahol. Tilshunos olimning ijtimoiy vazifasi ana shu qadriyatni o'rganish va o'zgalarni shu asosda tarbiyalash bo'lsa, avvalambor, o'zi unga itoat qilib yashashi kerak.

Dadam, professor Ne'mat Qayumovich Turniyozov ana shunday olimlardan biri edilar. Dadam o'z mutaxassisliklariga chin ma'noda ixlos qo'ygan va bilimlarini shogirdlarga beminnat tortiq etadigan olim edilar. Shu bilan birga, ana shu ijtimoiy va ma'naviy qadriyatning yangi-yangi qirralarini ochib, ularni ilmiy jamoatchilikka to'g'ri etkazar edilar. Bunday darajaga tinimsiz izlanish bilan erishdilar. Dadam ko'p kitob mutolaa qilar edilar. Kutubxonalaridagi javonlar kitoblar bilan liq to'la. U erga tez-tez borib turaman.

Dadamning kutubxonalaridan kitob izlab eski maktublarga duch keldim. Ular papkada, qog'ozi bir oz sarg'aygan qo'lyozmalar bilan birga turgan ekan. Maktublarning aksariyati Moskvadan, ayrimlari Nalchikdan, Arxangelskdan, Yaltadan kelgan edi. Sanalariga qaradim. Mana Tenishev domlaning maktublari. 1982 yil 5 avgust, keyingi maktub 1987 yil yozilgan. Yana Koklyanova, Baskakovlar yozgan maktublar, tabriknomalar. Hammasi 80 - yillarda yozilgan...

Hozir o'sha kutubxonada stol ustida dadamning qo'lyozmalari turibdi. "Sintaktik semantika va matn shakllanishi haqida ayrim mulohazalar". Qo'lyozma ustida ko'zoynak va ruchka... Go'yo bir necha daqiqaga turib ketganlaru, yana kelib ilmiy ijodlarini davom ettiradiganday...

*Буриева Шохсанам
эркин тадқиқотчи*

БОБОМ ҲАҚИДА ХОТИРАЛАРИМ

Ҳаётда кўп нарса унутилади, эсан чиқади. Аммо шундай инсонлар борки, эзгу фазилати, амаллари билан кўпчилик қалбида муҳрланиб қолади. Бобом Турниёзов Неъмат Қаюмович ана шундай инсон эдилар. Бобом умрлари давомида тилшунослик соҳаларда фаолият юритиб, нафақат ўзбек тилшунослигига, балки умумий тилшуносликка ҳам ўз ҳиссалрини қўшган, ватанпарварлиги ва фидойилиги билан жамиятда, оилада, дўстлар қалбида ўчмас из қолдирган олимдирлар.

Эслайман, дарсдан чиқиб, кўпинча олдиларига борар эдим. Бобом Москвада ҳимоя жараёнида кенгаш аъзоларининг саволларига қандай жавоб берганларини, устозлар билан бўлган суҳбатларини гапириб беришни яхши кўрар эдилар. Мен берилиб эшитардим. Ўзбекистоннинг чекка бир қишлоғида таваллуд топган оддий ўзбек йигити Москвадаги Илмий даражалар берувчи илмий кенгашда рус тилида тили толмай шижоат билан жавоб бериши, ўз илмий нуқтаи назарини ҳимоя қилишини эшитиб бир ғурурлансам, мен айнан шу инсоннинг невараси эканлигимдан яна ғурурим бир бор ошар эди.

Баъзан дарсда тушунмаган мавзуларимни бобомдан сўрардим. Эринмай тушунтирар эдилар. Уйларига борсак, бобомни кўпинча кутубхоналаридан топардик. Китобларим менинг бойлигим дердилар. Ёзув столлари устида ҳар доим Ф. Де Соссюрнинг "Труды по языкознанию" деган китоби турарди. "Бу менинг севимли китобларимдан бири. Бундай китобларни ҳозир китоб дўконларидан топиш мушкул" дердилар.

Бобом ҳақиқий илму-фан фидойиси эдилар. Қимматли назарий ва амалий асарлари билан Республикамиз ва унинг сарҳадларидан ташқарида ҳам ўз ўрни ва овозига эга бўлган таниқли романист, туркийшунос, табаррук инсон, ёшларнинг суюкли устози, етакчи маслаҳатчиси, етук ва забардаст олим эдилар. Мен шундай инсоннинг невараси эканлигимдан фаҳрланаман.

II SHO‘BA SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

Hakimov Muhammadxon Xo‘jaxonovich
Farg‘ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori;
Komilova Dilnoza Muhammad qizi
FarDU mustaqil izlanuvchisi

DEYKSIS VA ANAFORA HODISALARI

Annotatsiya. Maqolada deyksis va anafora hodisalari haqida ma‘lumot beriladi. Bu hodisalar badiiy matn orqali tahlil qilinadi va munosabat bildiriladi.

Kalit so‘zlar: deyksis, anaphora, tushuncha, takror, pragmalingsvistika, nutq, parallel, so‘z birikmasi.

Anafora ham deyksisga yaqin hodisalardan biridir. Ilmiy adabiyotlar, shuningdek, soha lug‘atlarida “anafora” termini bilan bog‘liq holda “anaforik so‘z” termini qo‘llanadi. Unga “...oldingi so‘z bildirgan shaxs yoki narsaga, oldingi aytilganga ishora qiluvchi so‘z. *Mana, bu, shu, o‘sha* olmoshlari: *A‘zam bilan Toshkentda ko‘rishgan edim, o‘sha gapirib berdi*”¹ tarzida izoh berilgan. Bu o‘rinda “anaforik so‘z” terminiga berilgan ta‘rif va fikr isboti uchun keltirilgan misol hodisa mohiyatini to‘laqonli ochishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ushbu misol o‘zida deyksisga oid tushunchalarni ham qamrab olgan: misolda keltirilgan *o‘sha* olmoshi birinchi gap tarkibidagi atoqli ot *A‘zamjon* so‘ziga ishora qilish funksiyasini bajarib, bu so‘zning substituti, almashtiruvchisi sifatida qo‘llangan. Shu bois bir qarashda, ta‘rifda anaforik jihat emas, balki deyksisga xos belgilar ko‘proq izohlangandek tuyuladi. Shunday bo‘lsa-da, hodisa deyktik belgilar tushunchasi bilan emas, balki anaforik so‘z termini – takroriylik belgisining izohi sifatida talqin qilinadi. Biroq o‘zbek tilidagi “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da deyksis atamasi bilan bog‘liq hodisalar ta‘rifi deyarli uchramaydi. Buning asosiy sababi pragmalingsvistika va bu sohaga dahldor bo‘lgan tilning deyksis sistemasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 90-yillarida endigina shakllana boshlaganligida² deb baholash mumkin. Xususan, deyksis haqidagi tushunchalar o‘zbek tilshunosligida ilk marotaba professor Sh.Safarovning 2008-yilda nashr etilgan “Pragmalingsvistika” nomli asarida mukammal va to‘liq yoritildi. Bu asarda ikki hodisa o‘rtasidagi farqli jihatlarga alohida e‘tibor qaratiladi. Jumladan, “...deyktik iboralar referent haqida ma‘lumot bersa,” anaforik olmoshlar ushbu voqelikni qayta takrorlaydilar. Ammo bu ikki hodisa o‘rtasidagi farqni ham topmoq lozim: olmosh yoki boshqa ibora matnning ma‘lum qismiga ishora qilganida diskurs deyksisi mavjud, biroq olmosh va matndagi boshqa bir lisoniy belgi bir xil referent bilan bog‘liq bo‘lganida, anafora hodisasi namoyon bo‘ladi³.

“Nutq vaziyati yoki lingvistik kontekstga nisbatan havola, ishora qilish, ularni ko‘rsatish xususiyatlari asosida deyksis va anaforalar ajratiladi”⁴. Bu borada maxsus terminologik lug‘atlarga murojaat qilinganida deyksis ham anafora ham mutlaqo boshqa-boshqa hodisalar sifatida ta‘riflanadi, talqin qilinadi. “Anafora (<.grek. anaphora — yuqoriga chiqarish) parallel tuzilgan nutq parchalari (masalan, misralar) boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat stilistik figura, zid. epifora⁵”. Anafora to‘g‘risidagi xuddi shunday definitsiya lingvoentsklopedik lug‘atida ham beriladi. Xususan, unda ham anafora ritmik yoki sintaktik tuzilishga ega bo‘lgan o‘xshash tovush, so‘zlarni she‘riy misralar yoki nasriy asardagi gaplar boshida takrorlanishiga asoslangan stilistik figura bo‘lib, matnda ifodalilikni kuchaytiruvchi, emotsiya bayon qilishning eng qulay

¹ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи,

² Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Фил.фан.номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати – Тошкент, 1994.

³ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008, 179-бет.

⁴ Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. Основы прагмалингвистики. – Москва: Флинта-Наука, – С. 45.

⁵ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи,

usulidir. Anaforalar publitsistik nutqda ham qo‘llanadi,¹ deya izohlanadi. Professor A. Mamajonov ham “Qo‘shma gap stilistikasi” nomli kitobida anaforalar haqida fikr yuritadi. Anaforalar takrorning bir ko‘rinishi sifatida izohlanadi, stilistik figura sifatida tahlilga tortiladi. Mazkur ishda anaforalar qo‘shma gap turlari hamda superfrazali sintaktik butunliklarda qo‘llanuvchi leksik-morfologik va sintaktik anaforalar tarzida guruhlarga ajratiladi, misra boshidagi leksik-morfologik va sintaktik takrorlar anafora, o‘rtasidagi takrorlar infora va she‘riy satr yakunida takrorlanib keluvchi sintaktik takrorlar epiforalar deb yuritilishi, ularning stilistik usullardan biri² ekanligi ta’kidlanadi.

Bu ishlarda “anafora” stilistik figura sifatida izohlanib, ko‘proq hodisaning poetik imkoniyatlariga alohida urg‘u beriladi. Bizning nazarimizda, bu ta’rifda ham anafora termini va bu hodisaga nisbatan bir tomonlama yondashuv kuzatiladi, anaforalarning takrorga xos stilistik funksiyasi yoritilib, pragmatikaga oid deyktik xususiyati yoki anafolik deysis e’tibordan chetda qoladi. Anafora hodisasiga bunday bir tomonlama ta’rif aksariyat ishlarda kuzatiladi, bu davrga xos izlanishlar mohiyatiga bog‘liq an’anadir, masalan, adabiyotshunoslikka doir ishlarda she‘riy misralar boshida aynan takrorlanuvchi so‘z poetik figura, stilistik tadqiqotlarda bu hodisaga stilistik figura sifatida, matn tilshunosligiga oid ishlarda esa kogerentlikni ifodalovchi vosita deb qarash, pragmalingsvistikaga aloqador izlanishlarda deysis sistemaning elementlari deb izohlash ustuvorlik qiladi va har bir fan bu hodisani o‘z xususiyatidan kelib chiqqan holda izohlaydi. Tadqiqot materiallari ham shunga muvofiq tarzda tanlanadi. Shu o‘rinda lisoniy vositalarning ikki va undan ortiq funksiyalar bajarishi bilan bog‘liq deysislarning an’anaviy tiplari sanalgan shifterlar haqidagi ta’rif esga tushadi. Nazarimizda, har qanday fanda mavjud bo‘lgan hodisalarga beriladigan ta’riflarda bu sistemaga mansub birlik yoki vositalarning barcha xususiyatlari inobatga olinishi lozim, shu ma’noda anafora hodisasiga O.S.Axmanova lug‘atida “...anafora deysisga oid tushuncha bo‘lib, u nutqning barcha elementlarida so‘zning boshida takrorlanuvchi nutq figurasi³” deb ta’rif beriladi va anaforaning fonetik, leksik hamda sintaktik turlari ajratiladi, mazkur izoh boshqa ta’riflarga nisbatan mukammalligi bilan ajralib turadi.

Ilmiy adabiyotlarda anafolik hodisalar deysis sistemasining turdosh yo‘nalishlari sifatida qayd etiladi va bu hodisalarning deyktik xususiyatlari to‘g‘risida quyidagi fikrlar bildiriladi, xususan, matn yoki nutq tarkibidagi so‘zlar, so‘z birikmalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadan iborat bo‘lib, kontekstual ifoda lisoniy elementlaridan birining boshqasiga ishora, havola qilishi anafolik munosabat deb yuritiladi. Anafolik munosabat matn tarkibidagi qismlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sintaktik munosabat bo‘lmaganda yuzaga keladi. *Sen hozircha uchib ketishdan qo‘rqasan. Sening qanotlaring yaralangan* Bu misolda birinchi qism antetsedent, ikkinchi qism esa anafora deb nomlanadi. Xuddi shunday fikr boshqa lug‘atlarda ham beriladi: “*Endi menga yarmini ber, qolganini o‘zingga ol*” jumlasida ham anafolik munosabatning birinchi qismi antetsedent, ikkinchi qismi esa anafora⁴ deb ta’kidlanadi. Bu asarda ta’kidlanishicha, ifodadagi antetsedentsiz anafora garchi sintaktik jihatdan yakunlangan bo‘lsa ham unda fikr to‘liq bo‘lmaydi. Sh.Safarov antetsedent terminiga deyktik asosda ta’rif beradi: “...olmosh va uning antetsedenti (o‘rnini olmosh olayotgan unsur) o‘rtasidagi munosabatni semantika doirasida muhokama qilishga o‘rganib qolganmiz., Chomskiy bunday munosabatni “sintaktik” hodisa deb qaraydi., bu hodisa ongda mavjud bo‘lgan munosabat bilan chegaralanadi, olmosh va uning antetsedenti o‘rtasidagi munosabatning tafakkur jarayonida, ongda shakllanib, keyin lisoniy ifoda topishi⁵” nutqiy muloqotning mantiqi asosi va deyktik mohiyatini belgilaydi. Jumla strukturasi bir qismida antetsedent, ikkinchi qismida anafora hodisasining mavjudligi fikr izchilligini ta’minlaydi. Tilning deyktik sistemasida deysis va anafolik hodisalarining mohiyati ularning izchil talqini orqali namoyon bo‘ladi. K.L.Byuler kontseptsiyasida anafolik munosabat kataforik hodisaga zidlanib, “*Bir narsa aniq: men ketishim kerak*” misoli orqali isbotlanadi.

¹ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С. 32.

² Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990, 16-25-бетлар.

³ Ахманова О.С. Словарь лингвистический терминов. – М.,1969. – С.47.

⁴ Падучева Е.В. Лингвистический энциклопедический словарь стр.32

⁵ Сафаров Ш Семантика Тошкент 2013 «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 195-бет.

Deyksisning har qanday turida “ko‘rsatish, ishora qilish ikki jihati bilan farqlanadi: ko‘rsatish, havola qilish birida lingvistik kontekst doirasida amalga oshirilsa, ikkinchisida esa bu jarayon nutq vaziyatiga nisbatan qo‘llaniladi. Mana shu xususiyatlarga ko‘ra deyksis va anafora hodisalari o‘zaro farqlanadi. K.Byuler o‘zining “Til nazariyasi” kitobida bu ikki hodisani birinchilardan bo‘lib farqlash va ular o‘rtasidagi farqlarni chegaralashga harakat qiladi. Deyksis hodisasi matn, ifoda mazmunida aks etgan nolisoniy borliqqa nisbatan qo‘llaniluvchi kategoriya bo‘lib, u ko‘rsatish maydoni birliklari orqali amalga oshiriladi. Anafora hodisasida ishora qilish kontekstual ko‘rsatish maydoni tushunchasi mavjud bo‘lib, u diskursni semantik bog‘lanishini ta‘minlash uchun xizmat qiladi, lisoniy birliklar o‘zining takror qo‘llanishi orqali ishora qilish, ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradi, faqat bu funktsiyalar diskursni semantik bog‘lanishini ta‘minlovchi kontekstual ko‘rsatish maydoni orqali amalga oshiriladi.”¹ Bunda anafora matnning ichki tuzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi va u anafolik deyksis deb nomlanadi. Anafora hodisasi matn strukturasi yuz berib, so‘zlar va so‘z birikmalari kabi lisoniy ifodalarning o‘zaro munosabatidan iborat bo‘ladi. Bir ifoda tarkibidagi fikr boshqasiga ishora qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanganidek, *men, sen, bu yerda, hozir* kabi maxsus so‘zlar ham anafora ham deyktik elementlar funktsiyasini bajara oladi. Bu ikki hodisa ko‘rsatish, ishora qilish, matn komponentlarini bog‘lash va matn yaxlitligi, butunligini ta‘minlash kabi umumiy xususiyatlari bilan bir paradigmatic qatorga birlashadi. Biroq shuni alohida ta‘kidlash kerakki, har qanday so‘z matnda takror sifatida kelishi mumkin, ayni vaqtda deyksis sistemasiga mansub olmosh va ayrim so‘zlardagi semantik ichi bo‘shlik bo‘yog‘i takrorlarning belgisi sifatida e‘tirof etilmaydi. Tilshunoslikda deyksis hodisasi ham paradigmatic ham sintagmatic planda namoyon bo‘ladi. Aslida mavjud ilmiy adabiyotlarda bu hodisaga nisbatan ko‘proq nutq vaziyati va kontekstual xususiyatlar inobatga olingan holda fikrlar bildiriladi, shuning uchun ham deyktik elementlar sistemasiga mansub birliklar diskursiv xarakterga ega bo‘lgan hodisa deb tushuniladi. Deyktik elementlar ham tilning boshqa lug‘aviy birliklari singari paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday elementlar paradigmatic qatoriga mansub birliklarning o‘xshash belgilari asosida umumiylik va xususiy belgilari bilan o‘zaro farqlanishi deyksisning til va nutqqa xos jihatlari ko‘rsatadi.

E.B.Saveleva², O.A.Artemova³larning ishlari deyksis va anafora hodisalari bilan bog‘liq tushunchalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Tilning kognitiv va kommunikativ funktsiyalari bilan namoyon bo‘luvchi deyksis va anaforalari o‘zining modal hamda referentsial kabi ko‘rsatish belgilari asosida matn yaxlitligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi tilshunoslikda deyksis va anafora xos bir necha funktsiya bajaruvchi lisoniy vositalar bilan bog‘liq muammolar yuzasidan uch xil qarash mavjud. Deyksis va anaforalari haqidagi birinchi qarash tarafdorlari takror uchun ko‘rsatish funksiyasini asos qilib olgan holda anafora deyksis sistemasida shakllangan deb ta‘kilaydilar⁴. Bunday qarash tarafdorlaridan biri E.V.Paduchevadir. Agar deyksislar uchun shifter haqidagi nazariya asos bo‘lib xizmat qilgani nazarda tutilsa, yuqoridagi fikr mantiqan to‘g‘ridir. Bunday qarashning mohiyati K.Byulerning deyktik elementlarning nominativ belgilardan farqlash asosida amalga oshirilgani xususidagi kontseptsiyasidan kelib chiqadi.

Ikkinchi qarash tarafdorlari esa deyksis va anaforalarni farqlash shart emas, ular tabiatan bir xil vazifa bajaradi, bu jihatdan ular identifikatsion xususiyatga egadirlar deb hisblaydilar. Bu hodisalarning yagona farqi deyksisning sub‘ektivligi va anaforaning ob‘ektivligidir, bunday lisoniy birliklarning ayrimlarida an‘anaviy tarzda deyktik elementlarga aloqadorlik sezilib turadi, ularning asosiy farqi kontekstual qo‘llanishida kuzatiladi deb baholaydilar.

Uchinchi qarash tarafdorlari esa deyksis va anaforalarni bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan hodisalar sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, deyksislar nutqiy akt elementlarini

¹ Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. Основы прагмалингвистики. – Москва: Флинта-Наука, – С. 45.

² Савельева Е.Б. Дейксис и анафора: общее и специфическое. // Вестник ИГЛУ, 2012. – С. 181-188.

³ Артемова О.А. Дейксис и анафора как указательные средства языка: универсальное и уникальное. // <http://elib.bsu.by/bitstream/123456789/164664/1/.PDF/> мурожаат санаси: 15.05.2020.

⁴ Савельева Е.Б. Дейксис и анафора: общее и специфическое. // Вестник ИГЛУ, 2012. – С. 184.

ko'rsatishga, anaforalar esa kontekstual elementlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi aksariyat tadqiqotchilar deysis va anaforalarni farqlashda lisoniy materiallarning aspektual jihatiga e'tibor qaratadilar. Bunga ko'ra nutqiy muloqot jarayonida so'zlovchi deysis makonni muntazam ravishda *men, sen, hozir va bu erda* kabi pragmatik elementlar bilan to'ldirib boradi. Anafolik jarayonda esa so'zlovchi matnda avval eslatilgan va nazarda tutilgan elementlarga tinglovchi e'tiborini qaratadi, asosiy urg'u takror orqali amalga oshiriladi. E.M.Volfning ta'kidlashicha, deysis va anaforalarning o'ziga xos umumiy jihati har ikkalasida ham ko'rsatish funktsiyalarining mavjudligidir, bu hodisalarning xususiy belgilari referentsiya nazariyasi asosida yana ham aniqroq ko'rinadi. Bu ob'ektni ko'rsatish va ularni lokallashuvida ko'zga tashlanadi. Deysis hodisasida deysis element va uning ko'rsatish referenti nazarda tutiladi. Anafora hodisasida esa matndagi gap bo'laklariga bog'liq bo'lmagan oldindan ma'lum antedetsent o'rtasidagi anafolik ko'rsatish hisobga olinadi. Bu jarayonda manba-referent, referent-manba munosabati nazarda tutiladi. A.A.Kibrikning ta'kidlashicha, anafora matn tarkibidagi aktuallashayotgan axborotga ishora qiladi, deysisda esa axborotning aktualligi nazarda tutilmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shu vaqtgacha deysis va anaforalarga xos xususiyatlar, farqlar qat'iy chegaralanmagan. Anafora jarayonidagi ekplisit kontekst deysis ifodalanishdagi bayon qilinmagan yoki tasavvurdagi kontekstga muvofiq keladi. Bundan tashqari aynan bir lisoniy birlik bir vaqtning o'zida ham deysis funktsiya va anafora vazifasini bajara oladi.

Yuqorida anafora, anafolik so'z va anafolik munosabat masalalariga bag'ishlangan maxsus lug'at hamda adabiyotlarda ularga berilgan ta'riflar mohiyati deysis birliklarga muvofiq keladi. Deysis va anafora hodisalari o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlarni o'rganish, ularning chegaralarini ajratish va ilmiy asoslash deysis nazariyaning mukammallashuviga yordam beradi. Bu esa pragmatika sistemasiga kiruvchi deysis maydoni strukturasi turdosh va yaqin bo'lgan hodisalar paradigmatic qatorining yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. . Ҳожиёв А Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи,
2. Ҳақимов М Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари.Фил.фан.номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати – Тошкент, 1994.
3. Сафаров Ш Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008, 179-бет.
4. Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. Основы прагмалингвистики. – Москва: Флинта-Наука, – С. 45.
5. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С. 32.
6. Мамажонов А Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990, 16-25-бетлар.
7. Ахманова О.С. Словарь лингвистический терминов. – М.,1969. – С.47.
8. Падучева Е.В Лингвистический энциклопедический словарь стр.32
9. Савельева Е.Б. Дейксис и анафора: общее и специфическое. // Вестник ИГЛУ, 2012. – С. 181-188.
10. Артемова О.А. Дейксис и анафора как указательные средства языка: универсальное и уникальное. // <http://elib.bsu.by/bitstream/123456789/164664/1/.PDF//> мурожаат санаси: 15.05.2020.
11. Ю.Д.Апресян Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира // Семиотика и информатика. – М. : Языки русской культуры, 1986. – Вып. 28. – С. 5–32.
12. Н.Д. Арутюнова Лингвистические проблемы референции // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Радуга, 1982. – С. 5–40.
13. К.Бюлер Теория языка. Репрезентативная функция языка – М.: Прогресс, 2000. – 528 с.
14. Е.М.Вольф Грамматика и семантика местоимений – М.: Наука, 1974. – 222 с.

15. А.А.Кибрик Об анафоре, дейксисе, и их соотношении // Разработка и применение лингвистических процессоров – Новосибирск: ВЦ СО АН СССР, 1983. –С. 107–129.
16. С.Н.Курбакова Языковой дейксис в речевой коммуникации (основы интерактивной теории языко-вого дейксиса): автореф. дис. ... д-ра фи-лол. наук : 10.02.19 / С.Н. Курбакова. – М., 2009. – 49 с.
17. Е.В.Падучева Семантические исследования (Се-мантика времени и вида в русском языке; Семан-тика нарратива) – М.: Языки русской культуры, 1996. –464 с.

*Bobokalonov Ramazon Rajabovich,
Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori*

NEYROPSIXOLINGVISTIKA - ZAMONAVIY FANLARDAN BIRI

Annotatsiya : Maqolada neyrofanlarning o‘zaro aloqadorligi, neyropsixolingvistika tarmog‘i, neyropsixologiya va neyrolingvistika yuzasidan ilmiy-nazariy mushohada yuritilgan. Neyropsixolingvistikaning inson tafakkuri, nerv tizimi, bosh miya faoliyatidagi ahamiyati munozaraga tortilgan. Lisoniy shaxsning ruhiy holati va nutq muammolari, nutqning avtomatlashishi, barqaror turmush tarzini ongli ravishda boshqarishda miya faoliyatining rentabli ishlashi kabi masalalariga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar : neyropsixolingvistika, neyropsixologiya, neyrolingvistika, neyrofan, inson tafakkuri, nerv tizimi, bosh miya, lingvistik shaxs, tafakkur, gipnoz.

"Neyropsixolingvistika" fani inson nutqini shakllantirish jarayonlarini, lingvistik shaxs ruhiy holatining keng ko‘lamli tarkibiy-funksional masalalarini, nutq bilan birga miya faoliyatida kommunikativ signallarni kodlash va dekodlash mexanizmlarini fanlararo bog‘liqlikda o‘rganadi. Bu fan inson nutq faoliyatining buzilishlarini neyropsixologik reabilitatsiya qilishni, shuningdek, miyaning nutq funktsiyasi muammolarining yechim topishiga yordam beradi.

Neyropsixolingvistika XX asr oxirlarida nevrologiya, psixologiya va lingvistika sohalarini qamrab olgan lisoniy shaxs qobiliyati atrofida ilmiy bahs-munozara yurutadigan yangi fanlar qatorida turadigan zamonaviy fanlardan biridir. Neyropsixolingvistika fani ob‘yektida lisoniy shaxsning miya faoliyati, ruhiy holati, ong va tafakkuri turadi. Bu fanning ilmiy-amaliy fan sifatida shakllanishi, bir tomondan, nevrologiya va neyrolingvistika, ikkinchi tomondan, psixologiya va psixolingvistikaning taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Neyropsixolingvistikani mukammal o‘rganish uchun har uchala fan sohiblari - nevrolog, psixolog va lingvistlar darajasida yuqori darajadagi bilim, malaka va kònikmalarga ega bòlish talab etiladi. Lisoniy shaxsning ruhiy holat va nutq muammolari, binobarin bir tarafdin, nevrobiologiya, neyropsixologiya, neyrofiziolgiya, psixologiya, psixoterapiyaga borib taqalsa, ikkinchi tarafdin, bilvosita sotsiolingvistika, kongnitiv lingvistika, lingvokulturologiya, paragmalingvistika va bevosita, nutq madaniyati, personologiya, kommunikologiya, diskursologiya kabi fanlar bilan aloqador bo‘ladi hamda shu fanlar yordamida yechim topadi. Neyropsixolingvistika chegarasini aniqlashda nevrologiya, psixologiya, lingvistika bilan bir qatorda neyropedagogika, psixoterapiya, semiotika, nutq madaniyati, stilistika sohalarining aloqadorligi ham inobatga olinadi.

Inson nutqi, jismoniy va aqliy faoliyati bosh miyaning mahsulidir. Nutq insonning ruhiy va aqliy holatini òzida namoyon etuvchi tabiiy mexanizmdir. Nutqni idrok etish, fikrlash, òylash, gapirish, sòhbatlashish, aqliy faoliyatni boshqarish, axborotni kodlash va dekodlash, yozish, tushunish, maslahat berish, buyruq berish, buyruqni bajarish, sòrab-suristirish, javob qaytarish, mulohaza qilish kabi nutqiy faoliyat jarayonlarining markazida miya mexanizmlarining muhim va shartli vazifalari yotadi. Neyropsixolingvistika nafaqat miyaning lokal shikastlanishlarida nutq jarayonida yuzaga keluvchi òzgarishlarni, balki nutqning hosil bòlishi va nutqiy rivojlanishida miyaning funksional-nevrologik holati, shaxs ruhiyati va qobiliyatining psixologik tamoyillarini,

lisoniy shaxs kamoloti hamda uning til va tafakkurini òzaro aloqadorlikda òrganadi. Shuningdek, nutq madaniyati va inson kamoloti uchun ham xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda lisoniy shaxs, lingvistik shaxs, til shaxsi, lingvistik shaxsiyat tushunchalari kòp òrinlarda bir-birini to'ldiradigan òzaro ma'nodosh terminlar sifatida ishlatilgani kuzatiladi. Biroq bu terminlar òrtasida òziga xos farqiyatlar mavjud. Milliy tilshunoslikda lisoniy shaxs, qiyosiy tilshunoslikda tillar muvozanatida lingvistik shaxs, kognitiv tilshunoslik, lingvopersonologiya, pragmalingvistika va til falsafasida til shaxsi, rus tilshunosligi kesimida esa lingvistik shaxsiyat (языковая личность) tushunchalari farqlanadi va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy asoslab tushuntiriladi.

Inson nutqining avtomatlashishi, barqaror nutqiy hamda ruhiy holatga ega bo'lishi, turmush tarzini ongli ravishda boshqarishida miya faoliyatining rentabli ishlashi muhim va zarurdir. Lisoniy shaxs nutqiy qobiliyatining tògri shakllantirishda bu borada zamonaviy tilshunoslikning neyropsixolingvistika sohasi alohida tadqiqot yònalishiga egadir. Ancha qadimiy ko'zga tashlanadigan fanlar qatorida neyropsixolingvistika fani ham, miyadagi nutq nuqtalari, neyronlarning faoliyati va nutq qobiliyatini tiklashga xizmat qiladi.

Bu fan, dastavval, nevrolingvistika va psixolingvistika tarmoqlarida faoliyat olib borgan nervolog hamda psixiatrlarning ilmiy yondashuvi zaminida shakllandi. Ba'zi tortishuvlar asosida fan muammolari alohida-alohida muhokama qilindi. Neyrolingvistik yondashuvda miyaning tizimli vazifasiga, turli sabablarga kòra miya sikastlanishi oqibatida nutq tizimining buzilishidan kelib chiqadigan afaziya, disleksiya kasalliklariga e'tibor qaratildi. Bosh miyaning funksional òzgarishi sababli inson nutqining tizimli buzulishlari natijasida yuzaga keladigan birlamchi nuqson ta'siridan kelib chiqadigan ikkilamchi nutq buzilishlari : *afaziya* (gapira olmaslik, sòzlash qobiliyatining buzilishi), *autizm* (aqliy qobiliyatlarning sust rivojlanishi), *disgrafiya* (yozma nutq faoliyatining buzilishi), *disleksiya* (nutq buzilishi oqibatida tinglash, gapirish, òqish, yozish, fikrlash va matematik qobiliyatlarni egallashda uchraydigan jiddiy qiyinchiliklar) kabi kasalliklar profilaktikasi, shuningdek, nutq buzilgan funksiyani tiklashga qaratilgan davolash muolajalari va eksperimental jarohlik ishlari yangi bir mustaqil tarmoqning paydo bòlishiga zamin yaratdi. Biroq neyropsixolingvistika sohasi faqat shular bilan chegaralanib qolmasligi fan uchun ayon bo'ldi.

Neyropsixolingvistikada nafaqat miyaning funksional nutqiy buzulish sabablari va nutqni tiklash imkoniyatlari, balki inson kundalik faoliyatida nutqning ahamiyati, sòz orqali ruhiy ta'sir kòrsatish masalalari ham aniqlanadi. Neyropsixolingvistika fani, asosan, afaziyaga qaratilgan bòlsa-da, biroq inson salomatligi, ruhiy holati va nutq sharoitini tògri tanlash hamda nutq qobiliyatini yaxshilash kabi boshqa masalalar bilan ham qiziqadi. Bu fan lisoniy shaxsni aqliy rivojlanishi, jozibali nutqi, nutqiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir qilib, turli xil ruhiy kasalliklarning kelib chiqishning oldini olish, kasalliklarning sabablarini aniqlash, nutq sharoitiga xalaqit beradigan birlamchi va ikkilamchi omillar, shaxsning kamolotga erishishida e'tiborga olinishi zarur bòlgan imkoniyatlar, inson ruhiyatiga ta'sir e'tuvchi sòz va gaplarning nutqiy konfiguratsiyasiga ham ahamiyat qaratadi.

Ilmiy ta'riflarda neyropsixolingvistika inson miyasidagi nerv hujayralarini, neyronlarning nutqdagi sòzlarni hosil qilishdagi vazifasini, bosh miyada nutq buzilishining òziga xosliklarini, nutqning shakllanishi va tushunilishini ta'minlovchi fan sifatida ta'riflanadi. Sònggi paytlarda jahon miqyosida neyropsixolingvistikaga ehtiyoj ortib bormoqda va ilmiy yònalishda tadqiqotlar olib borish jadal shaklanib bormoqda.

Ilmiy ta'riflarda *neyrolingvistika* (lot. neuron – nerv, asab, lingua — til) neyron va lingvistika so'zlarining o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan bo'lib, *psixologiya* fani sohasi sifatida afaziyaning *psixolingvistik* jihatlarini o'rganadi. Neyrolingvistika inson miyasidagi nerv hujayralarini, neyronlarning nutqdagi so'zlarni hosil qilishdagi vazifasini, nutqning shakllanishi va tushunilishini ta'minlovchi bosh miya mexanizmini o'rganuvchi fan sifatida ta'riflanadi. So'nggi paytlarda jahon miqyosida bosh miyasi tuzilishining o'ziga xosliklari bilan aloqador ilmiy yo'nalishlar: neyropsixologiya, neyrolingvistika yoki neyropsixolingvistika, psixolingvistika kabi yo'nalishlar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Neyrolingvistika mustaqil fan sifatida neyrologiya, psixologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga keldi. Neyrolingvistika

lingvistika, psixolingvistika, fiziologiya, neyrofiziologiya, nevrologiya, psixologiya va neyropsixologiya fanlari bilan o‘zaro bog‘langandir [3 ; 4 ; 6 ; 7].

Neyropsixologiyada esa nutq muammolari inson miyasining sistemali funksiyasi sifatida va afaziya esa sistemaning buzilishi sifatida qaraladi. Bundan anglashiladiki, aksariyat holda neyrolingvistika va neyropsixologiya terminlari farqli hisoblansa ham, bu fanlar umumnazariy jihatdan mohiyatan deyarli bir-birini to‘ldiradi. Faqatgina tadqiqot sub’ektida nevrolog va psixiatr turganligi bilan farqlanadi. Biroq, bizningcha, mohiyatan bu fanlar nevrologiya, psixologiya va lingvistika o‘rtasidagi muammolarni oydinlashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun munozarali ilmiy-nazariy yondashuvlarda nevrologiya, psixologiya va lingvistika zaminida neyropsixolingvistika termini kirib kelgan bo‘lib, bu termin ancha qulay hisoblanadi.

Nutqiy buzilishlar faktlariga bo‘lgan qiziqishni Boduen de Kurtune, A.Shleyxer, G. Vernike, V. A. Bogoroditskiy, L.B.Sherba, R.Yakobson, L.R.Zinder kabi olimlarning tadqiqotlarida uchratish mumkin. Neyrolingvistikada nutqiy buzilishlarning neyrofiziologik va lingvistik jihatlari T.Alajuanin, A.Ombredan, M.Dyuran, K.Konrad, K.Breyne, F.Grevel, R.Yusson, Yu. Barbiz, K.Kolmayer, A.Layshner, P.Milnerlar singari olimlarning ishlarida yoritib berilgan. A.R. Luriya esa L.S.Vigotskiy, I.P.Pavlov va P.K.Anoxinlarning ishlariga tayanib tadqiqotlar olib borgan [1 ; 2 ; 3 ; 4 ; 8].

Tarixan, fundamental kashfiyotlar zaminida neyrolingvistika o‘tgan asrning 40-yillarning oxiri va 50-yillarda Edit Krouell Trager, Anri Xeker va Aleksandr Luriya, Karl Vernikke, Pol Brokko va Teador Maynerlarning ilmiy izlanishlarida yaqqol ko‘rina boshlandi. Bu ta‘limotning rivojlanishida mashhur rus neyropsixologi Aleksandr Romanovich Luriya (1902-1977) ning “Neyrolingvistika muammolari” nomli kitobi muhim rol o‘ynadi va shu davrdan boshlab, neyropsixolingvistika tarmogi alohida fan sifatida rivojlandi. Luriya zamonaviy neyropsixologiyaning otasi sifatida tanildi.

Tibbiyot fani doirasida neyrolingvistika nevrologiyaning kognitiv nevrologiya bo‘limiga kiritildi. Dastavval, neyrolingvistikaning asosini afaziya tashkil etdi. Afaziya nutqning sistem buzilishi bo‘lib, bosh miya po‘stlog‘ida joylashgan nutq markazlarining zararlanishi oqibatida paydo bo‘lgan ruhiy holatdir: nutq sistemasidagi muammolar; yoshlar orasida nutq yetishmovchiligi; lagapetlarga ehtiyojning ortishi; alsgeymer kasalligiga moyillik kabilar afaziya jumlasidandir. Bosh miya po‘stlog‘ida psixik jarayonlarning lokalizatsiyasi (to‘xtab qolishi) va inson miyasining funksional assimetriyasi (aloqadorligi) neyrolingvistikani fundamental kashfiyot deb atashga asos bo‘ldi [1 ; 2 ; 5].

Neyrolingvistika nevrologiya, psixologiya, biologiya, fiziologiya, sotsiologiya, san‘at, madaniyat va linguakriminalistika fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unung o‘rganish ob’ekti miyaning fikriy va nutqiy faoliyati, miyaning xotira va hissiyotlar mexanizmi hisoblanadi. Nevrologiyada insonda ikkita miya borligi, bu miya va miyachadan iboratligi qayd etiladi. Miyacha engsa chuqurchasida joylashgan bo‘lib, ta‘na muvozanatini boshqaradi. Miyani ikkiga: o‘ng va chap yarimshar miyaga ajratgan holda o‘rganadi. Miya neyron (hujayra) lardan tashkil topgan bo‘lib, usti akson (oqtolacha)lar bilan qoplangan. Insonning muloqot jarayonini miya boshqaradi va miya faolligi quyidagicha bo‘ladi: miya chap yarimsharida nutq markazlari joylashgan, chap yarimshar so‘z bilan bog‘liq tafakkur operatsiyalarini bajaradi. O‘ng miya har qanday vaziyatni baholaydi va so‘zlarga muhtoj emas, ammo chap miyasiz o‘ng miya hech qanday aniq fikrni so‘z bilan bera olmaydi. O‘ng yarimshar miya – dunyoni so‘zsiz idrok etadi, asosiy vazifani ko‘zlar bajaradi. Har ikki miya faol ishlaganda ambidekslar faollashadi. Shunda nutq buzilishi bilan bog‘liq kasalliklar tezda tuzaladi. Neyrolingvistika fanining muammolari doimiy o‘zgarishda bo‘lib, uning mazmuni, qoidalari, paradigmasi aniq va ravshan emas. Shunga qaramay fanning tadqiqot muammolari doirasi keng. 1861-yilda fransuz anatomi P. Brokko tadqiqotida peshonacha pegri yarim shari shikastlanishini o‘rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, miyaning bu qismi zararlanganda inson gapirish qobiliyatini yo‘qotadi, ammo boshqaning nutqini to‘liq tushunadi. 1874-yilda nemis psixiatri K. Verniki miyaning chakka egri yarim shari shikastlanishini o‘rganadi va bunda inson gapira olishi, ammo boshqaning nutqini tushuna olmasligini aniqlaydi.

Miyaning vazifaviy assimetriyasi: chap yarim shar miya – mantiqiy ratsional tafakkur qilish vazifani bajaradi; o'ng yarimshar miya - obrazli, emotsional tafakkur qilish vazifasini bajaradi. Miyaning vazifaviy assimetriyasiga uzoq davrlar chap yarimsharlar asosiy deb qaralgan. Biroq zamonaviy bilimlar insonlarda nutq zonasi turlicha, u yoki bu yarim sharda joylashish imumkinligini isbotladi.

Neyrolingvistikani yana bir jadal rivojlanayotgan tarmog'i bu neyrolingvistik dasturlashdir. Bu nerv, til va so'zlar yordamida dasturlashni anglatadi. Bugungi kunda gipnozchilar va manipulyatsiya texnikalarini o'rgangan aql-zakovatli kishilar neyrolingvistik dasturlashdan o'z maqsadlarida foydalanib kelishmoqda. Uning yordamida insonga xohlagancha ta'sir ko'rsatib, o'zligini yuqotishda gipnoz texnikasidan foydalanishmoqda. Neyropsixologlar nutqning ikkita alohida turini farq qilishadi. Bu ekspressiv nutq (so'zlash) va impressive nutq (so'zlarni, gaplarni tushunish). Afaziyaning barcha turlarida bu ikki nutq u yoki bu darajada zararlangan bo'ladi. Afaziyaning bir necha turlari bor: birlamchi progressiv, global; eksperssiv, aralash, retseptiv (ravon), anomik [9].

Inson bosh miyasi tarkibiy tuzilishining o'ziga xosliklarini tadqiq etuvchi neyropsixolingvistika tarbiyachilarni ta'lim muammosiga yangicha nazar tashlashga, odatiy tushunchalardan voz kechish va tafakkur turlarini o'rganish asosida yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishga o'z ijodiy hissalarini qo'shishga safarbar etadi.

Bosh miya tuzilishi va tafakkur jarayonlarining o'ziga xosliklari orasidagi aloqa ko'plab tadqiqotchi olimlarining ilmiy izlanishi ob'yektiga aylangan. O'tgan asrning 80-yillarida YU.Lotman neyrofanlar muvaffaqiyatlari asosida semiotik va madaniyatshunoslikka doir tadqiqotlarni amalga oshirgan. U ong turlarining navbati bilan faollashuvi haqidagi g'oyani ilgari surdi. Bu g'oya L.S.Vigotskiy va A.Leontyev, V.V.Lebedinskiy, A.V.Semenovich, YU.M. Mikadze ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topdi. Kognitiv neurologiya bo'yicha rus fundamental maktabi shakllandi [4 ; 6 ; 7].

Neyropsixolingvistika uchun emotsiya, hissiyot va tafakkurning aloqadorligi muhim rol o'ynaydi. Bosh miyaning rivojlanishi ijod erkinligi muhitida jadallashadi va bosim o'tkazish va majburlash sharoitida aksincha so'nadi. Har bir o'quvchining bosh miyasi betakrorlik tamoyiliga ega. U o'zining axborotni qayta ishlash tezligi va hajmi, u yoki bu xotira tizimining ustun kelishi, tafakkur jarayonlarining egiluvchanligi kabilar nuqtai nazaridan individual tavsiflariga egadir. Boshqa kishini boshqarish uchun oldin unga moslashish kerak. Moslashish uchun suhbatdoshning harakatlari (holati, ko'z qarashi, gavgani ushlashi, qo'llarining holati, oyoqlarining holati, nafas olish) ritmiga kirish kerak. Lekin bunda uning kayfiyatiga kira olish eng asosiy ahamiyatga ega. Nafas olish ritmiga moslashish katta natijalar beradi.

Shunday qilib, neyropsixolingvistika hozirgi zamon lingvistikasida ko'p aspektli hodisa sifatida o'rganilmoqda. Unda fanlararo aloqadorlikda quyidagi nazariy masalalar o'rganiladi:

- Neyropsixolingvistika nazariyasi;
- Nutq funksiyasining psixofiziologiyasi;
- Kognitiv psixologiya fanining dolzarb muammolari;
- Ijtimoiy tarmoqlar va tarmoq muloqotining psixolingvistikasi;
- Oliy psixik funktsiya sifatida nutqning neyropsixologiyasi;
- Lingvistik ongni etnopsixolingvistik aspectda o'rganish;
- Inson nutq madaniyatining lingvokreativ qobiliyatini ro'yobga chiqarish;
- Nutqni tahlil qilishning avtomatlashtirilgan usullari;
- Neyropsixolingvistik tadqiqotlarda virtual haqiqat texnologiyalari;
- Badiiy matnlarni psixolingvistik tahlil qilish;
- Lingvistik ta'sir va manipulyatsiya usullari;
- Tana va ko'z harakati orqali nutq aloqasini amalga oshirish;
- Raqamli makonda madaniyatlararo kommunikatsiyalar psixologiyasi;
- Madaniyatlararo aloqalarning germeneytikasi va b.

Neyropsixolingvistika fani shu kunga qadar yuqoridagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarida ikki : *neyrolingvistika* va *neyropsixologiya* tarmoqlarida alohida-alohida o‘rganilgan. Har ikki tarmoq uchun miya faoliyati, nerv tizimi, inson ruhiy holati va nutqiy qobiliyatining o‘zaro aloqadorligi ilmiy tadqiqot ob‘yekti bo‘lib xizmat qilgan. Neyrolingvistika va neyropsixologiya o‘rtasida keskin farqlar deyarli uchramaydi, biroq neyropsixolingvistika bilan bog‘liq muammolar bevosita neyrolingvistika tarkibida ko‘proq o‘rganilgan. Nutqning yuzaga kelishi kundalik muloqotda qisman chap yarim va o‘ng yarim sharda oddiy vaziyatlar, oddiy so‘zlar va sintaktik konstruksiyalarda hosil bo‘ladi. Murakkab abstract mavzular chap yarim sharda faol bo‘ladi. Nutqning qabul qilinishi: birinchi so‘zdan boshlab ikki yarim shar ham ishlay boshlaydi, chap yarimshar til birliklarini qabul qiladi, o‘ng yarim shar tasvir butunligi va obrazlarni idrok etadi. So‘ngra yarimsharlarning ikkisi ham ma‘lumotni birlashtiradi va natijada muqobil voqelikka munosabat bildiriladi.

Bundan anglashiladigan xulosa shuki, tafakkur jarayoni inson ongining yuksak bosqichi hisoblanadi. O‘quvchining tafakkuri intellektual faoliyatning eng murakkab va yuksak shakli sifatida psixologiya va neyrofiziologiyaning tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Neyropsixolog yoki biolog nuqtai nazarida «tafakkur – bu neyronlar guruhining faollashuvidir». Davr shuni ko‘rsatmoqdaki, insoniyatga yangi ta‘lim mafkurasi, yangicha uslubdagi fanlararo aloqadorlik va inson rivojlanishining innovatsion dasturlarini ishlab chiqish zarur. Neyropsixologiya va neyropedagogika fanlari nuqtai nazaridan bir qator hodisalar o‘zining odatiy murakkabliklar, individual kamchiliklar, salbiy va g‘ayritabiiy xususiyatlari maqomidan ajralib, muhim va tipik qonuniyatlar ko‘rinishiga ega bo‘ladi va ularning kelib chiqish mohiyati shaxs xarakterining o‘ziga xosliklariga emas, balki bosh miya fiziologiyasining turli tiplariga tegishli hisoblanadi. Aynan shu holat bir qator neyrofanlar: neyroanotomiya, neyromorfologiya, neyrobiologiya, neyropsixologiya, neyropedagogikaning yutuqlarini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobokalonov R.R. Tibbiyot va neyropsixolingvistika. Monografiya, GlobEdite. Republic of Moldova, Europe printed, 2023. Pages 3-123. ISBN: 978-620-0-64769-6.
2. Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Monografiya, GlobEdite. Republic of Moldova, Europe printed, 2023. Pages 3-149 ISBN: 978-620-0-64878-5.
3. Bobokalonov R.R. Nutqiy hosila, semiotik belgi, diskurs va neyropsixolingvistik holat. Monografiya, GlobEdite. Republic of Moldova, Europe printed, 2023. Pages 3-223. ISBN: 978-620-0-64729-0.
4. Bobokalonov R.R. Нейропсихолінгвістика: мовна особистість і харизматический человек. Теорія, практика і методика. Monografiya, LAP LAMBERT Academic Publishing, Republic of Moldova, Europe printed. 2023. Pages 3-230. ISBN: 978-620-6-15214-9.
5. Бобокалонов Р.Р. Неразривная связь семиотики и нейропсихолінгвістики в обучении иностранных языков, монографія. Lambert Academic Publishing, Chisinau-2068, Moldaviya. p. 138. ISBN: 978-620-4-72926-8.
6. Bobokolonov R. O‘zbekcha-fransuzcha semantik-funksional shakllangan gaplarning differentsiyasi va kommunikativ neyropsixolingvistik tadqiqi. Filol.fan. dokt. dissert. Buxoro, 2022, -3-284 b.
7. Бобокалонов Р.Р. Neyropsixolingvistika: xarizmalı shaxs qobiliyati (Tabassum, tashabbus, motivatsiya, ishonch tuyg‘usi va Barnum effekti). Toshkent-Buxoro, 2024. 135 bet.
8. Кавинкина И.Н. Психолінгвістика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. –Гродно: ГрГУ, 2010. –С. 51
9. Лурия, Александр Романович. Учение об афазии в свете мозговой патологии. — М., 1940.

ИЛОВАЛИ ҚУРИЛМАЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ТЕНГ БОҒЛОВЧИЛАРНИНГ ЎРНИ

Аннотация: Мақолада илова қурилмаларнинг синтактик деривациясини ўрганишда энг аввал уларнинг шаклланиши учун қандай синтактик вазият сабаб бўлиши, илова қурилмаларнинг синтактик шаклланишда турли хил тенг боғловчилар қатнашиши мумкинлиги, лекин бу боғловчиларнинг маъно ва грамматик функциялари бир хил эмаслиги таъкидланиб, бириктирув функциясини бажарувчи боғловчилар билан шаклланувчи илова қурилмаларнинг синтактик деривацияси хусусида фикр билдирилган.

Калит сўзлар: илова қурилма, синтактик деривация, шахсий гапириш услуби, кечиккан нутқ, парцелляция ҳодисаси, нутқ жаёни.

Илова қурилмалар парцеллятив қурилмалардан синтактик майдони (сатҳи) жиҳатидан эмас, балки семантик-грамматик нуқтаи назардан фарқ қилади. Илова қурилмалар билан парцеллятив қурилмалар ўртасидаги энг муҳим фарқлардан бири илова қурилмаларнинг етакчи гапни мазмун жиҳатидан аниқлаши, тўлдириши ёки изоҳлашидир. Шу боис илова қурилмаларнинг бундай сифатларини А.П.Сковородников уларнинг мазмуни негизини ташкил этишини алоҳида таъкидлаган эди.¹ Бунда, албатта, парцелляция ҳодисаси жараёнида бир гапнинг қисмларга парчаланган ҳолда берилиши ва илова қурилмаларнинг маълум бир гапга тиркалган тарзда алоҳида грамматик позицияда келиши ҳисобга олинади.

Бу хилдаги илова қурилмаларнинг синтактик шаклланиши сўзловчининг кечиккан нутқи билан бевосита боғлиқлиги ҳар қачонгидан ҳам кучлироқ бўлади ва улар етакчи гап мазмунига сезиларли даражада қўшимча аниқлик киритади.

Илова қурилмалар таҳлиliga бағишланган илмий ишларнинг аксарият қисмида уларни нутқ жараёнида сўзловчининг онгига кечикиб келган ва шу билан бирга, олдиндан режалаштирилмаган фикр ифодасини бериш учун шаклланган синтактик қурилма тарзида талқин этилади. Бироқ илова қурилманинг бу хилдаги тавсифига айрим тилшунослар эътироз билдирмоқдалар. Масалан, Ю.В.Ванников С.Е.Крючковнинг бу соҳадаги фикр ва мулоҳазаларига қўшилмайди.²

Дарҳақиқат, илова қурилмаларни олдиндан режалаштирилган фикр ифодасининг ижроси учун мўлжалланган дейиш мақсадга мувофиқ эмас. Чунки сўзлашув жараёнида сўзловчи шахс нутқ муҳитининг маълум бир иштирокчисидир. Шунга кўра, у нималар ҳақида сўзлашини олдиндан мўлжаллай олмайди ва нутқ муҳити талабига кўра сўзлайди. Бошқача айтганда, ҳамма нарса нутқ жараёнида туғилади.³ Ҳар бир гап, ҳатто ундаги ҳар бир сўз ҳам контекстдан ажралган ҳолда вужудга келмайди.⁴

Бизнингча, илова қурилмаларни синтактик нуқтаи назардан ўрганишда уларнинг семантик хусусиятларини иккинчи даражали ҳисобламоқ даркор. Бошқача айтганда, синтактик таҳлил уларнинг деривацион хусусиятларини очиб бермоғи лозим. Акс ҳолда, синтактик таҳлил жараёнида илова қурилмаларнинг қайтарзда шаклланишини эмас, балки нима мақсадда шаклланишини ўрганиш билан чегараланиб қоламиз.

Дарҳақиқат, сўзлашув жараёнида нутқ оқимига кирувчи сўзлар ёки турли шаклдаги синтактик қурилмалар олдиндан тайёрланиб қўйилмайди, балки улар шу жараённинг ўзида туғилади.

Илова қурилмалар, боғловчили ёки боғловчисиз шаклланишидан катъи назар кечиккан нутқ ифодасини беради. Бунга эътироз билдириш қийин. Чунки ҳар қандай нутқ муҳити ёки синтактик жараёнда ҳам илова қурилма етакчи гапдан кейин шаклланади.

¹Сковородников А.П. О соотношении понятий «парцелляция» и «присоединение»//Вопросы языкознания, №1, 1978.-С. 122.

² Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. - М.,1979. - С.72.

³ Ўша асар, ўша бет.

⁴ Ўша асар, 73-бет.

Илова қурилмаларнинг синтактик деривациясини ўрганишда энг аввал уларнинг шаклланиши учун қандай синтактик вазият сабаб бўлишига аҳамият бермоқ лозим. Чунки ҳар қандай шакл ҳам маълум бир мазмун ифодасини бериш мақсадида вужудга келади.

Илова қурилмаларнинг синтактик шаклланишида турли хил тенг боғловчилар қатнашиши мумкин. Лекин бу боғловчиларнинг маъно ва грамматик функциялари бир хил эмас. Масалан, уларнинг айримлари бириктирув функциясини бажарса, айримлари зидлов функциясини бажаради. Шунга кўра, бириктирув функциясини бажарувчи боғловчилар билан шаклланувчи илова қурилмаларнинг синтактик деривацияси хусусида фикр билдирамиз.

Илова қурилмаларнинг синтактик деривациясининг вужудга келишида ҳам боғловчиси иштирок этади. Бунда у илова қурилманинг сўнгида қўлланилади:

Назиржонов биринчи кўришдаёқ, унга ошиқ бўлиб қолганини изҳор этди. Аёл ҳам (Ш.Тошматов. Ишқ янгиланди, 113).

Ҳар ким дунёни ўз кўзи билан кўриб, ўз қалби билан хис қилади. Гўзалликни ҳам (Шарқ юлдузи, №6, 1987).

Келтирилган мисолларнинг ҳар иккисиде ҳам илова қурилмаларнинг синтактик шаклланиши ҳам боғловчиси таъсирида бўлмоқда. Шунинг учун мазкур сўзни синтактик деривация воситаси деб атаймиз. Аммо, шуни ҳам айтиш лозимки, бу восита илова қурилманинг синтактик шаклини нутқда фаоллаштириш учун хизмат қилмоқда. Умумий деривация жараёни эса етакчи гап таркибидаги иккинчи бир элемент билан - кесим вазифасидаги сўз билан ҳам бевосита боғлиқдир. Чунки илова қурилма билан етакчи гап бирга олингандагина ҳосила структурани яхлитлигича тасаввур эта оламиз.

Бошқача айтганда, ҳосила структураларнинг ҳар бири икки операнддан ташкил топган бўлиб, улардан бири етакчи гапни ва иккинчиси илова қурилмани тақозо этмоқда.

Илова қурилмаларнинг синтактик шаклланишида ҳам боғловчиси тақрорий ҳолда қўлланилиши ҳам мумкин. Бунда мазкур сўзнинг синтактик функциядан ташқари, экспрессивлик кўрсатувчи белги вазифасини бажаришини ҳам кузатамиз:

Нусратбек тонгда уйғонди... Шамол ҳам ҳали уйқуда, далалар, боғлар ҳам (С.Нуров. Майсаларни аёз урмайди, 117).

Келтирилган мисолда ҳам боғловчиси икки марта, биринчи мартада у услубий мақсадда, иккинчи мартада эса бир йўла икки вазифада, яъни услубий омил ва синтактик деривациянинг морфологик воситаси сифатида қўлланилмоқда. Шунинг учун илова қурилманинг қуйидаги шаклини ташкил этсак, гап таркибида уларнинг иккинчиси қолади, холос. Аммо бу боғловчи энди бир пайтнинг ўзида синтактик деривация воситаси ва экспрессивлик белгисини вужудга келтирувчи морфологик восита вазифаларини ҳам ўзи бажараверади:

Шамол, далалар, боғлар ҳам ҳали уйқуда.

Ҳам боғловчиси иштирокида бериладиган илова қурилмаларнинг синтактик деривацияси, асосан, етакчи гап кесимининг мазмунини қўшимча сифатлар билан тўлдириш, аниқлаш ёки уни алоҳида бўрттириш мақсадида юзага келади. Чунки етакчи гап кесими илова қурилмага семантик асос берувчи туб структуранинг асосий унсури ҳисобланади. Демак, илова қурилма, алоҳида сатҳ эгаси бўлишидан қатъи назар, гапнинг туб структураси жиҳатидан етакчи гапга тобе бўлади.

Илова қурилма етакчи гап билан ва бириктирувчи боғловчиси орқали ҳам муносабатга киришуви мумкин. Бунда мазкур боғловчи илова қурилма синтактик шаклининг аввалида келади:

Бурч тўқайда, хилватда адо этилади. Ва, ниҳоят, изларни йўқотмоқ чораси кўрилмоғи лозим (Ҳ.Ғулом. Машғал, 191).

Шунда Баҳор... кўз қисиб юборди-ю, Ултон ердан бир даражада кўтарилиб тушгандай бўлди. Ва ҳаётга қайтди (Ш.Холмирзаев. Олабужи, 101).

Илова қурилмаларнинг мазкур тури бириктирув боғловчили боғланган қўшма гапга ўхшайди. Агар берилган мисолларда нукталар ўрнига вергул қўйилса, бу гапларни ҳеч

иккиланмасдан боғланган қўшма гаплар жумласига киритиш мумкин. Лекин хабар мазмунини бўрттириш, унинг экспрессивлик хусусиятини ошириш мақсадида муаллиф томонидан ўзига хос услубий йўл танланган ва вергул ўрнига нукта қўйилган, натижада, иккинчи гап давомли оҳанг тинимидан кейин илова қурилма шаклига кирган.

Ва боғловчисининг бу хилда қўлланилиши натижасида жумла маъносининг кучайиши ҳақида ўзбек тилшунослигида айрим фикрлар билдирилган эди. Масалан, бу боғловчининг сўроқ ёки ундов гаплар бошида келиб, гап мазмунини кучайтирувчи восита вазифасида қўлланилиши хусусида Ж.Мухторовнинг номзодлик диссертациясида баъзи бир мулоҳазаларни кузатамиз.¹ Бироқ Г.Абдурахмонов мазкур фикрни инкор этади.²

Бизнингча, Ж.Мухторовнинг бу фикрига қўшилиш мумкин. Аммо муаллиф *ва* боғловчисининг жумла бошида қўлланилиши ҳақида гапирганида шу жумладан олдин келадиган гапнинг маъно жиҳатларини эътиборга олмаган. Бу нарсани диққат марказида тутиш шарт эди, зеро *ва* боғловчиси билан бошланадиган гап семантик ва синтактик нуктаи назардан ўзидан олдин келадиган гап билан бевосита боғлиқ бўлади. Бошқача айтганда, иккинчи гап мазмунига кўра биринчи гапнинг иловаси саналади. Шунинг учун уларнинг ҳар иккисини бир бутун ҳисоблаб, синтактик деривациянинг маҳсули - иловали ҳосила структура деб билмоқ лозим.

Бу хилдаги ҳосила структуралар тузилишига кўра икки операнд қисмдан иборат бўлиб, уларнинг бири етакчи гап вазифасида ва иккинчиси илова қурилма функциясида қўлланилади. Ҳосила қурилманинг умумий синтактик шакли эса, асосан, *ва* боғловчиси таъсирида юзага келади. Айни пайтда етакчи гап кесими, *ҳам* боғловчисидан фарқли равишда, иккинчи даражали деривация воситаси саналади. Чунки иккинчи гап биринчисига семантик жиҳатдан илова бўлиб келади, синтактик салмоғига кўра эса, нисбий мустақилдир. Демак, синтактик деривация бу ўринда мазмун жиҳатдан икки туб структура билан, шаклий нуктаи назардан бўлса *ва* боғловчиси билан боғлиқдир. Бундан ташқари, *ва* боғловчиси услубий функция ҳам бажариб, ҳосила структуранинг умумий мазмунига экспрессивлик бахш этади ва бир йўла деривация воситаси жумласига интонацияни ҳам киритади.

Ва боғловчили илова қурилмаларнинг синтактик шакли йиғик, ёйиқ ва ҳатто қўшма гап шаклида мураккаб бўлиши ҳам мумкин. Аммо бу нарса муҳим аҳамиятга молик эмас. Негаки, улар, шаклий кўринишидан қатъи назар, ҳосила структуранинг нуктадан нуктагача бўлган бир қисми ҳисобланади:

1. Бу - бир тажриба, ёинки, одаий бир машқ албатта. Ва агар чуқурроқ, мулоҳаза қилиб кўрилса, бу - душманнинг қон чикмас ерига урилган пичоқ (Х. Ғулом. Машғал, 130).

2. Баҳор катта, пахмоқ сочиқ олиб тушди. Ва уни Хўжамга отди (Ш.Холмирзаев, Олабўжи, 51).

Шундай қилиб, *ва* боғловчили илова қурилмалар синтактик деривациясининг асосий операторлари боғловчи сўз ва интонация ҳисобланса, етакчи гап кесими бу жиҳатдан иккинчи даражали мавқега эга бўлади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, илова ва парцеллятив қурилмаларнинг ҳар иккаласи ҳам тил унсурларининг нутқка кўчирилиши ва бундаги ижтимоийлик билан бир қаторда, шахсийлик масаласи билан узвий боғлиқ. Чунки нутқ сўзловчининг шахсий гапириш услуги билан бевосита алоқадордир. Шунинг учун кечиккан нутқ ифодасининг ёки маълум бир фикрнинг парчаларга бўлиб берилиши нутқнинг ҳодисаси саналади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Абдурахмонов Ф.А. Қўшма гап синтаксиси. - Тошкент: Фан, 1964, 236 б.
2. Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. - М., 1979. - 296 с.
3. Мухтиров Ж. Ҳозирги замон ўзбек тилида боғловчилар. - Номзодлик диссертацияси. - Самарқанд, 1953, 14 б.

¹ Мухторов Ж. Ҳозирги замон ўзбек тилида боғловчилар. - Номзодлик диссертацияси. - Самарқанд, 1953, 14 б.

² Абдурахмонов Ф.А. Қўшма гап синтаксиси. - Тошкент, 1964, 71-бет.

Mamirova Dilnoza Shirinboyevna
Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD.

NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy akt mazmuni, lisoniy va nolisoniy xususiyatlari va uning uch bosqichli faoliyat sifatida o'rganilishi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Hamda Keyt Allanning ma'lum bir ichki xususiyatlariga ko'ra kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan tasnifini reklama nutqlari asosida ochib berishga harakat qilindi (O'zbekiston telekanallaridagi reklamalar asosida). Shu bilan birga, reklamalardagi nutqiy aktlarning semantik xususiyatlari, reklama matnida mahsulotning sifati va yaroqliligi - umuman uning tinglovchiga yetkazib berishdagi talablari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, pragmatika, lokutiv, illokutiv, perllokutiv, konstativ, prediktiv, komissiv, aknolejment, direktiv, avtoritativ.

Pragmatikaning XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji nutqiy akt nazariyasining to'liq ko'rinishidagi lingvofalsafiy ta'limot sifatida shakllanishi bilan bog'liqdir.

Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda – gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmuni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir [1;77].

Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmatiklar e'tirof etishadi. Ularning ko'pchiligi nutqiy aktga uch bosqichli faoliyat sifatida qarash tarafdorlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat bajariladi. Ular- *lokutiv, illokutiv va perllokutiv* harakatlardir [1;81]. Ana shunday bo'linish reklamalarda ham o'z aksini topadi. Misol tariqasida ushbu reklamani keltirsak, *Davolovchi Dermazole shampuni qazg'oqning asosiy sababchilaridan biri bo'lgan zamburug'ga ta'sir ko'rsatadi. Chunki qazg'oq kosmetika emas, jiddiy muammodir. Dermazole shampun dorixonalardan so'rang. Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar ham mavjud. Qo'llashdan oldin yo'riqnoma bilan tanishish yoki mutaxassis bilan maslahatlashing.*

Biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir (locutionary act). Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo'lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi [1;81]. Masalan, yuqoridagi reklamadagi "Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar ham mavjud. Qo'llashdan oldin yo'riqnoma bilan tanishish" jumlasini faqatgina yozuvda qolgan va u nutqqa chiqmagan. Shuning uchun bu jumladan lokutsiya yo'q. Ammo mazmundor gaplar bekordan bekorga tuzilavermaydi, ularni tuzishdan va talaffuz etishdan ma'lum bir maqsad ko'zlanadi (bu maqsad til sohibi ongida doimo mavjud). Ushbu maqsadning voqelanishi esa illokutiv akt natijasidir [1;82]. Barcha reklamalar illokutiv akt ostida quriladi. Chunki reklamaning birdan bir maqsadi ham mana shu reklama qilinayotgan tovarni ommalashtirishdir. Masalan, *Kolsemen tarkibida nafaqat kalsiy, balki minerallar ham bo'lib va kollagen hosil bo'lishiga yordam beradi. Kollagen esa bu kuchli suyaklar va jozibador tirnoqlar.* Bu reklamadagi illokutiv akt Kolsemen dorisi tarkibidagi foydali elementlarni sanab o'tish yoki foyda taraflarini gapirib o'tish ostida ma'lum bir maqsad ko'zlangan. Tovarning foydali taraflarini aytib o'tilishi u haqida xabar berish, tovarni xarid qilishga undash va individni o'ziga jalb qilish kabi imkoniyatlar bor.

Har qanday muloqot harakati natijaviy(oxirgi) maqsadni ko'zlab bajarilishi haqida yuqorida gapirildi. Bu maqsadga erishish uchun so'zlovchining nutqi tinglovchiga ta'sir o'tkazmog'i darkor. Nutqiy faoliyatining ta'sir o'tkazish bosqichi perllokutiv akt nomini olgan [1;82]. Masalan, sevimli Sug'diyonangizni 50-sonida o'qing, kelayotgan yilda magnit bo'ronlari ko'p bo'lishi rostmi? Ushbu reklamada shunday mavzu ko'ndalang qo'yilganki, bu iste'molchini o'ziga jalb qilmay qo'ymaydi. Negaki bunda hozirgi kun bilan bo'lgan dolzarb muammo ko'zda tutilgan. Shuningdek, reklamani bugungi kun bilan bog'lash perllokutiv nutq aktini kuchaytirib beradi.

Bundan tashqari reklamalardagi ma'lum bir belgilarga urg'u berish, maxsus shartli belgilar yaratish iste'molchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi. *Oyijon, qo'llaringiz toliqib qolmayaptimi? Yo'q menda bunga qarshi sariq Dolgit krem bor.* Bu reklamada aynan dorining sariq

rangiga e'tibor qaratilgan. Buning sababi aynan xaridor uning ismini yodida saqlab qola olmasa ham rangi orqali eslab qolib, uni dorixonalardan osongina topa oladi. Aynan so'zlovchining maqsadi ham tinglovchiga mana shunday ta'sir o'tkazishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlarga ko'ra nutqiy aktlarni olimlar turli guruhlariga bo'lishgan. **Masalan, O.Ostin, J. Serl, M. Baxting, Sh. Balli, K. Byuller, E. Benvenist va boshqalar[3].**

Xuddi shunday kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan tasniflardan birini Keyt Allanning "Lisoniy ma'no" (Linguistic Meaning) [2;75] kitobida uchratish mumkin. Muallif o'z paytida K. Bax va R. Harneshlar taklif qilgan tasnifga tayanib (Bach, Harnesh 2000), ikki asosiy sinfni, ya'ni shaxslari harakatlar (interpersonal acts) va deklarativ harakatlar (declaratory acts) sinflarini farqlash lozimligini uqtiradi. Tahlilning keyingi bosqichlarida esa bu sinflar tarkibida guruhlar ajratiladi [2;192-203]. Natijada birinchi sinfdagi (shaxslararo faoliyat aktlari) konstativ (tasdiq, darak berish), prediktiv (taxmin, bashorat qilish), komissiv (va'da, taklif qilmoq), aknoejment (tabrik qilmoq, takalluf, ehtirom kabilar), direktiv (iltimos, savol, buyruq, ta'qib kabilar), avtoritativlar (ijozat bermoq, maslahat bermoq) guruhlari farqlanadi. [1;92]. Bu sinflarni reklamalar misolida ko'rib chiqamiz.

1. Konstativ (tasdiq, darak berish). *Anzibel tomoq va og'iz bo'shlig'ining yuqumli kasalliklarida. Anzibel dorixonalaridan so'rang.* Ushbu reklamada tovarning foydasi haqida xabar berib qolmasdan, unga qanday murojaat qilish yo'lini ham aytib o'tilgan.

2. Prediktiv (taxmin, bashorat qilish). *Click up ilovasida bir million so'mlik yutuqli o'yin o'ynalmogda. Click up ilovasi orqali kartadan kartaga pul o'tkazing va aksiya ishtirokchisiga aylaning.* Reklamadan ko'zlangan maqsad, albatta, avvalo ilovaning ommalashishi bo'lsa, keyingi bosqich esa bu ilovadan foydalanish orqali iste'molchi o'z omadini sinab ko'rishi hisoblanadi.

3. Komissiv (va'da, taklif qilmoq) [4;338]. *Og'riq bezovta qilyaptimi? Forsel express, og'riqli dunyoga sizning expressingiz.* Bunda so'zlovchi o'z mahsulotini taklif qilish bilan cheklanib qolmasdan, uning og'riqqa qarshi eng yaxshi vosita ekanligiga va'da beryapti.

4. Aknoejment (tabrik qilmoq, takalluf, ehtirom kabilar). *Endi esa tushlik vaqti, lekin unutmaylik qo'llaringizda har kuni ko'plab mikrobo'ladi. Keling super qahramonlarga aylanamiz, ulardan xalos bo'lamiz. Suyuq Safeguardni bosing, qalin ko'pigi bilan yaxshilab ko'pirtiring va mikroblarni yuvib yo'qoting. Missiya bajarildi. Ajoyib, super qahramonlar endi tushlikka tayyorsiz. Safeguard mikroblarga qarshi 110 martagacha yuvish.* Yuqorida keltirilgan reklamada shu ko'rinib turibdiki, dastlab ogohlantirish, so'ngra ko'rsatma va natijadan mamnunlik yuzaga kelgan. Bu reklama orqali so'zlovchi ko'proq bolalarni o'ziga jalb qilishni ko'zlangan, shu bilan birga mahsulotning sifati va foydasiga ta'rif ham chetda qolib ketmagan.

5. Direktiv (iltimos, savol, buyruq, ta'qib kabilar). *Savdolashing. Media Parkda savdolashing va texnikalarni arzon narxda sotib oling.* Bu reklamaning tuzilish jihati buyruq formada bo'lsa ham, semantik jihatdan buyruqni emas, aksincha, taklifni bildiriyapti.

6. Avtoritativlar (ijozat bermoq, maslahat bermoq). *Nima uchun Sof Yogurt? Chunki u konservantlarsiz. Shunaqa sofki, uni muzlatgichda saqlash kerak, hamda u meva bo'laklari bilan. Tatib ko'r. U mazali va sof. Laktel Sof Yogurti oilamizning sevimli yogurti.* Reklamadagi nutqiy akt xususiyati maslahat va taklifdan iborat. Bunda mahsulotning individ uchun foydali va tabiiy ekanligi ochilib berilgan. Umumiy jihatidan olib qaraydigan bo'lsak, barcha reklamalarning ostida iste'molchini mahsulotga nisbatan jalb qilish, unga qiziqtirish, tovarni tanishtirish va sotib olishga undash yotadi.

Reklamalar bundan tashqari mavsumga qarab ham ommalashib boradi. Bahor va yoz fasllarida ko'proq allergiyaga qarshi iste'mol qilinadigan dori reklamalari, salqin ichimliklar, muzqaymoq kabi mahsulotlarning reklamalari keng tarqaladi. Misol tariqasida, *"Else tea -salqin choy. Chanqoqdan etar xalos. Else tea mevalar, ta'mi kayfiyatga mos"* reklamasini keltirishimiz mumkin.

Kuz va qish oylarida shamollashga qarshi dorilarining reklama qilish kengroq yo'lga qo'yiladi. Va, albatta, bunga sabab individning talab va xohishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga qo'shimcha qilib reklamalarda fe'llarning ham o'rinli qo'llanishi perlokativ akt xususiyatini oshirib berishda yordam beradi. Reklamalarda ko'proq so'rang, sotib oling, tanlang, taqqoslang, keling fe'llar qo'llaniladi. Bunga sabab qilib tinglovchining e'tiborini tortish va taklif kiritish semalarini aks etganini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, reklamalarning illokutiv akt xususiyatlarida, dastlab, illokutiv maqsad, so'ngra illokutiv maqsadga erish usuli, propositiv mazmun, tayyorgarlik sharoiti, ya'ni iste'molchi ehtiyojlari uchun qulay manbaa, samimiylilik sharoiti (sifati, yaroqliligi, halolligi va shu kabilar) va so'ngida kuchlilik darakajasi (tinglovchiga nutqi orqali yetkazadigan ta'sir) kabi xususiyatlar bo'lishi kerak. Shundagina reklamadan ko'zlangan maqsadning natijasi samaraliroq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov. Sh. Pragmalingvistika.- Toshkent, 2008. -318 b.
2. Keyt Allan. Linguistic Meaning. Methodological guide. - London, 1986. –334 p.
3. Austin, J. L. (1975). *How to do things with words*. Urmson, J. O., Sbisà, Marina. (2nd ed.); Cambridge, Mass.: Harvard University Press. ISBN 978-0674411524. OCLC 181131; Bach, Kent. "Speech Acts." *Speech Acts*. Routledge Encyclopedia of Philosophy, n.d. Web. 10 Feb. 2014; Searle, J.R., Vandervecken, D.: *Foundations of Illocutionary Logic*. Cambridge University Press: Cambridge 1985.;
4. Xudoyberganova M. She'riyatda matnining pragmatik xususiyatlari. *Innovative Development in Educational Activities*. VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2023. 338-p.

*Zayniddinov Ma'rufjon Farxodjon o'g'li
Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi*

TIL VA NUTQNING TARIXAN SHAKLLANISHI. NUTQIY FAOLIYAT MASALASI XUSUSIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada olimlar tomonidan tilga berilgan ta'rif va tavsiflar biri boshqasini to'ldirsa-da, ular mushtarak fikrlarni ilgari surmayotgandek tasavvurni keltirib chiqarishi, shuningdek, til o'ziga xos semiologik sistema (ya'ni belgilar sistemasi) bo'lib, u kishilik jamiyatida aloqa quroli sifatida xizmat qilishi va F.de Sossyur: "Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir", – degan fikrlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Til, nutq, tilning o'lik tilga aylanishi, makrolingvistika va mikrolingvistika.*

Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo'lib, muhim va birlamchi aloqa vositasi sifatida xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki tilning yakka shaxsga emas, balki jamiyatga xizmat qilishi, jamiyatda rivojlanishi va hatto jamiyatdagi holatga ko'ra yo'q bo'lib ketishi (o'lik tilga aylanishi) uning ana shu xususiyatini dalillaydi. Tilning bunday xususiyatlari mavjud fanlarning ko'pchiligida o'rganilsa-da, ularning masala mohiyatiga yondashuvlari bir xil emasligini alohida e'tiborda tutmoq lozim. Zero, har bir fan o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, masala mohiyatiga o'ziga xos munosabatda bo'lishi isbot talab etmaydi. Tilshunoslik fani, boshqa fanlardan farqli o'laroq, tilni sof lingvistik nuqtayi nazardan o'rganadi. Mazkur jarayonda u o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga asoslanmog'i lozim. Til tafakkurni aks ettirgani bois u falsafa, mantiq, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning o'rganish sohasiga ham daxldordir. Biroq tilshunoslikda yuqoridagi fanlarning yutuqlari ilmiy xulosalaridan ham foydalangan holda masala mohiyatiga lingvistik nuqtayi nazar bilan uzviy munosabatning mavjud bo'lishi masalaning tub mohiyatini ochib beradi. Shunday ekan, til boshqa fanlar uchun ham o'rganish obyekti bo'la olishi mumkinligini va har bir fan o'zining mavzusini belgilab olishini hisobga oladigan bo'lsak, lingvistika ikkiga (makrolingvistika va mikrolingvistikaga) ajratiladi. Tilshunoslik fanining o'rganish obyekti haqida gapirilganda umumiy tilshunoslik fani va "Umumiy tilshunoslik" o'quv kursining biri boshqasidan farqli ekanligini yodda tutmoq lozimdir. Umumiy tilshunoslik fani keng ko'lamlı bo'lib, u tilshunoslikning barcha yutuqlarini o'zida mujassam etadi. "Umumiy tilshunoslik" o'quv kursi esa filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida yuqori kurslarda o'tiladigan va ma'lum o'quv soati asosida muayyan o'quv rejasiga asoslanuvchi o'quv predmetidir. Mazkur o'quv predmeti umumiy tilshunoslik fanining mavzusi, bahs yurituvchi muammolari va masalalari, uning metodlari va metodologiyasi haqida bo'lajak mutaxassislariga ma'lumot beradi. Tilga ilmiy jihatdan munosabat shakllanib, uni ilmiy-nazariy tadqiq etish yo'lga qo'yilganiga 2500 yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa, ana shu muddat ichida tilga juda ko'p ta'riflar berildi. Biroq bu ta'riflarning hech biri tilning barcha xususiyatlarini to'la qamrab ololgan emas. Ularning biri tilning material tomonini izohlab bersa, yana biri uni inson ruhiyatining tarjimoni ekanligi va yana boshqa biri fikr ifodasini beruvchi tovushlar majmui degan xulosalarni beradi. Tilga berilgan ta'rif va tavsiflar biri boshqasini to'ldirsa-da, ular mushtarak fikrlarni ilgari surmayotgandek tasavvurni keltirib chiqaradi. Til o'ziga xos semiologik sistema (ya'ni belgilar sistemasi) bo'lib, u kishilik jamiyatida aloqa quroli sifatida xizmat qiladi. F.de Sossyur: "Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir", – degan edi. Albatta, olimning mazkur fikri hozirgi

kunda tilshunoslikda keng talqin etilayotgan bo'lsa ham, u belgilar "Til nima?" degan savolga javob bo'la olmaydi. Chunki ushbu ta'rif tilning material jihati nimadan iboratligini izohlab bermoqda, xolos.

Aksariyat darslik va qo'llanmalarda tilni eng muhim va asosiy aloqa quroli sifatida ta'riflash kuzatiladi. Ammo mazkur ta'rif ham uning to'la izohini bera olmasligi ko'zga tashlanadi. Zero, bu ta'rifdan "Til nima?", – degan savolga emas, balki "Tilning jamiyatdagi vazifasi nima?", – degan savolga javob olishimiz mumkin. Shu bois bo'lsa kerak, tilning paydo bo'lishi, uning rivojlanishi va ishlash qonuniyatlari borasida fikr yuritilganda insonning paydo bo'lishi, jamiyatning rivoji, mehnatning roli, inson tafakkurining ishtiroki to'g'ri xulosa chiqarishga asos bo'lishi alohida ta'kidlanadi.

V. fon Gumboldt tilshunoslik fanining muammolarini, vazifalarini belgilab berishga harakat qilganida uni tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, til murakkab va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat hamda xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir. Shuning uchun ham tilni ilmiy o'rganishda, uning asl mohiyatini anglab yetishda qarama-qarshilik metodini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Tilshunoslik fani tarixida o'ziga xos muhim o'rin tutgan "Yosh grammatikachilar" maktabi vakillari tilning tarixiy hodisa ekanligini uning eng asosiy xususiyati deb belgilaydilar va uni, eng avval, tarixiy jihatdan o'rganish lozim deb hisoblaydilar. Ularning nazariyalariga ko'ra, til uzoq tarixiy jarayonning mahsulidir. "Yosh grammatikachilar" maktabining yirik vakillaridan bo'lgan G.Paulning fikriga ko'ra, tilshunoslik fani bilan til tarixi fani mushtarakdir. Shu bois "Yosh grammatikachilar" til va tafakkur, tillarning grammatik strukturasi, tilning ijtimoiy o'ziga xosligi singari masalalar doirasida fikr yuritmadilar. Ularning qarashlari o'z davrida e'tiborli bo'lgan psixologik nazariyalarning ta'sirida bo'ldi va ana shu yondashuv asosida barcha masalalarni hal etishga harakat qildilar. F. de Sossyur tilning murakkab va ichki ziddiyatlarga boy, ko'p qirrali hodisa ekanligini asoslab berdi. Uning fikriga ko'ra, ichki tuzilishi jihatidan til sof belgilar sistemasidir. F. de Sossyurning ta'kidlashicha, til va nutq biri ikkinchisiga uzviy bog'liq, ammo shunday bo'lsa ham, ular mushtarak hodisalar emasdir. Til uzoq tarixiy jarayonda shakllangan, millat yoki biror bir etnik guruhga daxldorlik xususiyatiga ega ijtimoiy hodisa bo'lsa, nutq til birliklarining inson omili ishtirokida nutqiy faoliyat orqali funktsionallik kasb etishi bilan bog'liq holda yuzaga keluvchi, individuallik xususiyatiga ega ijtimoiy hodisadir. Til va nutqning birligi va ziddiyatliligi aynan ana shu bahslarda ochib beriladi. Til va nutq orasida doimiy tarzda nutqiy faoliyat o'z o'rniga egadir. Nutqiy faoliyat mavjud bo'lmas ekan, til birliklari nutq sistemasi unsurlariga aylanmaydi. Nutqiy faoliyat esa inson omilisiz yuzaga kelishi mumkin emas. Bu jarayonning yuzaga kelishi ijtimoiy va tabiiy ehtiyojlar bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar:

1. Баскаков Н.А., Содиков А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1979.
2. В.11. Котухов. Общее языкознание. –М., 1974.
3. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1992.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент, 2005.
5. Турниёзов Н. Тилшуносликка кириш. –Самарканд, 2006.
6. Хайруллаев Х. Тил бирликларининг поғонали муносабати. Тошкент: "ФАН", 2008.

*Sadinov Fazliddin,
SamDChTI o'qituvchisi*

O'ZBEK TILI VETERINARIYA TERMINLARIDA EPONIMLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada chorvachilikning muhim tarmog'i bo'lgan veterinariya terminlarida eponimlarning qo'llanilishi to'g'risida mulohaza yuritilgan. Soha terminlarida eponimlarning paydo bo'lishi va termin sifatida shakllanishi yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘z va birikmalar: veterinariya, termin, eponim, Otlar Afrika o‘lati kasalligi, Ringer – Lok eritmasi, I. Kadikov kamforli zardobi, Rezorsin eritmasi, Cho‘chqalar Afrika o‘lati, Bodanskiy birligi, Marek kasalligi, Gamboro kasalligi, Raus sarkomasi, Babesh-Nigeri tanachasi.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda jahon tilshunosligida terminologiya va maxsus leksika masalalari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslar bir necha o‘n yillardan buyon mavjud ilmiy adabiyotlardagi tibbiyot terminologiyasi, xususan, veterinariya tibbiyotiga doir maxsus birliklari holati, umuman, ularning lug‘at tarkibidagi vazifasi va o‘rni borasida bahs-munozara olib bo‘lib o‘tmoqdalar.

Jahon tilshunosligida Rojkov Yu. G., Xakimova G.A., L.N. Yakovleva, S.A. Komarova, L.N. Timkina, Yu.Yu. Komarova, E.N. Ugaz, A.G., Boyd, C.T. Croft, V.F. Crawley-Low kabi tilshunoslar hamda o‘zbek tilshunosligida esa A.Qosimov farmatsevtika, A. Husanovning kasallik nomlari bilan bog‘liq terminlarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari, A. Saidomonov tibbiyot terminologiyasiga doir bir qator ilmiy maqolalarida qisman veterinariyaga xos terminlar xususida fikr yuritilgan. O‘zbek tili veterinariya terminologiyasi bo‘yicha M. Abdievning fundamental maqolasi ham nashr etilgan bo‘lib, unda o‘zbek tili veterinariya terminologiyasini tadqiq etish masalalari atroflicha yoritilishiga harakat qilingan.

Dunyo ilm-fani jadal rivojlanib borayotgan bir paytda barcha sohalar qatori veterinariya tibbiyoti sohasida ham yangi termin va tushunchalar paydo bo‘lyapti. Biroq ularni standartlashtirish, unifikatsiya qilgan holda ilmiy muomalaga kiritishni taqozo etmoqda. Shu bilan bir qatorda soha terminlarini veterinar-mutaxassislarining o‘zaro axborot almashishida, ilmiy tadqiqotlarida hamda aholining kundalik muloqot jarayonlarida o‘z o‘rnida qo‘llay olishlarini tartibga solish davr talabidir.

Ammo soha terminologiyasiga doir barcha terminlar nafaqat keng xalq ommasiga, balki bevosita mutaxassislar uchun ham har doim ham tushunarli bo‘lavermaydi. Shunday terminlar jumlasiga faol qo‘llanishda bo‘lgan eponimik birikma terminlar hisoblanadi. Ular soha terminologiyasida katta guruhni tashkil etadi. Eponim (yunoncha “nom bergan”) turdosh otga aylangan shaxs oti[2]. Veterinariya tibbiyotida tarixiy va mifologik shaxslar, u yoki bu kasallikni ochgan yoki davolagan mutaxassis olim, hakimlarning nomlari bilan bog‘liq terminlar (eponimlar) keng qo‘llanadi.

Masalan: Otlar Afrika o‘lati kasalligi, Ringer –Lok eritmasi, I. Kadikov kamforli zardobi, Rezorsin eritmasi, Cho‘chqalar Afrika o‘lati, Bodanskiy birligi, Marek kasalligi, Gamboro kasalligi, Raus sarkomasi, Babesh-Nigeri tanachasi, Aerob buloni, Marten buloni, O‘YAYA, PVL, N’yukasla kasalligi, Peyer tugunchasi, Askoli reaksiyasi, STI preparati, BSJ preparati, Paster pipetkasi, Petri kosachasi, Roz-Bengal reaksiyasi, Ndrede indikator, Gis uglevodi, Drojjevkin ozuqa muhiti, Meyeryakov usuli, Kitt-Tarotssi ozuqa muhiti, Seysler glyukozali - qonli agari, Komadamianskiy usuli, Shkolnikova qonli zardobi, Terskix modifikatsiyasi, Tarsov modifikatsiyasi, Xenks eritmasi, Lestrada reaktivi, Sharabrin suyuqligi, Zelenin tomchilari, Ketost aralashmasi, Alost aralashmasi, Ketost aralashmasi, Buplsurum o‘ti talqoni, Krebs – Genzelayt zanjiri, Bobrov ignasi, Mileksetyan zondi, Korobov zondi, Kesarevo cheklash, Esmarx krujkasi, Bobrov apparati, Konkov apparati, Mandren igna, Bunzen idishi, Minin lampasi, Solyuks lampasi, Solenoid to‘ri, Gissa bog‘lami, Assof -Tavar tuguni, Purkine tolalari, To‘rayev to‘ri, Ramanoskiy-Gimza bo‘yog‘i, Abuladze amali, Kesarcha yorish, Shreder belgisi, Kusko ko‘zgusi, Duglas bo‘shlig‘i, Doderlen tayoqchasi, Gerpes virusi, Gimza usuli, Nutallia ekvi, Boofilus kalkaturus kana, Xialomma kanasi, Aragis persikus kanasi, Romonov usuli, Fallopiy nayi, Amerikancha chirish, Pastarella avlodi kabilari.

Veterinariya sohasidagi ilk bor qo‘llanilgan eponimik va noeponimik terminlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Vaholanki, veterinar va tilshunos olimlar tomonidan eponimik terminlarni veterinariyada kamroq qo‘llash yoki umuman qo‘llamaslik yuzasidan fikrlar ham bildirilgan. Shunga qaramay, ushbu yo‘nalishda u yoki bu kasallikni aniqlagan, topgan va uni davolagan, kasallikning yangi qirralarini ochgan mutaxassis olimlar nomlarini o‘z ichiga olgan eponimik terminlar soha terminologiyasiga to‘xtovsiz ravishda kirib kelayotgani, bir tomondan, veterinariya terminologiyasining tobora ravnaq topib borayotganining isboti desak, ikkinchi

tomondan esa hanuzgacha ayrim mutaxassislar tomonidan eponimik terminlarning kasalliklar tabiatining ayrim jihatlarini o'zida aks ettira olmayotganligida ayblashlar davom etayotganligining guvohi bo'lamiz.

Veterinariyaga oid izlanishlarda eponimik terminlarga qaratilayotgan e'tibor, qaysi tomondan (xoh salbiy, xoh ijobiy tomondan) bo'lmasin, u hanuzgacha davom etayotgan ekan, bunday holat mazkur masalaning tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

“Eponim – kasallikni aniqlagan yoki davolash usulini kashf etgan, ilk bor amaliyotda qo'llagan, asoslab bergan shaxsning nomi bilan bog'liq termin”. [3., 3].

Har qanday soha terminologiyasida bo'lgani kabi veterinariyada ham terminlar ma'lumotlarning tez va aniq uzatilishiga xizmat qilishi lozim. Veterinariya sohasidagi atamalar biron bir hodisa, jarayon, kasallik, holat va hokazolarning ma'nosini yetkazish aniqligiga hissa qo'shadigan ma'lum talablarga javob berishi kerak. Shu bilan birga, veterinariya terminologiyasini o'zlashtirgan soha vakillari tajribasi shuni ko'rsatadiki, maxsus matnlarni tushunishda nafaqat talabalar, balki soha vakillari ham veterinariya terminologiyasida ko'p miqdordagi eponimlarni tushunishda qiynaladilar. Birinchi navbatda veterinariya tilidagi maxsus matnlarni o'qish maxsus fanlarni o'rganishdan va eponimlar bilan tanishishdan oldin boshlanadi. Aslida veterinariya terminologiyasida xalqaro eponimlardan foydalanish ham tibbiy terminologiyada eponimlardan umuman foydalanishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida davom etayotgan ilmiy munozaralar bilan bog'liq. Eponim deganda, kasallik, sindrom, davolash yoki diagnostika usuli, asboblari to'plami, ularni birinchi marta kashf etgan, tavsiflagan, yaratgan shaxsning nomi tushuniladi, shuning uchun eponimik atama o'z nomini o'z ichiga oladi. Eponimik atamalar tibbiyotda, shu jumladan, veterinariya terminologiyasida juda katta qatlamni tashkil etishiga qaramay, mutaxassislar o'rtasida ma'lum bir mikroterminosistema doirasida eponimlar bilan bir qatorda bir xil ilmiy tushunchalar mavjud bo'lganda, ikki terminologik sinonimiya natijasida yuzaga keladigan chalkashliklar paydo bo'lishi munosabati bilan eponimlardan foydalanish huquqi to'g'risida doimiy munozaralar mavjud. Shunday qilib, bir tomondan, eponimik atamalar tegishli nomenklatura nomlari bilan sinonimdir. Boshqa tomondan, sinonim eponimlar turli mamlakatlar olimlari tomonidan hayvonlarning har qanday kasalliklarini aniqlash bo'yicha parallel tadqiqotlar natijasida paydo bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, veterinariya eponimlari ushbu olimlarning ismlarini yoki kasallikning kelib chiqish joyidagi joy nomlarini o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, nemis tili veterinariya terminologiyasida die Wassiljew-Weilsche Krankheit – ikterohemorragik leptospiroz, Vasilev-Veyl kasalligi, die Fleitchersche Krankheit – losh. meliodioz, Fletcher kasalligi yoki Stanoton kasalligi, das West-Nil-Virus – g'arbiy Nil virusi kabi eponimlar mavjud.

Soha materiallari tahlili veterinariyaga oid terminlarning bir necha turlari amalda qo'llanishda ekanligini ko'rsatdi.

Soha terminologiyasi bo'yicha olib borgan kuzatishlarimiz ularning joy nomlari bilan ham bog'liq ravishda yuzaga kelishini ham ko'rsatdi.

Cho'chqalar Afrika o'lati – Cho'chqa o'latining mazkur turi veterinarlar tomonidan birinchi marotaba Afrika qit'asida kuzatilib qayd etilgan kasallik nomi. Gamboro kasalligi – yuqumli tovuq bursiti. Gamboro kasalligi birinchi marta 1957- yilda Gumboroda (AQSh) kuzatilgan. Virus, reaksiya, hodisa, isitma, infeksiya, sindrom, anomaliya va boshqalar kabi tematik tushunchalarni o'z ichiga olgan veterinariya sohasidagi xalqaro eponimlarini quyidagi veterinariya eponimlari guruhiga ajratish mumkin: Qurbaqa adenokarsinomasining qo'zg'atuvchisi, Bang kasalligi, bangov abort, Askoli reaksiyasi, reaksiya cho'kma (kuydirgi tashxisi uchun), Sichqonlarda Erlich astsit o'smasi, Omsk gemorragik isitmasi, Marek kasalligi (qushlarning neyrolimfomatozi), Tovuqlarda “nakanuke” sindromi, Anomalie-pelger anomaliyasi (quyonlarda irsiy nuqson), Pfeiffer fenomeni (vabo vibrionlari va o'ziga xos antiserumlarning teri osti birikmasi tufayli patogenlarning tez lizisi), Shop fibromasi, Babesh-Negri tanasi (quturish bilan), Marburg kasalligi, Marburg gemorragik isitmasi kabi.

Marburg gemorragik isitmasi tarqalishining tabiiy o'choqlari Afrikada bo'lsa-da, kasallik birinchi marta 1967-yilda Germaniyaning Marburg va Mayndagi Frankfurt shaharlarida

kuzatilgan. Borna kasalligi, birinchi marta 1885-yilda Saksoniyaning Borna shahrida, undan butun polkning otlari vafot etganida tasvirlangan. Cho'chqalar Afrika o'lati – Cho'chqa o'latining mazkur turi veterinarlardan tomonidan birinchi marotaba Afrika qit'asida kuzatilib qayd etilgan kasallik nomi.

Veterinariya tibbiyotida ishlatiladigan asboblardan va asboblarni nomlaydigan eponimlarini alohida guruhi ham mavjud: Paster pipetkasi, Petri kosachasi, Kolin uchun til egasi, Koxov apparati\ Kox apparati (bug' bilan sterilizatsiya qilish uchun), Krebs – Genzelayt zanjiri, Bobrov ignasi, Mileksetyan zondi, Korobov zondi, Fallopiy nayi, Esmarx krujkasi, Bobrov apparati, Konkov apparati, Mandren igna, Bunzen idishi, Minin lampasi, Solyuks lampasi, Solenoid to'ri, Kusko ko'zgusi kabilar.

Dori-darmon va oзуqaning yangi tur va navlarini ishlab chiqqan shaxslar nomi bilan atalgan eponimlar: Drojjevskina oзуqa muhiti, Purkine tolalari, Sharabrin suyuqligi, Zelenin tomchilari, Buplsurum o'ti talqoni, Kadikov kamforli zardobi kabilar.

Kimyoviy yo'l bilan tayyorlangan moddalar nomi: Xenks eritmasi, Lestrada reaktivi, Zelenin tomchilari, Ketost aralashmasi, Alost aralashmasi, Ketost aralashmasi, Buplsurum o'ti talqoni, I. G. Sharabin suyuqligi, Gis uglevodi, Purkine tolalari kabilar.

Veterinariya amaliyotida eponimik terminlar alohida o'rin tutadi. Eponimik terminlar keng tarqalgan, ko'p komponentli: operatsiya va uning muallifi nomlarini o'z ichiga oladi.

“Kesarcha yorish – sectio causarea (shu operatsiyaga ruxsat etgan qadimgi Rim podshosi (Kesarev) qonuni – Lex Causareadan olingan) – bachadon devorini yorib-ochib homila va yo'ldoshni chiqarib olish operatsiyasi.” [5., 226]

“Qadimgi Rim va YUnoniston vrachlari akusherlikning rivojlanishiga munosib hissa qo'shib embriotomiya, bachadonni qirish, uni zondlash va kesar kesish operatsiyalarini qo'llashgan.” [6., 6]

Shuningdek, soha terminlari tahlilidan u yoki bu kasallikni ochgan yoki davolagan mutaxassis olim, hakimlarning nomlari bilan bog'liq eponimik terminlar miqdori ham anchagina ekanligi ma'lum bo'ldi.

N'yukasl kasalligi – parandalardan tovuq turkumiga xos (tovuq, kurka, sesarka) o'tkir tez tarqaluvchi, septik kasallik bo'lib, virus tomonidan qo'zg'aladi (Shopo'latov, 440). Bu kasallik Osiyo touni, soxta toun ham deb yuritiladi.

Tarkibiga ko'ra eponimik terminlar ikki yoki undan ortiq komponentli so'z birikmalari bo'lib, ularning tarkibiga atoqli ot(lar) bilan birga umumiy ma'noga ega bo'lgan mavzuviy (tematik) va tarkibiy yadro (o'zak so'z) ham kiradi, bunday so'zlarni odatda klinik terminlar: kasallik, reaksiya, belgi, simptom, sindrom, sinish, chiqish, operatsiya, metod, usul, dog', refleksi singarilar bilan birgalikda atashadi. Masalan, Braudening bachadon disfunktsiyasi, Chapin-Lipshyuts o'tkir vulva yarasi, Genter jinsiy sterilizatsiyasi, Ashgeym-Sondekning gormonal reaksiyasi va hokazo.

Hayvonlar uchun zararli bo'lgan hasharotlar topilgan joy nomlari bilan atalgan eponimlar: Boofilus kalkaturus kana, Xialomma kanasi, Aragis persikus kanasi kabilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, bunday eponimik terminlar ba'zan murakkab struktura – tarkibga ega bo'ladilar, sababi ularda birdan ortiq, ba'zida ikki va undan ortiq olimlar bir vaqtning o'zida, bir-birlaridan bexabar, u yoki bu kasallikni ochgan va davolaganlar, shu bois ularni bir vazifada teng ravishda aks ettirish zarurati tug'ilganligi bois bir necha xil terminlar bilan nomlanib qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, Sibir kuydirgisi kabi.

Bunday eponimik vositalar ma'lum kasalliklar ustida ko'pchilik olimlar ish olib borganidan dalolat beradi. Eponimlar tegishli hodisani eslab, xotirada saqlab qolishni osonlashtiradi, chunki idrokiy sathda retseptient (qabul qiluvchi) aks ettirilayotgan yoki ifodalanayotgan tibbiy voqeilikni to'liq ravishda in'ikos etadi.

Eponimlar qo'llanish uchun qulay va tushunarli vositalar bo'lib, ularning o'rniga tavsiflovchi terminlar qo'llansa, u mutaxassislar ishini va faoliyatini murakkablashtiradi. Masalan, Geygel refleksi eponimik termini o'rniga “ayollarning fiziologik refleksi; ayollar sonining yuqori-ichki yuzasiga bolg'acha bilan urganda mushaklarning chot boylamlari sathi qismida qisqarishi;

erkaklardagi kremaster refleksiga o‘xshab ketadi;...” [5., 120] kabi uzundan uzoq tavsiflovchi birikmali termin qo‘llansa, uning ifoda rejasida aniqlik va tushunarlik darajasi anchagina pasayib ketadi, bu esa chindan ham mutaxassis yoki tarjimon, hattoki kasalning faoliyatini, ya’ni uni davolashni murakkablashtirib yuboradi.

Xulosa qilib aytganda, sohaga oid materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, veterinariyaga oid terminlarni nafaqat veterinarlarga, balki keng ommaga tushunarli tarzda yetkazish jarayoni interaktiv yondashuvni talab qiladi. Bu holat ayniqsa, eponimik terminlarni veterinariya tibbiyoti tizimi terminologiyasida dunyoning antropotsentrik manzarasini aks ettiruvchi bektakror vositalar sifatida namoyon qilish mumkin. Ushbu jarayonni amalga oshirishda veterinariya xodimlari filolog olimlar bilan hamkorlikda soha terminologiyasidagi noaniqliklarni, chalkashliklarni hamjihat hal qilishlari lozim bo‘ladi. Bu esa tilshunoslar zimmasiga veterinariya terminologiyasiga oid terminlarni standartlashtirish, unifikatsiya qilish hamda har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish singari masalalar ustida jiddiy izlanishlar olib borishdek muhim vazifani yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш ҳақида. ПФ-5850. –Тошкент: 2019.
2. <https://ru.wikipedia.org>
3. Аллаёров Я.Н. Акушерлик ва гинекология. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2013. -432 б.
4. Федина Е.А. Синонимические отношения в медицинской терминологии [Электронный ресурс]. – <http://cyberleninka.ru/article/n/sinonimicheskie-otnosheniya-v-meditsinskoj-terminologii>.
5. Рожков Ю. Г. Структурно-семантические особенности терминов ветеринарной медицины / Национальный университет биоресурсов и природопользования Украины. Киев. Выпуск № 9. С. 12-18.
6. Хакимова Г. А. Способы словообразования ветеринарной терминологии в немецком языке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2018. № 10 (88). Ч. 1. С.183-192. DOI: 10.30853/filnauki.2018-10-1.38.
7. Хакимова Г. А. Эпонимы в ветеринарной медицине на английском языке // XI Международная научно-практическая конференция «Приоритетные направления развития науки и образования». 2016. Т. 2. С. 1-5. URL: https://interactive-plus.ru/ru/article/115113/discussion_platform (дата обращения: 12.06.2019).
8. Яковлева, С.А. Сокращения как лингвистическая особенность ветеринарных терминов (на материале английского языка) // Magister Dixit. 2011. С. 36–40. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sokrascheniya-kak-lingvisticheskaya-osobennost-veterinarnyh-terminov-na-materialeangliyskogo-yazyka> (дата обращения: 12.06.2019).
9. Комарова, Л.Н. Истоки ветеринарной терминологии // II Международная научно-практическая конференция «Новое слово в науке: стратегии развития». 2017. Т. 1. С. 1–4. URL: https://interactive-plus.ru/ru/article/464928/discussion_platform).
10. Тимкина, Ю.Ю. Англоязычные лексико-грамматические единицы области «Ветеринария» // Балтийский гуманитарный журнал. 2017. Т. 6. № 2 (19). С. 62–65. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/angloyazychnye-leksiko-grammaticheskie-edinitzy-oblasti-veterinariya> (дата обращения: 10.06.2019).
11. Тимкина, Ю.Ю. Классификация ветеринарной терминологии в английском языке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017. № 6 (72). С. 156–158. URL: <http://www.gramota.net/materials/2/2017/6-1/43.html> (дата обращения: 12.06.2019).
12. Комарова, Е.Н. Английский язык для специальностей «Зоотехния» и «Ветеринария»: уч. пособие. М.: Академия, 2008. 384 с.
13. Ugaz, A.G., Boyd, C.T., Croft, V.F. and others. Basic list of veterinar medical serials, third edition: using a decision matrix to update the core list of veterinar journals. Med. Libr. Assoc., 2010, 98(4), pp. 282–292. URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC2947140/>.

14. Комарова, Л.Н. Эпонимы в ветеринарной медицине на английском языке // XI Международная научно-практическая конференция «Приоритетные направления развития науки и образования». 2016. Т. 2. С. 1-5. URL: https://interactive-plus.ru/ru/article/115113/discussion_platform.

15. Абдиев М. Ветеринария терминлари // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 2016 йил, 4- сон, 40- 52 бетлар

16. Голота В.Я. Эпонимы в акушерстве и гинекологии. –Москва: Издательство «Медпрессинформ», 2004. -220 с.

Ernazarova Iroda SamDU
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti
Bozorov Sardor SamDU
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası magistranti

YASAMA SO‘ZLARNING KOGNITIV TAHLILI (ESHQOBIL SHUKUR IJODI MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada Eshqobil Shukurning so‘z yasash mahorati tahlil etiladi va yasama so‘zlar ijodkorning tafakkur mahsuli sifatida baholanadi. Ijodiy yasalmalarni kognitiv tadqiq qilish ularning muallif dunyoqarashini aks ettiruvchi vositalar ekanligi bilan bog‘liqligi misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitologiya, yasama so‘zlar, morf, morfema, kompozitsion vazifa, dinamika.

She‘riyatda shunchaki qo‘llaniladigan so‘z bo‘lmaydi, har qanday ijodkorlik so‘zi o‘z o‘rnida mazmuniy va kompozitsion vazifa bajarishi kerak. Shoir Eshqobil Shukur ijodiy yasalmalari ana shunday vazifasi nuqtayi nazaridan o‘zbek tili so‘z yasalishidagi tadrijiy alomatlarini ko‘rsatadi. Zero Eshqobil Shukur ijodida mavjud yasama so‘zlardan unumli foydalangan holda, o‘rni bilan yangi okkazional yasalmalarni ham yaratadi. Bunday so‘z yaratish jarayoni ijodkorning hissiyotlar dinamikasini ifodalashda erkinlikka intilish tufayli yaratiladi. Ma‘lumki, o‘zbek tilida so‘z yasalishining eng faol usuli affiksatsiya, ya‘ni so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish yordamida yangi so‘z yasashdir. Bu usulda yasalgan yangi so‘zlarning xususiyati haqida “So‘z estetikasi” risolasida shunday deyiladi: “So‘zga turli yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan yaratiladigan individual-stilistik neologizmlar ham o‘zining yangiligi, “ohorliligi” va g‘ayrioddiyligi bilan behad poetik va obrazli bo‘ladi. Shoir u yoki bu neologizmni yaratar ekan, albatta, o‘zak so‘zning ma‘no strukturasi va bu yaratilgan neologizm munosabatga kirishadigan so‘zlarning ma‘no imkoniyatlari, stilistik bo‘yog‘i hamda boshqa shu kabi tomonlarini ham to‘la hisobga oladi” [4,31] . Eshqobil Shukur ijodida ham affiksatsiya usulida yasalgan ijodkorlik so‘zlari katta qismni tashkil etadi.

Shoirning “Hamal ayvoni” she‘riy to‘plamida *qorinlamoq, havodosh, tuproqdosh, xayoldosh, berkli, turkli, sochqi, kungi, so‘zboz, pulboz, vatanboz, qo‘rchoqboz, vatanlamoq, xalqlamoq, suygunchik*, “Ko‘z yumib ko‘rganlarim” to‘plamida *armonvash, vatanxo‘r, millatxo‘r, Tarkiston, purg‘am* kabi 8 ta, asosan, ot va sifat so‘z turkumiga kiruvchi affiksatsiya usulida yasalgan ijodkorlik so‘zlari uchraydi. “To‘g‘risini aytganda, badiiy adabiyotdagi har qanday so‘zdan yoki gapdan obrazlilik, badiiylik axtarish shart emas, – deb yozadi prof.S.Karimov. – Bu birliklarning badiiy adabiyotdagi ko‘rinishi bilan ularning matndan alohida ajratib olingan ko‘rinishi o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmasligi mumkin...

...Shu bilan birga, poetik asarda til vositalarining o‘ziga xos uslubda namoyon bo‘lishidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Xalq tilidagi an‘anaviy mustahkamlangan til vositalariga muntazam ravishda murojaat qilib turish, ayrim poetik matnlarni xalq og‘zaki ijodi uslubiga mos holda shakllantirish hech bir janrda poeziyadagichalik keng yo‘lga qo‘yilgan emas” [5,21].

Demak, soʻz yasash andozasining oʻzi inson nolisoniy (ijtimoiy) tajribasining lisoniy ifodalanish usullari hamdir. Muayyan soʻz yasash andozasi yoki ayon namuna (soʻz) asosida yangi yasalma yaratilishini inson til ijodkorligining oʻziga xos ifodasi deyish mumkin.

Oʻzbek poetik leksikasi soʻz sanʼatkorlari tomonidan ijod etilgan yangi soʻzlar va yangi yasamalar bilan boyib boradi. Shunday ekan, individual yangi soʻz hosil qilish oʻzbek adabiyoti uchun xos boʻlgan jarayon hisoblanadi. Eshqobil Shukur tomonidan qoʻllanilgan “havodosh”, “tuproqdosh”, “xayoldosh”, “osmondosh” kabi soʻzlar boshqa shoirlar ijodida uchramaydi. Biz bularni shoirning ijodiy individualligi namunasi deb baholashimiz mumkin.

Eshqobil Shukur ijodida yangi yasalmalar turli koʻrinishlarda yaratilgan. Masalan, oʻzbek tilida maʼlum belgiga egalik maʼnosini ifodalovchi –li affiksi juda faol ishlatiladi. Ammo ijodkor quyidagi oʻrinda bu affiksdan alohida holatni hosil qilish uchun foydalanganini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni “berkli” va “turkli” birliklarini quyidagi oʻrinda -li affiksisiz qoʻllash maqsadga muvofiq, ijodkor esa bu ortiqchalikdan aynan eʼtiborni tortadigan birlikni yuzaga keltirish uchun foydalanadi:

Xudo tumor taqib boshing boylamish,
Annotatsiya. Maqolada bugungi kun tilshunosligining yangi yo‘nalishlaridan biri pragmalingvistikaning o‘rganish obyekti bo‘lgan deyksis hodisasi hamda uning badiiy asarlardagi o‘rni ochib berilgan. O‘zbek adabiyotidagi badiiy asarlar til tizimining turli tomonlaridan keng tadqiq qilingan. Shunday bo‘lsa-da pragmatik jihatdan tahlil qilinmagan bir qancha badiiy asarlar mavjud. Bu maqolada pragmatikaning asosiy tushunchasi deyksis hodisasi va uning mohiyati Xurshid Davronning “Sohibqiron nabirasi yoxud mitti yulduz qissasi” nomli asari tarkibiga kiruvchi “Anqara ustida porlar mungli oy...” hikoyasi orqali tahlil qilindi. Yozuvchi asarining deyktik xususiyatlari ochib berildi.

Kalit so‘zlar: deyktik vositalar, nutqiy faoliyat, pragmatika, deyksis hodisasi, zamon deyksisi, makon deyksisi, shaxs deyksisi, sotsial deyksis, olmosh, Xurshid Davron

XX asrning 60-yillariga kelib jahon tilshunosligida antropolingvistika yo‘nalishi rivojlandi. Antropolingvistika o‘zidan oldingi struktur tilshunoslikdan farqli ravishda pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitolingvistika kabi til bilan bog‘liq masalalarda, xususan matni o‘rganishda so‘zlovchi va tinglovchi shaxsini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Pragmatikaning rivojlanishi esa matni turli aspektida o‘rganishni taqozo etmoqda. Ushbu sohada o‘z yechimini kutayotgan muammolar bir talay. Shunday muammolardan biri sifatida matndagi deyksis va uning pragmatik xususiyatlarini ta’kidlash lozim. Maqolamizda zamonaviy o‘zbek adabiyotining ustunlaridan biri Xurshid Davron asarlari misolida deyksis va uning xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qildik.

Maqolani tayyorlashda badiiy matn analiziga oid qarashlardan, tavsifiy, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Insoniyat yaralibdiki, kishilar nutq vositasida fikrlarini ifodalaganlar. Nutqiy faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida har doim tilshunoslarning tadqiq markazida bo‘lgan. Bu borada bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. XX asrning 60-yillarida belgining insonga, fikrlash uslubiga, axloqiga va his-tuyg‘usiga ta’sirini kontekst asosida o‘rganish rivojlanishi natijasida ilm-fanga pragmatika yo‘nalishi kirib keldi. “Pragmatika” -yunoncha pragmos so‘zidan olingan bo‘lib “ish”, “harakat” ma’nolarini beradi. M. Hakimov pragmatika fikr ifodalash taktikasi ekanligini aytib o‘tadi. Pragmatik tahlilda jonli nutqiy faoliyat muhim hisoblanadi.

Pragmatikaning tayanch tushunchalaridan biri deyksis hodisasi. Deyksis hodisasi orqali nutqiy faoliyat va nutqiy vaziyat o‘rganiladi. “Deyksis” atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib (deixis) “ko‘rsatish”, “ishora”, “eslatish” kabi ma’nolarni anglatadi. Yunon grammatikachilarning fikricha, olmoshlarning otlardan asosiy farqi olmoshlar predmetning hech

qanday xususiyatini anglatmay, faqat uni ko'rsatish (unga ishora qilish) bilan chegaralanadi. Deyksis tizimining markazida so'zlovchi shaxs turadi va uning makon va zamonda o'rin olishi boshlang'ich nuqta bo'lib qoladi. Deyksis so'zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma'lum makonda joylashganligini belgilaydi.[1, 41]

Deyksis va uning turlari shu davrgacha bir qancha tadqiqotlar misolida o'rganilgan va olimlar tomonidan turlicha tasniflangan. Jumladan, Ch. Fillmor deytik iboralarni uch turga bo'lgan: 1. Obyekt o'rniga nisbatan; 2. Axborot tashuvchisi, axborot egasi; 3. Anafirik holati jihatidan. Uning fikriga ko'ra, birinchi turi joyga nisbatan qo'llanadigan deyksislar bo'lsa, ikkinchisi shaxsga nisbatan qo'llanadi. R.Lakoff ham deyksisni uch turga bo'lgan:

A) vaqt-makon deyksisi;

B) diskurs deyksisi;

C) emotsional deyksis. [6, 79]

S. Levinson deytik markazni tarkib toptiruvchi qismlarni to'rt guruhga bo'ladi: a) markaziy shaxs-so'zlovchi, b) markaziy vaqt-nutqiy jarayon ijro etilayotgan vaqt, v) markaziy makon-so'zlovchining nutqiy harakat bajarilayotgan paytdagi o'rni, g) ijtimoiy markaz-so'zlovchining ijtimoiy mavqeyi.[8, 64] Sh.Safarov ushbu to'rt guruhdagi deytik maydon markazida so'zlovchi shaxsi turishini ta'kidlaydi. [5, 164] M.B. Xo'jamqulova esa jahon tilshunosligidagi tasniflarga yondashgan holda deyksis hodisasini quyidagicha tasnif qilgan:

1. Shaxs deyksisi; 2. Makon deyksisi; 3. Zamon deyksisi; 4. Diskurs deyksisi;

5. Sotsial deyksis.[6, 85]

Bu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Xurshid Davronning tarixiy mavzudagi "Sohibqiron nabirasi yoxud mitti yulduz qissasi" tarkibida keluvchi "Anqara utida porlar mungli oy..." nomli hikoyasini tadqiq obyektiga aylantirdik hamda deyksis aspektida o'rganishni maqsad qildik.

Shaxs deyksisi: Shu davrgacha qilingan tadqiqotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, kontekstda shaxs doim birlamchi bo'ladi, boshqa deytik birliklar uning atrofida yig'iladi. Shaxs deyksisida olmoshning barcha turlari- kishilik, o'zlik, bo'lishsizlik, belgilash, gumon va so'roq olmoshlari ishtirok etadi. Buni quyidagi misolda ham ko'rishimiz mumkin:

Dam o'tmay ingragan tovush yana eshitildi, ingragan odam endi qandaydir bir so'zni aytganday bo'ldi. Ayol tovush chiqarib, juda sekinlik bilan uning nomini aytganini eshitdi. Kimdan so'rayotganini o'zi ham bilmasdan, baland ovoz bilan so'radi:

— *Kim u?!.. Meni chaqirayotgan kim?* [7]

Kim? so'roq olmoshi hamda **u** kishilik olmoshi matnda jang maydonidagi yarador kishiga ishora qilib kelgan. Bunday deytik vositalar deyksis hodisasini yuzaga keltirmoqda. Shaxs deyksisida qo'llanadigan deytik birliklar vaziyatga ko'ra turlicha qo'llanadi. Quyidagi matnda so'zlovchi va tinglovchi uchun ko'rinmagan, ammo har ikkisiga ayon bo'lgan shaxsga ishora qilingan:

Ko'zlaridan shashqator yosh oqib turgan onaizor qattiq ho'ngrab yubordi:

— *Bu qanday ko'rgulik bo'ldi? Kim seni bu holga soldi?* [7]

Hikoyadagi turk onasi farzandini Temur jangchilari shunday holga solganligini biladi, ammo yuragidagi alam shunday savol berishga undaydi.

Shaxs deyksisining ikkinchi turi- ham so'zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ko'rinib turgan va ayon bo'lgan shaxs haqida quyidagi matnda gap ketmoqda:

Faqat ona bu ingrab yotgan yigitning ust-boshidan uni turkistonlik ekanini fahmladi. Qachonlardir uning ota-bobolari yashagan Turkistondan... Balki bu yigit bobosi ona yurtimiz deb rivoyat qilgan Nurota tog'laridandir?! [7]

Bu ko'rsatish olmoshi jang maydonidagi o'lim bilan olishayotgan yigitga ishora qiladi. Navbatdagi matn tarkibida esa **u** kishilik olmoshi orqali shaxs deyksisi ifodalangan:

"Uyga olib borib, liboslarini almashtirish kerak! Bo'lmasa, qo'shnilar uni o'ldirib qo'yishlari turgan gap..." [7]

Yuqoridagi matnda "**U**" ning kim ekanligi albatta, kontekstdan ma'lum bo'ladi, ya'ni nutq o'zlanib turgan paytdan oldinroq turkistonlik yarador askar haqida gap boradi. Dushman tomonning askarini ko'rgan har qanday inson unga yaxshilik tilamasligi matn mazmunidan ayon.

Makon deysisi: Voqelikning idrok qilinishida zamon va makon muhim hisoblanadi. Muloqot jarayonida ishtirokchilarning egallagan makonga ishora qilishlari makon deysisini hosil qiladi. Nutqda joyga ishora qilinyotganda makon har doim ham o'z nomi bilan atalavermaydi. Aksincha unga ishora qiluvchi deytik birliklardan foydalaniladi. Makon deysisini hosil qiluvchi deytik birliklarga o'rin ravishlari va ko'rsatish olmoshlari kiradi. Bunday birliklar aniq makonning o'rindoshlari hisoblanadi.

M.S.Ishanjanovanning "Makon deysisi" nomli monografiyasida makonga ishora qiluvchi deytik birliklar quyidagicha tasniflangan:

a) bu yer,shu yer, mana bu yer, bu yoq ravishlari semantik jihatdan so'zlovchiga yaqin masofadagi makonni, b) u yer, ana u yer ,u yoq ravishlari so'zlovchiga uzoq masofadagi makonni, v) o'sha yer, ana o'sha yer ravishlari matnda avval tilga olingan makonni anglatadi. [2, 61]

Obyekt sifatida tahlil qilayotgan hikoyamizda ham makonga ishora qiluvchi deytik birliklar bir qancha. Buni quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin:

Motamsaro oy yorug'i yoritib turgan Chubuk daryosi bilan Qizilchako'y oralig'idagi janggohdagi sukunatni faqat o'liklar bilan aralash-quralash bo'lib yotgan yaradorlar va jon berayotganlarning ingroqlari, egasiz qolgan, besaranjom va uyum-uyum murdalardan hayiqib, yurishga yo'l topolmay bezovtalangan hurkak otlarning notinch kishnashlari buzardi.

Bu keng maydonda qandaydir bir soya jonsiz jasadlar orasidan zo'rg'a qadam tashlab, tentirab yurardi. [7]

Bu ko'rsatish olmoshi yuqorida nomi berilgan jang maydoni ,ya'ni Chubuk daryosi bilan Qizilchako'y daryosi oralig'idagi maydonga ishora qilgan.

Keyingi matnni tahlilga tortamiz:

— *Men seni otang bilan bobong yoniga qo'yaman, o'g'lim! U yer yaxshi, qishlog'imiz ko'rinib turadi. Men ham hovlimizdan turib mozoringni ko'rib turaman...* [7]

Muallif **u yer** ravishi orqali so'zlovchiga uzoq masofadagi makonni , ya'ni ota-bobolar mozorini nazarda tutmoqda. Bu o'rinda ishora qilinyotgan makon ham so'zlovchi uchun ham tinglovchi uchun ayon bo'lgan, ammo ko'rinib turmagan makonni anglatadi. O'rin-joy ravishi esa deytik birlik vazifasini bajargan.

Zamon deysisi: Nutqda hodisalar bayonida zamon deysisi makon deysisi kabi juda muhimdir, chunki har bir voqea-hodisa ma'lum bir vaqtda amalga oshadi. Shunga ko'ra nutqiy faoliyat jarayonida zamon ma'nosini anglatuvchi deytik birliklar qo'llaniladiki, bunday birliklar zamon deysisini ochib beruvchi vositalar hisoblanadi.Ushbu vositalar orqali nutqiy voqelikning qaysi zamonda ro'y berganini anglashimiz mumkin. Hikoya matnididan olingan quyidagi parchada ham zamon deysisini uchratishimiz mumkin:

Ona janggohda uzoq tentirab yurdi.....Shu payt ona qulog'iga ingrangan tovush eshitildi. [7]

Ma'lumki, zamon deysisini hosil qiluvchi vositalar nutq so'zlanib turgan paytdan oldin yoki keyin yuz berganini anglatadi. Berilgan misolda ham payt ravishi nutq jarayonidagi davrga, ya'ni onaning janggohda jigargo'shasini izlagan paytiga ishora qilgan.

Dam o'tmay ingrangan tovush yana eshitildi, ingrangan odam endi qandaydir bir so'zni aytganday bo'ldi.[7]

Dam o'tmay so'zi esa ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytga yaqin zamonda ro'y berganligini anglatadi hamda zamon deysisini hosil qiladi.

Quyidagi misolda esa ham so'zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ayon bo'lgan zamonga nisbatan **hozir** payt ravishi zamon deysisini hosil qilgan:

O'g'lining qattiq ingrab yuborgani onani hushiga keltirdi. U o'g'li ustiga egilib, uning yuz-ko'zidan o'parkan, siniq tovush bilan bo'zldi:

— *Tirikmisan, bolam, tirikmisan?!.. Xudoyimga ming qatla shukur, ming qatla shukur! Hozir men yaralaringni bog'layman... uyga olib boraman...* [7]

Qachonlardir gumon olmoshi yordamida hosil qilingan deysis so'zlovchi va tinglovchi uchun ko'rinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon bo'lgan zamonga ishora qilgan:

Faqat ona bu ingrab yotgan yigitning ust-boshidan uni turkistonlik ekanini fahmladi. Qachonlardir uning ota-bobolari yashagan Turkistondan... [7]

Sotsial deyksis: Tilshunoslikda nutqiy muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyiga ishora qilish sotsial deyksis sanaladi. Ijtimoiy holat deyksisini shakllantiruvchi til birliklari so‘zlovchining o‘zi va boshqa nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomiga ishora qilish bilan birga uning subyektiv bahosini ham ifoda etadi. Sh.Safarov suhbatdoshga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita ko‘rinishlarga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. [5, 212] O‘zbek tilida sotsial deyksisni shakllantiruvchi deyktik birliklarga olmoshlar, murojaat birliklari, ijtimoiy xoslangan leksik birliklar, ayrim qo‘shimchalar kiradi. Ushbu deyktik birliklar orasida kishilik olmoshlari alohida o‘rin egallaydi.[3, 100] Biz tahlilga tortgan hikoyamiz asosida deyktik birliklardan olmoshlar va murojaat shakllarini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, olmoshlar nutqiy vaziyatga bog‘liq holda yoshidan, jinsidan qat’iy nazar, ayol, erkak, katta, kichik, yosh-u qari, umuman har qanday shaxsga nisbatan qo‘llana olshiga ko‘ra universal hisoblanadi. Hikoyadan olingan matnda ham olmoshlarni, ham murojaat shakllarini deyksis hodisasini yuzaga keltirganini ko‘rishimiz mumkin:

— **Ena!.. Enajon!** – dedi o‘g‘lining tovushi.

— *Yo tavba! Yo Xudoyim!.. – Esini yo‘qotgudek holatga tushgan ona baqirib yubordi. – Nahotki?! ...Nahotki, bu sen bo‘lsang, o‘g‘lonim, Qutlug‘begim?! [7]*

Nutq ishtirokchilarining ijtimoiy holatiga ishora qiluvchi faol birliklardan yana biri murojaat shakllaridir. So‘zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o‘rin tutishi, yoshi, jinsi, lavozimi, kasb-kori ,ya’ni sotsiumning ijtimoiy statusiga qarab murojaat shakllari tanlanadi.[4.179] Yuqoridagi muloqot jarayonida **enajon** hamda **o‘g‘lonim** qarindoshlik otlarining murojaat shakli sifatida qo‘llanilishida kommunkantlarning yoshi hamda jinsiga ishora qilingan. Oxirgi gapda qo‘llangan **sen** kishilik olmoshi bir vaqtning o‘zida ham shaxsga ishora sifatida shaxs deyksisini, ham yoshga ishora tarzida sotsial deyksisni yuzaga keltirgan.

Quyidagi matn olmosh va murojaat birliklarining sotsial deyksisga ishorasini isbotlovchi mazmunga egaligini ko‘rishimiz mumkin:

O‘g‘lining qattiq ingrab yuborgani onani hushiga keltirdi. U o‘g‘li ustiga egilib, uning yuz-ko‘zidan o‘parkan, siniq tovush bilan bo‘zladi:

— *Tirikmisan, **bolam**, tirikmisan?!.. Xudoyimga ming qatla shukur, ming qatla shukur! Hozir **men** yaralarini bog‘layman... uyga olib boraman...*

— *Sovuqqotyapman, **onajon**... Tezroq meni uyga olib bor... [7]*

Yuqoridagi parchada deyktik birlik sifatida murojaat birliklaridan qarindoshlik otlarining qo‘llanilishi sotsial deyksisni hosil qiladi. **Bolam** murojaat birligi tarkibidagi –m egalik qo‘shimchasi yaqinlikni, qarashlilikni ifodalasa, **onajon** so‘zi tarkibidagi –jon qo‘shimchasi esa erkalash ma’nosini ifodalab, adresant va adresatlarning ijtimoiy maqomiga, shu bilan birgalikda milliy mentalitetga ham ishora qilib kelmoqda. **Men** va **u** kishilik olmoshlari ham deyktik birlik sifatida matnda sotsiallikni hosil qilgan. Bizningcha, bunday holatlarda kishilik olmoshlari sotsial deyksis va shaxs deyksisini yuzaga keltiruvchi vosita sifatida murakkab deyktik birlik hisoblanadi. Ular bir vaqtning o‘zida kishilarga ishora qilib shaxs deyksisini ,ularning o‘zaro munosabatini ko‘rsatib ijtimoiy deyksisni hosil qiladi.

Misollar tahlilidan ko‘rish mumkinki, olmoshlar va murojaat shakllari sotsial deyksisni yuzaga keltiruvchi asosiy birliklardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlardan ma’lumki, deyksis hodisasi keng qamrovli bo‘lib, oxirgi yillarda tilshunoslar uchun dolzarb muammolardan biriga aylandi desak yanglishmaymiz. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar soni ancha o‘sdi va ularda deyksis hodisasi turli tomondan tadqiq qilindi. Xullas, tilimizda deyksis hodisasini shakllantiruvchi birliklar xilma-xil bo‘lib, ularning har biri alohida tadqiq qilinsa, yangi yo‘nalishlardan biri bo‘lgan pragmatikvizistikaning rivojlanishi uchun dastak vazifasini o‘taydi. Xurshid Davron ijodida deyksis hodisasi mavjud matnlar ko‘p uchraydi. Ularni o‘rganish va tahlil qilish badiiy asarni to‘liq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Сулайманова Н. Ж. Тилшуносликда дейксис ходисасининг лисоний мохияти. Урганч Давлат Университети “ Илм сарчашмалари” илмий-методик журнал , 2020. № 9

2. Ишанжанова М.С. Макон дейксиси. Монография. – Андижон, 2023. Б-128
3. Давлатова Р.Х. Ижтимоий ҳолат дейксиси ва унинг узбек тилида ифодаланиши. Андижон Давлат Университети Илмий хабарномаси . – Андижон, 2020. № 1. 99-104-бетлар
4. Йулдашева Х. Бадиий матнда ижтимоий дейксисга ишора қилувчи грамматик воситалар.”Суз санъати” халқаро журнали. 2022. № 4. 176-181 бетлар.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.
6. Хужамкулова М.В. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktoridiss. T-2022. B- 161
- 7.<http://kh-davron.uz/ijod/drama/xurshid-davron-anqara-ustida-porlar-mungli-oy>.
29.12.2023
8. Levinson S.C. Pragmatics. — Cambridge: Cambridge University Press, 2008.— P. 64

Бушуй Т.А.
(д. ф. н., профессор СамГИИЯ)

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ОППОЗИЦИОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы, связанные с представлением в словарях двуязычного типа фразеологической антонимии как одной из подсистем языка. Анализируются положительные и отрицательные стороны в отражении данного языкового феномена.

Ключевые слова: антонимы, фразеологизмы, двуязычные словари, оппозиции, абсолютные и относительные антонимы

Фразеологическая и лексическая антонимия объективно существует в языке. Антонимические отношения между ФЕ – важное проявление фразеосистемы языка. Их отличает известный динамизм, обнаруживаемый в образовании довольно значительного количества антонимических оппозиций и в большой версификации антонимических противопоставлений в речи, т.е. они носят весьма открытый характер номинации, что затрудняет кодификацию ФЕ-антонимов.

В процессе исследования антонимических отношений во фразеологии выявляются такие фразеологические единицы как ФЕ, построенные на принципе оксюморона; ФЕ, возникшие на основе алогизма и ФЕ-объективаторы. Например, такого рода ФЕ построены с помощью стилистического приема оксюморона в русском языке: *громко молчать, умный дурак, медленно поспешать, серьезно посмеяться, красноречивое молчание* и др. Таких фразеологизмов немного. Они обозначают несовместимые в действительности явления.

Так, в силу специфики построения словаря (опора описания фразеологии на конкретно избранное слово) вне поля зрения КЛС, как правило, оказываются антонимические ФЕ, разные по форме выражения, т.е. без какой-либо соотносительной связи в КЛС подаются пары ФЕ-антонимов типа «желторотый птенец» / «стреляный воробей» («неопытный юнец» / «опытный человек») и «выносить сор из избы» («не уметь хранить секреты») / «держат язык за зубами» («хранить секреты»). А это весьма значительный пласт фразеологической антонимии языка. Сюда включаются ФЕ-антонимы как абсолютные (ср.: «водой не разольёшь» - «как кошка с собакой»), так и относительные (ср.: «не бог весть сколько» - «как сельдей в бочке»).

Кроме того, в КЛС не следует игнорировать и другие случаи смысловой оппозиции. Например, это лексико-фразеологическая антонимия (ср.: «родиться» - «отдать концы»; «близко» - «за тридевять земель») и энантиосемия (ср.: «на днях» - «недавно» и «в ближайшее время»).

На практике же фразеологическая антонимия представляется в КЛС обычно лишь такими образцами ФЕ, которые обязательно имеют в своём составе какие-либо общие компоненты. Ср.: «Во все уши слушает...В одно ухо вошло в другое вышло» [Русско-грузинский словарь-1959, т.3, с. 553, далее РГС]. Обычно это фразеологически опорные слова. Противоположные (но соотносительные) понятия, таким образом, выражаются по другим компонентам фразеологических ФЕ подобного структурного типа. Речь идёт при этом о фразеологических антонимах следующей разновидности:

1) ФЕ-антонимы с общим опорным глаголом, сочетающимся с противоположными по значению существительными: «класть начало ... класть конец...» [РГС, т.1, с.592]; «класть конец чему-л. ...; класть начало чему-л. ...» [Русско-туркменский словарь-1986, т. 1, с.453, далее РТуркмС].

2) ФЕ-антонимы с общим опорным существительным, сочетающимся с противоположными по значению глаголами: «войти в возраст ...; выйти из возраста ...»

[Русско-узбекский словарь-1983/84, т. 1, с.137, далее РУС]; и др. Объединяемые в подобных парах ФЕ-антонимы могут дополнительно характеризоваться общностью контекстуального распространения: «акции поднимаются (или повышаются)» чьи...; акции падают чьи...» [РУС, т.1, с.28]; «открыть глаза на что-л. ...; закрыть глаза на что-л. ...» [РТуркмС, т.1, с.220].

3) ФЕ-антонимы с общим опорным существительным, сочетающимся с противоположными по значению прилагательными: «(в) первое время ...; (в) последнее время ...» [РУС, т.1, с. 151]; «первое слово ...; последнее слово...» [Русско-таджикский словарь-1985, с. 1024, далее РТС]; «при закрытых дверях ...; при открытых дверях ...» [РУС, т. 1, с. 232]; «важная птица ...; невелика птица ...» [РГС, т.2, с. 815]; «тяжёл на подъём ...; лёгок на подъём ...» [Русско-белорусский словарь-1982, т.2, с. 116, далее РБС].

4) ФЕ-антонимы с общим опорным глаголом, управляющим противоположными по значению предлогами: «плыть по течению...; плыть против течения...» [РТС, с.738; РБС, т. 2, с.74]; «бить в цель ...; бить мимо цели ...» [РБС, т. 1, с.61; РУС, т.1, с.71; РГС, с. 44; РТС, с.63].

5) ФЕ-антонимы, противопоставляемые посредством отрицания: «не по адресу ...; по адресу кого-чего, чьему ...» [РУС, т. 1, с.24]; «(обращаться) не по адресу ...; по адресу кого-л. (сказать) ...» [РБС, т. 1, с.22]; «по плечу ...; не по плечу ...» [РБС, т. 2, с.71] и др.

В КЛС возможна и комбинация средств выражения противоположного значения в антонимичных парах ФЕ. Например, пара ФЕ-антонимов, опорный глагол которых противопоставляется отрицанием не, расширяется за счёт ФЕ, синонимических отрицательной ФЕ, ср.: «дай бог ...; не дай бог (или избави бог, сохрани бог) ...» [РУС, т. 1, с. 77], где ФЕ «не дай бог» предполагает замену синонимическими ей двумя другими ФЕ «избави бог» и «сохрани бог».

Антонимичность двух ФЕ с не может компактно показываться в КЛС и выделением отрицания в скобки: «варить... голова (не) варит» [РБС, т. 2, с.83]. Поэтому все антонимические пары ФЕ, противопоставляемые отрицанием «не», подлежат показу в КЛС совместным фиксированием на базе положительной фразеоформы. Ср.: «высота... быть на высоте...; быть не на высоте...» [Русско-карачаево-балкарский словарь-1965, 109, далее РКБС] – надо: «высота... быть (не) на высоте...». Подобным образом могут оформляться в КЛС и другие ФЕ-антонимы, имеющие совпадающие компоненты в своём составе. Например: «в хорошие (плохие, чужие) руки (отдать, попасть...), в хороших (плохих, чужих...) руках (быть, находиться)...» [РГС, т.3, с. 145].

Более углубленному толкованию антонимической пары ФЕ способствует показ образца употребления одной из них, например, утвердительной (положительной): «по адресу кого-л. ...это сказано по твоему адресу...; не по адресу...» [РКБС, с.23]. Однако подменять базовую фразеоформу иллюстративным примером не допускается (а между тем так поступает Русско-немецкий словарь 1989, с.25, 427, далее РНС и др.).

Отражение в двуязычном словаре фразеологизмов-антонимов – сложное явление. Важнейший принцип, положенный в основу представления данного феномена, связан с семантикой и оппозиционными отношениями между подобного рода единицами. В словарных статьях контрастивных словарей заголовочным является слово, после которого располагается фразеологическая единица. Поэтому можно говорить о единстве антонимической лексики и фразеологии, как проявление данного языкового явления на лексико-фразеологическом уровне.

Рассмотрение фразеологизмов антонимов в двуязычных словарях ведет к выявлению структурно-семантических моделей подобного рода языковых единиц. При этом вначале анализируются структурные показатели, а затем уже исследуется семантическая сторона антонимичных ФЕ.

Антонимические компоненты, входящие в состав таких фразеологизмов, сохраняют противоположные значения. Однозначно они выступают основным строительным материалом для образования ФЕ-антонимов. Проблема кроется в другом: как они

выражают данные полярные значения, т.е. эксплицитно или имплицитно. Причем фразеологизмы, как единицы, обладающие целостным значением, предполагают и тот факт, что противоположность значения создается не только за счет лексем антонимов, но через их комплексное восприятие.

Проявляемый интерес к фразеологической антонимической парадигме в современном языкознании представляет собой вполне закономерное явление. Семантические исследования всегда составляли основу различных языковедческих школ и направлений. Проводимое исследование необходимо для объективного представления о сложившейся в настоящее время картины репрезентации антонимической фразеологии в словаре контрастивного типа.

Современные двуязычные словари фиксируют следующие типы ФЕ-антонимов: 1) ФЕ, содержащие противоположные лексические компоненты, 2) фразеологизмы-компаративы, в которых начальные компоненты выступают в антонимических отношениях, а последующие нет, 3) квазиантонимы, 4) контекстные фразеологизмы-антонимы, 5) ФЕ антонимы, имеющие грамматические противопоставления, 6) энантиосемия (когда во фразеологической единице содержится два прямо противоположных значения).

Литература:

1. Русско-белорусский словарь: В 2-х т. / К.К. Атрахович. – Изд. 2-е, доп. и перераб. – Минск: БСЭ, 1982. – I, 648 с.; II, 636 с.
2. Русско-грузинский словарь: В 3-х т. / К.В. Ломтатидзе и др. – Тбилиси, 1956-1959. Т. I – 1956 – 800 с.; Т. II – 1958 – 830 с.; Т. III – 1959 – 820 с.
3. Русско-карачаево-балкарский словарь / Под ред. Х.И. Суюнчева и др. – М.: СЭ, 1965. – 744 с.
4. Русско-немецкий словарь: 10-е изд., испр. и доп. / Под. ред. К. Лейна. – М.: Рус. яз., 1989. – 736 с.
5. Русско-таджикский словарь / Под ред. М.С. Асимова. – М.: Рус. яз., 1985. – 1279 с.
6. Русско-туркменский словарь. М.: Рус. яз., 1986. – 880 с.
7. Русско-узбекский словарь: В 2-х т. / Ред. I т. С.Ф. Ақобиров; ред. II т. Н.М. Маматов. – Ташкент: УСЭ. – Т. I – 1983 – 808 с.; Т. II – 1984 – 798 с.

Amirova Nigorakhon Saidgani kizi
Lecturer at the Higher School of Turkology,
Tashkent State University of Oriental Studies

OBSERVER IN THE MODELING OF A VISUAL PERCEPTION SITUATION IN THE TURKISH LINGUISTIC WORLDVIEW

Abstract. This article is devoted to the study of the role of the observer in the dynamic aspect, i.e. within the framework of the interpretation of the linguistic worldview as a process of perception and cognition of the surrounding world through language. At the same time, two types of ‘portraiture’ of the observation situation are considered, the first is associated with the verbs of the *bakmak* (to look) and *görmek* (to see) groups; the second is based on the relationship of all components of a typical situation. It should be noted that within the two types of ‘portraiture’ there are subgroups that differ from each other in semantic terms, also based on the observer’s position in this situation.

Key words: factor of observer, linguistic worldview, observer’s position, typical perception situation, perception proper valence on the observer, ‘portraying’ the observation situation, verbs of the *bakmak* (to look) group.

It is widely posited that each natural language corresponds to a distinct linguistic worldview. According to A.Vezhbitskaya, the ‘linguistic worldview’ refers to the historically developed set

of conceptualizations about the world, as understood within the everyday consciousness of a particular linguistic community and reflected in its language. [1] This notion of the linguistic worldview draws upon the ideas of W.von Humboldt and neo-Humboldtians regarding the inner form of language, on one hand, and the principles of American ethnolinguistics, particularly the so-called Sapir-Whorf hypothesis of linguistic relativity, on the other. [2] In contemporary discussions surrounding the linguistic worldview, Yu.D.Apresyan employs the term ‘naive worldview’, indicating that such naive knowledge is derived from the linguistic units of a given language. [3]

It is important to note that research on the linguistic worldview encompasses various approaches to this phenomenon. In the initial stages of studying this concept, several scholars view the linguistic worldview as a ‘product of human thought about the world,’ serving as the foundation that encapsulates the subjective representation of real-world objects within a language. [4,5,6] Since the second half of the 20th century, research on the linguistic worldview has taken a new direction. At this stage, the concept is not interpreted as a ‘product’ of human representations of the surrounding world within language, but rather as a ‘process’ of understanding the world through the lens of language. [7,8,9] In this context, the linguistic worldview as a ‘process’ possesses a bidirectional nature. On one hand, it involves human representations of the surrounding world expressed through language; on the other hand, it encompasses the perception of actual reality facilitated by language. [10,11]

Alongside this, a significant focus in contemporary research is the study of the individual within language, who not only perceives and comprehends the world but also actively lives in it. As a result, language expresses not only objective reality but also the individual as a knowing subject. Thus, the emphasis on the human factor in the organization of language and in all cognitive processes indicates that language reflects not only a particular vision of the world but also ‘*the observer’s position within it.*’ [12] Various terms are used to denote this phenomenon, including *viewpoint*, *angle*, *focus*, *perspective*, and *observer factor*. The *viewpoint* represents the position of the subject in evaluating the events occurring around them. The *angle*, on the other hand, refers to the external aspect of the *viewpoint*, while the *focus* pertains to its internal aspect. *Perspective* involves the relative placement of the object, observer, light source, and the boundaries of the observable space. As for the *observer factor*, it encompasses all the aforementioned aspects. In this framework, the observer perceives the world from all sides comprehensively. Consequently, this study will utilize the term *observer factor*.

The observer is understood as an invisible participant in a typical situation, necessary for adequately conveying the meanings of words and grammatical categories. [13]

The role of the observer in this work will be examined in what is referred to as the dynamic aspect, that is, within the framework of interpreting the linguistic worldview as a process of perceiving and understanding the surrounding world through language.

It is well-known that perception of the world occurs through five senses: visual, gustatory, auditory, olfactory, and tactile perceptions. Among these, visual perception provides the most information about the environment. V.P. Zinchenko emphasized the advantages of visual images, stating that:

“Visual images, in contrast to auditory ones, are characterized by subjective simultaneity, allowing for the instant *grasping* of relationships that exist between various elements of the perceived situation. The visual image is extraordinarily rich, as it simultaneously reflects information about the color, spatial, dynamic, and figurative characteristics of objects. Finally, it is highly plastic.” [14]

Alongside this, the transmission of visual perception in language, like any form of perception, is primarily associated with the construction of a typical situation, that is, a standard situation that encompasses all the essential common properties characteristic of all situations of that type. Based on the selection of significant properties of the typical situation, the necessary components and their interrelations are determined. For instance, in the context of visual perception, the important properties include: 1) the observer, 2) the object of observation, and 3)

the relationship of observation, as illustrated by the example: *Adam gökyüzüne bakıyor* (lit., *The man is looking at the sky*).

Additionally, the observer factor plays a significant role in constructing the situation of visual perception, as it describes the same extralinguistic reality from different angles, leading to the formation of various interpretations of the same situation. For example:

1. *Necdet karşısındakini görüyor* (lit., *Necdet sees the person opposite him*).
2. *Necdet karşısındaki kapıyı görüyor* (lit., *Necdet sees the door in front of him*).
3. *Kapı görünüyor* (lit., *The door is visible*).

In this context, the valence of the observer can be integrated into the semantics of one of the three components, denoting either the perceiving subject, the perceived object, or the act of perception itself, each represented in varying ways.

It is important to note that, in most cases, the valence of the observer is embedded in the situation of perception itself, denoted by the verbs from the group *bakmak* (to look) and *görmek* (to see). The former realizes visual perception as directed from the subject to the object of perception, which is associated with the transformation of internal experience into external manifestations, wherein our representations gain material embodiment. In contrast, the latter models the relationship from the object to the subject of perception, relating to the assimilation of what could be termed external experience and its conversion into internal understanding. [15] In other words, the verbs from the group *görmek* (to see) describe the state of the subject in relation to the object. In this case, the observer's position is primarily passive. Due to its distinctive nature, this type of situation requires separate examination. Consequently, this study focuses exclusively on the group of verbs *bakmak* (to look). As for the verbs from the group *bakmak* (to look), the subject exhibits active engagement with the object in terms of observation.

In addition, there are several verbs that, while not directly classified as verbs of visual perception in a semantic sense, acquire this meaning within the context of other components of the observation process. Accordingly, we can identify two types of portrayal of the observation situation, related to the following:

- a) the situation is conveyed by the verbs from the groups *bakmak* and *görmek*, which embed the valence of the observer in their semantics;
- b) in its representation, verbs from this group are not employed, and the valence of the observer is embedded in the semantics of each component of the utterance.

Let us consider the first type of portrayal of the observation situation. As previously mentioned, the verbs from the group *bakmak* (to look) possess the valence of the observer in their semantics, which manifests in an active manner. The verb *bakmak*, which signifies direct observation, is fundamental in a semantic sense, as seen in the example: *Adam gökyüzüne bakıyor* (lit., *The man is looking at the sky*). This statement indicates the observing subject (Adam), the object of perception (gökyüzü), and the act of perception (*bakmak*). Here, the observer seems to stand outside the extralinguistic situation, describing it from an external perspective.

It is important to note that, from a semantic standpoint, the verbs in the *bakmak* group can be divided into four subgroups that express: 'direct observation' (*bakmak, izlemek, seyretmek*), 'observation for the purpose of study' (*bakınmak, gözden geçirmek, incelemek*), 'observation with intent' (*dikizlemek, gözetlemek, gözlemek*), 'observation accompanied by the actualization of certain aspects of the object of perception' (*dikkat etmek, gözlemlemek, gözlemek*).

In the utterance featuring the verb *bakmak*, there is an indication that the object lies within the field of vision of the observing subject, as illustrated in the previously provided example: *Adam gökyüzüne bakıyor* (lit., *The man is looking at the sky*). Regarding utterances with the verbs *izlemek* and *seyretmek*, it is essential to note a certain semantic complication. For instance: 1. *Babam kaşları çatılmış, başını sallayarak izliyor bizi* (lit., *Father is watching us, frowning and shaking his head*), which implies 'to look and evaluate'; 2. *Melek yoldan geçen insanları seyrediyor* (lit., *Melek is watching passersby*), indicating 'to look and enjoy.'

In constructions featuring verbs from the second subgroup, there is information that implies the observation has a particular objective in mind. For example, with the verb *bakınmak* (to look

around), it is evident that the observation is intentional: Etrafına fotoğrafçıları çağırmak için *bakındı* (lit., He looked around to call the photographers). In the sentence with the verb *gözden geçirmek* (to review), there is a sense of systematic familiarization with the object as a whole, without detailing it: Yazarlar toplam 395 katılımcıyla 9 çalışmayı *gözden geçirdi* (lit., The authors reviewed nine studies involving a total of 395 participants). Similarly, in the utterance with the verb *incelemek* (to study), the semantics of observation is further complicated by the indication of detailed examination: Bilgi toplamak için aşağıdaki dergileri *inceledik* (lit., We reviewed these journals to collect information).

In the utterances with verbs from the third subgroup, two variants of semantic complication emerge: an indication of a current action and of a repeated action. For example: 1. Asıl yaptığı ise, şuradaki sarışınları *dikizlemek* (lit., What he is actually doing is spying on the blonde over there), suggesting that the subject observes the object secretly and without its knowledge, with a specific intention: a current action; 2. İşimiz, şu evi *gözetlemek* (lit., Our job is to watch that house); 3. Kuzum, bana kim gelip gidiyor, hep böyle *gözlüyor musun?* (lit., My lamb, do you always watch who comes and goes to me?): a repeated action.

In the sentences with verbs from the fourth subgroup, the observation emphasizes a particular characteristic of the object, resulting in its detailing. For example: 1. Caddenin kesiştiği yerdeki arabalara *dikkat et* (lit., Watch out for the cars at the intersection of the street); 2. Bu niyetle asistanların, doçent ve profesörlerle ilişkilerini *gözlemliyordu* (lit., With this intention, he was observing the relationships between the assistants, associate professors, and professors); 3. Hava değişikliklerini *gözmek* havacılık için önemli bir iştir (lit., Monitoring weather changes is an important task for aviation).

Let us now examine the second type of portrayal of the observation situation, in which it is expressed not by a perception verb but through the interrelation of all components of the utterance. Here, the observer remains somewhat out of the frame. For example: 1. Müdür yeni projede hata olmaması için dosyaları kendisi *inceledi* (lit., The director reviewed the files to ensure there were no errors in the new project), where the semantics of the observation verb suggests the presence of an observer, as in *incelemek* (to review), meaning ‘document by document in a specific sequence.’ 2. Gemi dalgalarda sallanarak ufuk altında *kayboldu* (lit., The ship, rocking on the waves, disappeared over the horizon). 3. Üzün yolun sonunda karşısında mühteşem malikhane *duruyordu* (lit., At the end of the long road stood a magnificent mansion), where, unlike the previously discussed utterance, the observer’s position is expressed implicitly, meaning that the observation is described from two perspectives: as an unfolding event (2) and as a present state (3).

Thus, in modeling the observation situation, the observer factor plays a crucial role. This factor can manifest in various ways. In this study, the influence of the observer factor on the representation of visual perception situations was examined through the lens of verbs from the *bakmak* group, in which this situation is interpreted as a deliberate, goal-oriented action. Future research is planned to explore the impact of this factor on the representation of visual perception situations using verbs from the *görmek* group, which are interpreted as the ‘state’ in which the perceiving subject is immersed.

References

1. Вежбицкая А. Языковая картина мира как особый способ репрезентации образа мира в сознании человека // Вопросы языкознания. №6. 2000. С. 35.
2. Рубец М.В. Восприятие и языковая картина мира (на материале китайского языка). Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Москва, 2015. С.17.
3. Апресян Ю. Д. Избранные труды. Т.2. Интегральное описание языка и системная лексикография. Москва: Языки русской культуры., 1995. С.348.
4. Вайсгербер Й. Л. Родной язык и формирование духа / пер. с нем. М.: Изд-во МГУ, 1993. 232 с.

5. Сепир, Э. Статус лингвистики как науки // Языки как образ мира. М. СПб: Terra Fantastica, 2003. 131 с.
6. Уорф, Б.Л. Наука и языкознание // Языки как образ мира. М.СПб: Terra Fantastica, 2003. С. 214.
7. Апресян Ю. Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // Вопросы языкознания. 1995. № 1. С.187.
8. Вежбицкая А. Языковая картина мира как особый способ репрезентации образа мира в сознании человека // Вопросы языкознания. №6. 2000. С. 33-38.
9. Казыдуб, Н.Н. Дискурсивное пространство как фрагмент языковой картины мира (теоретическая модель). Иркутск: ИГЛУ, 2006. 216 с.
10. Хомский А. Язык и мышление. Перевод с английского Б.Ю. Городецкого. М.: Изд. МГУ, 1972. С.54.
11. Дейк, ван Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. Б.: БГК им. И. А. Бодуэна де Куртенэ, 2000. С.201.
12. Кубрякова Е.С. Языковое сознание и языковая картина мира // Филология и культура: материалы межд. конф. Тамбов, 1999. С. 7.
13. Падучева Е.В. Наблюдатель: типология и возможные трактовки // Труды международной конференции // ДИАЛОГ. М., Изд-во РГГУ, 2006. С.4037.
14. Буданцева Н.А. Глагольная таксономическая модель концепта зрительное восприятие (на материале английского и французского языков). Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Тамбов, 2014. С.12.
15. Исламджанова Х. Языковая концептуализация визуального восприятия в русском языке // Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Фарғона давлат университети Тил ва жаҳон ҳамжамияти халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Фарғона, 2004. С.38.

*Mardiyev To‘lqin Kulibayevich
filol.(PhD), dotsent SamISI;
Kulibayev Faxriddin To‘lqinovich
SamISI 1-kurs magistranti*

TIL – MADANIYAT VA XALQ TUSHUNCHALARINING UZVIY BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘z ichiga til, madaniyat va xalq tushunchalarining o‘zaro aloqalarini olib, ularning bevosita o‘zviy bir-biri bilan bog‘liqligini na‘moyon etadi.

Jumladan, bu vaziyatda til ko‘proq madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ularni yuzaga chiqaruvchi, vujudga keltiruvchi vosita sanaladi. Bular ichida til hukmron hisoblanadi. Bunda tilning noyobligi shundaki, u keltirilgan tushunchalar bilan uzviy bog‘lanadi.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, etnik, etnos, ijtimoiy, tarixiy, milliy, his-tuyg‘u, ong, mentalitet, dunyoqarash, moddiy va ma‘naviy, tafakkur, kundalik hayotdagi.

Ma‘lumki, ijtimoiy fanlarda etnos tushunchasini xalq ma‘nosida ham qo‘llaydilar. Bu tushuncha madaniyat, til tushunchalari bilan bevosita bog‘langan, shuning uchun ham ruscha - o‘zbekcha lug‘atda “etnik” yoki “etnos” atamasi biror bir xalqqa va uning madaniyatiga oid tushuncha deb qaraladi. “Etnogenez” esa biror xalqning kelib chiqishi deb tushunilgan [O‘ZSE. 1983:770]. Etnos insonlar yoki insonlarga xos tushunchalar majmuidir. Inson tabiatan ijtimoiy mavjudotdir [Abdurozzoqova Sh., 1989:30].

Darvoqe, *madaniyat* ana shu etnos (xalq)ning ijtimoiy va tarixiy jarayonida vujudga kelgan, jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan, sivilizatsiya bosqichini xarakterlaydigan moddiy va ma‘naviy xususiyatlarning majmuidir. Chunonchi, falsafa lug‘atida madaniyatga shunday ta‘rif beriladi, “Madaniyat (lotincha *cultura* parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida insoniyat yaratgan va yaratayotgan hamda jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni xarakterlaydigan moddiy va ma‘naviy boylıklar majmuidir”[G‘ofurov Z., 1976:275].

Til ham etnos va madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ularni yuzaga chiqaruvchi, vujudga keltiruvchi vosita sanaladi. Bular ichida til hukmron hisoblanadi. Bunda tilning noyoblighi shundaki, u keltirilgan tushunchalar bilan uzviy bog‘langan, uni operatsion tizim sifatida boshqa dasturlar uchun o‘ziga xos qobiq deb qiyoslash mumkin.

Tildagi etnik xususiyatning yaqqol misoli ona tilini his qilishdir. Barcha xalqlarda til milliy his-tuyg‘u va ong bilan uzviy bog‘langan. Insonning o‘z ona tiliga yaqinlik tuyg‘usi har bir tilda obrazli tafakkurning takrorlanmas assotsiatsiyalarining mavjudligi bilan tushuntiriladi. Ular har bir so‘zning o‘ziga xos semantik to‘liqligicha madaniy mazmunga ega bo‘lib, til tizimida mustahkamlanadi va uning milliy o‘ziga xosligini tashkil etadi.

Zero, tilsiz etnos (xalq) ham, madaniyat ham bo‘lmaydi. Chunki insonning insoniyligi, madaniyligi til orqali aks etadi yoki yuzaga chiqadi. Falsafa lug‘atida til haqida shunday yaxshi ta’rif berilgan [G‘ofurov Z.,1976:483]. Chunonchi, til – har qanday fiziologik belgi sistemasi, bu sistema inson faoliyati jarayonida bilish va kommunikativ (aloqa) funksiyalarni bajaradi. Til tabiiy ham, sun‘iy ham bo‘lishi mumkin. Tabiiy til deganda fikrlarni ifodalash formasi va kishilar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladigan kundalik hayotdagi til tushuniladi. Sun‘iy til – kishilar tomonidan tor ehtiyojlar uchun yaratilgan tildir. Til ijtimoiy hodisa hamdir. U ijtimoiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘ladi va alohida har bir odamning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vositadan iboratdir. Til ayni vaqtda ongning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Til qobig‘idan tashqari ong mavjud bo‘lmaydi. O‘z fizik tabiatiga ko‘ra o‘zi bildiradigan narsaga nisbatan shartli bo‘lgan til belgisi, shunday bo‘lishiga qaramay, pirovard natijada real voqelikni bilish jarayoni bilan bog‘liqdir. Til jamg‘arilgan bilimlarni qayd etish, qayta ishlash va saqlash hamda ularni avloddan-avlodga yetkazish vositasidir.

“Jamiyatning tilga, tilning esa o‘z navbatida jamiyatga ta’sir qilishi” [Vorkachev S.G. 2001:70] haqidagi tezisdan kelib chiqilsa, mentalitet tilga, til esa mentalitetga ta’sir qilishini nazarda tutish lozim. Bunday chigal holatni, mentalitetni ta’riflashga urinishlarda ham kuzatish mumkin. Mentalitet tadqiqotiga bag‘ishlangan adabiyotlarda ushbu tushunchaga ko‘plab ta’riflar berib o‘tilgan. Ulardan quyidagi ta’rifga to‘xtalish mumkin: “Mentalitet tarixan shakllangan, nisbatan barqaror va o‘ziga xos jamoaviy dunyoqarashlar majmuasi bo‘lib, u kishilarning til va har xil xarakterlarida beixtiyor namoyon bo‘ladi” [Safarov Sh.,2006: 21]. Bunday ta’riflarda til xarakterning shakllaridan biri deb qaralsa, ikkinchidan tilni xarakter, xulq bilan bir qatorga qo‘yib alohida ta’kidlab, ajratib ko‘rsatiladi. Ushbu ta’rifning o‘zidayoq mentalitet va til o‘rtasidagi munosabat mavjudligini ko‘rsatuvchi bir qancha holatlarni kuzatish mumkin. Shunga ko‘ra mentalitetning asosiy tarkibida: bir tomondan dunyoqarash, ikkinchi tomondan dunyoqarashdan kelib chiqadigan til xakteri aks etadi.

Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in’ikosi – obrazning mantiqiy “qayta ishlanish” natijasida hosil bo‘lgan lisoniy “libos”ga ega bo‘lishidan oldin ushbu “libos”ning tasavvurdagi aksi – modeli yuzaga keladi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo‘lgan zahotiyoyq uni amalga oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda “so‘zsiz” model nolisoniy yoki “botiniy nutq” jarayonida yuzaga keladi. Botiniy nutqning yuzaga kelish muammosi bilan shug‘ullangan psixolog va psixolingvistlar ushbu hodisani turlicha talqin qilib kelishmoqda, ulardan ayrimlari botiniy nutqni oddiygina qilib, o‘z-o‘ziga gapirish bilan tenglashtirsalar, boshqalari uni alohida tashqi (zohiriy) nutqdan butunlay farq qiluvchi hodisa sifatida ta’riflaydilar[Safarov Sh.,2006: 24].

Til kommunikativ faoliyatning komponenti sifatida qaraladi. Til olamni o‘zgartirishning muhim usuli, informatsion, ta’minot va shaxslararo munosabatni tartibga keltiruvchi, ta’sir etuvchi vosita sifatida kishilarni u yoki bu xarakterga chorlovchi, ijtimoiy munosabatlarni qayd qilishga undovchi, deb tahlil qilinadi. Kollektiv tajribaning eng muhim xazinasini sifatida til madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda, yuqorida aytilganidek, til va madaniyatning o‘zaro munosabatini o‘rgana turib, madaniy lingvistika integral xarakterga ega bo‘ladi, chunonchi, a) falsafiy-madaniy va lingvistik an’analar tizimining yaratilishiga; b) til va madaniyatni kompleks tasvirlashga; v) xilma-xil tillar va madaniyatlarni qiyoslashga zamin yaratilishi kabilarga imkon yaratadi. Tilda har doim qadimiy tilga xos qotishmani topamiz, bu narsani til orqali millatning xarakteridan bilamiz. Tilni xalqning fikrlari va his-tuyg‘ular quroli sifatida

o'rganishga, haqiqiy til izlanishlari sifatida qarashga asos borligini anglaymiz. Til so'zlovchi dunyoqarashi va ma'naviyatining aks etishidir. Bundan kelib chiqadiki, til uning sohiblari milliy – madaniy mentalitetini taqdim etish qobiliyatiga ega, u bilish vositasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu narsa milliy-lisoniy bilish kategoriyasini tilda o'z ifodasini topgan olamni talqin qilishning o'ziga xos (etnospetsifik) usuli sifatida qarash imkoniyatini beradi. Bu usul u yoki bu *madaniy lingvistika* uyushmasiga xos bo'ladi.

Manbalarda xalqning mentaliteti va an'analarini, madaniyatini ifodalovchi tilning xizmat doirasi turlicha ta'riflanadi. Masalan, o'zbek xalqi maqollari va hikmatlarida quyidagicha iboralarni uchratish mumkin.

a). Til – milliy madaniyat oynasi, uni saqlovchi xazina. Bu iborada leksik boylik, grammatik birliklar, idiomatik so'zlar, maqollar, umuman, folklor, badiiy va ilmiy adabiyotning boyliklari nazarda tutiladi.

b). Til – qudratli ijtimoiy - siyosiy qurol, ya'ni til orqali ijtimoiy, siyosiy, madaniy qarashlar uzoq vaqt saqlanadi va u orqali inson, millat shakllanadi. Xalq tili hamisha milliy ruh bilan chambarchas bog'langan [O'zbek xalqi maqollari, 2005: 184].

Jumladan, Sh.Abdurazzoqovaning "Tafakkur gulshani" nomli asarida buyuk bobomiz Alisher Navoiyning til va so'z insoniylikning asosiy belgisi ekanligi haqida aytgan quyidagi misralari keltiriladi: Chunonchi,

So'z durki, nishon berur o'lukka jondin,

So'z durki, berur jong'a xabar jonondin,

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin [Abdurozzoqova Sh., 1989: 165].

Albatta til xalq og'zaki ijodini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Darvoqe, til madaniyat yoki madaniy boylikni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi nihoyatda muhim va qudratli kuchga ega bo'lgan vositadir. Zero, hozirgi zamon fanida til va madaniyatning o'zaro munosabatiga alohida e'tibor beriladi. Til insonning eng yuksak darajadagi mulkidir. U insonning, etnos (xalq)ning xarakterini yorqin ifodalaydi, dunyo madaniyati bilan aloqasini belgilaydi. Bunda biz insonni u yashayotgan va har xil xarakterda bo'lgan jamiyat orqali bilsak, uning so'zlashayotgan tiliga qarab qaysi millatga xosligi va madaniyati darajasi haqida fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Umuman inson tili xalq, millat tafakkurining oynasidir va har bir millatning aqliy tuzilishi o'z tilida stereotip (andoza) sifatida shakllangan bo'ladi. Buni biz yuqorida qayd etgan manbalarda aytilgan fikrlar orqali tasdiqlashimiz mumkin.

Xullas, hozirgi kunda ilmiy bilishning lingvistik paradigmasida yetakchilik qiluvchi farazlar shuni tasdiqlaydiki, har bir til atrofimizni o'rab turgan olamni konseptlashtirishning ma'lum bir usulini namoyon etadi. Bunda tilning ma'no anglatuvchi birliklari ma'lum qarashlar tizimini, o'ziga xos jamoa (kollektiv) falsafasini yaratadi, bu narsa barcha til sohiblariga majburiy sifat tariqasida yuklanadi. U yoki bu tilga xos bo'lgan konseptual usul universal xarakterga ega bo'lib, shu bilan birga u milliy o'ziga xoslikni ham ifoda etadi, ushbu xususiyat "olamni turlicha ko'rish", turli xil tillar "prizmasi orqali" yoritish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Abdurozzoqova Sh. Tafakkur gulshani. –T.: G'afur G'ulom, 1989.-462 b.
2. Abdurahmonov M. Qisqacha o'zbekcha – ruscha frazeologik lug'at. – T.: O'qituvchi, 1980.- 183 b.
1. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки 2001. № 1.
2. G'ofurov Z. Falsafa lug'ati. – T.: O'zbekiston, 1976.- 640 b.
3. Ruscha - o'zbekcha lug'at. – T.: O'ZSE. 1983.- 808 s.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.-91b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: O'ZSE, 1981.- 632 b.
6. Uzbekskiy – russkiy slovar – M.: O'ZSE, 1959.- 840 s.
7. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005.- 512 b.

DIFFERENTIATION OF COLLOQUIAL RHYMED CONSTRUCTIONS WITH HUMOROUS NAMES OF COLLOQUIAL NUMERALS

Annotation: The article examines the structural specificity of the classification of colloquial constructions involving the hidden meaning of colloquial and humorous names of numerals. The analysis is carried out on examples from dictionary entries.

Keywords: structural classification, colloquial expressions, colloquial numerals, rhyming slang, hidden meaning.

Colloquialisms, slangisms, rhymed slang, vulgarisms are studied from the perspective of: analysis of neolexical processes in English-speaking countries [8, p. 70; 9, p. 88], identification and decoding of the hidden meaning of colloquial words and expressions [5, p. 192; 10, p. 81], reflection of the place and role of the colloquial layer of language in the lexicographic system of modern English [1, p. 40; 3, p. 10], consideration of the originality and coloring of colloquial constructions from the prism of modern trends in linguistics [2, p. 12; 12, p. 23], study of word-formation processes [7, p. 540], classification of thematic groups of lexical units reflecting etymological and lexical-semantic features [6, p. 128; 13, p. 202], systematization of colloquial vocabulary in certain periods [11, p. 19], etc.

Let's analyze the structural features of humorous names of numerals that are used during the game of bingo and in everyday communication.

1) Numeral = noun (singular) + noun (singular) (without conjunctions). Cp.: *Eight = Garden Gate* [4, p. 893]. Cp. also: *Seventy-seven = Sunset Strip* [4, p. 895].

2) Numeral = noun (singular) + conjunction + noun (singular). Cp.: *Twenty-five = Duck and Dive* [4, p. 893].

3) Numeral = noun + article + noun. Cp.: *Fifty = Half a Century* [4, p. 894].

4) Numeral = noun (plural). Cp.: *Thirty-nine = Steps* [4, p. 894].

5) Numeral = noun (with partially reduplicated form). Cp.: *Sixty-six = Clickety-click* [4, p.894].

6) Numeral = noun + abbreviation. Cp.: *Seventy-three = Queen B* [4, p.895].

7) Numeral = noun (in the possessive case) + noun (in the singular). Cp.: *One = Kelly's Eye* [4, p. 893]. Cp. also in the possessive form with a proper name: *Ten = Gordon's Den*, *Fourteen = Valentine's Day* [4, p. 893], *Sixty-one = Baker's Bun* [4, p.894], *Seventy-eight = Heaven's Gate* [4, p.895].

8) Numeral = noun (in the possessive case) + noun (in the plural). Cp.: *Nine = Doctor's Orders* [4, p.893].

9) Numeral = noun (singular) + preposition + noun (singular). Cp.: *Three = Cup of Tea* [4, p.893]. Cp. also: *Twenty-seven = Gateway to Heaven* [4, p.893], *Eighty-three = Time for Tea* [4, p.895], *Forty-one = Time for Fun* [4, p.894].

10) Numeral = noun (singular) + preposition + article + noun (singular). Cp.: *Twenty-one = Key of the Door* [4, p.893]. Cp. also: *Fifty-one = Tweak of the Thumb* [4, p.894], *Fifty-three = Stuck in the Tree* [4, p.894], *Ninety = Top of the Shop* [4, p.895].

11) Numeral = noun (plural) + numeral. Cp.: *Eleven = Legs Eleven* [4, p.893]. Cp. also: *Seventy-six = Trombones* [4, p.893].

12) Numeral = noun (proper name). Cp.: *Six = Tom Mix* [4, p.893]. Cp. also: *Fourteen = Valentine's Day* – name of the holiday (in the possessive case) [4, p.893], *Forty-two = Winnie the Pooh* – the name of the fairy tale hero [4, p.894], *Fifty-two = Danny La Rue* [4, p.894], *Fifty-nine = Brighton Line* [4, c.894].

13) Numeral = noun (proper name) + noun (plural). Cp.: *Fifty-seven = Heinz Varieties* [4, p.894].

14) Numeral = noun (proper name) + preposition + noun (proper name). Cp.: *Torquay in Devon* [4, p.895].

15) Numeral = adjective + noun (singular). Cp.: *Thirty-three = Dirty Knee* [4, c.894]. Cp. also: *Christmas cake* [4, p.894], *Sixty-four = Red Raw* [4, p.894], *Seventy-four = Candy Store* [4, p.895].

16) Numeral = adjective + noun (plural). Cp.: *Forty-four = Droopy Drawers* [4, p.894].

17) Numeral = adjective + noun (proper name). Cp.: *Thirty = Dirty Gertie* [4, p.893].

18) Numeral = adjective + noun + noun. Cp.: *Sixty-five = Old Age Pension* [4, p.894].

19) Numeral = adjective + conjunction + adjective. Cp.: *Fifteen = Young and Keen* [4, p.893].

20) Numeral = adjective + numeral. Cp.: *Seven = Lucky Seven* [4, p.893]. Cp. also other examples: *Sixteen = Sweet Sixteen* [4, p.893], *Forty = Naughty Forty* [4, p.894].

21) Numeral = numeral + noun. Cp.: *Twelve = One Dozen* [4, p.893]. Cp. also other examples: *Twenty = One Score* [4, p.893], *Twenty-four = Two Dozen* [4, p.893], *Thirty-six = Three Dozen* [4, p.894], *Forty-eight = Four Dozen* [4, p.894], *Sixty = Five Dozen* [4, p.894], *Seventy-two = Six Dozen* [4, p.894], *Eighty-four = Seven Dozen* [4, p.895].

22) Numeral = numeral + noun + conjunction + numeral. Cp.: *Seventy = Three Score and Ten* [4, p.895].

23) Numeral = numeral + adjective + noun (singular). Cp.: *Two = One Little Duck* [4, p.893].

24) Numeral = numeral + adjective + noun (plural). Cp.: *Twenty two = Two Little Ducks* [4, p.893]. Cp. also: *Eighty-eight = Two Fat Ladies* [4, p.895].

25) Numeral = numeral + conjunction + numeral. Cp.: *Forty-seven = Four and Seven* [4, p.894].

26) Numeral = numeral + conjunction + noun. Cp.: *Eighty = Eight and Blank* [4, p.895].

27) Numeral = pronoun + conjunction + pronoun. Cp.: *Twenty three = Thee and me* [4, p.893].

28) Numeral = verb (with the -ing form) + noun. Cp.: *Sixty-eight = saving Grace* [4, p.894].

29) Numeral = verb + noun (plural). Cp.: *Nineteen = Goodbye Teens* [4, p.893].

30) Numeral = verb + conjunction + noun (singular). Cp.: *Eighteen = Coming of Age* [4, p.893]. Cp. also: *Seventy-five = Strive and Strive* (with repetition of the same word) [4, p.895].

31) Numeral = verb + article + noun (singular). Cp.: *Fifty-four = Clean the Floor* [4, p.894].

32) Numeral = verb + preposition + article + noun (singular). Cp.: *Four = Knock at the Door* [4, p.893]. Cp. also: *Sixty-two = Turn on the Screw* [4, p.894], *Seventy-one = Bang on the Drum* [4, p.895].

33) Numeral = verb + preposition + adjective (in comparative degree). Cp.: *Thirty-four = Ask for More* [4, p.894].

34) Numeral = verb + preposition + noun. Cp.: *Sixty-seven = Made in Heaven* [4, p.894].

35) Numeral = verb + pronoun + noun. Cp.: *Thirty-two = Buckle my Shoe* [4, p.893].

36) Numeral = verb + pronoun. Cp.: *Sixty three = Tickle Me* [4, p.894].

37) Numeral = verb + conjunction + verb. Cp.: *Twenty-six = Pick and Mix* [4, p.893]. Cp. also: *Twenty-nine = Rise and Shine* [4, p.893], *Thirty-five = Jump and Jive* [4, p.894], *Eighty-one = Stop and Run* [4, p.895].

38) Numeral = verb + pronoun + verb. Cp.: *Make Them Wait* [4, p.894].

39) Numeral = verb + pronoun + verb + pronoun. Cp.: *Was She Worth it* [4, p.894].

40) Numeral = phrasal verb + conjunction + verb. Cp.: *Thirty-one = Get Up and Run* [4, p.894].

41) Numeral = adverb + adverb. Cp.: *Forty-five = Halfway There* [4, p.894]. Cp. also: *Eighty-nine = Nearly There* [4, p.895].

42) Numeral = adjective/noun/verb (if there are identical forms for different parts of speech). Cp.: *Twenty-eight = Over-Weight* [4, p.893].

- 43) Numeral = idiom. Cp.: *Forty-three = Down on your Knees* (phrasal verb + pronoun + plural noun) [4, p.894]. Cp. also: *Forty-six = Up to Tricks* [4, p.894].
- 44) Numeral = shortened form. Cp.: *Forty-nine = P.C.* [4, p.894].
- 45) Numeral = exclamation. Cp.: *Five = Man Alive* [4, p.893]. Cp. also: *Fifty-five = Snakes Alive* [4, p.894], *Eighty-five = Staying Alive* [4, p.895].
- 46) Numeral = preposition + article + noun (plural). Cp.: *Eighty-six = Between the Sticks* [4, p.895].

List of used literature:

1. Бушуй Т.А. Краткий экскурс в современную немецкую лексикографию // Язык и культура. – 2021. – С. 40-46.
2. Бушуй Т. Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка // Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-17.
3. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.
4. Семиволкова С.В. Современный англо-русский словарь живого английского языка. – М.: Астрель, 2010. – 896 с.
5. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.
6. Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – №. 7 (465). – С. 128-136.
7. Фалеева А.В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.
8. Фалеева Е.В. Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы // International scientific review. – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74.
9. Фалеева Е.В. Неологопроцессы Современного Английского Языка // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 39. – С. 88-92.
10. Bushuy T. Contextual actualization of phraseology in English expressions // Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach. – 2015. – С. 81.
11. Bushuy T., & Khayrullaev K. Life of Word during Coronavirus. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(8), 2022. – С. 19–28. URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613>
12. Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678>
13. Faleeva A.V. Grammatical, Semantic and Structural Features of English Colloquial Words and Expressions // International journal of language learning and applied linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 202-206.

Г.М. Каримова
(*ЎзР ИИБ Академияси доценти*)

КЎЧИШ ЖАРАЁНИ - ТАРЖИМАДАГИ НОЗИК ҚИРРА СИФАТИДА

Аннотация: мақолада тилдаги туркумлараро кўчиш ҳодисасининг қандай шаклларда рўй бериш жараёни ва унинг аҳамияти назарий жиҳатдан ёритилган. Шунингдек, кўчишнинг таржимадаги роли амалий исботланган.

Калит сўзлар: тил системаси, тил белгилари, туркумлараро кўчиш, морфологик-синтактик сатҳ, лексик-грамматик маъно, тилнинг лексик-грамматик қурилиши, луғат бойлиги, таржима жараёни.

Ўзининг асосий ёпиқ категорияларида тил белгилари нутқнинг кўп сонли талабларини қондириш учун жуда чегараланган воситалар сифатида хизмат қилади. Лекин сўз туркумлари ўртасидаги алмашинув туфайли фикр ифодаси анча эркин бўлади ва мазмун жиҳатдан кенгайиб, турли маъно нозикликларга эга бўлади. Демак, нутқ жараёнида туркумлараро алмашинувнинг услубий аҳамияти катта.

Маълумки, ҳар бир сўз туркуми ўзига хос семантик-грамматик белгиларга эга. Сўзлар ўз туркуми доирасидаги вазифаларни бажариши, унга хос бўлган лексик-грамматик хусусиятларга эга бўлиш билан бирга бошқа сўз туркуми вазифасида ҳам қўлланиши мумкин. Тил сатҳида от, сифат, сон ва олмош узвий алоқадордир. Бунинг асосий сабаби ҳали сўз туркумлари орасида катъий фарқланиш бўлмаган даврларга, яъни бобо тилда от, сифат, сон олмошларнинг ҳаммаси умумий исм туркуми доирасида бўлган деб тахмин қилинишига бориб тақалади. Шунинг учун нутқ жараёнида нарсани белгиси ёки миқдори орқали аниқлаш ҳодисаси – кўчиш анча фаол учрайди. Сўзнинг морфологик-синтактик сатҳдаги кўчиши тилда жуда катта рол ўйнайди. Зеро, бундай кўчиш тилнинг номинативлик имкониятини кенгайтириб, ифодалаш усулларининг ранг-баранг бўлишига хизмат қилади. Сўз туркумлари ўртасида юз берувчи морфологик-синтактик кўчиш ҳодисасида лексик бирлик фақат матнда бошқа туркумга хос бўлган белгиларга эга бўлади. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ушбу ўринда маънода торайиш, моҳиятни ойдинлаштиришнинг кучайиши кузатилади. Амалий жиҳатдан қараганда, қарийб ҳар қандай сўз бир туркумдан бошқасига ўтиши мумкин. Мустақил лексик birlikларнинг нутқда ёки ундан ташқарида ҳам ёрдамчи сўз ёхуд қўшимчаларга айланиши узоқ тарихий тараққиёт жараёнида шаклланади. Тилдаги сўзларнинг ўзаро таъсири, доимий ривожланиши мазкур ҳодисани келтириб чиқарувчи омиллардан ҳисобланади. Маълумки, тилдаги ўзгаришлар бирдан содир бўлмайди, балки аста-секин, асрлар давомида юзага келади ва шаклланади.

Категориялар ўртасидаги кўчиш жараёнида функционал алмашинув ва тўлиқ кўчиш ўзаро фарқланади. Нутқ ҳодисаси ҳисобланмиш функционал алмашинувда сўздаги синтактик вазифа ҳамда морфологик парадигманинг ўзгариши асосий рол ўйнайди. У сўзнинг нутқ сатҳида бошқа туркум вазифасини бажариш учун мослашуви бўлиб, ифода усулларини ранг-баранг қилиб, нутқнинг услубий жиҳатдан ихчам бўлишини таъминлайди.

Кўчишнинг иккинчи кўриниши тўлиқ кўчиш бўлиб, бундай сўзлар кўчган туркумига хос барча белгиларга эга бўлишади. Шу туркум таркибини бойитади. Тўлиқ кўчган сўзларда иккинчи туркумга хос хусусият турғун ва доимийдир. Тўлиқ кўчиш тил ҳодисасидир. Сўзлар нутқ эҳтиёжи туфайли муайян шароитларда бир лексик-грамматик категориядан бошқа бир грамматик категорияга ўтади. Бунда сўз ўзининг аввалги бир қанча белгиларини йўқотади ва шу билан бирга янги жиҳатларга ҳам эга бўлади. Чунки сўздаги лексик маънонинг сусайиши ёки бутунлай йўқолиши унинг луғат бойлигидан ўчирилди, дегани эмас. Энди у бошқа мақомда инсонлар томонидан ишлатила бошлайди. Сўзнинг грамматик моҳияти, маъноси ўзгаради. Мустақил сўз туркумларига кирган лексик birlikлар морфологик-синтактик жиҳатдангина эмас, лексик-семантик томондан ҳам ўзгариб, ёрдамчи сўз туркумлари ёки қўшимчалар категориясини ташкил этади. Юқорида қайд қилинганидек, аташ маъносига эга унсурларнинг грамматик birlikларга ўтиши тасодифан содир бўлмайди. У сўздаги кейинги туркумга хос характерли хусусиятларнинг узоқ вақт мобайнида тўпланиши ва аввалги сўз туркумига хос семантик-грамматик ҳолатнинг кучсизланиши натижаси ўлароқ вужудга келади. Мазкур жараёнлар фикрни образли ифодалашга хизмат қилиб, унга турли маъно нозикликларини қўшади. Улар ўзаро тенг ҳодисалар эмас, балки бир-бирини тақозо этувчи мураккаб жараёнлардир. Биз уларнинг орасига хитой девори қўймоқчи эмасмиз. Иккала ҳодиса ўртасида шундай бир ҳарир, товланувчи парда борки, парданинг у томонига ўтсангиз бошқача, бу томонида янада ўзгача ҳодисага дуч келасиз. Асосий фарқ: иккинчи кўринишнинг хотимаси сифатида грамматик маъноли birlikларнинг тил системасида пайдо бўлишидир. Натижада илгари нутқда вариант мақомида ишлатилган birlik тилдаги инвариантга айланади.

Биз қанчалик кўп сўз билсак, луғат бойлигимиз шунчалик бой бўлиб, чиройли ва мазмунли нутқ сўзлаш имкониятимиз ошади. Ўз навбатида бошқалар билан ўзаро

мулоқотимиз кизиқарли тус олади. Инглиз тилида жуда кўп ҳолларда турли сўз туркумларига мансуб сўзларнинг ёзув ва талаффузда бир хил бўлиб қолиши кузатилади. Масалан, феълнинг инфинитив ёки бош келишик, бирлик шаклидаги отларни олайлик: : *telephone* от. (telefon) va *telephone* феъл. (телефон қилмоқ / телефон орқали хабар қилмоқ). Мазкур сўзлар нутқ таркибида нафақат синтактик вазифаларига кўра, балки морфологик жиҳатдан парадигма ҳосил қилиш хусусиятлари билан ҳам ўзаро фарқланади. Феъл вазифасидаги *telephone* сўзи *telephones, telephoned, telephoning* шакллариغا эга бўлса, бирликдаги от *telephone* кўпликда ишлатила олади: (*many*) *telephones*.

Демак, кўчиш тилнинг лексик-грамматик қурилишини бойитувчи унумли воситалардан ҳисобланиб, янги жараёнлар сари йўл очади. Кўчиш ҳолатида бўлган тил бирликларини оғзаки ва ёзма таржима жараёнида ўрнига қараб иккинчи тилга ўгириш эса таржимондан бу соҳадаги керакли билим, малака ҳамда кўникмани талаб этади. Шунингдек, мазкур ҳодиса инглиз тилини ўрганувчилар учун ҳам катта имконият яратади. Зеро, бу тилнинг луғат бойлигини ёдлаётган инсон барча босқичларда турган лексик ҳамда грамматик бирликларни биргаликда миясида сақлаб қолишга ҳаракат қилади. Натижада ўзи билмаган ҳолда кўпроқ луғат бойлигига эга бўлиб бораверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л.: Просвещение, 1981. – 295 с.
2. Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. Грамматика английского языка. Москва: Высшая школа, 1973. – 421 с.
3. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – 267 с.
4. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 284 бет.
5. Karimova G.M. Грамматикализация жараёнининг ўзига хослиги. IJORCES International journal of conference series on education and social sciences. ISSN 2717-7076. Publisher: Ocerint-International organization cente of academic research.
6. Karimova G.M. Some comments on complete grammar. ACADEMICIA: An International Multisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 SJIF 2021=7.492. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.02437.X.

Xasanova Gulrux
SamDCHTI Ingliz tili tarixi va grammatikasi
kafedrası katta o'qituvchisi

NOVERBAL VOSITALARNING VAZIFALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqola noverbal muloqotning ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni boshqarish, xatti-harakatlarni tartibga solish va hissiy holatlar va ijtimoiy me'yorlar kabi individual xususiyatlarni etkazishdagi ko'p qirrali roli ochib berilgan. Maqolada tilshunoslarning turli talqinlari, noverbal vositalarning kommunikativ-informativ, pragmatik va ekspressiv funktsiyalari yoritib berilgan. Maqolada, shuningdek, noverbal muloqotning sintaktik funktsiyalari ko'rib chiqilib, kinetik birliklar og'zaki nutqni qanday samarali almashtirishi va shu bilan odamlarning o'zaro ta'siri haqidagi tushunchani boyitishi tasvirlangan. Shuningdek, maqolada dialogik nutqda noverbal vositalar bajaradigan muhim vazifalar, ularning muloqotdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: noverbal vositalar, kinetik birlik, vazifa, verbal vositalar, kommunikativ-informativ vazifasi, shaxs.

Noverbal aloqa vositalari turli ijtimoiy vaziyatlarda kishilarni yo'naltirishga, shuningdek, ularning xulq-atvorini tartibga solishga, bir-birini tushunishga va ijtimoiy me'yorlarni idrok etishga yordam beradi. Noverbal muloqot insonning irqiy va ijtimoiy xususiyatlari, ularning ruhiy,

jismoniy va hissiy holati, muayyan vaziyat yoki muayyan shaxs yoki obyektga munosabati, shuningdek, jamoadagi psixologik iqlim haqida ma'lumot uzatish uchun ishlatiladi. Noverbal muloqotning muhim vazifasi – o'z-o'zini hurmat qilish, temperament, dilkashlik kabi muloqot subyektlari o'rtasidagi individual xususiyatlar haqida ma'lumot almashishdir.

Noverbal vositalarning vazifalarini lingvistlar turlicha talqin qilishgan. Jumladan, V.P.Konetskayaning ta'kidlashicha, noverbal vositalar verbal vositalar singari, kommunikativ-informativ kabi asosiy hamda turli holatlarda faollashadigan pragmatik va ifoda kabi xususiy vazifalarni bajaradi[1;124]. Noverbal vositalarning informativ vazifasi biror narsa yoki shaxs, ularning xususiyati, faoliyati va joylashgan o'rni haqida ma'lumot berishdir. Noverbal vositalar quyidagi xususiy pragmatik vazifalarni bajaradi: aloqa o'rnatish va qaytarish, o'zini tanishtirish, ijtimoiy yo'naltirish, rag'batlantirish va nazorat kabilar. Ifoda vazifalariga ta'sirchanlik, hissiy va moslashuvchanlik kabilar kiradi[1;124]. Darhaqiqat, olim noverbal vositalarning muloqotdagi qo'llanish vazifalarini ta'kidlab o'tgan bo'lib, muloqot jarayonida ishlatilayotgan noverbal vositalarning semantik xususiyatlariga e'tibor qaratgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ba'zi lingvistlar noverbal vositalarning sintaktik vazifalarini ham qayd etishgan. Chunonchi, I.N.Gorelov va K.F.Sedovning ta'kidlashicha, muloqotning noverbal qismlari gap bo'laklari vazifalarini bajarishi mumkin: ega, hol, kesim, vositali va vositasiz to'ldiruvchi kabi vazifalar[2;56].

Shuningdek, N.V.Nakashidzening qayd etishicha, muloqot jarayonida noverbal vositalar quyidagi kommunikativ vazifalarni bajaradi: nutqiy jarayonda lisoniy vositalarga hamroh bo'lish va nutqiy jarayonda alohida qo'llanish[3;133].

Olim noverbal vositalarning vazifalarini umumiy holatda faoliyatiga ko'ra ajratib qayd etgan. Bu vazifalarni bayon etish oson bo'lsa-da, ammo bu noverbal vositalarning nutqdagi vazifalarini to'liq ochib berolmaydi.

Noverbal vositalar bir qator vazifalarni bajaradi hamda dialogik nutqda muhim ahamiyat kasb etadi. Professor Argeylning qayd etishicha, nutqiy muloqotda noverbal vositalarning beshta asosiy vazifasi mavjud: 1) hissiyotni ifodalash; 2) shaxslararo munosabatlarni ifodalash; 3) nutqqa hamrohlik qilish: so'zlovchiga suhbatni boshqarishga yordam berish; 4) shaxsiyatni namoyon etish; 5) marosimlarni bajarish (chunonchi, salomlashish)[4].

So'zlovchi tomonidan qo'llanilgan noverbal vositalar (bosh chayqamoq, ko'zlarini yerga qaratib sukut saqlamoq) verbal vositalarsiz inkor va tasdiq xabarlarini uzatmoqda. Bu haqida professor A.Nurmonov "...dialogik nutqda kinetik birlik bilan nutq birligining doimiy aloqasi tufayli tamoman nutq birligining o'rnini kinetik birlik egallaydi. Kinetik birlik nutq birligi substitutsiyasi bo'lib keladi. Masalan: "*Nima qilyapsan?*", "*Qayerga ketyapsan?*" so'roqlarini kallaning yuqoriga bir marta silkinish harakati kuzatib borgan. Buning natijasida ular orasida bog'lanish hosil bo'lgan. Ana shu bog'lanish natijasida mazkur kinetik belgining o'zi ham mana shu so'roqlarning ma'nosini bera olish vazifasiga o'tgan" deb ta'kidlaydi [6;167].

Shuni ham ta'kidlash mumkinki, ba'zi noverbal vositalar turli madaniyatlarda farqlanadi[6]. Demak, dialogda adresant noverbal vositalarni ishlatganda, adresat xabarni to'g'ri qabul qilishi uchun o'sha noverbal vositalar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Noverbal vositalar aloqa vositasi sifatida fikr ifodalashga xizmat qilsa-da, biroq har doim ham nutqiy konnotatsiya yuzaga keltiravermaydi.

Shuni ham ta'kidlash mumkinki, dialogik nutqda noverbal vositalar verbal vositalarga hamroh bo'lib kelib, nutqning mazmunli va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi. Dialogik nutqda adresant va adresatning psixologik holati, bilim va ko'nikmalaridan kelib chiqib noverbal vositalar qo'llanilsa, nutq mazmunli va tushunmovchiliklardan xoli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Конечкая В.П. Социальная коммуникация. -М.: Междунар. Ун-т бизнеса и управления, 1997. – С. 124.
2. Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики. – М: Лабиринт, 1998. – С. 56.
3. Накашидзе Н.В. Кинесика и ее вербальное выражение в характеристике персонажей художественного произведения: на материале англо-американской

художественной прозы XX века. Автореферата по ВАК РФ 10.02.04, кандидат филологических наук. М., 1981. – С. 133.

4. Argyle Michael. Bodily communication. Second Ed. – Madison, 1988. ISBN 0-416-38140-5.

5. Birdwhistell R.L. Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.

6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jildlik. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.167.

*Sattarov Utkir Urazaliyevich Samarqand davlat chet tillar instituti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.*

ELEKTRON O'QUV ADABIYOTLARINING METODIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada elektron o'quv adabiyotlarining xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Elektron o'quv adabiyotlarining metodik jihatlari chet tili darsliklari misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: elektron darslik, metodik tavsiya, axborot-kommunikatsiya, an'anaviy ta'lim.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson faoliyatining turli sohalarida, shu jumladan, ta'lim sohasida ham eng yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda xorijdagi ko'plab oliy ta'lim muassasalar qatori bizning mamlakatimizda ham zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya imkoniyatlaridan bevosita ta'lim sohasida, xususan, chet tilini o'qitishda foydalanishni boshladilar.

Chet tili – bu o'ziga xosligi sababli turli xil texnik o'quv vositalarida eng moslashuvchan va keng foydalanishni nazarda tutadigan fanlardan biridir. Bugungi kunda chet tilini o'qitish sohasida yangi avlod darsliklarini yaratish zamonaviy sharoitda chet tilini o'qitishning mazmuni va uslublarini qayta ko'rib chiqish muammolari, muallifning o'qitish uslublarini yaratish, o'quv, uslubiy va metodik ta'minotni yaratish, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini samarali tashkil etishni qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda an'anaviy ta'lim bilan bir qatorda, mamlakatimizda masofaviy ta'lim ham olib borilmoqda. Bu jarayonda elektron o'quv materiallarning o'rni o'ziga xos bo'ladi. Elektron o'quv qo'llanmalari deyarli yigirma yillik rivojlanish tarixiga ega. Bu yillar davomida o'qituvchilar kompyuter texnologiyalari yutuqlarini diqqat bilan kuzatib borib, yangi eksperimental va didaktik vositalarga asoslangan darsliklar yaratish hamda ularni amaliyotiga joriy etish bilan shug'ullanganlar. Shu nuqtai nazardan jahonning ilg'or ta'lim tizimlarida Padlet, Quizlet, Storyboard, Kahoot, Mentimeter, Jeopardy zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari faol qo'llanmoqda.

Xuddi shu tendensiyalar bugungi kunda elektron o'quv vositalarini yaratish va ulardan foydalanish sohasida ba'zi nazariy va amaliy yutuqlarga ega bo'lgan chet tillarini o'qitish metodikasida ham kuzatilmoqda.

Ta'lim resurslari – bu inson (o'qituvchilar va talabalar), materiallar (binolar, jihozlar, aloqa vositalari) va axborot resurslarini o'z ichiga olgan keng va ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. O'qitish vositalari deganda esa, ideal ob'yektlar xususiyatlarini o'rganish maqsadida o'quv jarayoniga maxsus kiritilgan har qanday tabiat va texnologiya ob'yektlari tushuniladi. Ular, o'z navbatida, boshqa maishiy va moddiy vositaga ega bo'lishlari mumkin. Kodlangan ma'lumotlarga ega bo'lganligi uchun o'quv vositalarini taqdim etishda texnik vositalardan foydalanish talab qilinadi. O'quv jarayonini masofaviy tashkil etishda o'ziga xos o'quv vositalaridan hisoblangan multimedia ta'lim resurslari deganda ta'limni o'rgatish yoki qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan barcha elektron va kompyuter multimedia vositalarining yig'indisi tushuniladi.

Axborot o'quv resurslarini ikki guruhga bo'lish mumkin: o'quvga bevosita aloqador bo'lgan (mahalliy komponentlar) va o'quv markazining kompyuterlarida joylashgan (tarmoq tarkibiy

qismlari). Axborotni joylashtirish usuli resurslarni yaratish va ularga kirish texnologiyasiga ma'lum talablarni qo'yadi va ular quyidagilardir:

– mahalliy elektron ta'lim vositasi – mahalliy foydalanish uchun mo'ljallangan va ko'chma mashinada ma'lum miqdordagi bir xil nusxalar (tiraj) shaklida chiqarilgan elektron nashr, o'qiladigan ommaviy axborot vositalari;

– onlayn elektron nashr – telekommunikatsiya tarmoqlari orqali potensial cheksiz foydalanuvchilar doirasi uchun mavjud bo'lgan elektron nashr;

– mahalliy va tarmoq sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan elektron nashr.

Elektron ta'lim – o'qish yoki o'qitish, o'quv ma'lumotlarini uzatish yoki ularni almashish telekommunikatsiya texnologiyalari yoki aloqa kanallari (kompyuter tarmoqlari, telefon, radio, televizor, kino, faks va boshqalar) yordamida amalga oshiriladigan har qanday trening.

Elektron ta'limning eng keng tarqalgan turi bu kompyuter asosida o'rganishdir.

Kompyuter ta'limi bu yangi texnologiyalaridan va uning qulayliklaridan samarali foydalaniladigan va aloqa faoliyatning muayyan shakllarini o'zlashtiradigan ta'limdir. Ushbu prinsipni amalga oshirish jarayonida multimedia manbalarini ham birinchi, ham ikkinchi yo'nalishda joriy etish mumkin [5: 18.; 46: 57].

Shu bilan birga, o'qitish ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan aloqa va faoliyat turlarini belgilash uchun shart-sharoitlarni tashkil etish vazifasini bajaradi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish jarayonida multimedia manbalarini ham birinchi, ham ikkinchi yo'nalishda joriy etish mumkin.

Multimedia resurslarini o'quv jarayoniga kiritish ikki asosiy yo'nalishga muvofiq amalga oshiriladi.

Birinchi yo'nalishga muvofiq kiritilgan ta'lim multimedia resurslari o'quv jarayoniga an'anaviy o'qitish usullari doirasida "qo'llab-quvvatlovchi" vosita sifatida kiritilgan bo'lib, bu holda axborot resurslari o'quv jarayonini intensivlashtirish, o'qitishni individualizatsiya qilish va o'qituvchilarni avtomatlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi [5: 76]. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini hisobga olish, nazorat qilish va baholash bilan bog'liq ish – multimedia resurslarini joriy etishning ikkinchi yo'nalishi bo'lib, bu ta'lim mazmunining o'zgarishiga, o'quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllarini qayta ko'rib chiqishga olib keladigan ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan ta'lim maqsadlari uchun elektron axborot resurslarining asosiy turlari axborot qidirish va ma'lumotli multimedia tizimlarini yaratish hisoblanadi. Ushbu jarayonda axborot resurslari va ulardan foydalanishdagi asosiy ob'yektlar quyidagilar hisoblanadi: qo'llaniladigan multimedia ensiklopediyalari, ta'lim oluvchilarining ko'nikmalari, elektron simulyatorlar, matematik va simulyasion modellashtirish uchun multimedia vositalari, masofaviy o'qitish laboratoriyalari va virtual laboratoriyalar uchun multimedia vositalari, avtomatlashtirilgan o'quv tizimlari, mutaxassislarni tayyorlash tizimlari, intellektual o'qitish tizimlari, elektron multimedia darsliklari [3: 109: 59: 83: 88: 130].

Dasturlashtirilgan o'qitishning didaktik tizim sifatida shakllanishi va rivojlanishiga amerikalik olimlar B.Skinner, N.Krauder va L.Stolarov, shuningdek, rus olimi V.Bespalko hissa qo'shganlar [2: 119]. Yuqorida takidlab o'tilgan olimlar dasturlashtirilgan, ya'ni ta'lim vositasi elektron ta'lim hisoblangan ta'limning quyidagi prinsiplarini taklif etishgan:

1. O'quv materialini tuzish prinsipi. Kursning o'quv materialida mavzu, ta'lim modullari ajratilgan bo'lib, bilimlar nisbatan mustaqil shaklda berilib, umumiy o'quv kontentining ajralmas qismlari hisoblanadi. O'quv materialning tarkibiy tuzilishi mantiqiy va mavzularning o'zaro bir-biriga aloqador holda tuzilishidir. Bitta darsning o'quv materiali imkon qadar eng kichik qismlarga bo'linadi, shuning uchun ularni assimilyatsiya qilish oson va o'zlashtirish majburiydir. Ushbu tamoyil kichik qadamlar prinsipi deb ham ataladi.

2. Teskari ijobiy aloqa prinsipi. Mazkur usulda talaba axborotning bir qismi tanishgach, o'z-o'zini nazorat qilishi uchun ma'lum topshiriqlarni qabul qilib oladi hamda savollarga javob berish orqali o'z munosabatlarini bildirib boradi. Odatda, talabaning savoliga javob berish uchun bir nechta javob variantlari taklif etiladi. Javobning har bir varianti mumkin bo'lgan tipik xato bilan

bog'langan va uning mazmuni bilan keyingi ta'lim faoliyati rag'batlantiradi. Javoblar to'liq bo'lgan taqdiridagina talaba dasturning keyingi qismini o'rganishga o'tishi mumkin. O'quv dasturlari bo'yicha fikr-mulohazalar ijobiy, tizimli bo'lishi kerak. Uning maqsadi ijobiy javoblarni kuchaytirish va o'quv faoliyatini rag'batlantirishdir.

3. Ta'limning individuallik prinsipi. Har bir talaba o'quv materialini o'z uslubida va o'z tempida o'rganadi. O'quv materialini o'rganish yo'llarini tanlash tarmoqlangan dasturning bir tarmog'i tomonidan belgilanadi va talabaning o'zini o'zi boshqarish paytida javob tanlashiga bog'liq [1: 63]. Dasturning barcha bosqichlarini birma-bir bosib o'tayotgan talabalar, o'zlari uchun maqbul rejimda ishlaydi va faqat shu holda ular o'rganishda rejalashtirilgan natijalarga erishishlari mumkin.

4. Asta-sekin o'rganish prinsipi. Bunga materialni o'zlashtirishda qiyinchilik darajasi asta-sekin o'sishi va so'rovlar sonining kamayishi, ularning dasturda to'liq yo'qolishi bilan erishiladi.

5. Bo'shliqlarni differensial tuzatish prinsipi. Dastur matnida mavjud bo'lgan har bir umumlashma misollar, qo'shimchalar va topshiriqlar yordamida turli xil versiyalarda bir necha marta (3-6 marta) takrorlanishi va tasvirlanishi kerak bo'ladi.

Demak, ushbu dasturlashtirilgan ta'limning didaktik xususiyati talabalarni ko'proq mustaqil ishlashga, o'rganish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni asta-sekin bartaraf etish orqali ta'lim maqsadiga erishiladi. Ushbu maqsadga erishish jarayonida elektron o'quv resurlarning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Барышников Н.В. Параметра обучения межкультурной коммуникации в средней школе. Иностранные языки в школе. №2. 2003. – С. 28.

2. Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. М.: Наука, 2007. – С. 288.

3. Беляев М. И. Из опыта создания электронных учебников // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Информатизация образования. № 1. 2009. – С. 15–24.

4. Вымятнин В.М., Демкин В.П., Можяева Г.В., Руденко Т.В. Мультимедиа-курсы: методология и технология разработки, Томск 2003// <http://ido.tsu.ru/ss/?unit> – 223.

5. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе: учебное пособие / С.Ф. Шатилов. – М.: Просвещение, 1986. – 223 с.

*Shabanova Sadaf Djumaliyevna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti*

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LINGVISTIK MODELLARNING O'RNI

Annotatsiya: Maqolaning asosiy maqsadi lingvistik model atamasini to'liq tushunish va uning qamrovini yanada kengroq aniqlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, lingvistik modellarning turli jihatlari muhokama qilinadi va ko'rib chiqiladi. Tilshunoslik tadqiqotida lingvistik modellarning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi va bu modellarning tilshunoslikka qo'shgan hissasi atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy tilshunoslik, lingvistik modellar, mexanik modellar, matn tahlili.

Lingvistik model tushunchasi tilshunoslikda qo'llaniladigan strukturaviy va tahliliy vositadir. Ushbu modellar til hodisalarini tushuntirish va tushunish uchun ishlatiladi. Matn tahlilida tez-tez ishlatiladigan bu modellar tilning tuzilishi va faoliyatini tushuntirish uchun asos yaratadi. Tilning funksiyalari va qo'llanilishini tavsiflash uchun lingvistik modellar qo'llaniladi. Ushbu modellar lingvistik tadqiqotlarda muhim rol o'ynaydi va turli fanlar bo'yicha lingvistik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi. Matn tahlilida tez-tez ishlatiladigan va tilning tuzilishi va faoliyatini tushuntirish uchun asos bo'lgan ushbu modellar tilning turli tomonlarini o'rganish uchun batafsil yondashuvni taklif qiladi. (Bekeyeva va boshq., 2021). Bundan tashqari,

tilning murakkabligini to'g'ri tushunish va tushuntirish qobiliyatiga lingvistik modellar tomonidan taqdim etilgan informatsion tahlillar yordam beradi. Shuning uchun lingvistik modellar tilshunoslikning asosiy qismi va tilning strukturaviy va funksional xususiyatlarini tushunish uchun ajralmas vositadir.

Lingvistik modellarning asosiy ta'rifi til hodisalarini tahlil qilish va tizimli tushuntirishdir. Tilning strukturaviy elementlari, tovush, ma'no va struktura munosabatlari kabi elementlar lingvistik modellarning asosini tashkil qiladi. Ushbu elementlar tilning ishlashini tushunish va tavsiflash uchun ishlatiladi. Lingvistik modellar turli janrlarda mavjud bo'lib, tilshunoslik sohasida konseptual asosni tashkil qiladi. Lingvistik modellarning asosiy ta'rifi va elementlari tilshunoslikdagi tadqiqotlarda nihoyatda muhim asos bo'lib, tilshunoslar tomonidan mustahkam poydevor hisoblanadi. Binobarin, lingvistik modellarni chuqur o'rganish tilshunoslik sohasida katta ahamiyatga ega bo'lib, tilshunos olimlar tomonidan qizg'in tadqiq qilinadigan mavzudir. (Toirova va Hamroeva, 2020).

Tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda lingvistik modellardan foydalanish tilning funksional va strukturaviy elementlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Lingvistik modellar tilshunoslik taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi va til hodisalarini har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. (Kasneci, 2023). Tilning asosiy ta'rifi va elementlari tilshunoslarga til hodisalarini yaxshiroq tushunish va ularni tizimli ravishda tushuntirish imkonini beradi.

Tilshunoslik modellarining xilma-xilligi tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarni boshqaradi va tilning murakkab tuzilishini tushunishga imkon beradi. Shuning uchun lingvistik modellarning asosiy ta'rifi va elementlari tilshunoslikning muhim mavzusi bo'lib, tilshunoslar tomonidan jadal o'rganiladigan mavzudir.

Tilshunoslar tilning tuzilishini lingvistik modellar yordamida tahlil qiladilar va til hodisalarini tizimli tahlil qilishga harakat qiladilar. Lingvistik modellardan foydalanish nafaqat tilshunoslikning umumiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki tilning asosiy elementlarini tushunishda ham katta ahamiyatga ega. Tilning tuzilishi va faoliyati haqida ko'proq ma'lumot olish va til hodisalarini tahlil qilish uchun lingvistik modellardan foydalanish muqarrar. (Shuhratovna, 2022).

Lingvistik modellarni tasniflash - tilshunoslikdagi turli modellarni strukturaviy o'xshashlik va farqlardan kelib chiqib turkumlash jarayonidir. Ushbu tasnif bizga modellarning umumiy xususiyatlarini tushunishga va ulardan turli kontekstlarda qanday foydalanish mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Mexanik modellar esa til tuzilishini bevosita jismoniy modellashtirishni ta'minlaydi. Tilning qanday ishlab chiqarilishi yoki talqin qilinishi haqida nazariyalar ishlab chiqiladi, odatda tilning mexanik ishlashiga e'tibor qaratiladi. Ushbu modelni tizimli modellashtirish yoki tilning matematik tasviri sifatida ham ko'rish mumkin. Ushbu tasnif bizga modellarning umumiy xususiyatlarini tushunishga va ulardan turli kontekstlarda qanday foydalanish mumkinligini aniqlashga yordam beradi. (Aktaş, 2022).

Mexanik modellar tilshunoslikda qo'llaniladigan tasniflashning muhim turi bo'lib, tilning strukturaviy xususiyatlarini tavsiflashning asosiy mexanizmini ta'minlaydi. Ushbu modellar tilning tarkibiy qismlari va munosabatlarini tasvirlash uchun ko'pincha turli matematik va mantiqiy formulalardan foydalanadi. Tilning qanday ishlashi va uning qanday tushunilishi haqida tushuncha beradigan mexanik modellar lingvistik tadqiqotlarda asosiy rol o'ynaydi va tilning murakkab tuzilishini tushunishga yordam beradi. Ular, shuningdek, tilning ishlashini yanada aniqroq tushuntirish uchun ishlatiladigan turli misollar bilan qo'llab-quvvatlanadi. (ATAY, 2022).

Matn tahlilida qo'llaniladigan modellar tilshunoslik sohasidagi matnlarning strukturaviy va funksional xususiyatlarini o'rganib, tildan foydalanish haqida chuqur tushuncha beradi. Ushbu modellar matnlarning lingvistik elementlari va matnlarning kommunikativ maqsadi o'rtasidagi munosabatlarni ochish uchun ishlatiladigan usullarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Masalan, kontent tahlili, tiplashtirish tahlili, ritorik tahlil, nutq tahlili va sotsiolingvistika kabi modellar matnlarning qoliplari va tuzilmalarini ochib beradi va matnlar qanday maqsadda foydalanilgani va ular qanday effekt yaratishni maqsad qilganligini aniqlashga yordam beradi. Qolaversa, til teranligi va matnlardagi konnotatsiyalar, semantik siljishlar, ironiya kabi bilvosita

ifoda shakllariga oid pragmatik tahlillar ham muhim o‘rin tutadi. Bu tahlillar matnlar zahirida yotgan ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillarni ochib berish orqali matnlar mazmunini yanada to‘liqroq baholash imkonini beradi. Boshqa tomondan, matnlarning katta ma’lumotlar to‘plamini tekshirish uchun kompyuterlashtirilgan matnni tahlil qilish usullari ham qo‘llaniladi. Ushbu usullar matnlarni avtomatik tasniflash, etiketlash, umumlashtirish va sub’yektiv hissiy tahlil qilish imkonini beradi. Shunday qilib, u matnlarning jamiyatda qanday qabul qilinishi haqida kengroq nuqtai nazarni taqdim etadi. (Taşkıran, 2021).

Xulosa qilib aytganda, lingvistik model atamasi va uning turlari haqidagi tadqiqotlar tilshunoslik tadqiqotlarida katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar tufayli tilning tarkibiy qismlari va munosabatlari yaxshiroq tushunildi va aniqlandi. Bundan tashqari, matn tahlilida mexanik modellardan foydalanish bizga tilning strukturaviy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Shuning uchun lingvistik modellar tilshunoslik sohasida ajralmas vosita bo‘lib, til tadqiqotida keng qo‘llanish doirasiga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hiver, Phil, et al. “Engagement in language learning: A systematic review of 20 years of research methods and definitions.” *Language teaching research* 28.1 (2024): 201-230.
2. Bekeyeva, Nuraisha, et al. “Phraseological Expressions in the Turkic Language: Comparative Analysis.” *International Journal of Society, Culture & Language* 9.2 (Themed Issue on Modern Realities of National Languages of CIS Countries) (2021): 29-40.
3. Toirova, G. and Hamroeva, N. “The importance of linguistic models in the development of language bases.” *Sciences of Europe*, 2020.
4. Kasneci, Enkelejda, et al. “ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education.” *Learning and individual differences* 103 (2023): 102274.
5. Shuhratovna, Dadabaeva Shirin. “COGNITIVE LINGUISTICS AND NEUROLINGUISTICS.” *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYIY JURNALI* 2.10 (2022): 308-321.
6. Aktaş, G. N. “Çeviri öğretiminde dil öğreniminin araştırılması: Türkiye, Almanya ve İspanya örneklerinin karşılaştırılması= Researching language learning in translation teaching: A” 2022.
7. ATAY, F. B. “Kadın Yazınında Metinlerarasılık ve Çeviri.” 2022.
8. Taşkıran, S. F. “Doğal dil işleme ile akademik metinlerin kümelenmesi.” 2021.
9. Mamajanova, M. “Model concept modeling in linguistics types of linguistic models.” *Экономика и социум*, 2021.
10. Zokirov, M. T. and Dadabayeva, S. S. “ABOUT THE ROLE OF LANGUAGES CONTACTS IN THE DEVELOPMENT OF LANGUAGES..” *Theoretical & Applied Science*, 2020.

*Oydinov Tursunmurod Yusipovich
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi*

FONEMALARNING DIFFERENSIAL VA INTEGRAL BELGILARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tildagi fonemalar sistemasi, ularning farqlanadigan va farqlanmaydigan belgilari haqida ma’lumotlar beriladi. XIX asrning ikkinchi yarmida jahon tilshunoslarining fonemalar haqidagi qarashlari ham o‘z aksini topgan. Muallif ushbu maqolada fonemalarning differensial va integral belgilari, ularning umumiy va farqli tomonlariga o‘z munosabatini bildirib o‘tgan.

Kalit so‘z va birikmalar: Differensial, integral, fonologiya, fonema, cho‘ziq va qisqa unlilar, jarangsiz va jarangli undoshlar, akustik, artikulyatsion, abstrakt bosqich, konkret bosqich, oppozitsiya.

Fonemalar fonologiyaning asosiy birligidir. Fonema – so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa mayda

bo'laklarga bo'linmaydigan tilning eng kichik tovush birligidir. Fonemalarni o'rganadigan ta'limot fonologiyadir. Fonologiya ma'lum bir tildagi fonemalar sistemasini, ularning farqlash belgilarini o'rganadi. Tildagi barcha fonemalar ma'lum farqlovchi belgilarga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Fonemalarni differensial belgisi ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilaridandir. Masalan, "s" undoshi o'zining jarangsizligi bilan jarangli "z" dan ajralib turadi, demak, "s" ning jarangsizligi va "z" ning esa jarangliligi bu ikki fonemaning differensial (farqlanadigan) belgilari sanaladi. Differensial belgilar fonemalarning xususiyatini belgilaydi – so'zlarning fonetik qobig'ini va ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: **so'r** va **zo'r** so'zlarining ma'nolari ayni shu ikki fonemaning ("s" va "z" larning) differensial belgilari – birining jarangsiz, ikkinchisining esa jarangli ekanligi tufayli farqlanmoqda.

Tilshunos olim N.S.Trubetskoy konsepsiyasi bo'yicha fonologik sistema leksik va grammatik ma'nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar (LFM bo'yicha fonologik qarama-qarshiliklar) majmuasi sifatida talqin qilinadi. U fonologiyada asosiy rol ni fonemalar emas, balki ularning ma'no farqlash funksiyasi o'ynashini ta'kidlaydi.¹ Olimning aytgan ma'lumotlaridan shuni bilish mumkinki, tilshunoslikda asosiy vazifani fonemalar emas, balki ularning ma'no farqlash vazifasini ta'kidlaydi.

L.V.Shcherba fonemaning funksional tomoniga, ya'ni ma'no farqlash xususiyatiga asosiy e'tiborini qaratdi va psixologik talqindan xalos bo'ldi. Jumladan, "Fransuz tili fonetikasi" asarida fonemaga sof funksional tomondan – so'z va uning shakllaridan farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar tipi sifatida yondashadi.² U fonemani ajratish uchun tovushning artikulyatsion-akustik xususiyati emas, balki ma'no farqlash xususiyati muhim belgi ekanini ta'kidlaydi. Masalan, so'roq yuklamasi a turlicha akustik-artikulyatsion xususiyatga ega bo'lishi (baland, past, cho'ziq yoki tez va h.k.) mumkin. Ammo lingvistik nuqtayi nazardan ular bir yuklama, bir tovush tipidir. Shunday qilib, akustik-artikulyatsion jihatdan turlicha tovushlar bir umumiy belgisi bilan tiplarga birlashadi va shu umumiy belgisi bilan boshqa shunday tovush tiplaridan ajralib turadi. L.Shcherba fikricha, ana shunday umumiy belgi ma'no farqlash xususiyatidir.

Differensial belgilar fonemalar artikulyatsiyasiga bog'liq bo'lishi ham mumkin: "b" – lab-lab undosh, "d" – til-tish (til oldi – dental) undoshi.

Artikulyatsiya o'rnidagi bu tafovutlar **bor** va **dor** so'zlarining fonetik tarkibini va ma'nolarini farqlamoqda: "q" – portlovchi undosh, "x" – sirg'aluvchi undosh. Artikulyatsiya usulidagi bu tafovutlar **qol** va **xol** so'zlarining tovush tarkibi va ma'nolarini farqlash uchun xizmat qilmoqda. Shuning uchun differensial belgilar fonologik relevant yoki semiologik relevant belgilar sanaladi.

The first approach means that someone speaks in a certain way because they are a man/woman, the other is the other way around: by speaking in a certain way, the speaker constitutes their identity as a man/woman.

Research on the subject (starting with Labov's) has shown several trends in female and male speech. The most important: women use the standard register more; "for a given sociolinguistic variable, male speakers of any speech style use the non-standardized variant more frequently than female speakers." This has often been explained by the perception of the standard variant as a prestige variant: women, because of their inferior position in society, should manifest their social aspirations through language.

However, Claire Lefebvre² notes that this theory is not 100% justified and the observed variation is at least partially of methodological origin: the different choice of subjects for male and female respondents, the higher level of completed education of female respondents, etc. Similarly, social networks and the intensity of contacts with others play an important role: in general, women are involved in larger and denser networks than men. However, she concludes that the problem of gender-language relations is much more complex.

Another observation is linked to innovation: female speakers use future variants more often, they spread them before the community is aware of them. This behavior mainly concerns the phonological system. However, Suzanne Romaine notes that this theory is not 100% justified and the observed variation is at least partially of methodological origin: the different choice of subjects for male and female respondents, the higher level of completed education of female respondents, etc. Similarly, social networks and the intensity of contacts with others play an important role: in general, women are involved in larger and denser networks than men. However, she concludes that the problem of gender-language relations is much more complex. Another observation is linked to innovation: female speakers use future variants more often, they spread them before the community is aware of them. This behavior mainly concerns the phonological system.

¹ Ivanova, E. V. "French youth vocabulary and its influence on the language." *Bulletin of Philology*, 2020, no. 4, pp. 110-121.

² Lefebvre, Claire. "Les argots des jeunes: une question de génération?" *Cahiers de Sociolinguistique*, 2017, n°99, pp. 62-79.

References:

1. Alekseeva, M. I. "Argot and slang in French: social and age factors." *Journal of Sociolinguistics*, 2018, no. 2, pp. 56-71.
2. Calvet, Louis-Jean. "L'argot et la société: dynamiques linguistiques à travers les âges." *Revue de Linguistique Française*, 2019, vol. 14, pp. 123-140.
3. Gadet, Françoise. "Le français populaire: argot, verlan, et autres formes d'innovation." *Langue Française*, 2015, n°187, pp. 33-52.
4. Ivanova, E. V. "French youth vocabulary and its influence on the language." *Bulletin of Philology*, 2020, no. 4, pp. 110-121.
5. Kuznetsova, N. P. "Sociolinguistic analysis of argot in French: age aspects." *Language and Society*, 2019, no. 3, pp. 45-60.
6. Lefebvre, Claire. "Les argots des jeunes: une question de génération?" *Cahiers de Sociolinguistique*, 2017, n°99, pp. 62-79.

IV SHO‘BA

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA'LIM USLUBIYATI MASALALARI

*Равшанов Махмуд,
профессор Навоийского государственного горного и технологического
университета, доктор филологических наук.*

СЛОВРНАЯ РАБОТА – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОВЛАДЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКОМ

Аннотация. На современном этапе жизни нашего общества, когда идет борьба за ускорение научно-технического прогресса, за совершенствование обучения и эстетического, морально-национального воспитания подрастающего поколения, когда во всех уровнях системы учебных заведений должны подготовить высококвалифицированных специалистов для во всех сферах народных хозяйств, особое значение приобретает знание изучений иностранных языков.

Ключевые слова: словарная работа, изучение иностранных языков, значение языковых единиц

В направлениях и реформы общеобразовательной и профессиональной школы придается большое значение оптимизации учебного процесса начиная с исторических опытов джадизма. Поэтому чрезвычайно важно изучить эффективность отдельных методов и средств обучения, развивая диалектики взаимодействий содержания, форм, методов и средств. В конечном счете такое изучение позволит разработать системный подход к выбору наиболее целесообразных способов обучения применительно к конкретному содержанию.

Настоящее время издаются научно-методические литературы, где исследуются вопросы дидактики методики, говорятся об опыте работы, даются методические рекомендации по отдельным вопросам преподавания русского языка. Значительное место занимают, литературы, освещающая роль и значения словарной работы в системе преподавания русского языка. На страницах во всех журналах, в том числе «Преподавания языка и литературы» проводятся обширные дискуссии о словарной работе, о составлении учебных словарей и т.п.

Несмотря на этих обширных работах в методических и дидактических литературах недостаточно освещены специальные теоретические, дидактические и методические основы словарных работ.

.Словарная работа в обучении нерусских русскому языку – эту большой и сложной комплексе различных видов и методических, дидактических приемов, применяемых на занятиях по развитию речи, изучению и усвоению практических правил грамматики, по привитию навыков русского произношения, при чтении художественной и специальной литературы и т.п.

Общеизвестно, что для практического овладения русским языком: приобретения навыков выразительного чтения, умения пересказывать содержание прочитанного, правильно излагать свои мысли на русском языке и грамотно писать – немаловажную роль играет словарная работа. К словарной работе надо подходить дифференцированно, в зависимости от уровня знаний обучающихся во всех этапах.

Как известно, уровень знаний учащихся во всех школ неодинаковы. Например, в городских и поселков городского типа большинство узбекских учащихся приходят в первый класс уже с определенным запасом русских слов, приобретенных ими в детских садах в настоящее время. Дома после уроков они часто играют с русскими ребятами, живущими по соседству, слышат русскую речь и сами говорят по-русски/

Для достижения повторяемости подлежащих изучению слов рекомендуются следующее:

- 1) при вопросно-ответной беседе задавать такие вопросы, которые требуют употребления ранее изученных слов;
- 2) объяснение новой грамматической темы весты на знакомой лексике;
- 3) практиковать составление рассказов по аналогии с изученными текстами;
- 4) составлять предложения с изученными словами в разных формах.

Таким образом, многие преподаватели русского языка мало внимания уделяют привитию навыков самостоятельной работы. Нередко ошибки, допущенные обучающимися, преподаватель исправляет сам. Обучающийся, допустивший эту ошибку, лишен возможности повторить слово в правильной форме.

Литературы

1. Аномович Е.А. Русский язык в начальных классах. – М., 1989
2. Власенков А.И. Развивающее обучение русскому языку. – М., 1993
3. Текучев А. В. Методика русского языка в средней школе // Учебник. М., 1980
4. Тоцкий П.С. Орфография без правил

*Турниязова Ш.Н.
Сам ДЧТИ доценти*

МАТН – ЮҚОРИ ПОҒОНАДАГИ СИНТАКТИК БИРЛИК

Аннотация. Мазкур мақолада матн ва унинг лингвистик табиати хусусида айрим мулоҳазалар юритилган. Кейинги йилларда тилшунослик соҳасида матн лингвистикаси масалалари тилшунослар томонидан анча кенг ўрганилган бўлса-да, матн лингвистикаси муаммолари бобида айтилган фикрлар бир-бирига муштарак эмас. Аммо уларнинг барчасида матн компонентларининг боғланишли эканлиги тўлиқ тан олинади. Бироқ бу ўринда ҳам боғланишлилик, асосан, семантик нуқтаи назардан изоҳланади.

Калит сўзлар: матн, семантика, синтаксис, боғланишлилик, ҳукм, нутқ, синтактик семантика, пропозитив структура.

Кейинги йилларда тилшунослик соҳасида матн лингвистикаси масалалари тилшунослар томонидан анча кенг ўрганилган бўлса-да, матн лингвистикаси муаммолари бобида айтилган фикрлар бир-бирига муштарак эмас. Аммо уларнинг барчасида матн компонентларининг боғланишли эканлиги тўлиқ тан олинади. Бироқ бу ўринда ҳам боғланишлилик, асосан, семантик нуқтаи назардан изоҳланади.

Юқоридагилар билан бир қаторда, матн таҳлилига синтактик нуқтаи назардан ёндашиш лозимми, ёки уни стилистик мақсадларга кўра ўрганиш керакми, ёки матн лингвистикаси деган янги бир соҳа асосланиши мақсадга мувофиқми, деган саволлар ҳам ҳозирги тилшунослигимизнинг ҳал этилиши лозим бўлган асосий муаммоларидан саналади.

Синтактик муаммолар талқини бўйича тадқиқот ишлари олиб бораётган аксарият мутахассислар матнни энг юқори даражадаги синтактик бирлик деб тушунадилар. Мазкур бирликнинг таркибий қисмлари гап, мураккаб синтактик қурилма, абзац кабилар саналади [1]. Стилистика муаммолари тадқиқи билан шуғилланувчи баъзи олимлар матнни стилистик ҳодиса деб биладилар [2].

Юқоридагилар билан бир қаторда шуни ҳам айтиш лозимки, ҳозирда синтактик семантика муаммолари тилшунослар диққатини торта бошлади. Аммо синтактик семантика, лексик семантика билан, шу билан бирга фонетик қоидалар билан узвий боғланган экан, уни автоном ҳолатда яшайди деб бўлмайди. Буни биз матннинг пропозитив структурасида кўришимиз мумкин.

Равшанки, пропозитив структура маълум бир предигатга асосланади. Предикат эса туб структурани, яъни семантик структурани тақозо этади. Предикат ана шу семантик ҳолатга таянади ҳамда ўз аргументлари билан пропозитив структурани ташкил қилади.

Матн мақомидаги мураккаб синтактик қурилмаларда эса бирдан ортиқ пропозитив структуралар муносабатидан вужудга келган макропропозитив структурани кўрамиз. Айни пайтда ҳам предикатларнинг аргументлар билан муносабатидан семантик инвариантлар ҳосил бўлади. Бу ўринда, албатта, прагматиканинг локутив акти ҳам фаол иштирок этади. Мазкур акт фонетик қоидалар доирасида фаоллик кўрсатади. Ана шулар асосида синтактик семантика ҳодисаси шакллана бошлайди [3].

Синтактик семантикага дастлаб тавсиф берилганда, уни гапнинг грамматик мазмуни доирасида кўриб чиқишган эди. Лекин айни кунларда унинг чегараси кенгайиб, матнни ҳам тўлиқ қамраб олганини кўрамиз. Буни аввало гапдан катта бирликларда кўрамиз.

Синтактик семантика матннинг мазмуний салмоғини ўрганмайди, балки матннинг мазмуний салмоғини таҳлил қилади. Бунда матннинг тўлиқлиги, мантиқий бутунлиги каби масалалар талқини текширилади.

Маълумки, гап таркибидаги ҳар бир сўз мантиқий бутунликни шакллантиради [4]. Ҳукм айнан шу жараён орқали пайдо бўлади. Шу билан бирга шуни ҳам таъкидлан жоизки, биз **ҳукм** тушунчасини одатдаги мантиқий ҳукмдан фарқламоғимиз даркор. Чунки мантиқда ҳукмлар якка –якка ҳолда ўрганилади. Тилшуносликда эса биз бир неча ҳукмлар тўғрисида фикр билдиришимиз, уларни таққослаб ўрганишимиз мумкин. Масалан, абзац таркибидаги ҳукмлар сони бирдан ортиқ бўлиши одатий ҳолдир. Бундан келиб чиқадики, матн ҳукмлар муносабатидан шаклланади. Тилшунос олим Л.П.Доблаев бу ҳақда қуйидагича фикр билдирган эди: “Агар муайян матннинг бир бўлаги бўлган гап ҳукм ифодасини берадиган бўлса, матнни, у бир неча гаплардан ташкил топган боис, мураккаб ҳукм деб билишимиз учун, бизнингча, тўлиқ асосимиз бор” [5].

Олим айни вазиятда мураккаб ҳукмни “матн ҳукми” деб номлайди. Олимнинг фикрига қўшилса бўлади, чунки , тузилишига кўра матн мураккаб саналар экан, айни пайтда ҳукм ҳам шу ном билан аталади. Бу хусусда айтилган Г.Я.Солганик ҳам Л.П.Доблаев сингари фикр билдиради [1]. Шунга ўхшаш мулоҳазани Р.Е.Лонгакр, ван Дейк каби олимлар айтиб ўтишган. Албатта, матн синтактик семантикасини ўрганиш учун бу фикрлар кенг имкон яратмоқда.

Профессор Н.Турниязовнинг фикрига кўра, синтактик семантика муаммоси ўз характерига кўра маълум жумланинг ёки микро- ёхуд макроматннинг воқеланиши боғлиқ бўлган воқелик тўғрисидаги инсон тафаккури доирасида шаклланувчи умумий мазмуний структурани тақозо этади ва ушбу семантик таҳлил кўпроқ гапни ва мураккаб синтактик қурилма қолипидаги микроматнларни назарда тутади. Аммо ҳозирда матн лингвистикаси доирасида эришилган ютуқларимиз каттароқ нутқ материалининг, яъни макроматнларнинг ҳам синтактик семантикасини ўрганиш имкониятини бермоқда [3].

Дарҳақиқат, матнларнинг синтактик семантикасини ўрганиш предметининг кенг доирада олиб қаралиши айни пайтда синтаксиснинг текширув объекти нафақат кичик синтаксис балки, катта синтаксис ҳам эканлиги билан бевосита алоқадордир. Айни пайтда шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, синтаксиснинг текширув объекти юқори поғонаси гап эмас, балки матндир. Сабаби шуки, биз анъанага кўра, тугал фикр ифодаси, гап сатҳида ўз аксини топади деган ғояни ҳар боим илгари суриб келганмиз. Бу ғояни аслида нисбий тушунмоқ лозим кўринади. Зеро тугал фикр ифодаси баъзан икки ёки ундан ортиқ мураккаб синтактик қурилмалар биргаликда олинганда кузатилади.

Бу вазиятда шуни айтиш лозимки, тугал фикр ифодаси дейилганда, албатта, фикрнинг мантиқий яхлитлигини тушунамиз. Бундай вазиятни эса биз баъзан сўз гапларда ҳам, айрим ҳолларда эса мураккаб синтактик қурилма, абзац сингари синтактик бирликларда ҳам кўришимиз мумкин. Аммо масаланинг асосий моҳияти бу эмас. Чунки кўп вазиятларда тафаккур ривожланиш босқичи алоҳида олиб қаралаётган бир ҳукм доирасида яқунлана олмайди. Бунинг учун ўзаро боғланган бир неча ҳукмларга эътиборни қаратишга тўғри келади.

Биз ҳозирда, мантиқий ҳукмнинг субъект ва предикат муносабатидан ташкил топишини анъанага кўра ўрганиб келмоқдамиз. Аммо матн тўғрисида фикр

билдирганимизда бу тушунчадан фойдаланмаймиз. Зеро, матн устпредикатив ҳодиса саналади. Шунинг учун у мураккаб ҳукм ифодасини берувчи объект саналади. Маълумки, предикат англатадиган мантиқий салмоқ, асосан, содда гапларда ифодаланувчи ҳукмда, ўрганилади. Шунинг учун матннинг синтактик семантикасини ўрганганимизда асосий эътиборни матн компонентларининг предикатлари ўртасидаги муносабатга қаратамиз. Зеро, матннинг умумий семантик салмоғи айнан шунга боғлиқ бўлади.

Аммо ҳозирда мантиқий тадқиқотларда фақат маълум бир жумланинг битта ҳукми орқали эмас, балки бир неча ҳукмлар орқали фикрнинг тўғри ёки нотўғрилигини исботлаш тўғрисида сўз юритилмоқда. Бу усул мантиқда далиллаш усули деб аталмоқда. Аммо лингвистикада бу усулдан ҳали фойдаланилгани йўқ. Бу йўналишда олиб бориш лозим бўлган изланишлар янги –янги тадқиқот ишларининг объекти бўлиб хизмат қилиши табиийдир.

Математик мантиқда мураккаб синтактик қурилмалар таҳлилида асосий эътибор қурилма таркибидаги жумлалар муносабатини ўрганишга қаратилмоқда. Бу жараёнда **конъюнкция** (мантиқда **ва** боғловчисини ифодаловчи термин), **дизъюнкция** (мантиқда **ёки** боғловчисини ифодаловчи термин), **импликация** (мантиқда **агар... бўлса** кўринишдаги боғланишни ифодаловчи термин) ҳодисалари эътибор марказида бўлмоқда. Аммо матннинг умумий маъноси талқинига жиддий эътибор қаратилмаяпти. Математик мантиқда, бошқача айтганда, матн таҳлилида фақат мантиқ эҳтиёжларини қондириш назарда тутилмоқда, холос [7].

Мураккаб синтактик қурилма қолипидаги матн структурасининг семантик салмоғини тадқиқ этишда мулоқот назарияси ҳам жуда муҳим саналади. Зеро, матн мураккаб ҳукми тақозо этибгина қолмай, балки яхлит ҳолдаги коммуникатив вазифани ҳам бажаради. Шу билан бирга, матннинг мулоқотга оид бўлган вазифаси сўзловчи томонидан кўзланган мақсад билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Яъни матннинг семантик вазни билан сўзловчи томонидан амалга оширилаётган иллокутив акт узвий боғлиқдир.

Албатта матн семантикасини тадқиқ қилишда мантиқий қоидалардан фойдаланиш табиийдир. Матннинг семантик жиҳатдан яхлитлигини тадқиқ қилишда ушбу қоидалар, восита бўла олади. Семантик яхлитликка биз жуда катта эътибор қаратишимиз керак, Бу жуда муҳимдир. Чунки турли хил чалкашликлар маъно ғализлиги туфайли содир бўлади. Ш.Сафаров таъкидлаганидек: “Маънога мурожаат қилмасдан туриб, нарса ҳодисалар ўртасидаги муносабатларни, уларни гуруҳлаштирувчи ва умумлаштирувчи белгиларни ажратиш мумкин эмас” [8].

Матннинг мулоқот таҳлили, мантиқий-семантик таҳлилдан фарқ қилади. Бу фарқ эса мулоқот таҳлилининг бир йула бир неча микро-, ҳатто макроматнларни қамраб олишида кўзга ташланади. Мулоқот таҳлили эса, асосан, матн бажараётган вазифасига асосланади. Хабар ифодасини бераётган газета материаллари, шу билан бирга, техник тавсиялар, анкеталар бунга мисол бўла олади. Улар муайян бир вазифа бажарилишини назарда тутади.

Айтиш лозимки, матннинг коммуникатив вазифаларига кўра турлари синтактик семантика нуқтаи назардан ҳам ўрганилгани йўқ. Бунинг учун проф. Н.Турниязовнинг фикрига кўра, қуйидаги коммуникатив мақсадларни когнитив-прагматик йўналишда, хусусан, иллокутив, перлокутив актлар талқини доирасида тадқиқот ишлари олиб бориш лозим кўринади: 1. Хабар ифодасини бермоқ. 2. Тавсифламоқ. 3. Яқунламоқ, тушунтириб бермоқ. 4. Далилламоқ. 5. Изоҳламоқ. 6. Сўрамоқ, буйруқ бермоқ, илтимос қилмоқ. 7. Чақирмоқ, таклиф қилмоқ [7].

Дарҳақиқат, синтактик семантика ана шу коммуникация турлари билан бевосита боғлиқ бўлади. Аммо мазкур муаммо ҳам ҳали ўз ечими топган эмас. Ж. Остиннинг перформатив акт ҳақида берган маълумоти эса бу муаммо ечимининг бошланиш қисми десак хато қилмаган бўламсиз. Перформатив акт деганда, олим муайян (аниқ) ҳаракатга асосланган хабар ифодасини назарда тутади [4].

Юқоридегилардан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, синтактик семантика ҳодисаси ҳозирда ҳали ўзининг дастлабки тараққиёт босқичидадир. Шунинг учун ҳам бу

маммо борасида олимларнинг айтган фикрларида ҳали уйғунлик кузатилмайди. А.Нурмонов бу ҳақда қуйидагиларни тўғри таъкидлайди. “ Ҳозирги кунда семантика деярли ҳамма тилшунослар томонидан эътироф этилса ҳам, аммо синтактик семантика мақоми масаласида бир хиллик йўқ” [9]. Бу эса олимларимизни бундан-да кўпроқ изланишга чорлайди.

Шуни ҳам айтиш керакки, К.Кожевникова матнни иерархик нуктаи назардан бири-бири билан боғланувчи гап, мураккаб синтактик қурилма, абзац, боб, мураккаб яхлитлик каби таркибий қисмларни ўз ичига олиши масаласи изоҳталаб эканлигидан далолат беришини эслатиб ўтади. Унинг фикрига кўра, матн энг юқори идеал мулоқот (коммуникатив) бирлиги ҳисобланади [10].

Профессор В.Г.Гакнинг тадқиқотларида матн синтактик бирлик сифатида таҳлил этилади. Бундай бирликнинг таркибий қисмлари турли характердаги гаплар ҳисобланади. Олимнинг эътироф этишича, матн таркибидаги гапларнинг мантикий-семантик муносабатлари унинг мазмуний структурасини ташкил этади. Аналогик вазиятда ҳар бир гапнинг маълум бир фактни, воқеа- ҳодисани кўрсатиши ёки уни изоҳлаши эътиборга олинмаган бўлса, бундай гапни ана шу факт ёки воқеа-ҳодисаларнинг атамаси (номинация данного факта) деб ҳисобласа бўлади. Матн таркибидаги гаплар қандай факт ёки воқеа-ҳодисани ифода этаётганига қараб бири-бири билан қиёсланиши мумкин ва улар қуйидаги икки турга бўлинади: 1) ҳар хил объектли гаплар, 2) бир хил объектли гаплар. Ҳар хил объектли гаплар турли хил воқеа-ҳодисаларни ифодаласа, бир хил объектли гаплар маълум бир ҳодисанинг баёнини беради.

Ана шунинг ўзи ҳам В.Г.Гак таълимоти матн таҳлили гаплар таҳлиliga асосланишини ва бу орқали матн таҳлилинини (умуман, матннинг ўзини) синтактик ҳодиса сифатида талқин этиш муҳим аҳамиятга эга, деган ғояга асосланганлигини кўрсатади [11].

Бизнинг фикримизча ҳам, матнни энг юқори поғонадаги синтактик бирлик мақомида талқин этиш мақсадга мувофиқдир. Чунки унинг таркибий қисмлари ҳисобланмиш гап, мураккаб синтактик қурилма кабилар синтактик бирликлар ҳисобланиши изоҳ талаб қилмайди. Айнан ана шу бирликлар абзацнинг шаклланишида ҳам фаол қатнашади. Бу масаланинг бир томони бўлса, унинг иккинчи томонини мураккаб синтактик қурилма, абзац кабиларнинг матн қолипида келиши ташкил этади. Ҳатто алоҳида олинган бир гап ҳам, аввал эслатиб ўтилгани сингари, маълум нутқий муҳит куршовида бутун бир матнга тенг келиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика.-М., 1973.
2. Винокур Т.Г. О содержании некоторых стилистических понятий// Стилистические исследования.-М., 1972.-С.43.
3. Турниязов Н.К. Синтактик семантика ва матн шаклланиши ҳақида баъзи мулоҳазалар Замонавий тилшунослик ва деривацион қонуниятлар. // Республика илмий-амалий-анжуман материаллари. Самарқанд, 2018.
4. Austin J.L. How to do things words. – Oxford: Clardon Press, 1962. 92.
5. Доблаев Л.П. Логика – психологический анализ текста. – Саратов, 1969. С.14.
6. Москальская О.И. Грамматика текста. – М., 1981. С.52.
7. Турниязов Н.К. Синтактик семантика ва матн шаклланиши ҳақида баъзи мулоҳазалар. // Ҳорижий филология , №3 2018 й.
8. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент, 2013.217-б.
9. Нурмонов А. Гапнинг мазмуний тузилиши ҳақида // Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент, 1992. 27-б.
10. Кожевникова К. об аспектах связности в тексте как целом // Синтаксис текста,- М., 1979.- С. 66.
11. Гак В.Г. Повторная номинация на уровне предложения// Синтаксис текста.-М., 1979.-С.91-102.

MAKROMATN SHAKLLANISHIDA APPLIKATIV MODELNING O‘RNI

Annotatsiya. Maqolada applikativ modelning abzatslararo bog‘lanishdagi o‘rni xususida ayrim mulohazalar keltirilgan. Matn lingvistikasiga bog‘ishlangan adabiyotlarda matn shakllanishi mexanizmini tushunish uchun matn kogeziyasini, matn komponentlari bog‘lanishining barcha turlarini o‘rganish zarurati tug‘iladi. Matn bu turli yo‘llar bilan uning umumiy kogeziyasi asosida bog‘langan til birliklarining, formalarining kontinuumidir. Matn kogeziyasini o‘rganish aspektlari sifatida tilshunoslar abzatslar bog‘lanishini, ya‘ni abzatsning ichki komponentlari bog‘lanishini hamda abzatslararo bog‘lanishni e’tirof etadilar.

Kalit so‘zlar: abzats, matn, makromatn, applikativ model, nutq, kogeziya.

Matn lingvistikasiga bog‘ishlangan adabiyotlarda matn shakllanishi mexanizmini tushunish uchun matn kogeziyasini, matn komponentlari bog‘lanishining barcha turlarini o‘rganish zarurati tug‘iladi. Matn bu turli yo‘llar bilan uning umumiy kogeziyasi asosida bog‘langan til birliklarining, formalarining kontinuumidir. Matn kogeziyasini o‘rganish aspektlari sifatida tilshunoslar abzatslar bog‘lanishini, ya‘ni abzatsning ichki komponentlari bog‘lanishini hamda abzatslararo bog‘lanishni e’tirof etadilar. Bunday qarashlar bir qator ishlarda ko‘zga tashlanadi (T.I.Gordiyenko, L.N.Mamayeva, V.N.Skibo, I.M.Novitskaya, V.P.Nikolayeva va boshqalar) [1,2,3,4,5]. Ammo shunday bo‘lsa-da, abzatslararo bog‘lanish hodisasi yuzasidan yangona bir fikrga kelingani yo‘q.

Shuni ham aytish joizki, abzatslararo bog‘lanishda har bir abzats maktomatnning komponenti sifatida kelib, uning segmenti sanaladi. Zotan mazkur abzatslarning tarkibiy qismlari, boshqacha aytganda, sintaktik derivatsiya operandlari mustaqil abzatslar qolipidagi sintaktik strukturalarni taqozo etadi. Shu sababdan abzats nutqning alohida birligi maqomiga egadir. Bu esa, o‘z navbatida, unga nutq birligi sathi maqomini beradi. Raqshanki, sath tushunchasi til hodisalarining diskret xarakteri bilan uzviy bog‘liq [6].

Ana shulardan kelib chiqib, abzatslarni ham kezi kelganda makromatnning segmentlari sifatida, ulrning paradigmasini esa mazkur segmentlarning majmuasini tashkil etuvchi vosita sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishini dalillash mumkin.

Abzatslarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shunda namoyon bo‘ladiki, ularning sintaktik strukturalari doimiy ravishda bir nechta mustaqil gap va murakkab sintaktik qurilmalarning sintaktik paradigmasidan tashkil topadi. Abzats komponentlarining har birida til birliklarining distributiv munosabati ustuvor ahamiyati kasb etsa, ular bilan abzats o‘rtasida esa integrativ munosabat muhim mavqega ega [6]. Ammo bu orqali integrativ munosabat matn sintaktik strukturasining komponentlari - mustaqil abzatslarda kuzatilmaydi degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. Zotan mustaqil abzatslarda gaplar paradigmasini kuzatar ekanmiz, unda ham integrativ munosabat mavjudligini inkor etish qiyin.

Umuman, abzatslararo munosabatda har bir abzatsning o‘zi derivatsiya opearndi bo‘lishi bilan birga, alohida olinganda mustaqil derivatni tashkil qilishi izoh talab qilmaydi. Bu vaziyatda abzatslararo munosabat va mustaqil abzats komponentlari operatorlari bir biridan farq qilishi ham tabiiydir. Shu bilan birga, applikativ model nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak, ularning applikatorlari ham bir-biridan farq qiladi. Fikr isboti uchun quyidagi misolga e’tibrimizni qaratamiz:

Hamida kanizga ergashib tolol tomon borar ekan, ipak durra bilan tangib chambar qilingan ikki urim uzun sochlarini yelkasiga tushirdi. Durraning uchi bilan qoshi ustidagi ter rezalarini artidi.

U tolol zinapoyasidan ko‘tarilayotganda Xonzoda begim o‘rnidan turib, unga tomon yurdi. Hamida bonu uch-turt qadam narida to‘xtab kelinlarday egilib ta‘zim kildi. Xonzoda begim unga kulimsirab ya‘qinlashdi-da, qo‘l berdi. Odatga binoan, Hamida bonu uning qo‘lini ikki qo‘llab oldi-yu, bir tizzasini yerga tirab, bayroqni o‘pgandek ixlos bilan o‘pdi. Qiz boshini eggan paytda

yo'gon qora socharining biri yelkasidan sirg'alib ko'krigiga tushdi. Xonzoda begim ikkinchi qo'li bilan uni belidan quchib sekin tikka turgizdi va zarbof ko'rpachaga taklif qildi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

Keltirilgan misol ikki abzatsdan tashkil topgan bo'lib, mazkur abzatslar bir-biri bilan kontakt bog'lanish asosida birikkan. Buni ikkinchi abzats birinchi abzatsning mazmuniy davomi ekanligidan sezish qiyin emas. Abzatslar semantik ma'nosi markazida esa *Hamida bonu* so'zi kelib, mazkur so'z makromatn mazmuni doirasida freym sifatida faollashgan. Lekin shunday bo'lsa-da, abzatslararo bog'lanishda sintaktik derivatsiya operatori sifatida biz *Hamida bonu* so'zini emas, balki ikkinchi abzats boshida kelgan *U* olmoshini olamiz. Chunki aynan ana shu so'z ikki abzatsni bir-biriga ham semantik, ham sintaktik jihatdan bog'lab, applikator vazifasini bajarmoqda.

Biroq agar biz har bir abzatsni makromatn tarkibidan chiqarib, ayro tahlil qiladigan bo'lsak, *Hamida bonu* so'zi har ikkala abzatsning operatori maqomida keladi.

Biroq bu bilan har doim ham birinchi abzatsda operator maqomidagi so'z ikkinchi abzatsda ham operator bo'lib keladi degan fikrga bormaslik kerak. Bunaqa vaziyat faqat faqat kontakt bog'lanishda bo'lishi mumkin. Agar abzatslar o'zaro distant bog'lansa, ikki abzats alohida tahlil qilinganda ikki xil operatorga, demakki ikki xil applikatorga tayanadi. Ammo abzatslararo bog'lanishning applikator bitta bo'ladi. E'tiborimizni quyidagi misolga qaratamiz:

Bog' juda orasta, yulkalarga oltinrang qumlar solingan, marmar ariqlardan tiniq suvlar jildirab oqadi. Chorchamanlarda mamlakatning eng noyob gullari muattar hid taratib ochilib turibdi.

Lekin bu hammasi Xonzoda begimga juda omonat tuyuladi. Inisi Bobur qonli janglarda barpo etib ketgan ulkan davlat hanuzgacha hind yeriga teran ildiz otolgan emas. Fotihlik qilichining yaralari tezda tuzalmas ekan. Mamlakatning turli o'lkalarida Humoyun va uning inilariga qarshi ketma-ket isyonlar bo'lmokda. Shu xatarli vaziyatda og'a-inilar inoq bo'lish o'rniga bir-birlari bilan chaplashib, hokimiyat talashadilar. Xonzoda begim ularni murosaga keltirolmay qiynaladi. Hozir bog'da o'ltirgan paytida ham, butun xayoli og'a-inilarning nizolaridan beri kelmaydi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

Keltirilgan misolda ikki abzats bog'lanishining guvohi bo'lmoqdamiz. Mazkur abzatslararo munosabatda ikki abzats bir-biri bilan distant (radial) munosabatda bog'langan. Zero, har bir abzatsning semantik markazida ikki xil so'z turganini sezish qiyin emas. Birinchi abzatsda **bog'**, ikkinchisida esa **nizolar** so'zi freym vazifasida kelayotganini ko'ramiz. Bu esa mazkur so'zlar abzats sintaktik derivatsiyasining operatori maqomida kelganidan dalolat beradi. Applikativ model nuqtai nazaridan esa abzats komponentlarini bog'lab turuvchi applikatorlar ham aynan ana shu ikki so'z ekanligini ta'kidlab o'tish zarur.

Ammo masalaga abzatslararo bog'lanishni hisobga olib yondashadigan bo'lsak, ikki abzatsni bir-biringa sintaktik-semantik jihatdan bog'lab turgan vosita **lekin** zidlov bog'lovchisi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu bog'lovchi komponenti ikki abzatsdan iborat bo'lgan makromatn sintaktik derivatsiyasining operatori vazifasida kelmoqda. Bir-biringa mazmuniy va sintaktik jihatdan bog'lanib kelgan ikki abzatsning applikator vazifasini ham aynan ana shu **lekin** bog'lovchisi bajarmoqda.

Ta'kidlash joizki, bog'lovchi matn derivatsiyasining eng faol unsurlaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham abzatslararo bog'lanishda bog'lovchilar makromatn komponentlarining bir-biriga tirkalishida eng ko'p qo'llaniladigan applikatorlar sifatida faollik ko'rsatadi. Ularning vositasida matn komponentlarining sintaktik munosabati har qachongidan ko'ra kuchliroq voqelanadi. Zotan bog'lovchi matn orqali ifodalanayotgan voqea-hodisalarning ketma-ket bog'lanishini ta'minlaydi. Bunda birinchi navbatda matn komponentlarining makon va zamondagi bog'lanishi o'z ifodasini topadi. Mazkur hodsida, ishimizning oldingi sahifalarida ham aytib o'tilganidek, kontinuum deyiladi.

Bog'lovchi matn sintaktik derivatsiyasining operatori sanaladi. Uning ishtirokisiz derivatsion jarayon shakllanmaydi. Shu bilan birga u applikator vazifasini bajaradi:

1. *Qiya ochiq darichada Arslonqulning madrasa sahnida uchib ketayotgan azamat gavdasini ko'rdi-da, birdan chuqur «uh» tortdi. Shu sodda yigitning yuragini zaharlagan qahrli,*

mudhish hayotni qarg'adi. Ko'ksida ishqning muqaddas, toza alangasini yillardan buyon saqlab kelgan bu olijanob, faqir yigitga baxt tiladi. Lekin shu onda u o'z ko'ksida eski dardning kuchli chayqalganini sezdi.

Biroq bu hasad emasdi. Bu chin, samimiy ishq og'rig'i edi. Dildoming nafis husni, xuddi kechagina ko'rgandek, olimning ko'z oldida gavdalandi. Olim o'zini ovutish uchun tokchaga qo'lib uzatib, qalin bir kitobni olib, parishon, dardchil varaqladi (Oybek.Navoiy).

2. *Mavlono Binoiyning ko'zlari allanechuk olayib ketdi. U o'zining najosat bilan tenglanishini kutmagan edi. O'ch olish uchun yana qo'pol hazillar yog'dirdi. Keyin jiddiy bahslashuvga tirishib ko'rdi.*

Lekin fors tilining go'zalligi, ustunligi haqidagi uning butun dalillari, isbotlari, urinishlari Navoiy mantiqining mustahkam toshlariga urilib, qumday sochilib ketar edi (Oybek.Navoiy).

Keltirilgan misollarning birinchisida matn derivatsiyasining operandlari *biroq*, ikkinchisida esa *lekin* bog'lovchilari orqali munosabatga kirishmoqda. Ayni paytda mazkur bog'lovchilar abzatslararo bog'lanishda applikator funktsiyasini bajarmoqda. Derivatsion jarayon ana shu bog'lovchilar bilan uzviy bog'liq bo'lib ularning ishtirokisiz hosila-derivat shakllanmaydi.

Applikativ modelning qo'llanish darajasi tillarda turlichadir. Biroq agglyutinativ va flektiv tillarda boshqa til sistemalariga qaraganda mazkur modelning morfologik vositalarga tayanishi yanada aniqroq o'z ifodasini topadi. Xususan, affikslar, bog'lovchi va ko'makchilar bunda o'ta faollik ko'rsatadi. Applikativ modelning mazmuniy salmog'i *qo'shish, yamash, tirkash* kabi tushunchalar bilan bog'liq ekan, bunda affikslar, bog'lovchi va ko'makchilarning mavqei katta ekanligi izoh talab qilmaydi. Mazkur vositalar muayyan so'zlarga, gaplarga, abzatslarga tirkalishi jarayonida o'zidan keyingi ikkinchi, uchinchi va h.k. komponentlarga ham ta'sir etib, ularning gap, murakkab sintaktik qurilma, abzats va abzatsdan katta makromatnlar tarkibida ham qo'llanishlari uchun imkon yaratadi va buning natijasida sintaktik strukturalarning shakli kengayadi. Shu bois applikator modelni sintaktik strukturalar shakli kengayishi tushunchasidan ayri holda tasavvur etish qiyin.

Abzatslararo bog'lanishda bog'lovchi, kirish so'zlar, ko'makchilari qurilmalar, yuklamalar, olmoshlar, sinonimlar applikator vazifasida kelishi mumkin. Mazkur vositalar ham kamida ikki va undan ortiq sintaktik qurilmalarning o'zidan katta birlik sintaktik sathiga kirishi uchun imkoniyat yaratishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Abzatslararo bog'lanishning sintaktik murakkablashuvi kirish so'z va birikmalar, undalmalar va kiritma qurilmalar orqali ro'y berganda, ko'pincha distant munosabat shakllanadi. Zotan, ular abzatslar tarkibida qatnashayotgan boshqa komponentlar bilan – to'g'ri sintagmatik munosabat tashkil eta olmaydi:

Chindan ham kuchli zarb bo'ldi. Mehmonlarning darvozaboni to'pni ilib olmoqchi bo'lib ikki ko'lini olg'a cho'zgan qiyalab sakragan edi, to'pga yetolmadi-yu, ammo o'zi xuddi suvga sakragan baqadek shaloplab yerga yiqildi.

Afsuski, gapga uncha chechan emasman. Bo'lmasa sizga bu yerdgi shodlik-xurramlikni, quloqlarii qomatga keltiruvchi baxtiyor qiyqiriqlarni, osmonga minut sayin uchirilayotgan to'p-to'p kaptarlar – hamma-hammasini ta'riflab bergan bo'lardim (X. To'xtaboyev. Sariq devni minib).

Keltirilgan misolda *Afsuski* kirish so'zi qatnashmoqda. Bunday morfologik vositalar an'anaviy grammatikalarimizda gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqasi yo'q so'zlar sifatida tavsiflanib kelmoqda. Shu bois ular gap bo'laklari sanalmaydi. Biroq tadqiqotlar ko'rsatishicha, ularning gapning kesimi bilan sintaktik aloqasi borligini kuzatamiz. To'g'ri, kirish so'zlar ham, undalmalar ham gapning kesimi bilan bevosita bog'lanmaydi. Bog'lanish bunday vaziyatda distant xarakterli bo'ladi.

Bunday vositalar haqida so'z yuritganida A.M.Peshkovskiy quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Mazkur hodisalar gap tarkibida kuzatilsa-da, unga yotdir. Bu o'rinda badanga kirib qolgan o'qni eslash mumkin" [7].

Nazarimizda, bu o'rinda A.M.Peshkovskiyning fikri ancha mubolag'ali ko'rinadi. Chunki bu vositalarni inson badaniga qadalgan o'qqa o'xshatish masalaning real mohiyatiga unchalik

to'g'ri kelmaydi, zero, kirish so'z, undalma yoki kiritma qurilmalarning gap tarkibida qo'llanishi uchun pragmatik voqelik tomonidan ehtiyoj seziladi. Shu bois G'.Abdurahmonov va A.R.Sayfullayev bunday vositalarni gapning uchinchi darajali bo'laklari vazifasida kelishini ta'kidlagan va buni ilmiy asoslab bergan edi [8].

Darhaqiqat, bunday vositalar gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklaridan farqli ravishda, jumla tarkibida qatnashayotgan bevosita ishtirokchilar bilan gapning kesimi orqali sintagmatik munosabat bog'laydi. Shuning uchun ularni G'.Abdurahmonov va A.R.Sayfullayev gapning uchinchi darajali bo'laklari deb ataydi [8].

Yuqorida keltirilgan misolda esa *Afsuski* kirish so'zi abzatslararo bog'lanishni yuzaga keltiruvchi vosita bo'lib, ikki abzatsning bir-biriga tirkalishida faol qatnashayotgan applikator vazifasida kelmoqda. bu esa mazkur vaziyatda kirish so'zning maqomini bir qadar oshirmoqda. Shu bilan birga, bunday vaqtda kirish so'zlar applikator vazifasida kelishi izoh talab qilmaydi, albatta. Fikrimiz isbotini quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin:

1. *Shunday qilib desangiz, shogirdmisan shogird bo'lib qoldim: sochimni oldirib, boshimga oq do'ppi, egnimga ityoqa ko'ylak kiygizib qo'yishgan. O'zim tengi bolalar qori pochchamga shogird tushganimni eshitib, havaslari kelganidanmi yoki alam qilganidanmp, ishqilpb, menga ham «Jiyda qori» deb laqab qo'yishgan.*

Rostini aytsam, qiladigan ishim uncha og'ir emas. Qori pochchamga tahorat uchun suv keltirib beraman, ko'k choy damlab beraman, dam soldirgani odamlar kelsa, ichkari kirib bu haqda kori pochchamga xabar beraman. Bu kishining ona-bola eshagi ham bor. O'shanga yashirincha borib, kolxozinig bedasidan o'rib kelaman, eshaklarning tagini tozalayman. Kori pochchamning katta xotini Eshon oyim qoshiga o'sma qo'yish, pishillab uxlashdan boshqasiga yaramaydi. U kishi uyqudan uyg'ongunlaricha o'choqning kulini olaman, xovli supuraman, idish-tovoq yuvaman...(X. To'xtaboyev. Sariq devni minib)

2. *Bularning hammasini rad qilish uchun baxti qaro direktor ham bir papka material to'plab, quyidagi da'volarni o'rtaga tashladi.*

Birinchidan, militsiya bo'limi qattiq turib himoya kilayotgan serjant Ro'ziyev aslida ruhiy kasal, yaqinda besh sutka jinnixonada yotib chiqdi. (Spravkaga qaralsin.)

Ikkinchidai, adolat komissiyasiga boshchilik qilayotgan polkovnik Otajonoviing o'zi ham pok emas, o'g'li ashaddiy jinoyatchi bo'lgan. Qamoqxonada yotibdi. (Spravkaga qaralsin.)

Uchinchidan, poraxo'r serjant Ro'ziyev polkovnikning tug'ishgai jiyani bo'ladi. Uni o'z uyiga olib borib olgan. (Mahalla komissiyasi bergan spravkaga qaralsin.)

To'rtinchidai, polkovnik o'rtoq Otajonov komissiya a'zolariniig kasal bo'lib qolganligidan foydalanib, oshxonaga borib, o'z xizmatini halollik bilan o'tab turgan bufetchi Zokir Zaripovnnng pyeshanasiga to'pponcha qadab: «O'rtoq Ro'ziyevga tuhmat qilgan edim, direktor yomon odam, tuhmatni o'sha uyushtirdi...» deb yozib berasan, bo'lmasa otib tashlayman, deb do'q urgan. (Bufetchi Zokiroviing rayispolkom raisi muovini nomiga yozgan shikoyatini ilova qilamiz.)

Xullas, ana shunday da'volardan yana yettitasi keltirilib, oxirida, biz bu adolat komissiyasiga endi ishonmaymiz, boshqa, chinakam adolatli komissiya tuzilishini so'raymiz, deb yozishibdi (X. To'xtaboyev. Sariq devni minib).

Keltirilgan misollarning birinchisida makromatn ikki komponentdan iborat bo'lib, bu ikki komponent bir-biriga *Rostini aytsam* kirish birikmasi orqali tirkalayapti. Ayni paytda mazkur kirish birikmasi applikator maqomida kelmoqda. Shunisi ham xarakteriligi, mazkur applikator makromatn sintaktik derivatsiyasi operatori vazifasini ham bajarmoqda. Zero bu applikator abzatslararo bog'lanishni ta'minlab kelmoqda.

Biroq makromatn komponengtlarini biz uning uning tarkibidan ajratib olsak, matn sintaktik derivatsiyasining operandlari vazifasida kelgan abzatslar endi mustaqil derivat maqomida keladi. Bu vaziyatda har bir abzatsning o'zining alohida operatori mavjud bo'ladi. Applikativ model nuqtai nazaridan esa bu operatorlar applikatorlar vazifisini bajaradi. Bizning misolda birinchi abzats operatori *shogird*, ikkinchi abzats operatori esa *ish* so'zlaridir. Chunki abzatslarning mazmun markazida aynan ana shu so'zlar turibdi. Shuning uchun ham bu so'zlarni freym deb olamiz va derivatsion jihatdan operator maqomiga ega deb hisoblaymiz.

Ikkinchi misolimizda makromatn olti komponentdan iborat. Matn tarkibidagi abzatslar makromatn sintaktik derivatsiyasining operandlari sanaladi. Olti operanddan tashkil topgan mazkur derivat bir biriga aynan kirish soʻzlar orqali bogʻlanayotganini koʻramiz. Bunda birinchi va ikkinchi abzats hamda qolgan abzatslar ketma-ket *birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan, toʻrtinchidan* va *xullas* operatorlari orqali ham semantik, ham sintaktik jihatdan bogʻlanib kelmoqda. Aynan ana shu operatorlar matn tarkibini kengaytirishda muhim rol bajarib, applikativ model tamoyillariga koʻra applikatorlar maqomida kelmoqda va makromatn komponentlarining bir-biriga tirkalishiga yordam bermoqda. Bu vaziyatda biz makromatn sintaktik derivatsiyasida polioperatorlik hodisasiga duch kelmoqdamiz.

Abzaslararo bogʻlanishda makromatn komponentlarining birining ikkinchisiga tirkalishini taʼminlash vazifasi, yuqorida ham taʼkidlanganidek, kirish soʻzlardan tashqari yana bir qator leksik va morfologik vositalarga ham yuklanishi mumkin:

1. *Mirbobo Doʻst bolalarga faqat qonunshunoslikdan emas, tarix, mantiq va adabiyotdan ham yaxshi dars berishi mumkinligini sezgan Bobur uni kichik oʻgʻli Hindol mirzoga muallim kilib tayinladi, shundan beri bu oilaning butun taqdiri Hindol mirzoga bogʻlik boʻlib qoldi. Hindol Badaxshonga borganda bular ham borishdi, Agraga kelganda bular ham birga kelishdi. Shu uzoq yullarda Hamida kichikligidan ot minishga oʻrgandi va chavandozlikni mashq qildi. Hozir Mirbobo Doʻst Hindol mirzoning qonunshunoslik boʻyicha maslahatchisi boʻlib ishlaydi. Maoshi durust boʻlsa ham, ikki oʻgʻil, bir qizni bekdodalar kabi kiyintirishga, besh-oltita ot, uch-toʻrtta xizmatkor asrashga yetmaydi.*

Shuning uchun Hamidaning onasi Hindol mirzoning xaramida qissaxon boʻlib xizmat qiladi. Sultonim begimga mashhur dostonlar va hikoyatlardan oʻqib beradi-yu, buning evaziga durustgina inʼom va ulufa oladi. Hamidaning oʻzi ham Sultonim begimning tengdosh nadimalari qatorida yuradi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

2. *Qiziq, bu odamga nima yetmaydi? Ixtiyoridagi vaqflardan behisob boyliklar daryoday oqib keladi, yuzlab xizmatkorlari-yu muridlari ogʻzidan chiqqan buyrugʻini bajarib turadi, kerak boʻlganda, hatto podshoga ham kechagiday gapini oʻtkaza oladi. Ammo Said Xalilga bu xammasi odatiy va juzʼiy narsalar boʻlib koʻrinadi. U Samarqandning mashhur diniy peshvosi Xuja Ahror kabi favqulodda hukmfarmo boʻlishni, podsholarni ham oʻz izmiga boʻsundirishni istaydi. Chunki u paygʻambar avlodi sanaluvchi saidlardan, osmondagi arshi aʼloga yaqin turgan ulamolar peshvosi.*

Ammo Humoyun otasi Boburdan ibrat olib din peshvolariga boʻy bermaydi, ulardan yuqoriroq turish uchun «Qonuni Humoyuniy» degan yangi nizom ham uylab chiqardi. Tarixchi Xondamir yozib chiqqan bu qonunga binoan Humoyunning qoʻl ostidagi odamlar tabiiy mavjudotdagi osmon, yer va ularning oraligʻi timsolida uch qismga boʻlib chiqildi ... (P.Qodirov. Avlodlar dovoni)

3. *Tapir-tupur ot chopayotganlar — boʻy yetgan xushroʻy qizlar. Ularning orasida Gulbadan begim ham bor. Qizlarning hech biri Xonzoda begimning koʻzi oldida magʻlub boʻlib, uyalib qolishni istamaydi, hammasi toʻpni boshqalardan tortib olishga intiladi. Shunda otlari bir-biriga urilib, ayqashib ketadi, goho biron ot urilish zarbidan gandraklab yiqilgudek boʻladi. Bu qaltis holatlar Xonzoda begimni iztirobga sola boshladi.*

Axir bu qizlar eng nufuzli bek-u aʼyonlarning oilasidan. Agar birontasining yuz-koʻziga chavgonchoʻp tegib yarador qilsa, chandiq qoldirsa yoki birontasi otdan yiqilib, tuyoq tagida ezilsa, mutaassib shayxlar yana fisq-u fasodni koʻpaytiradi. Ular qizlarning doim parda ichida — uy asirasi boʻlib oʻltirishini talab qiladilar. Lekin parda ichida xonanishin boʻlib beharakat yashaydigan ayollar notavon va moʻrt boʻlishini, baquvvat nasl berolmasligini Xonzoda begim yaxshi biladi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).

Keltirilgan misollarning birinchisida *shuning uchun* koʻmakchili qurilmasi, ikkinchisida *ammo* zidlov bogʻlovchisi, uchinchisida esa *axir* yuklamasi ishtirok etib, mazkur vositalarning hammasi ikki abzatsni oʻzaro sintaktik-semantik jihatdan bogʻlab abzatslararo bogʻlanishni hosil qilayotganining guvohi boʻlamiz. Bogʻlovchi vositalar esa oldingi va keyingi abzatsni tirkalishini taʼminlovchi applikatorlar vazifasida kelayotganini koʻrishimiz mumkin.

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, derivatsion jarayonda hosila abzatslarning har biri sathida ularning komponentlari o'ziga xos tarzda applikativ usulda bog'lanmoqda. Agar berilgan abzatslarni matn tarkibidan ajratib olib tahlilga torsak, ularning ham komponentlari o'zaro applikativ usulda birikib alohida derivat hosil qilayotganini kuzatamiz va ana shu asosda applikativ model bilan derivatsion jarayonning o'zaro kesishishini dalillay olamiz.

Bundan ko'rinadiki, har bir nutq vaziyati derivatsion jarayon shakllanishi uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda, shubhasiz, applikativ model va derivatsion jarayon kesishishi uchun ham imkoniyat vujudga keladi. Albatta, bunday imkoniyatning vujudga kelishi faqat nutqiy vaziyat bilan emas, balki so'zlovchining gapirish uslubi bilan ham uzviy bog'lanadi. Buni muayyan bir fikr ifodasini berish uchun har kimning har xil sintaktik strukturalardan foydalanishida bemalol kuzata olamiz. Masalan:

... *To'y bo'ldi.*

Bu to'y shunchalik katta bo'ldiki, unga borgan mo'tabar begimlarga oshdan tashkari kumush barkashlarda bir siqimdan oltin tangalar tortildi. Har bir begim siqimiga siqqanicha oltin olganini, boshqa yoshroq qizlar orasiga oltin-kumush tangalar sochqi tarzida sochilganini Hamida bonu o'z ko'zi bilan ko'rgan. Oyog'i tagiga kelib tushgan bitta oltin tangani u ham yaxshi niyat bilan esdalikka olib qo'ygan.

Bu o'rinda birinchi abzats yig'iq gap doirasida kelib, mazkur gap komponentlarning applikativ bog'lanishi subyekt va predikat munosabati doirasida ro'y berayotganini guvohi bo'lamiz. Ikkinchi abzats esa uch komponentdan tashkil topgan. Mazkur komponentlarining har birini mustaqil derivat deb sanay olamiz. Bu abzats semantik markazida **tanga** so'zi turibdi. Ushbu so'z ikkinchi abzats doirasida uning applikatorini sanaladi. Ammo shuni ham aytish lozimki, ikki abzatsning bog'lanishini ta'minlovchi vosita **to'y** so'zi bo'lib, mazkur so'z **bu** ko'rsatish olmoshi bilan birga qo'llanilib, bu ikki vosita birgalikda ikkinchi abzatsning birinчисiga tirkalishini ta'minlovchi applikator maqomida kelmoqda. Ana shu tarzda berilgan abzatslar komponentlari o'z sathlari ichida ham, ikkisi bir biriga nisbatan ham o'zaro bog'lanayotgani kuzatiladi.

Mazkur abzatslarning birinچisi derivatsion nuqtai nazardan tayanch strukturani, ikkinچisi esa hosila strukturani (ya'ni derivatni) taqozo etadi. Derivatsion jarayondan muayyan fikr ifodasini berish uchun so'zlovchi o'ziga xos usulda foydalanmoqda. Boshqacha aytganda, ikkita sintaktik qurilma vositasida bir fikr ifodalanmoqda. Biroq derivatsion jarayon shakllanayotgan distributiv muhit yana bir necha sintaktik qurilma shakllanishi uchun ham imkoniyat yaratmoqda.

Umuman, makromatn tarkibidagi abzatslarni bir-biriga olmoshlar vositasida bog'lanishi ko'p hollarda ko'zga tashlanadi. Bu vaziyat kogeziya hodisasi doirasida ro'y beradi. Chunki ayni paytda ham matn klmpoentlari bir-biri bilan sof sintaktik aloqaga kirishadi. To'g'ri, ba'zida makromatnlarda kogeziya hojjasini ham, klgerentlik hodisasini ham ko'ramiz. Ammo shunday bo'lsa ham olmosh vositasida ro'y beruvchi bog'lanishlilik o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki olmosh aksariyat hollarda kontakt munosabatni tashkil etadi. Distant munosabat unda juda kam kuzatiladi.

Matn tarkibidagi mustaqil gaplarni bog'lashda olmosh applikatorlar substitut (almashtiruvchi) sintaktik funksiyasida keladi. Bunda oldingi gapdagi muayyan so'z ikkinchi gapda olmosh bilan almashtiriladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, otning o'rnida qo'llanilayotgan olmoshning "kishilik olmoshi" maqomi neytrallashadi. Zotan u muayyan otning o'rnida qo'llanilib, uni ko'rsatib keladi. Boshqacha aytganda, ayni paytda kishilik olmoshi o'z morfologik maqomini saqlagan holda ko'rsatish olmoshi funksiyasini qabul qiladi.

Matn tarkibida qo'llanilayotigan bu singari olmosh applikator kogeziya hodisasini shakllantiradi. Chunki bunda matn komponentlarining o'zaro bog'lanishi birinچidan, sintaktik maqom kasb etadi, ikkinچidan bog'lanish morfologik vosita yordamida ro'y beradi.

Ayni paytda, xususan, uchinchi shaxs kishilik olmoshi oldingi gapdagi ot o'rnida qo'llanganda ko'rsatish olmoshining "anforik" turini taqozo etadi. Bu esa uni ko'rsatish olmoshlariga funksional jihatdan yanada yaqinlashtiradi.

Olmosh makromatn komponentlari –abzatlarni applicator sifatida bir-biri bilan sintaktik jihatdan bog'lagani bois u nafaqat morfologik birlikni, balki funksiyasiga ko'ra bog'lovchini ham

taqozo etadi. Bu juda muhimdir, zotan, kogeziya hodisasi bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi so'zlar doirasida shakllanadi:

1. Qalam erkin va dadil yurdi. Farhodning qoyalauni o'pirgan afsonaviy teshasi kabi, flkr toshlarini yaxlit kesib, misralarga joylab-qalab ketdi. Xayol shoimi o'z qanotlarida ertaklar olamiga uchirdi. O'zini unutib yozdi, dardga to'lib-toshib yozdi. Mana, Farhodning «Nahr ul-hayot»i bitdi. Ertaga Farhod suv quyadi. Go'zal o'rtoqlari bilan Shirin tomoshaga keladi. Minglarcha xalq karnay-sumay yangratib, tantana va suron bilan guvillab oqqan suv bo'ylab ajoyib bayram yasaydi.

Bu manzara — hayot g'alabasi shoirni yengillatdi. Uning yuzida, soqollarida dono tabassum yugurdi. Shamni o'chirganda, atrof oqarib, havoda tong shabadasi g'irillar edi (Oybek.Navoiy).

2. Navoiy eng yaxshi kotiblarga buyurib, g'azallardan mumkin qadar ko'proq kitoblar tuzishni Sohib Dorodan o'tindi. Keyin shoir qalamni qo'lga olib, «Farhod va Shirin»ga berildi. Lekin endi bir betgina yozganda, binokorlar, naqqoshlar va sangtaroshlar kelib, atrofini qurshab olishdi.

Ular madrasa, xonaqoh, hammom va boshqa inshootlar to'g'risida shoir bilan kengashmoqqa oshiqardilar. Navoiy binolar uchun lozim bo'lgan marmar va ranglaming miqdori va sifati, eshiklaming shakli, peshtoqlarga yozilgusi bitiklar haqida qunt bilan uzoq suhbatlashdi(Oybek.Navoiy).

Shu narsa xarakterliki, hozirgacha applikativ modelning ta'sir kuchi faqat bir gap doirasida o'rganilib kelinmoqda. Biroq faktik til material talqini applikativ modelning qo'llanilish imkoniyati jumllararo va abzatslararo ahamiyat kasb etishi mumkinligini ham ko'rsatmoqda. Buni biz yuqoridagi misollar tahlili jarayonida ko'rib chiqdiq. Bunday hodisa o'zaro birikkan ikki abzatsning bir-biriga qorishib, birlashib ketishida ham kuzatishimiz mumkin. Shunaqa kontaminatsiya hojjasini qiyidagi abzatslarning transformatsiyasida kuzatishimiz mumkin:

Annotatsiya: Komponentlari zidlov bog‘lovchilar yordamida birikkan murakkab sintaktik qurilmalar materialida ham derivatsion nuqtai nazardan hosila qurilmalar shakllanishini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Murakkab sintaktik qurilmalar kamida ikki gapning o‘zaro sintaktik munosabatidan tashkil topgani uchun ularning har qanday ko‘rinishi har qanday ko‘rinishi ham hosila strukturani taqozo etadi. Biroq murakkab sintaktik qurilmalar tayyor hosila struktura shakliga kelishi uchun, muayyan bosqichlardan o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Bunda tub struktura, uning zamirida shakllangan tayanch struktura, keyin hosila struktura, va nihoyat, hosilalardan shakllangan hosila struktura yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: zidlov bog‘lovchilar, murakkab sintaktik qurilma, hosila qurilma, tub struktura, tayanch struktura, teng munosabat, mazmuniy urg‘u, derivat, operand, operator.

Komponentlari zidlov bog‘lovchilari bilan bog‘langan murakkab sintaktik qurilmalar biriktiruv bog‘lovchili murakkab sintaktik qurilmalardan farqli ravishda murakkab sintaktik qurilmalar tarkibidagi mazmunan zid bo‘lib, biri inkor etilgan, ikkinchisi tasdiqlangan qismlarni o‘zida mujassamlashtiradi:

1. *Sichqon... o‘zini har yon uradi, lekin mushuk zarracha parvo qilmaydi (M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha).*

2. *Uning ham derazalarida chiroq yoniq, ammo gastronom soat sakkizda ochiladi (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar).*

3. *Soat butun kuchini to‘plab tag‘in oqimga qarshi suzdi, biroq endi madori qurib bitgan edi (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar).*

4. 我试过这个故事很多次，但总会有东西妨碍我。（张贤良是男人的女半）

5. 我机械地跟着他们，但鸭子突然浮上了一个小湖。（张贤良是男人的女半）

6. 看样子他还想补充点什么，然而他沉默了，叹了口气，吐出了一团团烟。（张贤良是男人的女半）

Keltirilgan misollarda teng munosabatli murakkab sintaktik qurilmalar bo‘lib, ularning komponentlari o‘zaro zidlov bog‘lovchilari yordamida birikkan. O‘zbek tilida berilgan misollarda

murakkab sintaktik qurilma komponentlarini lekin, ammo, biroq bog'lovchilari, xitoy tilida berilgan misollarda 但是 va 然而 bog'lovchilari bog'lab turmoqda. Sintaktik derivatsiya tamoyillariga ko'ra mazkur bog'lovchi vositalar murakkab sintaktik qurilma qolipidagi derivatlarning operatorlari sanaladi.

Umuman olganda xitoy tilida quyidagi zidlov bog'lovchilari qo'llaniladi:

但是 [dànshì] – ammo, lekin

可是 [kěshì] – ammo, lekin

不过 [bùguò] – ammo, lekin

Mazkur bog'lovchilardan 但是 [dànshì] va 可是 [kěshì] ni biri ikkinchisining o'rniga bema'lol qo'llasa bo'ladi. Ammo 不过 [bùguò] bog'lovchisi qo'llanilishi esa kontekstga hamda gap mazmuniga qarab belgilanadi.

不过 [bùguò] ishtirokidagi murakkab sintaktik qurilmalarda birinchi komponent yetakchilik qiladi:

我会帮助你，不过我也要你的帮助

(Men sizga yordam bermoqchiman, ammo menga ham sizning yordamingiz kerak)

Keltirilgan murakkab sintaktik qurilmada birinchi komponentning mazmuni yetakchilik qilmoqda. Chunki so'zlovchi murakkab sintaktik qurilmaning birinchi komponentida bildirilgan fikrni bajarishi uchun ikkinchi komponentda ifodalangan shartni bajarish kerakligini ta'kidlamoqda. Bu bilan esa murakkab sintaktik qurilmaning birinchi qismiga alohida mazmuniy urg'u berilmoqda. Shu sababdan ham mazkur murakkab sintaktik qurilmada 不过 [bùguò] bog'lovchisi qo'llanilgan.

Qiyoslang:

我会帮助你，不过我也要你的帮助。

我会帮助你，但是我不知道我该做什么。

Shuni ham aytish kerakki, operator hosila struktura tarkibiga kirishi bilan mutlaqo hokim unsurga aylanadi. Zotan, murakkab sintaktik qurilma sintaktik derivatsiyasining voqelanishi ham, derivat komponentlarining, ya'ni derivatsiya operandlari o'rtasidagi sintaktik bog'lanish ham va hatto derivatning ustpredikativlik xarakteri ham operatorning sintaktik faolligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, derivatning sintaktik maqomini ham operator belgilaydi. Fikr dalili uchun quyida berilgan murakkab sintaktik qurilmalar shakllanayotgan derivatsion jarayonga e'tibor beraylik:

1. *Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqadi, biroq ovozi o'zgarmadi* (O'. Hoshimov. *Tushda kechgan umrlar*).

Keltirilgan misolda derivatsiya operandlari sifatida murakkab sintaktik qurilmaning komponentlarini ko'rsatishimiz mumkin:

Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqadi.

Ovozi o'zgarmadi.

Mazkur operandlar yordamida yana quyidagi hosilalarni shakllantirishimiz mumkin:

Hosilalar (derivatlar) paradigmasi

Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqadi, lekin ovozi o'zgarmadi;

Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqadi, ammo ovozi o'zgarmadi;

Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqasa-da, ovozi o'zgarmadi;

Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqasa ham, ovozi o'zgarmadi;

Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqagani bilan, ovozi o'zgarmadi;

Ro'zimat ota lablarini alamli burib, og'ir-og'ir bosh chayqadi-yu, ovozi o'zgarmadi.

Ko'rinadiki, misolda berilgan murakkab sintaktik qurilmaning sintaktik paradigmasi olti variantlidir. Mazkur paradigmani tashkil etayotgan murakkab sintaktik qurilmalar derivatsion xususiyatlariga ko'ra farqlidir. Zotan, bunda derivatsion jarayon imkoniyatlari bilan bog'liq holda nafaqat teng komponentli, balki tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar shakllanmoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, so‘zlovchiga operator tanlash imkoniyatini berishi shubhasizdir. Murakkab sintaktik qurilma sintaktik paradigmasi olti variantli bo‘lgani bois, sintaktik derivatsiya operatorlari soni ham oltiga teng: **lekin, ammo, -sa -da, -sa ham, -gani bilan, -yu.**

Bunday variantdosh shakllarni xitoy tilidagi murakaab sintaktik qurilma misolida ko‘rib chiqamiz:

奶奶不支持这段婚姻，但同意了（李碧华。潮州巷-吃腌鹅的女人）

奶奶同意，虽然她不支持婚姻（李碧华。潮州巷-吃腌鹅的女人）

Ammo shuni ham aytish kerakki, berilgan invariant strukturalarning barchasini birday faol va qo‘llanishiga ko‘ra konkret deb bo‘lmaydi. Bu o‘rinda kontekst va so‘zlovchi tomonidan tanlanib iste‘molga kiritilgan lekin xitoy tilida esa 但 operatorli derivatning sintaktik faolligi va iste‘mol qilinishiga ko‘ra konkret ekanini kuzatamiz. Bunday vaziyatda, albatta, iste‘moldan tashqaridagi paradigma a'zolari mavhumligicha zahiradagi derivat variantlari sifatida qoladi. Ularning iste‘molda qo‘llanilishi esa muayyan nutq muhitida voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turniyozov N., Turniyozov B., Turniyozova Sh. O‘zbek tili derivatsion sintaksisi . – Toshkent, 2010.
2. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент: 1958 йил.
3. Ли Ц. С. Грамматика китайского языка / Ц. С. Ли. – Пекин: Изд-во Коммерческая пресса, 2000.
4. Люй Шу-сян. Очерк грамматики китайского яз. М., Издательство “Наука”, 1965.

*Саттарова Елена Анатольевна
Доцент кафедры русского языка и литературы
Термезского университета экономики и сервиса*

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ФИКСАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЭВФЕМИЗМОВ В РЕЧИ МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА (НА МАТЕРИАЛЕ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация: В результате проведенного исследования лексикографической фиксации и словарной реализации эвфемизированных единиц русского и узбекского языка в профессиональной речи медицинского персонала, можно сделать следующие выводы: во-первых, эвфемизм – это функциональное средство для передачи национально-культурных, этнических, моральных, нравственных особенностей в процессе коммуникации, которое необходимо проводить через призму лексикографической фиксации толковых словарей и словарей эвфемизмов русского и узбекского языков; во-вторых, данное явление вызвано необходимостью замены запретов, свидетельствующих и нарушающих формирование культуры речи общества в целом.

Ключевые слова: эвфемизм, эвфемизация, запрет, лексикография, эвфемизмы-гиперонимы, метафора, метонимия.

На основе собранного лексического материала довольно обширную и богатую эвфемистической лексикой группу синонимичных профессиональных эвфемизмов в русском и узбекском языках, составляет речь медицинского персонала, а основные используемые заменители табуированной лексики составляют эвфемизмы, связанные с по смысловому содержанию со словом «смерть».

Например, как в русском, так и в узбекском языках в лексикографических источниках встречается ряд метафоризированных профессиональных эвфемизмов в сфере медицины в значении «умереть». В лексикографических источниках русского языка, было выявлен ряд эвфемизмов, таких как «безнадежный», «дни сочтены» (о тяжелобольном, умирающий, скоро умрет), «жизнь прерывается» (в значении умирает), «застывать» (в зн. умирать), «лишаться (лишиться) жизни» [фразеологическая единица *лишиться жизни*],

«скончаться», «представиться», «отдать душу», а также среди медицинского персонала активно используется специальный медицинский эвфемизм по происхождению и эвфемизм медицинской речи «терминальный» [инояз. лат. *terminalis* < *terminus* – предел, конец], «терминальное состояние», используемые вместо выражения – предсмертное состояние» [пограничное состояние между жизнью и смертью, конечная стадия жизни]. Данную характеристику медицинского эвфемизма мы нашли в словаре Е.П.Сеничкиной «Словарь эвфемизмов русского языка» [4].

В узбекском языке также в речи медицинских работников употребляется ряд вуалированных слов и выражений, которые в «Кратком словаре эвфемизмов узбекского языка» зафиксировал узбекский лингвист А.Омонтурдиев, например: «*ado bo'lmoq*» (кончиться), «*adoi tamot qilmoq*» (докончить до конца), «*ajali yetmoq*» (приход кончины), «*ayrilmoq*» (покинуть), «*ayrilib qolmoq*» (потерять), «*bir lahzalikka yo'liqmoq*» (уйти за минуту), «*dunyodan o'tmoq*» (скончаться), «*yengilmoq*» (освободиться), «*yostig'i qurimoq*» (опустела подушка), «*joyini solmoq*» (застелить постель), «*jon bermoq*» (отдать свою душу), «*jon nisor aylamoq*» (отдать душу), «*joni chiqmoq*» (душа покинула), «*yo'qotib qo'yimoq*» (потерять), «*uyg'onmaslik*» (не проснуться), «*o'ziga kelmaslik*» (не прийти в себя), «*qaytib uyg'onmaslik*» (больше не проснуться), «*qaytib kelmaslik*», «*qaytib kelmaydigan bo'lib ketmoq*» (больше не вернуться, уйти навсегда), «*qimir etmay qotmoq*» (застыть, остыть), «*qiron kelmoq*» (опустошить), «*hayotni tark etmoq*» (оставить жизнь), «*hayotni tashlab ketdi*» (оставил(а) жизнь) вместо лексемы – *o'lmoq* (умереть) [2].

Среди метафорических групп в русском и узбекском языках данной лексико-семантической группы в словарях встречаются эвфемизмы олицетворения: рус. эвф. *погас огонь, увял цветок* – узб. эвф. «*qizil gul so'lmoq*» (досл. завял красный цветок), «*bahori tugatmoq*» (досл. *конец весне*) и др. В словарях, часто встречаются эпитеты, что является более ярким проявлением метафоры: рус. *закат печальный, улыбка прощальная* – узб. «*so'ngsiz safarga ketmoq*» (досл. *отправиться в последнее путешествие*), «*so'nggi safar qilmoq*» (досл. *совершить последнюю поездку*).

Разработав общетеоретические и методические аспекты, мы пришли к следующему выводу, что значительная эффективность словарной регистрации аналогичных эвфемизмов очень тесно взаимосвязана с лексической сочетаемостью, или же наоборот, с лексической не сочетаемостью русской и узбекской эвфемизированной речи.

В практике русского и узбекского лексикографирования, фиксируется большое количество эвфемизмов-местоимений. Так, Е.П.Сеничкина отмечает, что «указательное местоимение «там» эвфемистически замещает любое неприятное для говорящего место, а местоимение «это» может называть смерть, болезни, интимные отношения, некоторые человеческие отправления и состояния, деятельность, порицаемую обществом, обозначения «человеческого низа» [5]. На то же обращает внимание и узбекский лингвист А.Ж.Омонтурдиев, он пишет, что «практически во всех тематических группах узбекского языка местоимения *u*, *o'sha*, *shu* и др., также выступают как процесс эвфемизирования речи» [1, с. 79].

Редко в русском языке встречаются эвфемизмы, образованные при помощи приема распространения, однако довольно часто встречается в кратком словаре эвфемизмов узбекского языка. Эвфемизмы-гиперонимы довольно часто встречаются в словарях русского и узбекского языков, например: рус. эвф. «*кабинет*» – узб. эвф. «*kabinetga bormoq*» (досл. *пойти в кабинет*) употребляется как в русском, так и в узбекском языках в значении *сходить в туалет*; рус. эвф. *в деликатном, интересном, счастливом, таком положении, ждет аиста* [4] – узб. эвф. *o'y-kuni yaqin* (досл. *близок день и месяц*), *o'yog' olishi g'alati* (досл. *странно ходящая*), *o'yog'i og'ir* (досл. *с беременем*) [ЎТҚЭЛ]. Данные эвфемизмы являются гендерно-вежливыми по отношению к наименованию слова «беременная», они также часто употребляются в речи медицинских работников.

Изучив словарные труды русского и узбекского языков, нами было обнаружено то, что фиксация и реализация эвфемистического пространства на лексикографическом уровне

практически не находит отражения употребления заимствований и терминов на лексическом уровне. Таким образом, указание на эвфемистическую функцию единиц, лексикографы просто опускают. Несмотря на это, все же в академических словарях зафиксирована значительная частотность применения заимствованной лексики для обозначения различного рода заболеваний, приобретенных половым путем. Е.П.Сеничкина в словаре эвфемизмов русского языка указывает ссылки на лексикографические труды, например: «Словарь современного русского литературного языка в 17 томах [6, т.6: 454], а также Современный словарь иностранных слов [7, с. 350], где авторы и составители словарей фиксируют эвфемизм «люэс» слово инояз. происх. от лат. *lues* – повальная, заразная болезнь, мор. Данное обозначение они употребляют вместо слова сифилис, или инояз. слово происх. от лат. *люэтический* – вместо сифилитический [6, т.6: 454]» [4]. Данные эвфемизмы находят свое отражение и в составе «Словаря эвфемизмов русского языка» Е.П. Сеничкиной [4] с указанием на соответствующую помету иностранного происхождения этих слов. Проанализировав толковые словари узбекского языка, мы не обнаружили процесс эвфемизации данных лексических единиц. К сожалению, и в «Кратком словаре эвфемизмов узбекского языка» под. ред. А.Ж.Омонтурдиева [2], в сфере обозначений болезней, не указаны данные наименования, которые были приобретены половым путем. В данном словаре прослеживается лишь лексика, эвфемизирующая обычные болезни. Хотелось также отметить, что лексикограф, в принципе, не обращается к лексике иноязычного происхождения.

Проанализированный материал лексикографических источников позволяет сделать следующие выводы, что морфологическая фиксация также указывает на небольшую степень фиксации в словарях как русского, так и узбекского языков. В данной ситуации для нас представляет большой интерес изучение морфологических способов образования эвфемизмов русского языка Е.П. Сеничкиной. В своем учебном пособии «Эвфемизмы русского языка» автор отмечает, что «морфологические эвфемизмы обладают минимальной степенью эвфемизации. В случае эвфемизмов, образованных путем использования аффиксов неполноты действия, «выполнению эвфемистической функции мешает наличие корня с отрицательной оценкой» [5, с. 14]. Для пояснения, она приводит несколько примеров: *кокетка, слеповат, клубничка, прихрамывает* и др. В словарях узбекского языка, также имеются фонетические, лексико-грамматические, синтаксические процессы употребления и фиксации эвфемизмов.

Выводы. Необходимость постановки проблемы вопросов типологии эвфемизмов русского и узбекского языков в лексикографических изданиях обусловлена взаимосвязью лингвистической эвфемии и лексикографии. С одной стороны, лексикографические издания являются репрезентативным эмпирическим материалом для исследования эвфемизма и его национально-культурной специфики, с другой стороны, результаты изучения эвфемистического аспекта языка и коммуникации предоставляют новые данные для теории и практики составления словарей.

Список используемой литературы

1. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Тошкент: Халқ мероси, 2000. – 128 б.
2. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: Халқ мероси, 2006. – 134 б.
3. Саттарова Е.А. Несовместимость эвфемизмов русского и узбекского языков как основное препятствие для лингвокультурологического сопоставления / Проблемы современной науки и образования. № 7 (152). – С. 67. – DOI: 10.24411/2304-2338-2020-10703
4. Сеничкина Е.П. Словарь эвфемизмов русского языка. – М.: Флинта: Наука, 2008. – 464 с.
5. Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка: спецкурс: учеб. пособие / Е. П. Сеничкина. – М.: ФЛИНТА, 2012. – 120 с.

6. Словарь современного русского литературного языка: В 17 т. – М.: СЭ, 1950-1965, Т. 6. – С. 450.
7. Современный словарь иностранных слов: ок. 20 000 слов.–СПб.: Дуэт, 1994.–414 с.

Berdikulova Shaxnoza Ruziqulovna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali
Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

BOG'LOVCHILAR TAHLILIDA TINISH BELGILARINING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog'lovchilarning pragmatik ma'nosi tinish belgilarining vazifalari asosida o'rganilgan. Bog'lovchilarning nutq vaziyatida lokutiv, illokutiv, perllokutiv aktlarni yuzaga keltirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: bog'lovchi, pragmatika, uslub, bo'lak, ma'no, munosabat, nutq, vergul.

Tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g'oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko'rdi. XX asr davrida empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g'oyalarni o'zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo'nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo'nalishlardan biri, albatta, pragmatikdir. O'zbek va ingliz tillarida bog'lovchining vazifasi va semantik tipologiyasi o'rganilayotgan tillarda so'zning turkumga mansubligini o'rganishdan boshlanadi. O'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham bosh gap bo'laklari ot, sifat, son, olmosh, ergash gap va fe'ldan iborat. Predloglar va bog'lovchilar ikkinchi darajali bo'laklar sifatida alohida guruhlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi predlog o'zbek tilida yuklama vazifasini bajaradi. Darslik va o'quv qo'llanmalarida bog'lovchiga berilgan ta'riflar deyarli bir-biridan farqlanmaydi. Bog'lovchi - mantiqiy fikrni, gapning grammatik qismlarini bog'lash uchun xos bo'lgan gap bo'laki.

Bizga ma'lumki, uyushiq bo'laklar sanash ohangi vositasida bog'langanda ba'zan vergul o'rniga biriktiruv bog'lovchilarni qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan: Daftar, kitob sotib oldim. Qiyoslang: Daftar va kitob sotib oldim. Uyushiq bo'laklar bog'lovchisiz, intonatsiyaning o'zi bilan bog'lana olganidek, bog'lovchilar yordami bilan ham birikadi.[6:256] Endi e'tiborimizni yuqoridagi gapga qaratamiz. Eronda musulmonlar arabcha o'zlashmalarni qo'llashni afzal bilsalar, musulmon bo'lmaganlar va "fors sof tili jonkuyarlari" sof forscha so'zdan tuzilgan iboralarni qo'llashga urinadilar. Bu galgi tahlilimizda gapdan va bog'lovchini tushurib (nutqda qo'llamasdan) o'rniga vergul qo'yib tahlil qilamiz. Eronda musulmonlar arabcha o'zlashmalarni qo'llashni afzal bilmoq, (1- nutqiy ma'no yig'indisi), Musulmon bo'lmaganlar, "fors sof tili jonkuyarlari" sof forscha so'zdan tuzilgan iboralarni qo'llashga urinadilar. (2-nutqiy ma'no yig'indisi). Bog'lovchining tushurilishi bilan unga bog'liq bo'lgan "bilan birga, birgalikda" kabi ma'no yo'qoldi va uning o'rniga "ajratib ko'rsatish, ta'kidlash" (bu ma'no vergul qo'yish bilan yuzaga kelgan) ma'nosi anglashilmoqda. Aslida ham shunday, gapda kelgan uyushiq bo'laklarni alohida olgan holda tahlil qilib ko'ramiz. Gapda bosh bo'lak ya'ni ega uyushgan. Birinchi nutqiy ma'no yig'indisidagi ega musulmonlar, ikkinchi nutqiy ma'no yig'indisidagi ega (uyushiq ega) musulmon bo'lmaganlar va "fors sof tili jonkuyarlari" hisoblanadi. Uyushiq egani va bog'lovchisi orqali bog'laganimizdagina "musulmon bo'lmaganlar va ular bilan birgalikda, musulmon bo'lmaganlardan tashqari, (alohida) "fors sof tili jonkuyarlari" ham sof forscha so'zdan tuzilgan iboralarni qo'llashga urinadilar" ma'nosi anglashiladi.

Har qanday til birligi, jumladan yordamchi so'zlar tarkibiga kiruvchi bog'lovchilar ham tinish belgilari ham nutq jarayonida pragmatik, hosila ma'no kasb etadi. Aslida bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarni hamda uyushiq bo'lakli murakkab sodda gaplar orasidagi turli xil munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanuvchi yordamchi so'zlardir. Sh.Bobojonov nutqiy ma'noning yuzaga kelishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Nutqiy ma'no muayyan sintaktik qurshovda nutq sharoiti va so'zlovchining kommunikativ niyatiga mos ravishda ma'lum bir nutq jarayonidagina yuzaga keltiriladi." [8:26-b.] Tilshunos bu o'rinda leksik nutqiy ma'no (sememani nutqiy voqeylanishi) haqida so'z yuritgan bo'lsada, bizningcha, bu kabi

holatlar barcha nutq birliklariga (shu jumladan pragmatik birliklarga ham) birdek tigishlidir. Demak, pragmatik ma'no talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so'zga xos barqaror lisoniy va o'tkinchi nutqiy jihatlarni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisalar cheksizlik va rangbaranglik tabiatiga ega bo'lganligi bois leksikografik talqinlarning obyekt bo'la olmaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bog'lovchilar hamda tinish belgilarining pragmatik ma'no xilmaxilligini so'zlovchi va tinglovchining tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Mening fikrimcha, bir tipga kiruvchi so'z turkumlarining tuzilishi, turlarini bir xil nomlab o'zgina bo'lsa ham osonlashtirish darkor. Misol sifatida ko'makchilarning sof yoki vazifadoshligi uning turlari hisoblanadi. Bog'lovchining sof yoki vazifadoshligi esa kelib chiqishiga ko'ra turi deya belgilanadi. Yuklamalarda berilmagan ham, oddiygina qilib "Yuklamalar ham sof yoki vazifadosh bo'lishi mumkin" deyilgan. Aziz yoshlar, chet tillarni o'rgangan yaxshi, albatta. Lekin o'z ona tilimizni birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak. Uning rivojlanishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. –Б.10.
2. N.Mahmudov Ona tili. (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik), 2009 y.
3. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent 2013 y.
4. Rustamov M.A., Asriyans M.I. Ingliz tili grammatikasi: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2006
5. Нурмонов А., Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон, 55-бет.
6. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. - 256 б.

*Камарова Мафтуна Умар кизи
Ассистент-преподаватель кафедры корейской
филологии СамГИИЯ, докторант*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ПЕРЕВЕРНУТОГО ОБУЧЕНИЯ» В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ КОРЕЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Абстракт. Целью данного исследования является применение современного и эффективного метода в процессе преподавания корейского языка узбекским учащимся, не знакомым с корейским языком и культурой. Изучающему язык, естественно, следует сравнить изучаемый иностранный язык и родной язык и ознакомиться с формой обучения, которая поможет ему улучшить скорость владения языком. В данной статье рассказывается об эффективном методе обучения элементарному корейскому языку посредством метода «Перевернутое обучение», который является одним из современных методов обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: элементарный корейский язык, перевернутое обучение, видеоматериалы, до занятий, во время занятий, после занятий.

Система образования, которая прогрессирует изо дня в день, требует использования новых идей и методов в образовательном процессе, как и в других направлениях. Процесс обучения иностранным языкам – один из них¹. Среди узбекских студентов желание изучать корейский язык среди мировых языков возрастает с каждым днем, для тех, кто начинает изучать корейский язык с начального уровня, ниже мы представим информацию о методе «Перевернутое обучение», а также пример плана урока с использованием этого метода. Так что же такое перевернутое обучение?

¹ Камарова М.У. (2023). «Образовательная политика корейского языка как иностранного и факторы, вызванные распространением корейского языка», Международный журнал речевого искусства, № 2.

Этот метод представляет собой смешанное обучение, при котором перед новым уроком студент самостоятельно изучает этот урок, а затем проводит дискуссии с преподавателями посредством офлайн-лекций. «Перевернутое обучение» переводится на узбекский язык как «обратное обучение», «обратный класс» и «обратный метод обучения». В отличие от традиционного метода обучения, заключающегося в прослушивании лекций в аудитории и выполнении домашних заданий дома, студенты получают предварительное понимание, просматривая и усваивая различные материалы, такие как онлайн-видео, лекции, задания и обсуждения, проводимые преподавателями перед занятиями. Студенты заранее изучают содержание урока, используя онлайн-видео и материалы, предоставленные перед уроком, а во время занятий проводятся задания, обсуждения и проекты, которые подчеркивают взаимодействие и связь не только между учителем и учеником, но и между учеником и учащимися.

Итак, каков процесс и результат этого образовательного метода при обучении иностранным языкам, особенно корейскому? Глядя на результаты проведенного на данный момент исследования, условия процесса преподавания корейского языка следующие:

Во-первых, важно уменьшить представление о том, что корейский язык сложен для ученика, который только начинает изучать корейский язык. Во-вторых, необходима ступенчатая система образования. В-третьих, необходим модульный подход с периодическим использованием процесса в виде внеклассных занятий совместно с основным курсом. В-четвертых, помимо лекционной подготовки, метод обучения должен включать в себя такой метод обучения, который может отвечать различным требованиям, например, в самой аудитории активно ведется процесс взаимного обмена идеями.

В связи с вышеизложенными требованиями новое направление преподавания привлекает внимание многих людей. Этот метод представляет собой упомянутый выше метод «перевернутого обучения», и его использование на уроках корейского языка считается очень эффективным с точки зрения модульного подхода. «Перевернутое обучение» — это перенос непосредственного учебного пространства учителя в индивидуальное учебное пространство. Точнее, это педагогический подход, который превращает обычное учебное пространство в динамичное и интерактивное пространство обучения для учителя и учеников. В последние годы «перевернутое обучение» оказалось в центре внимания как новая форма модели обучения, и проводится множество исследований, дискуссий и интерпретаций положительных и отрицательных сторон этого метода. Это связано с включением образовательной парадигмы как ориентированного на учащихся, ориентированного на обмен, интерактивного и динамичного подхода к обучению, выходящего за рамки критерия изучения уроков с помощью видеоматериалов перед уроком. Я считаю, что для узбекских студентов очень полезно организовать уроки корейского языка по методу «Перевернутое обучение», который представлен по модульному принципу, и причину этого можно увидеть в следующем.

Во-первых, альтернативная форма урока корейского языка с перевернутым обучением, представленная в виде модуля, может быть выбрана из основного урока и использована в качестве содержания урока корейского языка, проводимого учителем. Во-вторых, его можно использовать как пошаговый план изучения языка. Образовательный этап, который знакомит с корейским языком как наукой и обеспечивает понимание, этап деятельности, который можно пережить прямо или косвенно, этап, который сводит к минимуму конфликты и недопонимания процесса внедрения, а также разрабатывает метод и стратегию «перевернутого обучения». Можно использовать этапы «до урока – во время урока – после урока»¹. В-третьих, лекционная подготовка учителей, обучение студентов в небольших группах и современные информационные и технологические инструменты могут эффективно удовлетворить этим требованиям. На «перед уроком этапе» преподаватель может провести лекционный урок посредством видеоматериала. Кроме того,

¹ Джо Ан Рок (2004), Корейская языковая культура и корейское языковое образование, Издательство корейского языка и литературы, стр. 193-210.

он может удовлетворить различные требования, например, иметь возможность стимулировать активность учащихся на одном уроке, избегая ситуации пассивного урока. В-четвертых, его можно использовать как часть методики преподавателя по поддержанию интереса к корейскому языку среди изучающих иностранный язык, которым необходимо усваивать большой объем информации, что противоречит цели ученика достичь высокого уровня.

Общий порядок «перевернутого обучения» таков: «до урока – в классе – после урока». Содержание образовательного плана, включающего в себя данное содержание, следующее:

- ✓ Имя субъекта: Элементарный корейский
- ✓ Цель предмета: изучить корейский язык в сравнении с узбекским языком, уменьшить недостатки в общении, вызванные разницей между двумя языками в повседневной жизни, и помочь улучшить способность говорить.
- ✓ Пошаговый порядок выполнения науки:

Этап	Содержание
Перед уроком (Before Class)	<ul style="list-style-type: none"> • Посмотреть видео, посвященное изучению общего корейского языка для начинающих; • Видео может представлять собой лекцию, снятую преподавателем, или другое видео или материал по теме; • Поиск ответов на ранее заданные вопросы, проверка необходимого содержания во время урока, предоставление бесплатной обратной связи и т. д.
В классе (In Class)	<ul style="list-style-type: none"> • проверка и систематизация содержания этапа «перед занятием»; • Цели урока должны быть четко сформулированы во введении; • Сравнить с родным языком; • Максимизировать возможности взаимодействия с аудиторией, работая в парах или группах, например, перформансы, симуляции, презентации, связанные с темой;
После занятий (After Class)	<ul style="list-style-type: none"> • Доработка пройденной темы или проведение углубленного дополнительного изучения; • Расширение знаний по актуальным темам посредством повторения; • Поделиться выводами урока с другими, дать обратную связь.

При организации полезного и значимого урока на основе приведенного выше плана урока следует иметь в виду, что подготовка видео перед уроком и повышение понимания учителя и ученика об уроке «перевернутого обучения» могут занять много времени и налагать чрезмерную ответственность. С другой стороны, если преподаватель сумеет сохранить баланс, выполняя при этом максимально полезную работу, у студентов, только приступивших к изучению корейского языка, появится уверенность в себе и их интерес к изучению корейского языка еще больше возрастет¹.

Список использованной литературы

- 1) Камарова М.У. (2023). «Образовательная политика корейского языка как иностранного и факторы, вызванные распространением корейского языка», Международный журнал речевого искусства, № 2.
- 2) Гуломов А., Маруф З., Газиев Х. «Филологическая книга 2: Материалы к научной грамматике узбекского языка», 2001 г.

¹ Чо Хён Ён (2003), «Исследование учебной программы по культуре корейского языка», Bilingualistic 22, Общество двуязычия, стр. 343-364.

- 3) Джамолханов Х. «Современный узбекский язык» Ташкент, «Учитель» 2005 г.
- 4) Джо Ан Рок (2004), Корейская языковая культура и корейское языковое образование, Издательство корейского языка и литературы, стр. 193-210.
- 5) Чо Хён Ён (2003), «Исследование учебной программы по культуре корейского языка», *Bilingualistic* 22, Общество двуязычия, стр. 343-364.
- 6) Байрам, М. (1997), «Обучение и оценка межкультурной коммуникативной компетентности», *Журнал Международной сети корейского языка и культуры* 14-2, стр. 311-340.

V SHO‘BA TIL VA ADABIYOT NAZARIYASI

*Халова Мафтуна Абдусаламовна,
Самарқанд давлат чет тиллар институти доценти,
филология фанлари доктори*

МУМТОЗ МОҲИЯТНИНГ ЯНГИЧА ТАЛҚИНИ

Аннотация. Мазкур мақолада шоир Абдували Қутбиддин лирикасининг бадиияти ҳақида маълумот берилган. Шоир лирик оламининг мазмун-моҳияти, фалсафий мушоҳада тарзининг янги талқини шеърини парчалар таҳлили орқали очиб берилди.

Калит сўзлар: лирика, шоир олами, миллийлик, замонавий талқин, қофия, услуб, анъана, таҳлил, талқин.

Абдували Қутбиддин шеърлярида поэтик мушоҳада услубининг ўзига хослиги мавжуд бўлиб, шоир лирик оламининг асосида кўнгил шеърлярининг ўзига хос талқинига дуч келамиз. Шоирнинг жуда кўплаб шеърляри модерн шеърят таъсирида ёзилган. Бу шеърларда мумтоз адабиётимизнинг фалсафий теранлиги, сўзларнинг гўзал тарзда сайқалланиб келиши каби анъаналари, сарбаст шеърнинг қирғоқ бузар мавжляри, туйғу тошқинлиги билан омукталаниб кетади. Натижада замонавий ва мумтоз шеърятнинг синтезлашган шаклига дуч келасиз:

Чунонам, жононам, сизга пайвандман,
Ишқпарастман, мардуми Самарқандман,
На жамман, на камман, на-да бутунман,
На итман, на одам, на-да тутқунман.
Вале сиз учунман
Ёлғиз сиз учунман.
Ҳаргиз сиз учунман, ҳар дам сиз учунман,
Чунонам, чунонам, дил тийралашди [1,197].

Кўриниб турибдики, бу мисраларда мумтоз шеърятимиздаги мустақил хос мисраларнинг ўйноқи, охангдорлиги, бармоққа хос соддалик, ихчамлик ва дилга тез таъсир қилиш, модерн шеърятга хос чуқур маъно тафаккур теранлиги билан ҳамоҳанг бўлиб келаётганлиги кўзга ташланади.

Шоирнинг “Модерн”га қўшимча изоҳ” номли шеърида сиртдан қаралганда куз фаслига муносабат билдирилаётгандек туюлади. Лекин бу шеърдан ўқувчи бир қанча маънола

рни илғаб олади. Модерн шеърятнинг фазилатларидан бири ҳам унинг кўп қатламли эканлиги, яъни мазмундаги полифоник хусусиятидир.

Балчиқдан-балчиққа ағанаётган –
Сап-сарик сояга сиғинаётган –
Сентябр-октябр-ноябр –
Ая-маъжуж
ўйнашисан куз [1,201].

Мумтоз моҳиятни замонавий шаклларда ифодалаш Абдували Қутбиддин поэтик услубини белгилайдиган омиллардан биридир. Куз фасли моҳият эътибори билан кўнгилга аллақандай маҳзунлик, мискинлик бахш этадиган фасл. Жаҳон адабиётининг энг етук намуналарида, жумладан, М.Булгаковнинг “Уста ва Маргарита”, Габриэль Маркеснинг “Ёлғизликнинг юз йили” да куз, ёмғир тасвирляри ана шундай руҳий ҳолатда ифода этилади.

Мумтоз шеърят манзарани романтик бўёқдорликда, яъни реализмдан юқорида пардаларда акс эттирган бўлса, модерн шеърят ушбу манзарани анъанавий шарқ шеърятидан фарқли ўлароқ сайқалланмаган, лирика табиатига унчалик ҳам

ўтиришмайдиган сўзлар, жумлалар, мисраларда акс эттиради. Юқоридаги шеърий парчадаги “балчиқдан-балчиққа”, “сап-сарик соя”, “ўйнашисан куз” каби жумлалар анъанавий эстетик тафаккур учун “дағал ва кўпол” туюлади, мумтоз шеърият тили билан айтадиган бўлсак, илоҳий сўзни қора тупроққа тенглаштиргандек бўлади.

Фикримизнинг исботи учун юқорида таъкидланган шеърнинг якунловчи бандига мурожаат қилайлик:

Кўчаларда, томларда, деразаларда
Ёмғири, ғир-шири, нари-берида...
Қуртлаган олмадай, кўп қаридай –
Куз азада –
Чексиз, сўнгсиз, тинимсиз,
Умидсиз...

Беҳад унумсиз.

Агар шеърга дурустроқ разм соладиган бўлсак, А.Қутбиддин ҳам Алишер Навоийнинг

Хазон сипоҳига, эй, боғбон, эмас монё,
Бу боғ томида гар игнадин тикан қилгил –

фикрларига ҳамоҳанг фикрларни билдираяпти. Ҳар бир барғни дарахтга игна билан сукиб қўйсангиз ҳам хазон фаслини ортга суриб бўлмайди. Ҳар иккала шоир ҳам гуллашнинг хазонрезгига, туғилишнинг интиҳога юз тутиши муқаррарлигини таъкидлаяпти. Бироқ икки хил шаклда, икки хил оҳангда.

Абдували Қутбиддиннинг “Найсон”, “Бахтли йил”, “Бор” шеърий тўпламларидаги аксарият шеър ва дostonлар тасаввуфий қарашларга туйинган ижод намуналаридир. Шоир “Изоҳсиз луғат” дostonида шундай ёзади:

Ҳамширам – турна,
Қондошим – жайрон,
Жигарим – арғувон.
Хоки туробданман, иним – қумурсқа, оғам – от,
Билдим – одамийзотман,
Одамийзот... (“Бахтли йил”, 132-б).

Тасаввуфнинг Ваҳдати вужуд концепцияси коинотдаги барча нарсаларнинг бирлигини, муштараклигини эътироф этади. Унга кўра одамизод, наботот, табиат ягона Зотнинг турлича кўринишларидир. Яъники, Абдували Қутбиддин айтганидек, турна, жайрон, арғувон, қумурсқа, от, одамизот – бари Аллоҳнинг бетакрор ижодидир. Шу боис буларнинг барчаси одамизодга қондош, жондош оға, ини.

Абдували Қутбиддиннинг айрим шеърларида умуман қофия учрамайди. Модерн шеър учун қофия муҳим поэтик унсур ҳисобланмай қўйди. Унинг “Тасаввур лаҳзалари” туркумига кирган шеърларнинг композицион қурилиши ўзига хос. Масалан, туркумдаги ўн иккинчи шеърни қараб чиқайлик:

Қабристон...
Бобом қабри...
Салом сукутга чўмганлар...
Сувпуфакли булоқ...
Иллатсиз балиқлар...
Вақт чинори...
Бобом тинчмикан...

Шоир ушбу туркумда китобхоннинг эстетик дидига интеллектуал салоҳиятига, дунёқарашига таянади. Оддий китобхон учун бу шунчаки сўзлар, эстетик завқ – шавқсиз нарсалар номи, кўнгилга ҳам, ақлга ҳам ҳеч нарса бермайдиган шаклбозлик намунаси. Шоир нима демоқчи, нимани назарда тутган? Табиатни, ҳозирги адабиёт муаллиф ва китобхон мулоқотига асосланган. Ҳар бир китобхон қачондир шу манзарага, шу ҳолатга дуч келган: қабристонга борган, теварак – атрофга боққан, дўмпайган қабрларни кўрган,

чинор, булок, балиқ ва бошқа нарсалар, шу баробарда зиёрат, хотирани ёд этиш... Шеър китобхонни хотиралари қатида яшаб келаётган манзара ва ўшандаги рухий ҳолат суратини жонлантиради. Қабристон, шоир наздида, истаса – истамаса, хотиралар дунёсига қайтиш маскан рамзи. Хотиралар, ўйлар занжирининг узук – юлуклиги, узук бошқача ўй – хаёлларга берилиши мумкин. Тайёр хулосаларни тақдим этмаслик ҳам бугунги янги шеърятнинг асосий белгиларидандир.

Айрим тадқиқотларда модернизмнинг ўзбек адабиётида пайдо бўлишини адабий таъсир ва алоқаларга боғлашга мойиллик сезилади. Бу тўғри. Лекин ўша таъсир доирасида қолиб кетмади, таъбир жоиз бўлса, ўзбек модерн шеърятни, миллий анъаналарга таяниб қад ростлади. Чунки модернизм бағридаги оқимларнинг хусусиятлари мумтоз шеърятимизда мавжуд эди. А.Мухтор, Р.Парфи, А.Қутбиддин, Фахриёр шеърларини мумтоз шеърятимизга қиёслаб ўрганиш шундай хулосага олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қутбиддин. А. Бор. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий ўйи, 2011. – 319 б.
2. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.–199 б.
3. Ҳасанов Ш. Замонавий дoston поэтикаси. Монография. Самарқанд: 2001. –142 б.

*Pardayeva Iroda Mamayunusovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsenti, (PhD)*

“TARIXI MULUKI AJAM”DA TARIX HAQIQATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asaridagi payg‘ambarlar, hakimlar, hukmdorlar haqidagi afsona va haqiqat haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *afsona, rivoyat, haqiqat, payg‘ambarlar, hukmdorlar, adolat, tarixiy ma’lumotlar, aniq dalillar.*

Alisher Navoiyning diniy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, shuningdek, axloqiy-tarbiyaviy mazmun singdirilgan “Tarixi muluki Ajam” asarida jamiyatda haqiqat o‘rnatish, tinchlik va osoyishtalik adolatli, xalqparvar podshohlarga, hukmdorlarga bog‘liq, degan g‘oya ilgari suriladi. Navoiy o‘z oldiga Eron podshohlarining shaxsiy hayotini, jangu jadallarini yoritishni emas, balki ularning mamlakat va xalq manfaatlarini ko‘zlagan holda olib borgan odilona, oqilona faoliyatini, ilm-fan, san‘at va madaniyatga qo‘shgan hissasi, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini alohida ko‘rsatib berish va shu orqali zamona hukmdorlarini ogohlikka, ibrat olishga chaqirishni maqsad qilib qo‘yadi. Navoiy o‘z maqsadlaridan kelib chiqib, shuningdek, o‘zidan oldin yaratilgan tarixiy asarlaridagi ma’lumotlarga tayanib, tarixiy voqealarni aniq dalillar va afsonalar bilan mutanosib holda bayon etadi.

Asardan o‘rin olgan afsona va tarixiy ma’lumotlar bir-birini to‘ldiradi. Xususan, tarixiy hodisalarning afsonaviy romantik talqini ham asarni badiiy nasrga yaqinlashtirib, asarning o‘ziga xos turi sifatidagi qimmatini oshirgan. Navoiy, nasriy asari qaysi mavzu haqida so‘z yuritilmasin, qaysi sohaga tegishli bo‘lmasin, unda, baribir badiiyat unsurlaridan xoli bo‘lmasligi, o‘quvchi undan ham bilim, ham badiiy zavq olishi kerakligini ko‘zda tutadi. SHu sababli muallif asarning ko‘p o‘rinlarida chiroyli badiiy lavhalar yaratadi, she‘riy matnlardan foydalanadi.

“Tarixi muluki Ajam” faqat afsona va rivoyatlardan iborat emas, unda ko‘p tarixiy voqealar va mavzular ham o‘z aksini topgan. Biroq Alisher Navoiy “turli tarixiy va badiiy kitoblardagi bu mavzuga oid tumtaroq ma’lumotlar girdobiga tushib qolmaydi, balki tarixiy haqiqatni aniqlashga intilib, ko‘p vaqt bunga erishadi. Masalan, Iskandar haqida so‘z yuritayotganda uning saltanati davrini 500 yil deb yozgan Xusrav Dehlaviy aqidasi yoki “ikki qarn”–oltmish yil deb yozgan Nizomiy fikrini ma’qullamaydi” [3,212]. U Iskandar haqida yozar ekan, mazkur tarixiy shaxs haqida Sharqda keng yoyilgan afsonaviy tasavvurlarni ham, ya’ni u go‘yo 1600 yil yashagani, 500 yil podshohlik qilgani, ayrimlar uni Dorobning, boshqalar Bozur binni Albonning o‘g‘li deb

hisoblagani haqidagi ma'lumotlarni keltirish bilan birga tarixiy haqiqatga mos so'zlarni ham, chunonchi, uning otasi Filipp (Navoiy uni Faylaqus deb ataydi) ekani, u bor-yo'g'i o'ttiz olti (hozirgi hisobda o'ttiz uch) yil yashagani va o'n uch yil podshohlik qilganini tasvirlovchi ma'lumotlarni ham aytib o'tadi. Bu tarixiy haqiqatga yaqin. Hozirgi davr tarixshunoslarining yozishlaricha, makedoniyalik Aleksandr milodgacha 356 yilda tug'ilib, 336 yilda otasi Filipp o'limidan so'ng taxtga o'tirgan va 323 yilda vafot etgan. Demak, Aleksandr 33 yil umr ko'rib, 13 yil hukmronlik qilgan[4,17]. Ajamda Qubod va No'shiravon hukmdorlik qilgan davrda Mazdak ta'limotining keng tarqalishi Mazdakiylar harakatining No'shiravon zamonida bostirilishi, Mazdakning esa No'shiravon tomonidan qatl qilinishi kabi Navoiy asarida bayon qilingan voqealar va faktlar to'liq tarixiy asosga ega. "Tarixi muluki Ajam"da Sosoniylar Bahrom binni Hurmuz (Varaxran I), Bahrom binni Bahrom (Varaxran II), Bahrom binni Bahrom binni Bahrom (Varaxran III), Nasri binni Bahrom kabi shohlarning hukmronlik davri haqida yozilgan ma'lumotlar ham haqiqiy tarixiy voqealar va misollarga asoslangan.

Navoiy asarida keltirilgan ko'plab aniq dalillarga asoslangan ma'lumotlar ham zamonaviy tarix fani tadqiqotlari natijasida aniqlangan ma'lumotlarga mos keladi yoki ulardan kam farq qiladi. "Tarixi muluki Ajam"da sosoniylar sulolasiga mansub bir nechta hukmdorlarning hukmdorlik muddati haqida berilgan ma'lumotlarni zamonaviy tarixiy tadqiqotlardagi ma'lumotlar bilan qiyoslaganda ham ko'rish mumkin. Masalan:

"Tarixi muluki Ajam"da

Bahrom binni Hurmuz – 3 yil
 Bahrom binni Bahrom – 20 yil
 Bahrom binni Bahrom binni Bahrom – 4 oy
 Shopuri zul Aktof – 70 yil
 Shopur binni Shopur – 5 yil
 Bahrom binni Shopur – 12 yil
 Yazdijird binni Bahrom - 20 yil

Zamonaviy tadqiqotlarda

Varaxran I – 274-277 (3 yil)
 Varaxran II – 277-294 (16 yil)
 Varaxran III – 294 (4 oy)
 Shopur II – 309-379 (70 yil)
 Shopur III – 383-388 (5 yil)
 Varaxran IV – 389-399 (10 yil)
 Yazdigard – 399-421 (22 yil)

Manbalarni qiyoslaydigan bo'lsak, ular orasida unchalik katta farq mavjud emas, bir necha yil hisobiga bir-biridan farqlanmasa, ular deyarli bir xil ko'rsatkichga ega.

Navoiy asarda Eron podshohlaridan oltmish beshtasining nomini qayd etadi. Ular, jumladan, to'rt sulola: peshdodiyalar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar avlodlaridandir. Xususan, shoir "Tarixi muluki Ajam"da "Xamsa"ning ikkinchi dostoni "Farhod va Shirin"ning bosh qahramonlaridan biri bo'lgan eroniy podshohlardan Xusrav Parviz binni Hurmuz haqida so'zyuritadi. Xusrav Parviz eroniy podshohlarning to'rtinchi tabaqasi - sosoniylar sulolasidan bo'lib, Anushervonning nevarasi bo'lgan. U 590 yilda taxtga chiqqan va 628 yilda o'z o'g'li Sheruyaning buyrug'i bilan qatl qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 536 b.
2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 480 b.
3. Valixo'jaev B. Alisher Navoiyning nasriy asarlari: tasnif va tavsif. Mumtoz siymolar. 1-kitob. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 304 b.
4. Davlatov O. Navoiy ijodida adolat talqini// Huquq va burch, 2012. – №2. B.16 –17.

*Равшанов Махмуд,
 профессор Навоийского государственного горного
 университета, доктор филологических наук.*

АФФИКСАЦИИ В СИСТЕМЕ УЗБЕКСКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье исследуются проблемы нулевой аффиксации в словообразовательном процессе узбекского языка. Нулевая аффиксация в статьях исследуется как явление транспозиции и конверсии.

Ключевые слова: транспозиция, аффиксация, конверсия, лингвистика, семантика.

Термин «нулевая аффиксация» не вскрывает природы изучаемого явления, ибо словообразовательные приемы, осуществляемые без участия аффиксов, многочисленны и неоднородны. Безаффиксальным может быть и словосложение, безаффиксальной является и обратная деривация, и аббревиация, безаффиксальным может быть и словообразование посредством чередования или мены ударения. Из этого перечисления также видно, что понятие безаффиксальное словообразование в самом узком смысле – как словопроизводство (т.е. частный случай словообразования, противопоставленный как «производство» с помощью служебных элементов сложения и всем прочим видам фонологического преобразования), причем словопроизводство осуществляемое без участия какого бы то ни было деривационного аффикса. Это ограничение позволяет противопоставить безаффиксальное словопроизводство обратной деривации, которая протекает при усечении деривационных элементов. В то же время приведенное определение не позволяет смешивать изучаемый прием с более широким явлением усечения, которое может иметь место и при безаффиксальном словопроизводстве, но может характеризовать и другие разновидности словообразования.

Трактовка безаффиксального словообразования у разных исследователей и особенно в разных языках неоднозначна и порой полерна. Во всяком случае, как указанный термин, так и термины «нулевое словообразование» или «словообразование с помощью нулевой аффиксации» а также «конверсия» применяются нередко по отношению к явлениям, демонстрирующим принципиальное сходство. И все же, как показывают сами термины, применение их связано с подчеркиванием разных сторон и разных признаков рассматриваемого явления [Кубрякова, 1974. С.75-76]

Использующий термин «нулевая аффиксация» указывают нередко на то, что «термин «безаффиксальный способ» ... дает лишь негативную характеристику данного способа словообразования и не отвечает на вопрос, какими средствами выражается при этом способе словообразовательное значение, каковы специфика этого способа по сравнению с другими способами, для которых также характерно отсутствие аффикса» [Лопатин, 1966. С.76].

По существу, однако, и термин «нулевая аффиксация» информативен не многим больше. Хотя, казалось бы, он свидетельствует о том, что в структуре производного содержится нулевой деривационный показатель, разносильный по своей значимости материально выраженному показателю в основах другого типа и отражает тот факт, что «обозначаемое представлено в синтагме, но выражено нулем» [Земская, 1973. С.8]. Не несущим никакой позитивной информации оказывается в конечном итоге понятие «нулевой деривационный аффикс». С одной стороны, ему надлежит приписать столько разных значений, сколько в языке оказывается разных моделей изучаемого типа.

Применение термина «нулевое словообразование» кажется нам нецелесообразным и потому, что он наводит на неправильное представление о том, что нуль может являться средством словообразования, в то время как подобная нулевая морфема – нечто иное, как следствие уже произошедшего специфического словообразовательного акта, его рефлекс и отражение. Характеризуя безаффиксальное словопроизводство, нельзя представить его как происходящее в ходе прибавления я нулевого элемента, ибо суть процесса заключается не в расширении и не в суждении основы, а в ее переосмыслении, которое не случайно часто именуется конверсией, т.е. «превращением». Описание с помощью нулевых аффиксов не только не всегда «удобно», - иногда оно просто невозможно.

Первопричиной словообразования всегда служит потребность в новом названии. Следуя этому пониманию деривации, можно было бы признать, что сущность безаффиксального словопроизводства заключена, действительно, в конверсии или транспозиции – переводе из одной категории в другую представлении признака как предмета, процесса как состояния, предмета- как действия и т.д., иначе говоря, «повороте» основы и ее рассмотрении под новым углом зрения. С семантической точки зрения, безусловно, оба указанных термина более адекватно, указывают на суть происходящего

процесса и его природу. И все же и они не отражают специфики используемого в этих целях словообразовательного средства.

Разумеется, и транспозиция, и конверсия могут быть поняты в чисто процессуальном смысле, для обозначения перевода из одной части речи или перехода из одной категории в другую. Но оба этих термина имеют настолько широкое значение, что использовать их для наименования словообразовательных процессов со вполне определенными формальными свойствами иногда становится нецелесообразным. Так, транспозиция знаков описывается применительно к самым разным уровням языка [Балли, 1955. С.130] или ею называют не только изменение принадлежности слова к определенной части речи, но и принадлежности к определенному лексическому разряду. В таком понимании транспозиция отождествляется с любым процессом деривации. Но даже если не придерживаться подобного расширительного истолкования транспозиции, понимая под ней в словообразовании исключительно перевод слов из одной грамматической категории в другую, нельзя не признать, что обычным способом осуществления транспозиции оказывается суффиксация. [Дюрович, 1972. С.49]. Из этого ясно следует, что понятия «транспозиция» и «аффиксация» не только не могут рассматриваться как взаимоисключающие, но, напротив, предполагают взаимодополняющее описание одних в тех же явлений с разных точек зрения. Тем более неуместно рассматривать транспозицию как словообразовательное средство; транспозиция – это особая форма переосмысления знака.

Соотношение понятий «транспозиция» и «конверсия» оказывается более сложным, но в конечном итоге конверсию можно рассматривать как морфологическую трансформацию, имеющие словообразовательный характер [Кубрякова, 1974. С.75]. придавая термину «конверсия» указанный смысл, мы, однако, оставляем пока без ответа вопрос о том, каково соотношение понятий конверсия и «безаффиксальное словопроизводство» и что служит в них словообразовательным средством.

Формулировка А.И.Смирницкого о том, что «специфическим для конверсии является не вообще использование парадигмы как средства словообразования, а использование ее как единственного средства, без каких – либо иных, специально словообразовательных средств» [Смирницкий, 1955. С.166], могла быть и была неправильно понятой в том смысле, что средством словообразования предлагали считать набор словоизменяющих флексий или всех грамматических показателей «производной» части речи.

А.И.Смирницкий обратил должное внимание на особую роль парадигмы в возникновении отношений по конверсии на то, что определение конверсии через изменение парадигмы исходного слова [Смирницкий, 1954. С.17, 21] находит истоки именно в его теории.

В принципе можно предусмотреть возможность существования следующих типов словообразовательных корреляций при безаффиксальном словопроизводстве:

1) и в мотивирующее, и в мотивированном слова основа выступает в окружении какого-либо морфологического показателя, который может быть либо нулевой флексией или окончанием, либо формообразующей морфемой. Иначе говоря, оба члена словообразовательной корреляции характеризуются «выразительными» структурами «основа + морфологический показатель»; это модель типа русск. *золот -о -----золот-ой*;

2) в мотивирующем слове основа выступает в окружении материально выраженного морфологического показателя, в мотивированном – в окружении нулевой морфемы; это модель типа русск. *син-ий-----синь*;

3) в мотивирующем слове основа выступает в окружении нулевой морфемы, т.е. слово характеризуется структурой, тождественной чистой основе, а в мотивированном слове – в окружении материально выраженного морфологического показателя; это модель типа *супруг - супруг-а*.

Конверсия другими авторами истолковывается по-иному принципами. Например, у Л.А.Новикова «конверсия выражает отношения субъекта и объекта в исходном и

производном высказываниях. Н.: Профессор читает лекцию и Лекция читается профессором[Новиков, 1987.С.63]. в языках флективного строя конверсия получает свое значение именно от этого строя [Новиков, 1987.С.63].

В языках агглютинативного строя конверсия осуществляется по другим лингвистическим принципам. Конверсия в современном узбекском языке, как показали исследования, переосмысливается с семантической точки зрения и переход из одной части речи в другую осуществляется в безаффиксальном порядке. Особенности конверсии или транспозиции зависят от безаффиксального словопроизводства.

Субстантивация в современном узбекском языке приводит к возникновению омонимов. Например:

Йигирма 1 – двадцать.

Йигирма 11– (этно) поминки на семнадцатый или девятнадцатый день после смерти.

Яхши 1- хороший; добрый; славный (прил.).

Яхши 11 – хорошо, добро (нар.).

Бало 1- беда, бедствие, несчастье; бич; напасть.

Бало 11 – разг.ловкий, умелый [Узбекско – русский словарь, 1988]

В современном узбекском языке прилагательные и наречия не имеют в конце слова морфологического показателя. Например, яхши (прил.) – яхши (наречие). Только мы их определяем в контекстуальных ситуациях, т.е. в актуализации речи. Безаффиксальный принцип словообразования или другой грамматический показатель имеет разные структурно- семантические и ономазиологические характеристики. Мы не можем проанализировать Е. конверсию или транспозицию в одном направлении и русле как безаффиксальное происхождение. Они не только не имеют разные уточнения в зависимости от строя языка или происхождения, но даже испытывают праязыковое влияние. Следовательно, они имеют праязыковые корни в современных тюркских языках как алтайские языковые принципы, а в языках флективного строя испытывают индоевропейские праязыковые влияния.

Литература

1. Дюрович Л. Относительные прилагательные в славянских языках//”The Slavic Word” The Hague, 1972.
2. Земская А. Современный русский язык. Словообразование. М.:1973.
3. Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия// ВЯ. 1974 №4.
4. Лихтман Р.И.Существует ли безаффиксный способ словообразования в русском языке// ВЯ. 1968 №2
5. Новиков Л.А. Современный русский язык. М.: 1987.
6. Лопатин Нулевая аффиксация в системе русского словообразования//
7. Узбекско – русский словарь. Ташкент: 1988.

*Aslanova Hafiza Abduraximovna
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

KICHIK EPIK JANRLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda kichik epik janrlar nazariyasi haqida so'z yuritiladi. Hikoya, hikoyat, rivoyatlarning mavzu va g'oyasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: janr, hikoya, hikoyat, rivoyat, qissa, toponim, naql, afsona.

Sharq mumtoz adabiyotida, forsiy adabiyotda ham, turkiy adabiyotda ham qadim zamonlardan boshlab kichik janrlar, xususan, hikoya, hikoyat, rivoyat, qissa kabi nasr namunalari o'ziga xos o'rin tutib kelgan.

Kichik janrlardan biri rivoyat bo'lib, unga shunday ta'rif beriladi: "Avloddan avlodga o'tib kelayotgan og'zaki hikoya, hikoya naql, afsona"¹.

Yana bir manbada esa, rivoyatga quyidagicha izoh beriladi: Rivoyat (arab-hikoya qilmoq)-voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya, folklor janri. Hajmi qisqa 2 yoki 3 epizoddan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda, oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'lik hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga, tarixiy rivoyat hamda toponim rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me'yorlari tashviq etilib, muayyan faktlar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temir, Sulton Mahmud va boshqalar hayoti bilan bog'liq voqea va hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda shahar, qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Xotimasida, odatda, hikoyadan maqsad ta'kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi. Rivoyatlar bizgacha ko'proq og'zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan. Vosifiyning "Badoyi ul-vaqoyl", Xondamirning "Makorim ul-axloq" va boshqa asarlarda rivoyatlarning qadimiy namunalari keltirilgan².

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodida rivoyatga: "Hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janrlaridan biri rivoyatdir" deb ta'rif berilgan³.

Tarixiy rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki voqealar guvohi bo'lganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan - deyish mumkin. Bu narsa rivoyat janrining o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ba'zi tarixiy rivoyatlarda esa, faktik voqealardan asar ham qolmay faqat shaxs nomigina saqlanib qolish ham mumkin. Ba'zan esa tarixiy shaxs sayyor syujetlar qolipida hikoya qilinadi. Shunga qaramay tarixiy shaxslarning ishtirok etishi, syujetda hayotiy uydirmaning mavjudligiga qarab bunday asarlarni tarixiy rivoyat deyaveramiz. Alisher Navoiy bilan bog'liq tarixiy rivoyatlar buning misoli bo'la oladi. Navoiy bilan bog'liq bir rivoyatda Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga "olib kelinglar" dedi. Shu kuni Alisher Navoiy saroyda yo'q ekan. Vazirlar nimani olib kelishni bilmabdilar. Oxiri ular Alisherni topib, bo'lgan voqeani aytibdilar. Alisher ularga shoh oldiga arra, tesha bilan usta olib kiringlar, debdi.

Ko'rinadiki, bu afsona xalq orasida qadimdan mashhur bo'lgan bir ertakning syujeti asosida yaratilgan. Mazkur syujet Alisher Navoiyning donishmand vazirligini, uning tadbirkorligini izohlash uchun xizmat qildirilgan. Demak, qahramonlar tarixiy shaxs, ularning munosabati faktik hodisalarga mos, biroq asar voqealari esa to'qima xarakterga ega bo'ladi.

Tarixiy shaxs va tarixiy voqealar bilan bog'liq rivoyatlar yozib olingan davr e'tibori bilan ikki til tipda namoyon bo'ladi. Ular bir-biridan shakl va mazmun hamda tarixiy faktni talqin qilish xususiyati bilan farqlanadi. Birinchi tip rivoyatlarga xalq orasida paydo bo'lgan davridayoq yozib olingan rivoyatlar kiradi. Bunday rivoyatlarda tasvirlangan voqea va hodisalar o'sha davr shart-sharoiti, guruhiga mos keladi. Bu jihatdan tarixiy janrlar haqida yoki uning ta'sirida yaratilgan "To'maris", "Shiroq", "Zariadr va Odatida", "Guldursun" kabi rivoyatlar ahamiyatidir. Bu rivoyatlar keltirilgan faktlarning aniq va to'liqligi bilan ajralib turadi. Xondamirning "Makorim ul-axloq", Vosifiyning "Badoe'ul-vaqoyiq" asarlarida keltirilgan rivoyatlar ana shu tipdagi rivoyatlar turkumini tashkil etadi. Ikkinchi tipdagi rivoyatlar esa, yaratilgandan keyin uzoq zamonlar o'tgach, yozib olingan rivoyatlar kiradi. Bu rivoyatlarda tarixiylik, faktik hodisalar xiralashgan. Ular hayotiy uydirmalar bilan qorishib ketgan bo'ladi. Bu tipdagi rivoyatlar afsonalarga yaqinlashib qolganliklariga qaramay, voqea va hodisalar haqida tushuncha yoki ma'lumot berishi jihatidan ahamiyatlidir.

Xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan rivoyat janri yozma adabiyotga ham kirib boradi. Turli tarixiy shaxslar, xususan shohlar payg'ambarlar, avliyolar va shayxlar, din vakillari haqidagi rivoyatlar yozma adabiyotlarda "naql qiladurkim", "andoq rivoyat qilurlarkim" shaklidagi an'anaviy birikmalar orqali boshlanadi va hikoya qilinadi.

Mumtoz adabiyotda hikoyat nomi bilan yurituvchi hikoya janriga shunday ta'rif beriladi: mumtoz hikoya - qadim o'zbek nasrining bir shakli. Ko'pincha hikoya deyilganda, payg'ambarlar, yarim tarixiy, yarim afsonaviy shaxslar, pir-murshidlar, hukmdorlar, fan-madaniyat, adabiyot sohalarining mashhur arboblari hayoti, ular bilan bog'liq turli-tuman hodisalar haqida bitilgan qisqa, ixcham jajji nasriy lavhalar ko'zda tutiladi. Mumtoz hikoyalarning birinchi belgisi ibrat xususiyatining mavjudligidir. Ikkinchi belgisi esa, tugal mazmunga ega bo'lishidir. Uchinchi xususiyat, hikoyalarning tili murakkab bo'lmasdan, oddiy, sodda va ravon bo'lishidir, ya'ni ifoda xalq og'zaki ijodida yaqin turmog'i lozimligidir. To'rtinchidan,

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том, -Москва: Рус тили, 89,81. 624-бет.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11 том, - Тошкент, 2005. 323-бет.

³ Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. -Тошкент; Ўқитувчи, 1990. 179-180-бетлар.

hikoyalarda she'riy parcha bo'lishi shart emas. To'g'ri, ko'pchilik hikoyalar she'riy parcha bilan yakun topadi. Lekin, bu parcha bilan tugatish hikoyaning ahamiyati uchun erkin bo'lib, buni qo'llamaslik ham mumkin.

Umuman olganda, fors va turkiy mumtoz adabiyotda tasavvufiy hikoyatlar muhim o'rin tutadi. Negaki, Sharq mumtoz adabiyotining asosini islom dini aqidalari, undagi ishni muqaddas manba - Quroni karim va hadisi sharif tashkil etadi. Shunga ko'ra, islom dini asosida yuzaga kelgan va o'zining yuksak aholisiga etishgan tasavvuf ta'limot asrlar moboynida badiiy ijodga ham o'zining katta ta'sirini o'tkazib kelgan. Shu bois, mumtoz adabiyotining xoh nazmiy, xoh nasriy janri bo'lsin unda albatta tasavvufiy g'oyalarning bo'lishi tabiiy bir holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том, -Москва: Рус тили, 89,81. 624-бет.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 11 том, - Тошкент, 2005. 323-бет.
3. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Тошкент; Ўқитувчи, 1990. 179-180-бетлар.
4. Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий.–Тошкент; 1996 й.

A.V. Faleeva

(PhD, senior teacher of SamSIFL)

FEATURES OF STRUCTURAL CLASSIFICATION OF COLLOQUIAL EXPRESSIONS WITH DIFFERENT PARTS OF SPEECH

Annotation: The author of the article examines various structural features of the classification of colloquial rhymed expressions with the participation of an adjective and a verb as an initial component. Particular attention is paid to the analysis of variations and omissions in examples from dictionaries of colloquial English.

Keywords: colloquial adjectives and verbs, colloquial expressions, colloquialisms, slangisms, rhyming slang, structural classification, substandard lexicography.

Colloquialisms, slangisms, vulgarisms, dialectisms, argotisms are widely studied problems in modern linguistics. The study is carried out from various angles:

1) Lexicographic problems of studying living spoken language, taking into account examples from the media, blogs, etc. [1, p. 46; 3, p. 10];

2) Neological research in the context of lexical-semantic changes based on linguistic and extralinguistic premises [8, p. 74; 9, p. 92];

3) The problem of changes in the modification of the structure of stable expressions in the colloquial style [10, p. 81];

4) Thematic differentiation of colloquial words and expressions with the identification of the main groups with an anthropocentric focus and the identification of positive and negative connotations [2, p. 17; 6, p. 136; 11, p. 28];

5) The problem of identifying hidden etymological and lexical-semantic features when revealing the symbolic meanings of colloquialisms and slangisms of individual subcultures [5, p. 199; 7, p. 543];

6) Reflection of pragmatic and cognitive features in the study of colloquial words and expressions, taking into account temporal, territorial and other specific features of colloquial words and expressions [12, p. 26; 13, p. 206].

It is typical for rhymed slang to contain a large number of words in the plural category.

Cp. a fragment from the context of a live television broadcast: “You never know what to do with your Darby bands (= *hands* in this context) in this case, do you?” [4, p. 176].

Typically, the two words in a rhyming slang construction are used in the plural, the part before = and the part after the initial sign. In this example, the words are *bands* and *hands*.

The construction of sentences in the context of replicas from orders is even more limited by the quantitative composition of the sentence members due to the maintenance of information only on customer requirements.

Cp. One replica from a customer's speech in a pub: “A pint of day, please!” [4, p. 178].

This replica contains only the colloquial noun *day (and night) = light* in the meaning of “light beer” and the adverb *please*.

1) Adjective + adjective + noun (singular) = noun (singular).

Deep sea diver = fiver with the meaning “£5 note”. “Let me reach for my last deep sea diver in my wallet” [4, p. 180].

2) Adjective + noun (singular) = noun (singular). Cp.: “*Darling (also dirty) daughter = water* with the meaning “water, river”. Cp. fragment from context: “Well, our darling daughter is not so darling this spring, after all” [4, p. 176].

Cp. also: *dirty den = pen* with the meaning “fountain pen” (“Our children now even don’t know what a dirty den is!” [4, p. 189]), *dirty (dick) = nick* – “prison, police station” (“Just answer my questions or you prefer the dirty dick?” [4, p. 189]), *early bird = word* – “careless word” [4, p. 212], etc.

Variations in the components of the structure of rhymed slang are most often made at the level of replacing words that belong to the same part of speech, i.e. replacing a verb with a verb, a participle with a participle, etc. (most often from an identical thematic group).

Of interest in the above sentence is the variation of adjectives with oppositional positive and negative connotations: *darling* (“dear”) and *dirty* (in the meaning of unpleasant, bad). Cp. also: “*darling (also charming wife) = knife*” in the meaning of “knife” [4, p. 176].

Cp. also: *dicky dirt (also dinky dirt) = shirt* (“Please, I need this dicky dirt to be ready tomorrow” [4, p. 184]), *dicky bird (or early bird) = word* meaning “careless word” (“Don’t say a dicky-bird if stopped by the police” [4, p. 184]).

In the last example, the conditional sentence shows the omission of the pronoun in the if-part, as well as the omission of the first part of the passive construction. Cp.: if you were stopped by the police → if stopped by the police.

3) Adjective + noun (plural) = noun (plural).

Cp.: *early hours = flowers* with the meaning «flowers». From a TV show about London: “If you are looking for the best early hours, you shouldn’t miss the Covent Garden at dawn” [4, p. 184].

4) Adjective/adverb = adjective/noun.

Dull and dowdy = 1. cloudy with the meaning “cloudy” (“As usual the sky is dull and dowdy on this Sunday morning” [4, p. 207]), and also in the meaning 2. *cloudy* “cloudy beer” (“Enjoying your dull and dowdy?” [4, cp. 207]).

As you can see, from one form of rhymed slang with a completely identical composition of components, not only different meanings can be formed, but also different parts of speech. Thus, *dull and dowdy = cloudy* served to create an adjective and a noun.

5) Verb (in various forms) = verb.

Drip (dripping) dry = cry in the meaning “whine, cry” (“He’s finally gone and I drip dry” [4, p. 201]).

6) Verb = noun.

Diddle-diddle = fiddle in the meaning of “violin” (“Mum, Sam is the only one in our class who chose the diddle-diddle!”) [4, p. 185].

7) Onomatopoeia = noun.

Ding-dong = song with the meaning “song” (“Let’s hear Tommy’s ding-dong!” [4, p. 187].

In colloquial grammar, there is a transition of nouns, especially proper names, into other parts of speech, i.e. the original form is used and a new meaning is modeled based on the hidden semantics of the given noun.

Cp. fragment from exclamation at the party: “Oh-oh! Kevin is telling again one of his Danny LaRue jokes!” [4, p. 176].

“Danny LaRue” – the name of an Irish and English artist and singer, used colloquially to mean “obscene, vulgar” as an adjective.

List of used literature:

1. Бушуй Т.А. Краткий экскурс в современную немецкую лексикографию // Язык и культура. – 2021. – С. 40-46.

2. Бушуй Т. Когнитивные особенности функционально-тематических групп арготизмов русского языка //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 12-17.
3. Бушуй Т.А. Современный словарь как продукт определенной научной концепции // IQRO. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 10.
4. Семиволкова С.В. Современный англо-русский словарь живого английского языка. – М.: Астрель, 2010. – 896 с.
5. Фалеева А.В. Отражение лексико-семантических особенностей скрытого смысла коллоквиализмов-зоонимов в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2021. – №. 9 (455). – С. 192-199.
6. Фалеева А.В. Тематическая дифференциация коллоквиализмов с имплицитным значением в лексикографических источниках // Вестник Челябинского государственного университета. – 2022. – №. 7 (465). – С. 128-136.
7. Фалеева А.В. Лексико-семантические и деривационные особенности коллоквиальных акронимов и бэкронимов в современных печатных и электронных лексикографических источниках // Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 540-543.
8. Фалеева Е.В. Неологический бум в английском языке: проблемы и перспективы //International scientific review. – 2022. – №. LXXXVI. – С. 70-74.
9. Фалеева Е.В. Неологопроцессы Современного Английского Языка //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 39. – С. 88-92.
10. Bushuy T. Contextual actualization of phraseology in English expressions // Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach. – 2015. – С. 81.
11. Bushuy T., & Khayrullaev K. Life of Word during Coronavirus. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(8), 2022. – С. 19–28. URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2613>
12. Bushuy T.A. (2023). Language in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 39, 23–26. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1678>
13. Faleeva A.V. Grammatical, Semantic and Structural Features of English Colloquial Words and Expressions // International journal of language learning and applied linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 202-206.

Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,
Samarqand davlat chet tillar institute katta o'qituvchisi

TIL TARAQQIYOTIDA SIYOSIY VA MADANIY HAYOTNING TA'SIRI

Annotatsiya: Turkistonda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayot XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zgarishlarga uchradi. Bu hol, tabiiyki, jadid adabiyotida ham namoyon bo'ladi. Birinchidan, shu paytgacha adabiy me'yor sanalgan arab, fors-tojikcha so'zlarning ishlatilishi bo'lsa, ikkinchi tomondan Turkistonga rus tilining kirib kelishi bilan namoyon bo'ladi. Buning ustiga rus tili orqali Yevropa tillarining kirib kelishi ham o'zbek tilining takomiliga, rivojiga hissa qo'shdi. Samarqand jadidchilik maktabi vakillari asarlari tilini tahlil qilish orqali ijodkorning tildan foydalanish uslubini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: Turkiston, "usuli savtiya" jadid maktablari, darsliklar, uslub va uslubshunoslik, badiiy obraz, dialektizm, jargon so'zlar, ijtimoiy-tarixiy jarayon.

Тилшуносликда matnning tili va uslubiyatini tahlil qilish orqali insoniyat ma'naviy madaniyatining tarixi va mohiyatini o'rganish mumkin. Uslubiyat tilshunoslikning tildan foydalanish uslublarini o'rganadigan tarmog'i sifatida til uslublari, nutq uslublari, janr uslublari, ma'lum bir yozuvchining individual uslubini tadqiq qiladi. Tilning ifodaviy vositalarini va ulardan turli nutqiy munosabatlarda foydalanish usullarini o'rganadi. Shunga ko'ra tilshunos olimlar uslubiyatni uch turga bo'lib tadqiq qilishni tavsiya etadilar¹. Unga ko'ra: a) til uslubiyati; b) nutq

¹ Tursunov U., O'rinboev B., Aliyev A. O'zbek adabiy tili tarixi. –Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1989 y. –B-10.

uslubiyati; c) matn uslubiyatiga bo‘lib o‘rganish mumkin. Til uslubiyatini funksional uslubiyat sifatida til birliklarining ma’lum sharoitdan tashqaridagi holati o‘rganiladi. Matn uslubiyati faqat yozuvchining tildan foydalanishdagi o‘ziga xosligini, asar tilining xususiyatlarini tadqiq etish bilan chegaralanishini hisobga olsak, har bir yozuvchining individual munosabati namoyon bo‘ladi.

Tadqiq qilinayotgan XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida jamiyatda katta siyosiy, ijtimoiy, madaniy, tarixiy o‘zgarish yuz berdi. Bu esa, tabiiyki tilda o‘z aksini topdi. Bu hol, adabiy tilning yangi so‘z va jumlar bilan boyib borishini hamda ishlatilib turgan so‘zlarning yangi ma’no nozikliklari kasb etishini, tilning morfologik va sintaktik qurilishdagi takomillashuvini aniqlashni taqozo etadi. Shu bilan birga, aloqa vositasi bo‘lgan tilning fan, madaniyat, adabiyot va san’at taraqqiyotiga ta’sirini o‘rganishni, adabiy til taraqqiyotida ijtimoiy rivojlanish qonunlarining aks ettirilishini hamda til taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

“Har bir adabiy tilning vujudga kelishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning mahsuli bo‘lgani kabi, undagi funksional stillarning shakllanish taraqqiyoti ham bevosita ana shu jarayonga bog‘liq. Shunday ekan, har bir tildagi uslublarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tilning o‘zi qadar uzoq davrlarni qamrab oladi”¹. [2.44] Tilshunos olim Suyun Karimov o‘zbek tili va adabiyotining boshlanish davri salkam ming yillik tarixni o‘z ichiga olishini inobatga olib, XI asrdan chinakkamiga rivojlana boshlagan o‘zbek badiiy ijodining bir qadar murakkab yo‘llardan borganligiga e’tibor qaratadi. XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrini bir va undan keyingi davrni ikkinchi bir bosqich sifatida o‘rganishni taklif etadi. Birinchi davr o‘zbek badiiy uslubiga Sharq adabiyotining bevosita, ikkinchi davrga esa Yevropa adabiyotining bilvosita ta’siri sezilarli darajada bo‘lganligi til birliklari orqali namoyon bo‘ladi, deb ta’kidlaydi. Yevropa adabiyoti ta’siri jadid namoyandalarining badiiy asarlarida ham seziladi.

“Agar biz O‘rta Osiyo xonliklarining Moskva davlati bilan XVI-XVII va XIX asrlarda olib borgan savdo va diplomatik aloqalariga oid turli yorliqlar, elchilar maktublari, tarixiy-maishiy hujjatlarni ko‘zdan kechirsak, o‘rus, knoz, put (pud), dujna (dyujina), yashik, samovar, konfut (konfeta), patnus (patnos), lampa kabi so‘zlarning qo‘llanganligini ko‘ramiz. Ushbu so‘zlar ko‘proq og‘zaki so‘zlashuv orqali kirgani uchun fonetik o‘zgarishlarga uchrab, o‘zbek tilining ichki taraqqiyot qonunlariga bo‘ysungan”². [1.84]

Bu holat O‘rta Osiyoning ruslar bosib olgandan keyin jadallashdi. Natijada o‘zbek tilining lug‘at tarkibiga siyosat, savdo, transport, moliya, pochta-telegraf, sanoat, harbiy-ma’muriy, uy anjomlari, tabobat, san’at, adabiyot va boshqa sohalarga xos so‘z va atamalar kirib o‘zlasha boshladi.

Xususan, rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan kirgan so‘zlar:

Politseyskiy, pristuv (pristuf), interesniy, dyujina, izvozchik, zako‘n (zakon), doktor, injener, sudya, izvinit, isprizdim, izvinit, ispasiba, priexal, mersi, dobriy vechrim (“Padarkush” Mahmudxo‘ja Behbudiy).

Duma vakili, gosudarstvenniy, gosudarskiy, vagon, no‘mra (nomer), paraxo‘d, mineralniy vo‘da, istansa, vokzol, imperatur, do‘xtir, moshina, elektrli tramvay, ofisar, konsul, bilet, gimnoziyo, po‘lis, jandarm, paspo‘rt, matros (“Qasdi safar” Mahmudxo‘ja Behbudiy).

Panlava, Chamberlen, Liga nosa, kommunist, kultur, bonka (bank), chervon, dekret, teatr, jurnol, gazet, kon‘yak (Saidahmad Siddiqiy-Ajziy. Davr matbuotida bosilgan she‘rlari).³ [3.233]

Missioner, volost, volostnoy, o‘ktabr (oktyabr), manifest, дума, nomer, susiyolizm (sotsiolizm), prog‘rom (programma), jug‘rofiya, g‘azeta, isxulostiki (sxolastika), filo‘suf, prutest, paroxud, teregrof, ayruplon (Hoji Muin. Tanlangan asarlar).⁴ [4.129]

Tipichniy, yubiley, komissar, plan, suflyor, zajigalka, lirika, pyesa, klassik, simvolicheski va boshqalar (Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar).⁵ [5.154]

¹ Karimov S. Badiiy matnning uslubiy alomatleri. O‘quv qo‘llanma.-Samarqand: SamDU nashri, 1992.- B-3.

² Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. –Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San‘at nashriyoti, 1989 y. –B-50.

³ Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So‘fizoda. Tanlangan asarlar.-Toshkent:Ma‘naviyat, 1999. B-232.

⁴ Hoji Muin. Tanlangan asarlar. –Toshkent:Ma‘naviyat, 2005. –B.129.

⁵ Mahmud Vadud. Tanlangan asarlar- Toshkent: Ma‘naviyat, 2007.-B.104

Ishlab chiqarish va savdoning rivojlanishi, sinflarning vujudga kelishi, yangi davlatning paydo bo'lishi yoki qayta shakllanishi, ilm-fan va adabiyotning taraqqiyoti kabi ijtimoiy, tarixiy, siyosiy omillar til taraqqiyotida katta ta'sir ko'rsatganligini va bu har bir omil o'zbek adabiy tilida o'z aksini topish bilan chegaralanib qolmay, balki badiiy tasvir vositalari taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligini tilshunos olim Suyun Karimov ta'kidlagan. ¹[2.44]

O'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot davriga nazar tashlab, o'zlashgan so'z va so'z shakllari turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablar bilan kirib kelganligining guvohi bo'lish mumkin.

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi hamkorlik va yaqinlik ularning tillariga ta'sir etmay qolmadi. Natijada tojik tilidan o'zbek tiliga ko'pgina so'zlar, so'z shakllari, iboralar, izofali birikmalar o'tib, o'zlashdi. O'zbek tilining lug'at tarkibida ijtimoiy hayot, kasb-hunar, adabiyot-san'at, hayvonot dunyosi, jonivorlar, o'simliklar, tabiat hodisalari, vaqt, masofa, o'rin-joy va boshqa sohalarga oid bo'lgan tojikcha so'zlar uchraydi.

Fors-tojikcha so'z, ibora, izofali birikmalar jadid adabiyoti namoyandalarining 1910 yilgacha bo'lgan asarlari tilida ko'p uchraydi. Turkistonlik jadidlar tilni soflashtirish va soddalashtirish, o'z ichki imkoniyat - sheva va lahjalardan foydalanib, tilni boyitishga harakat qilishgan bo'lishsa-da, asarlarida quyidagi fors-tojikcha so'z va izofali birikmalarni uchratish mumkin:

nekbaxt, nochor, mozoriston, xomushona, shams, ob, giriftor, duoxon, ziyon, oftob, aslo, devona, shashqator, otashin, chehra, poymol, yodgori, shoyadki, behuda, paymuda, so'zan, bedard-bedavo, havoi sof, libosi motam, yaki digar, sohibi chehra, ro'yi rizo, baroi hujum, naqshi zar,olami hama (Mahmudxo'ja Behbudiy "Oq yelpog'ichli chinli xotun"). ²[7.106]

dastijon, urfon, donish, chashma, shabiston, guliston, sarukor, raftor, dastor, sarxush, dushvor, giryon, xunrez, yaksar, osori jadid, siynayi parxun, gulshani javlon, Shar'i Qonun, ahli zunnor, sohibi ehson, chashmi xunbor (Saidahmad Siddiqiy-Ajziy "Oyina" jurnalining №37,38 sonlarida chop etilgan she'rlari). ³[3.232]

qalamtarosh, noshukur, behuda, po'stin, kambag'al, bacha, oshno, panjara, pishak, savdogar, bo'ston, behroq (Saidrizo Alizodaning kichik yoshdagi bolalar uchun yozgan matnlari).⁴ [9.52]

yoron, obro'y, nodon, amaldor, hamyon, pistadahon, masxaraboz, boybachcha, sarafroz, dardkash, qimorboz, ordfurush, oshxona, ko'knorxona, nimg'urma, sho'rapo'sht, Sunnati Xudo, Bandai Xudo, hifzi sihat, chashmai shifo, sunbuli sahro (Hoji Muin "Mashrab" jurnalining 1925 yilgi sonlarida chiqqan hajviy matnlari). ⁵[4.121]

chaman, sabo, panja, darmon, arjumand, giryon, guftor, ko'hsor, dastgir, digarxun, purkor, zeru po, zadai ta'b, kulbai ahzon, la'li nob (Vadud Mahmud "Tanlangan asarlar"dan). ⁶[5.124]

O'zbek adabiy tili lug'at tarkibida arab tilidan kirib o'zlashgan so'zlar ham mavjud. Bu so'zlarning kirib kelishi arablarning Movarounnahrda qilgan istilochilik harakatlari bilan aloqadordir. Arablar VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrda O'rta Osiyoni bosib olganlaridan so'ng mahalliy aholi Islom dinini qabul qilishga majbur bo'ladi. Islom dini bilan birga arab yozuvi ham keng tarqala boshlagan. Maktab, madrasa, masjid va idora ishlari asosan arab yozuvi hamda arab tilida olib borilgan. Arab tilining kitobiy til hamda davlat tili bo'lib qolish an'anasi ancha vaqtgacha davom etib kelgan. Ana shu jihatdan yondoshsak, arabcha so'z, so'z shakllari va iboralar o'zbek adabiy tiliga kitobiy til va qisman og'zaki so'zlashuv nutqi orqali kirib o'zlashgan. Bu esa, tabiiyki o'zbek tili tarkibidagi arabcha so'zlarning oshishiga sabab bo'ldi.

¹ Karimov S. Badiiy matnning uslubiy alomatleri. O'quv qo'llanma.-Samarqand: SamDU nashri, 1992.- B-13. (hammasi 44)

² Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. Oq yelpog'ichli chinli xotun -Toshkent: Akademiya nashri, 2018.-B.106

³ "Oyina" jurnalining ushbu sonlari Samarqand davlat qo'riqxonasida №KP-5512/661 raqami ostida saqlanadi.

⁴ Saidrizo Alizoda. Birinchi yil. Alifbe. -Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022.-B. 52.

⁵ Hoji Muin. Tanlangan asarlar.-Toshkent:Ma'naviyat, 2005.-B-129

⁶ Mahmud Vadud. Tanlangan asarlar.-Toshkent: Ma'naviyat, 2007. -B.104.

adib, fano, rihlat, tolib, ruju', maqsud, mushtag'il, mavt, xotiman, munavvar, zahmat, ihota, muttasilan, mutaasif, tahayur, ishq, muhabbat, kulfat, muqtase', zinhor, asror, ahd, ta'ziyat, soliha, mustaqbala, tafakkur (Mahmudxo'ja Behbudiy "Oq yelpog'ichli chinli xotun").¹[7.118]

tamaddun, g'aflat, maktab, ta'lim, mujarrab, mumtane', imon, isloh, ruh, maqsud, malhuz, jannat, mahfuf, sabr, vahshat, maorif, ma'rifat (Saidahmad Siddiqiy-Ajziy "Oyina" jurnalining №37,38 sonlarida chop etilgan she'rlari).²[3.210]

himmat, navo, taqvo, tasbeh, ixlos, xalos, mazhab, gumon, imon, olim, olam, hikoyat, fig'on, rohat, muborak, lazzat, vajh, (Saidrizo Alizodaning kichik yoshdagi bolalar uchun yozgan matnlari).³[9.52]

makr, sajda, nafs, murod, da'vo, juvon, musharraf, alhaq, bazm, majlis, zohir, taajub, ummat, istirohat, taqvo, musulmon, haq (Hoji Muin "Mashrab" jurnalining 1925 yilgi sonlarida chiqqan hajviy matnlari).⁴[4.129]

mahmar, madrasa, ta'zim, g'urbat, manfur, mutaasir, altof, iqtifo, istinod, ixtilol, majhul, muzahhab, muntahab, muqtado, ofiyat, riyosat (Vadud Mahmud "Tanlangan asarlardan").⁵[5.124]

O'zbek tilida ishlatiladigan arabcha so'zlar turli sohaga xos so'zlardan iborat bo'lib, bular ham fors-tojik tilidan o'tib o'zlashgan so'zlar kabi fonetik, morfologik, semantik va imlo jihatdan uyg'unlashgan holda qo'llaniladi.

O'zlashgan so'zlarning ma'lum bir qismi davrlarning o'tishi bilan o'z o'rnini boshqa kirib kelgan yangi so'zlarga beradi va qabul qilgan til lug'atidan arxaik yoki tarixiy so'z sifatida chiqib ketadi. Masalan, ilm-fanga oid arabcha atamalar rus va Yevropa tillari orqali qabul qilingan terminlar bilan almashtirildi. "Bu harakat 1989 yilgacha, ya'ni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgunga qadar tez sur'atlar bilan davom etdi. O'zbekcha so'z va atamalarni almashtirish masalasiga, xususan, ruslashtirishga ijobiy masala, taraqqiyot omili, deb qaralgan bo'lsa ham, aslida tilimiz tabiatini yo'qotishga, uning o'zligini unutishga yaqinlashtirib qo'yilgan edi".⁶[1.149]

Jadidlar yaratgan asarlar, darsliklarning tarkibiy tuzilishi, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos matnlar tanlanishi mezonlari, o'qitish usullari chuqur tadqiq qilinishi zarur. Asarlar arab imlosida nashr etilgan ekan, ularni faqatgina o'qish bilan chegaralanib qolmay, adabiy idrok, uslubchiga xos bilim zarur. Bundan tashqari davr xususiyatini ham anglash ahamiyatga molik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov U., O'rinboyev B., Aliyev A. O'zbek adabiy tili tarixi. –Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1989 y. –B.259
2. Karimov S. Badiiy matnning uslubiy alomatlari. O'quv qo'llanma.-Samarqand: SamDU nashri, 1992.- B.44.
3. Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, So'fizoda. Tanlangan asarlar.-Toshkent:Ma'naviyat, 1999. B.232.
4. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. -Toshkent:Ma'naviyat, 2005. –B.129.
5. Mahmud Vadud. Tanlangan asarlar- Toshkent: Ma'naviyat, 2007.-B.104
6. Gafurov B.G. Istoriya tadjikskogo naroda.-Moskva,1952. –str. 99-110
7. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. Oq yelpog'ichli chinli xotun -Toshkent: Akademnashr, 2018.-B.106
8. Samarqand davlat qo'riqxonasi №KP-5512/661 raqami ostida saqlanayotgan "Oyina" jurnali.
9. Saidrizo Alizoda. Birinchi yil. Alifbe. –Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022.-B. 52.

¹ Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. Oq yelpog'ichli chinli xotun –Toshkent: Akademnashr, 2018.-B.106

² "Oyina" jurnalining ushbu sonlari Samarqand davlat qo'riqxonasi №KP-5512/661 raqami ostida saqlanadi.

³ Saidrizo Alizoda. Birinchi yil. Alifbe. –Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022.-B. 52.

⁴ Hoji Muin. Tanlangan asarlar.-Toshkent:Ma'naviyat, 2005.-B-129

⁵ Mahmud Vadud. Tanlangan asarlar.-Toshkent: Ma'naviyat, 2007. –B.104.

⁶ Tursunov U., O'rinboyev B., Aliyev A. –Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1989.-B.32

FORS-TOJIK ARUZSHUNOSLARINING SHE'R HAQIDAGI QARASHLARI TADQIQI

Annotatsiya. Mazkur maqolada fors-tojik aruzshunosligining she'r haqidagi qarashlari yoritilgan. She'rning qanday bo'lishi, uning badiiyliigi, mazmundorligi va boshqa poetik talqini Nasiruddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Sayfiy Buxoriy, Vahid Tabriziy va boshqa aruzshunoslar tomonidan yaratilgan risolalarda yorqin ifodalangan. Maqolada tilga olingan nazariyotchi olimlarning bir mavzu atrofida mushtarak so'z yuritganliklari qiyosiy uslubda ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, aruz, qofiya, risola, she'r tuzulishi, tahlil, talqin, lirikkechinma, tarjima.

Fors-tojik aruzshunoslarining nazariyotchi olimlari ilmiy-nazariy risolalar yozib, adabiyotshunoslik ilmining asosiy uchta yo'nalishi – aruz, qofiya va badiiy san'atlarni o'z davrlari tushunchasiga moslashtirishga harakat qildilar. Ularning asosiy maqsadi shu yo'l bilan she'riyatni eng yuqori adabiy hodisa sifatida barcha shaklparastlik va rasmiyatchilikdan himoya qilish edi. Shuning bilan birga asl she'rning ahamiyatsiz taqlid va uydirmalardan ustunligini ko'rsatishga kirishdilar. XV asrda haqiqiy shoirlarning ko'p etishib chiqqanligi bilan bir vaqtda shoirlikka da'vogar havaskorlarning soni juda ko'p bo'lganligi sababli, she'riyatda ba'zi kamchiliklar va nuqsonlar ko'zga tashlanar edi. Shuning uchun bu davr adabiyotshunosligining muhim masalalarini qamrab olgan risolalarda she'riyatning turli xil ta'riflari va izohlarini ko'rishimiz mumkin. Albatta, shu paytgacha she'riyat masalasiga juda qiziqib dunyodan o'tgan etakchi olimlarning asarlarida she'riyatning turli xil ta'riflari va nazariyalari mavjud edi. Xususan, qadimgi Yunonistonda Aristotelning qarashlarida, uning "Poetika" asarini arab tiliga tarjima qilish yo'li bilan IX-XIII asrlarda Sharq nazariyotchilari – Forobiy, Ibn Sino, Unsurulmaoliy Kaykovus, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Shams Qays Roziy, Xoja Nasiruddin Tusiy va boshqalar qarashlarida mazkur mavzuning uzoq davom etgan falsafiy, mantiqiy va adabiy muhokamalarini ko'rish mumkin. XV asrda so'z ahli va olimlar diqqatini jalb qilgan eng muhim masala asl she'rning qanday ekanligi, uning ta'rifi va haqiqiy shoirning qanday bo'lishi kerakligi haqidagi munozara bo'lgan. Jomiy, Vahid Tabriziy, Husayn Voiz Koshifiy, Sayfiy Buxoriy, Atoullloh Husayniy va boshqalarning asarlarida qadimgi aqidalar har xil yo'llar bilan o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, XV asrning ikkinchi yarmida aruzshunos Sayfiy Buxoriyning yozganlarida shoir va she'riyatni muhokama qilish masalasi juda diqqatga sazovordir. "Aruzi Sayfiy" risolasining birinchi bo'limi "She'r ta'rifi va shoir bayonida" deb nomlangan bo'lib, aruzshunos she'rning ta'rifi va shoirlik borasida juda sodda va tushunarli tilda ma'lumot beradi va nazmning munozarali masalalarida o'z fikrlarini bildiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday muqaddimaviy ma'lumotlar ushbu davrning boshqa aruzga bag'ishlangan risolalarida uchramaydi, balki boshqa asar yo'boblarda keltirilgan bo'ladi. Masalan, Vahid Tabriziy va Husayn Voiz Koshifiy bu masalani o'z asarlarining kirish qismida yoki alohida bobida keltirmaganlar, balki adabiyot nazariyasining umumiy masalalarini muhokama qilish jarayonida bu mavzuga to'xtalib o'tganlar. Jomiy bo'lsa, aruz va qofiya haqidagi risolalarida bu mavzuda so'z yuritmasdan, o'zining boshqa asari "Bahoriston"da she'r ta'rifini mantiqchilar va olimlar nuqtai nazaridan muhokama qilgan.

"Aro'zi Sayfiy"ning ushbu qismida Sayfiy Buxoriy she'rning lug'aviy va istilohiy ma'nosi, mavzun so'zning qanday bo'lishi, birinchi shoir va birinchi she'r arab va fors tillarida qanday yaratilganligi to'g'risida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Sayfiy Buxoriy birinchi navbatda, "she'r ta'rifi" va "shoir bayoni" masalasini o'rtaga tashlaydi va shu bilan she'riyatni tanish va tan olish haqidagi adabiy va mantiqiy doiralar o'rtasidagi munozaralarga o'z qarashlari bilan qatnashadi.

Tadqiqotchi muammo yechimini she'rning lug'aviy va istilohiy ma'nosini tushuntirishdan boshlaydi. Masalan, Sayfiy quyidagicha yozadi: "Bilingki, she'riyat – bu lug'atda bilish va topish,

istilohda esa ma'nosi va qofiyasi mavjud bo'lgan mavzun so'z bo'lib, uning mavzunligi qasd qilingan bo'lmog'i kerak" [7.1]. Muallif shunday so'zni she'r deb biladiki, birinchi navbatda mavzun va mazmunli bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki, mantiqchilar she'ring asl mohiyatini taxayyulda ko'rishgan. Nasiruddin Tusiy o'zining "Me'yor-ul-ash'or" asarida quyidagicha yozgan edi: "She'r mantiqchilar nigohidan mavzun va muxayyal (xayolangiz) kalomdir, bugungi davr nazariyotchilar nigohidan esa qofiyali va mavzun kalomdir" [6.159].

Nasiruddin Tusiy mantiqchilar nomidan she'rni "mavzun va muxayyal so'z" deb hisoblagan bo'lsa, Sayfiy Buxoriy adab ahli vakillaridan biri sifatida she'rni "mazmunga dalolat qiluvchi mavzun so'z" deb hisoblaydi. Yuqoridagi ikkita ibora: "mavzun va muxayyal so'z" hamda "mazmunga dalolat qiluvchi mavzun so'z" bir-biriga ma'no jihatidan juda o'xshashdir. Shuni ta'kidlash kerakki, "she'ring mazmunga dalolat qilishi" xuddi shu "xayolangizlik"ga ishoradir. Shuning uchun Sayfiy zamonaviy ilm-fan tadqiqotchisi va davrning iste'dodli shoiri sifatida she'rni aniqlash va talqin qilishda mantiqchilarning fikrlarini davom ettiradi.

Abdurahmon Jomiy bu masalani "Bahoriston"ning ettinchi bobida muhokama qiladi va quyidagi xulosaga keladi: "She'r mavzun va qofiyali kalomdir, unda xayolot va haqiqatning bor yo yo'qligining ahamiyati yo'q" [1.93]. Jomiy she'r tuzilishiga e'tibor berib, Nasiruddin Tusiyning davr an'anasida, "she'r mavzun va qofiyali kalom" aqidasi davom ettirib, mantiqchilarning nuqtai nazarini inkor etadi. A'loxon Afsahzod Jomiyning xulosasini quyidagicha izohladi: "Ammo uning (Jomiyning – X. Mirzayev) she'r xayolot va haqiqatning borligi yoki yo'qligini talab qilmaydigan qisqa va ixcham so'z deb hisoblashi bahstalabdir. Chunki hech bir zamonda hech kim shunchaki vaznga solingan qofiyali so'zlarni she'r deb bilmagan. She'riyatni chinakam haqiqat kashfiyoti va aniq echim vositasi deb bilgan Jomiyning o'zi zamonasida she'ring qadrsiz bo'lishidan dod solib, she'riyatni o'yinga aylantirgan hunarsizlarga qarshi o'zining badiiy mahorati bilan kurashgan. Dariy she'riyatini juda baland ko'targan" [2.68].

Boshqa bir olim Vahid Tabriziy XV asrning birinchi yarmida she'ring ma'nosini xayolangiz hamda qofiyali mavzun kalom sifatida izohlab, "kalom lug'atda "so'z"dir va istilohda ma'no jihatdan bir-biriga bog'langan va tizimlashtirilgan so'zlarning majmuidir", [4.34]-deb ta'kidlaydi.

"Jam'i muxtasar" muallifi bir maqsadga yo'naltirilgan ma'no jihatdan birikkan so'zlar to'plamini she'r deb hisoblaydi. Ma'lum bo'ladiki, Vahid Tabriziy Jomiy va Sayfiydan oldin ham filosoflar fikrini qo'llab-quvvatlagan va she'ring ma'no jihatiga e'tibor qaratgan. Ushbu olimning fikriga ko'ra, she'riyatdagi ma'no jonga o'xshaydi va usiz she'rda hayot bo'lmaydi: "ma'nosiz she'rda ruh yo'q" [4.34].

Sayfiyning ta'rifini ko'zdan kechirsak, Vahidning bu aqidasi yanada yorqin va kengroq bo'lib ko'rinadi. U she'r ma'noga ega bo'lishini zarur deb hisoblaydi, zero, ma'nodorlik she'ring asosiy shartlari va xususiyatlaridan sanaladi. Sayfiy yuqoridagi ta'rifini davom ettirib "So'z mavzun bo'lishi kerak deb ta'kidlandi negaki, nomavzun (vaznsiz) so'zni she'r deb hisoblamaydilar va so'zni biror ma'noga ega bo'lishi ta'kidlandi negaki, ma'nosiz mavzun so'zni she'r deb hisoblamaydilar" [7.1]. Sayfiy aqidasi ko'ra, she'ring mavzunligi va ma'nosi shartli hisoblanadi va agar ulardan biri bo'lmasa, uni she'r deb nomlash o'rinli emas. Taniqli adabiyotshunos Botirxon Valixo'jaev "Sayfiy Buxoriyning "Arusi Sayfiy" asari borasida" nomli maqolasida Sayfiyning ushbu ta'rifiga nazar tashlab, she'r mavzusidagi sharhini yuksak baholaydi: "Sayfiy Buxoriy she'r ta'rifini keltirib, unda ma'no va mazmun mavjudligiga alohida e'tibor berganligi tahsinga sazovordir. Shu munosabat bilan u Alisher Navoiyning mazkur masalaga oid o'zining estetik, nazariy, adabiy va tanqidiy, ya'ni:

Nazmda ham asl anga ma'nidurur,

Bo'lsin aning surati har nedur.

deb ko'rsatgan prinsiplarini she'r va shoir sharhini keltirishda qo'llab-quvvatlagan. Bu hol o'z navbatida Sayfiyning etakchi mavqeda turganligini isbotlaydi" [3.6].

O'tmish adabiyotida qofiya uchta adabiy ilmning biri sifatida tan olingan va XIII-XV asrning nazariyotchilari aruz va badiiy san'atlar qatorida uni o'rganish bo'yicha alohida boblar va

risolalar yozganlar. Buning yorqin misoli sifatida Jomiyning “Risolai qofiya” asarini keltirish mumkin. Bir tomondan, ushbu asar bilan Jomiy qofiyani alohida adabiy ilm sifatida tan olib, uni mustaqil o‘rganish uchun maxsus risola yozishni an’ana tusiga olib kirgan bo‘lsa, boshqa tomondan uning she’r qurilishidagi ahamiyatini isbotladi. “Bahoriston”da keltirilgan yuqoridagi ta’rifda Jomiy qofiyani she’rning asosiy elementlaridan biri deb ko‘rsatgan. Shuningdek, Vahid Tabriziy qofiyani mavqeini she’r mavzularida muhim deb hisoblagan: “na vaznsiz qofiya she’r, na qofiyasiz vazn she’r emas, shuning uchun ikkalasi ham bo‘lmog‘i darkor, unda she’r bo‘ladi” [4.34].

Sayfiy Buxoriy she’r ma’nosini yorqin va esda qolarli tarzda ifodalashda qofiyani vazn qatorida muhim omil deb biladi. Uning aqidasi ko‘ra so‘z ma’no va vazn jihatidan boy bo‘lsayu, ammo qofiyasiz kelgan bo‘lsa, uni she’r hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan: “She’rda qofiya bo‘lishi kerak deb ta’kidlandi, negaki, vazn va ma’noga ega, ammo qofiyasiz so‘zni she’r deb hisoblamaydilar” [7.1].

Shunday qilib, Sayfiy va boshqa aruzshunoslar she’r va uning qanday bo‘lishligi mavzuiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida qadimgi va yaqin o‘tmishdagi mantiqchilar nazariyotchilar qarashlarini etuk adabiyotshunos olim sifatida bir vaqtda o‘rganib, o‘quvchilar uchun she’rning keng qamrovli ilmiy ta’rifini meros qoldirdilar. Aruzshunoslarning bu yo‘nalishdagi xizmatlari shundan iboratki, ular birinchilardan bo‘lib o‘rta asr faylasuflari va nazariyotchilarining she’r bahsi haqidagi uzoq davom etgan munozaralarini umumlashtirishga erishdilar. Shunisi e’tiborga loyiqlik, bugungi kungacha tadqiqotchilar, ayniqsa she’r nazariyasini o‘rganuvchilar she’rning mohiyatini tushunish uchun yuqorida tilga olingan aruzshunoslarning sharh va talqinlarini o‘zlarining mulohazalarini kuchaytirish hamda asoslash uchun keltirganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmoni Jomi. “Bahoriston”. –Dushanbe:Donish, 1972.
2. A’loxon Afsahzod. Adabiyoti forsu tojik dar nimai duvvumi asri XV. Kitobi avval. – Dushanbe: Donish, 1987.
3. Valixojayev B. “Dar borai “Risolai aro‘z”-i Sayfi Buxoroi”. Dar kitobi “Mas’alaho nazariya va ta’rix adabiyoti tojiku o‘zbek. Samarqand, 1975.
4. Vahidi Tabrezi. “Jam’i muxtasar”. Nashrga tayyorlovchi E.E.Bertels. – Moskva, 1959.
5. Nasiruddini To‘si. “Me’yor-ul-ash’or”. –Dushanbe: Oriyono, 1992.
6. Xoja Nasiriddini To‘si. Matni komil va munaqqahi “Me’yor-ul-ash’or” - Dar kitobi “She’ru shoiri dar osori Xoja NasiriddiniTo‘si» Tehron 1370.
7. Sayfiy. “Aruzi Sayfiy”. Nashrga tayyorlovchi H.Bloshman. – Kalkutta, 1872.
8. To‘raqul Zehni. San’ati suxan. –Dushanbe: Irfon, 1979.

*Eliboyeva Zarnigor Normuminovna,
SamDChTI tayanch doktoranti.*

ERTAKLARDA RAMZIY OBRAZLAR TALQINI

(O‘zbek va ingliz ertaklari misolida)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va ingliz xalq ertaklaridagi ramziy obrazlar haqida ma’lumot berilgan. Ertaklarda ramziy obrazlarning xususiyatlari, mazmun-mohiyati misollar bilan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ertak, janr, mifologiya, ramziylik, qarashlar, simvolik obrazlar, motivlar.

Ertaklardagi ramzlar mifdagi ramzlarning sayqallangan, bir muncha shakllangan ko‘rinishidir. Dev, pari, ajdarho, yalmog‘iz, suv parisi kabi tasavvuriy obrazlar mifdan folklorga ko‘chib o‘tgan. Folklorshunos Sh.Turdimov “Cho‘loq bo‘ri” ertagidagi ramzlarni tadqiq etar ekan, undagi podsho – ruh, tana, jonni birlashtiruvchi inson timsoli; uch aka-ukalar – insonning ruhiy olami, ongida kechuvchi murakkab kamolot bosqichlarining ramziy-timsoliy ifodasi; bog‘ – insonning ko‘ngil ravzasi; tilla bargli chinor – ruhiy quvvat ramzi; tilla qush – ruhiy bilim timsoli¹ deb izohlaydi. Ular ertakda drammatizmni hosil qilishi bilan birga, ramziy yuk tashiydi.

¹ Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina. Maqola. Tafakkur, 2015. 3-son.

Darhaqiqat, ingliz va o'zbek ertaklaridagi ramziy obrazlarning genezisi qadimgi insonlarning animizm, totemizm, fetishizm, shomonizm kabi ibtidoiy qarashlariga borib taqalishi, bu kabi qarashlar ertak janrining nihoyatda qadimiy janr ekanligi bilan ham xarakterlanadi. Har bir xalq ertagidagi ramziy obrazlar tabiati, mohiyati, poetik vazifalarining talqini uning milliy madaniyati, turmush tarzi, sharoiti, an'alariga mos tarzda talqin qilinadi. Ramziy obrazlar ertaklarning mazmuniy yo'nalishi va badiiyatini, milliy tabiatini belgilashda muhim o'ringa ega.

Ramziy obrazlar jonli va jonsiz ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bu borada dastlab ingliz ertakshunosi Jek Zayps fikriga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Uning fikricha, ertak obrazlari xuddi badiiy motivlar singari insonlarning ishonch-e'tiqodlari, orzulari asosida ular ongidagi fikrlar mahsuli sifatida paydo bo'lgan¹. Olim "Irresistible Fairy Tale" asarida ertakning inson ongi, tafakkuri va bilish darajasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelganligini alohida ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, ertak butun dunyoga tarqalgan poligenetik madaniy artifakt²dir.

Ertakda simvolik (ramziy obrazlar) bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Ammo ular qancha miqdorda bo'lmasin, ertak syujetida muhim o'rin va ahamiyatga ega bo'ladi.

Ba'zan inson qiyofasidagi yetakchi obrazlarning: a) yoshiga: (keksa qirol, tillo kokil bola); b) kasb-koriga: ("O'tinchi chol" o'zbek xalq ertagi) ham e'tibor qaratiladi.

Ertaklarda podsho yoki qirol obrazlari yetakchi obraz bo'lib kelganda, nomi sarlavhaga ko'tariladi. Bunga inglizlarning "King John and the Abbot of Canterbury" ("Qirol Jon va Kenterberi rohibi"), "Mitti Metti va qirol", "Qirol Elpning farzandlari" ertaklari yaqqol misoldir³.

Ammo xalq ertaklarida faqat inson shoh, inson qirol yoki inson podshoh obrazi emas, hayvonlar shohi (sher), qushlar shohi (burgut) haqida ham hikoya qilinadi. Bu obrazlar simvolik obrazlar bo'lib, ertaklarda insonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni (salbiy, ijobiy...) xususiyatlarni ochib berishga xizmat qilgan. Ingliz va o'zbek ertaklarida keng tarzda uchrovchi folbin obrazi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan bu obrazlar maston kampirlar obrazi tarzida beriladi. Folbin obrazi talqini animizm, totemizm, fetishizm, shomonizm kabi ibtidoiy qarashlariga borib taqalishi bu qarashlarning mohiyati orqali ham ma'lum.

Jumladan, ingliz xalq ertagi na'munasi bo'lgan "Baliq va uzuk" ("The Fish and the Ring"⁴) ertagida keltirilgan folbin obrazlari alohida e'tiborni tortadi.

Folbin obrazi o'zbek xalq ertaklarida ham uchraydi va u faqat o'zbek xalq ertaklarida ko'proq oshiq sovchisi bo'lgan kampirning yoki oshiqning o'zi o'zini tanitmaslik uchun attor ko'rinishida qiz huzuriga borishi qabilida aks ettirilgan. Bunga "Bektemir botir" ertagidan misol keltirish mumkin. Folbin obrazining ramziy jihati shundaki, ular orqali taqdir motivi gavdalantriladi. Inson taqdiridan qochib qutulib bo'lmasligi, inson taqdirini o'zgartirishga bandasi qodir emasligi, taqdiri azal, taqdir taqazosiga ishonish kerakligi anglatilmoqda.

O'zbek xalq ertaklarida yuqorida ta'kidlaganimizdek, ramziy tasvirda asosan hayvonlar obrazidan keng tarzda foydalaniladi. Bo'ri, ot, ayiq, sher, kiyik, ilon obrazlarining faolligi kuzatiladi. Ular yetakchi ramziy bo'lib kelganda yaxshi xususiyatda tasvirlanadi. Bu esa ingliz va o'zbek ertaklariga baravar xos xususiyatlardan biridir. "Oltin baliq", "Oltin kiyik", "Cho'loq bo'ri", "Ilon og'a" kabi ertaklar bunga misol bo'la oladi.

O'zbek folklorida ot obrazi yetakchi obraz sifatida juda faol. Buni A.Tilavov o'z tadqiqotida isbotlab bergan. D.Fayziyeva ilon obrazining, M.Jo'rayevlar bo'ri, Anqo qushning epik asarlardagi ramziy obraz sifatida o'rin tutishining asoslarini ochishga harakat qilganlar.

Ingliz ertaklarida ot obrazi ham sehrli uchar ot, ham uy-ro'zg'or va dehqonchilikda qo'llanadigan ishchi ot obrazida talqin qilinishi kuzatiladi. Masalan, "Guleesh" ("Guleesh") ertagi qahramoni sehrgar kichkina odamchalarga qo'shib, "Mening otim, jilovim va egarim! Mening qo'limda egar" deb pichirlar ekan, shu payt uning oldida kumush egarli bir ajoyib, sirli ot paydo bo'ladi. U shu ot bilan majburan turmushga uzatilayotgan fransuz malikasini olib qochadi. Unga

¹ Zipes J. Why Fairy Tales Stick. The Evolution and Relevance of a Genre. – New York: Routledge, 2007. – P.15.

² Zipes J. Ko'rsatilgan manba, . – P.15-25.

³ Xalilova Sh. O'zbek va ingliz ertaklaridagi yetakchi obrazlarning qiyosiy o'rganilishi. Fil.fan.fal.dok. avtoref. Termiz, 2023. – B.14.

⁴ Joseph Jacobs. Ko'rsatilgan manba, – P. 137.

sheriklik qilgan mitti pakana sehrigar odamchalar Guleesh tushunmagan tilda gapirar edi. Malika esa soqov bo‘lib, Guleesh uni sehrli o‘simlik sharbati bilan davolaydi. Demak, ikki xalq ertaklarida ham ot obrazi insonga do‘st, ko‘makchi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ot obrazi orqali o‘zbek xalq ertaklarida do‘stlik ramzi, vafo va sodaqat ramzi ulug‘lanadi.

Xullas, o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining mohiyatida katta va keng ma‘no mujassam, ularning har biri yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Aytish mumkinki, ertaklar shunchaki bola uxlashi uchun to‘qib chiqarilgan voqealar rivoji emas, balki unda xalqning qadim an‘analari, orzu-umid, ishonchi, urf-odatlaridan suv ichgan e‘tiqodi, tafakkur tarzi, qarashlari ramz va timsollar qatiga singdirib yuborilgan bo‘lib, ular ruhiyatimizning ezgu istaklarini uyg‘otishga xizmat qiladi. Yurt uchun, xalq uchun, oila uchun tayanch bo‘ladigan barkamol shaxslarning tarbiyasiga poydevor bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. – O‘zbekiston SSJ Fa ‘Fan’ nashriyoti, 1991. – 152 b.
2. Joseph Jacobs. Ko‘rsatilgan manba, – P. 137.
3. Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina. Maqola. Tafakkur, 2015. 3-son.
4. Zipes J. Why Fairy Tales Stick. The Evolution and Relevance of a Genre. – New York: Routledge, 2007. – P.15.
5. Xalilova Sh. O‘zbek va ingliz ertaklaridagi yetakchi obrazlarning qiyosiy o‘rganilishi. Fil.fan.fal.dok. avtoref. Termiz, 2023. – B.14.

*Munisa Shavkatova,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
filologiya fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots.U.Rashidova*

ESKI TURKIY TILDA OLMOSHLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil so‘z turkumi tarkibiga kiruvchi olmoshlar tarixini va ularning turlarini o‘rganib, gapdagi o‘rni, qo‘llanishi, qay ma‘noni anglatishini bir qancha misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Olmosh va uning tarixi, kishilik olmoshi, o‘zlik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, so‘roq olmoshi, bo‘lishsizlik olmoshi, belgilash olmoshi, gumon olmoshi, olmosh derivatsiyasi

Bizga ma‘lumki, o‘zbek tilimiz chuqur tarixga egadir. Shunday bo‘lsada, hali hamon olimlar uning oxiriga yetisha olgani yo‘q. O‘zbek tilimizning muhim elementi hisoblangan so‘zlar, ularning shakllari, tuzilishi, ma‘no xususiyatlarini chuqur o‘rganish qadim-qadimdan tadqiqotchilarimizning eng katta muammolari bo‘lib kelyapti desak adashmagan bo‘lamiz. Shuning uchun ham tilshunoslar so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida ularni bir qancha guruhlar va turkumlarga ajratib o‘rganishmoqda. Bu xususiyatlarda olmoshlar ham so‘z turkumlar ichida mustaqil o‘rganilib kelinmoqda.

Ma‘lumki, so‘zlar ma‘noviy belgisiga ko‘ra *uch turga* bo‘linadi:

a) mustaqil ma‘noli so‘z (fe‘l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);

b) bo‘sh – ishora ma‘noli so‘z (olmosh);

d) yordamchi ma‘noli so‘z (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi fe‘llar)

Olmosh anglatadigan ma‘no u almashtirayotgan so‘zning ma‘nosi. «Ishoraviylik» ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. Barcha mustaqil so‘z turkumlari, so‘z birikmasi va gap o‘rnida almashinib qo‘llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar olmosh hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo‘rma-zo‘rakilik bilan ancha chegaralanib «ot, sifat, son o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z» sifatida o‘ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe‘l, ravish, taqlid, undov,

gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmosh guruhiga men, sen, u, biz, siz, ular kabi shaxsga:

- *U shoshilmasdan oldinga keldi* (2,173);

kim, nima, bu, ana, mana, mana bu kabi predmetga:

- *Mana bunday qo'shnilar bo'ladi jahonda!* (2,172);

- *Nima, qalbakisini qilib esini yebdimi?* (2,172);

qanday, bunday, shunday kabi belgiga:

- *Shunday mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilarga maqtanadi* (2,18);

buncha, shuncha, qancha kabi miqdorga;

qachon paytga:

Qachon kelding? – Ertalab. (2,317);

qayer o'ringa:

- *Jon bolam, jonim bolam,*

- *Qaylardasan, bergil xabar...* (2,185)

shunday bo'lmoq, qanday qilmoq kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksema kiradi.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy (mavhum) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'z kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani bajaradi:

Xadichaning boshqalarga qaraganda menga qaraganda menga qandaydir boshqacha munosabatda ekanini doim sezib yurardim. U men bilan gaplashganda boshqacharoq: muloyim, sal tantiqroq bo'lib qolardi (1,21). Olmosh o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi.

Olmosh ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra quyidagi ma'no guruhiga bo'linadi:

T'r	Turlari	Olmoshlar
1.	Kishilik	men, sen, u; biz, siz (sizlar), ular
2.	O'zlik	o'z
3.	Ko'rsatish	bu, shu, u, o'sha, ana, mana, mana bu, mana shu, manavi, anovi
4.	So'roq	kim? nima? qayer? qanaqa? qaysi? qalay? qancha? necha? nega?
5.	Belgilash	hamma, barcha, bari, har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi, ba'zi
6.	Bo'lishsizlik	hech kim, hech narsa, hech qachon, hech qanaqa, hech qaysi
7.	Gumon	kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqancha, allaqaysi

Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar **ko'rsatish olmoshlari** hisoblanadi.

Yozuvda mana bu, mana shu, ana bu, ana shu olmoshlari ajratib yoziladi. Ba'zan bu olmoshlar og'zaki nutqda manovi, anovi tarzida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi ham mumkin. Bundan tashqari, ushbu olmosh turida *tovush tushishi, tovush almashuvi, tovush ortishi* kabi fonetik hodisalar sodir bo'lishi mumkin:

- *Akalarim: «Achinska mana bunday nina bilan ukol qiladi», deb qo'rqitib qo'ygani uchunmi, katalakdek xonaga kirdim-u dori hidini sezib hiqillab yig'lab yubordim* (2,99).

Ko'rsatish olmoshlari gapda *ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, ot kesim* bo'lib kelishi mumkin.

Kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanilib, ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi o'z so'zi **o'zlik olmoshi** deyiladi. O'zlik olmoshi gapda to'ldiruvchi, aniqlovchi bo'lib kelishi mumkin:

- *O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman* (2,4).

So‘roq olmoshlari ishtirok etgan gaplar so‘roq gap hisoblanadi va oxiriga so‘roq(?) qo‘yiladi:

- *O‘zingiz kimning oilasi bo‘lasiz?* (2,61)

Hamma, bari, barcha olmoshlari va *har* so‘ziga so‘roq olmoshi hamda *bir* so‘zi bilan yasalgan olmoshlarga **belgilash olmoshi** deyiladi:

- *Tuzukmi?* – *dedi u hammasi uchun o‘zi aybdorday qovog‘ini solib* (2,321).

Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha, hech narsa, hech bir so‘zlari **bo‘lishsizlik olmoshlari** sanaladi:

- *Men indamadim. Ammo bu sirni hech kimga, hatto oyimga ham aytmasligimni bilib turardim* (2,194).

So‘roq olmoshlariga *alla-* yoki *-dir* qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan **gumon olmoshlari** hosil qilinadi. Bundan tashqari, *bir* so‘zi so‘roq olmoshlari bilan kelsa ham gumon olmoshi hosil qilinadi, qachonki ularni *kimdir, nimadir, qaysidir* kabilar bilan alashtirib bo‘lsa.

- *Kimdir ko‘tarmoqchi bo‘lgan edi, Shayx siltab yubordi.*

- *Tegmanglar!* – *dedi allakim pichirlab.*

- *Mayli, yig‘lab olsin* (2,40)

Tilshunosligimizda olmoshning turli xil ko‘rinishlari mavjud. Olmosh o‘z ma‘nosidan tashqari hurmat, kamtarlik, kesatish ma‘nolarida keladi. Bunda hurmat ma‘nosi II, III shaxs olmoshiga xos.

- *Assalomu alaykum, buvajon, - deb salom beradi.*

- *Vaalykum assalom, mullo bo‘ling, tasadduq, - deydi Ermon buva salmoqlanib* (2,66).

Emon buva hayron bo‘lganidek qarab turardi-da, mamnun jilmayadi:

- *Peshin bo‘p qoldi deng, qoravoy? Barakalla!* (2,68). Ushbu jummalarda hurmat, erkalash ma‘nolarida kelgan.

Bundan tashqari kishilik olmoshi quyidagi xususiyatlarga ega hisoblanadi:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik	
I.	men	Biz	So‘zlovchi
II.	sen	Siz	Tinglovchi
III.	u	Ular	O‘zga

Kishilik olmoshiga egalik qo‘shimchasi ham qo‘shila olish xususiyatiga egadir. Ushbu olmosh qaratqich kelishigida egalik ma‘nosini bildiradi:

- *Yig‘lama, ona qizim, yig‘lama. – Dadam Bashor opamning sochini silar ekan, ko‘zlari namlandi. Uning ko‘zlarida hech qachon yosh ko‘rmagan edim* (2,129).

- *Shundagina kelin tomonga o‘girilib mamnun jilmaydi... uning ko‘zlarida yosh bor edi* (1,72).

Bundan tashqari kishilik olmoshiga *-niki* qo‘shimchasini qo‘shish ham mumkin: *Paxtaga, hasharga chiqqanda bir kosada sho‘rva ichardik, biznikiga kelganida bir ko‘rpada yotardik* (2,32).

- *Shu stol siznikimi?* – *dedi negadir qovog‘ini solib.*

- *Ha* (2,11).

Eski o‘zbek tilida ham olmoshning hozirgi o‘zbek tilidagidek bo‘lgan: *kishilik olmoshlari, o‘zlik olmoshlari, ko‘rsatish olmoshlari, so‘roq olmoshlari, birgalik olmoshlari, belgilash olmoshlari, gumon olmoshlari, bo‘lishsizlik olmoshlari*. Lekin bu olmosh turlarining shakllari turlanishdagi o‘zgachalıkları bo‘yicha eski o‘zbek tilining o‘ziga xos tomonlari ham bor. Kishilik olmoshlari eski o‘zbek tilida quyidagicha ko‘rinishda bo‘lgan:

I shaxs birligi — men. XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim manbalarda kishilik olmoshining I shaxs birligi ma‘nosida, ya‘ni men o‘rnida *faqir, banda, kamina* so‘zlari ham qo‘llangan: *Faqiram keribmen, ammä she Vaytunn ma Hum qilmaydur erdim* (Navoiy, MN).

Kishilik olmoshining I va II shaxs birlik shakllariga (men, sen) odatda ko‘plik affiksi *-ö r/-är* qo‘shilmaydi.

III shaxs birligi — *ul*. Bu olmosh *ol* tarzida yoki ayrim shevalarda *ul*, ayrimlarida *ol* tarzida talaffuz qilingan bo‘lishi ham mumkin. Eski o‘zbek tilida iste’molda bo‘lgan kishilik olmoshlarining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

Shaxs Birlik Ko‘plik

I shaxs men biz, bizler

II shaxs sen siz, sizler (senler)

III shaxs ul ular, alar, anlar.

Eski o‘zbek tilidagi kishilik olmoshlarining asosiy qismi qadimgi turkiy ham da X I—XII asrlarga oid yozma manbalarda ham qo‘llangan.

Eski o‘zbek tilida ham o‘zlik olmoshi ma’nosida o‘z so‘zi qo‘llangan; oldingi davrlarga oid manbalarda bu olmoshning *kendü* shakli ham iste’molda bo‘lgan.

O‘z olmoshining qo‘llanishi, ma’nosi, grammatik xususiyatlari bo‘yicha eski o‘zbek tili bilan hozirgi o‘zbek tili o‘rtasida deyarli farq yo‘q. Bu olmosh eski o‘zbek tilida ham xuddi hozirgi o‘zbek tilidagidek aniqlovchi vazifasida qo‘llanadi, otlar kabi egalik qo‘shimchalarini qabul qiladi va kelishiklar bilan turlanadi.

Kendü so‘zi ham o‘zlik olmoshi sifatida turkiy tillarda qadimdan qo‘llanib keladi. O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida *kentü* shaklida qo‘llangan bo‘lib, o‘zlik olmoshining asosiy shaklini tashkil etadi. Bu olmosh “Devonu lug‘a tit-turk” va “Hibatul haqoyiq” asarlarida ham qo‘llangan.

Eski o‘zbek tilida ko‘rsatish olmoshlarining, asosan, *bu*, *ul (u)*, *ushbu*, *oshul*, *oshal*, *shul* shakllari iste’molda bo‘lgan, ayrim davrlarda yoki ayrim yodgorliklarda *bul*, *shu*, *osha*, *oshu*, *hamin*, *hamul* kabi shakllari ham qo‘llangan. Ko‘rsatish olmoshlarining bir guruhi tuzilishiga ko‘ra sodda, boshqalari murakkab shakllardan iborat. Murakkab shakllarning ko‘pchiligi *bu* yoki *ul* ko‘rsatish olmoshi bilan *ush (osh)* ta’kid yuklamasining birikuvidan tashkil topgan tarkibli olmoshlardir. Masalan, *ushbu* shakli *ush* yuklamasi bilan *bu* ko‘rsatish olmoshining birikuvini asosida hosil bo‘lgan. Eski o‘zbek tilida qo‘llangan so‘roq olmoshlari katta guruhni tashkil etib, bular tuzilishi jihatdan tub yoki tarkibli so‘zlardan iborat. Tub so‘roq olmoshlarini kim, *ne // nä* so‘zlari tashkil etadi. Tarkibli so‘roq olmoshlarining bir guruhi *ne // nä* so‘roq olmoshi asosida hosil bo‘lgan: *negä*, *nedin*, *nechün*, *nevchün* (<*ne+ üchün*), *nechük*, *nelük*, *netäk*, *nek*, *negü* (*nag‘u*), *neshä*, *nechä* so‘roq olmoshlari shu guruhni tashkil etadi. *Qayu*, *qaysi*, *qayda // qanda // qayuda*, *qaydin // qandin // qayudin* (*qaydan // qandan*) *qayan*, *qam*, *qachan*, *qancha* kabi tarkibli so‘roq olmoshlarining shakllanishida qadimgi *qay // qan* so‘roq olmoshi asos bo‘lgan.

Eski o‘zbek tilida birgalik olmoshi ma’nosida *barcha*, *ban*, *barhq*, *qamug‘l*, *hamma* (*hama*), *jumla*, *tamäm*, *jam‘e*, *ba‘zi* so‘zlari iste’molda bo‘lgan. Bularning bir qismi keng iste’molda bo‘lib, boshqalari ma’lum davrlarda yoki ayrim yodgorliklarda qo‘llangan. Birgalik olmoshlarining ko‘pchiligi egalik va kelishik affikslari bilan turlanish xususiyatiga ega, ayrimlari ko‘plik affiksi bilan ham ishlatiladi.

Eski o‘zbek tilida iste’molda bo‘lgan birgalik olmoshlarining bir guruhi asli turkiy, boshqalari forscha yoki arabcha so‘zlardan iborat.

Eski o‘zbek tilida ham hozirgi o‘zbek tilidagi kabi belgilash olmoshlarining sodda va murakkab shakllari iste’molda bo‘lgan. *Sodda shakli* — *har*. Murakkab shakllari esa *har* so‘ziga so‘roq olmoshlaridan birini qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘ladi: *har nima*, *har qaysi*, *harna // harnä* (<*har+ne // harina*) kabi. Oldingi davrlarda belgilash olmoshining *tekmä* shakli ham iste’molda bo‘lgan.

Har belgilash olmoshi narsa, shaxs, voqea-hodisani yoki belgini ajratib ko‘rsatadi. Ma’noni kuchaytirish, ta’kidlab ko‘rsatish uchun *har* belgilash olmoshiga *bir* so‘zi qo‘shiladi.

Eski o‘zbek tilida gumon olmoshlarining quyidagi shakllari iste’molda bo‘lgan: *kimsä*, *kimersä* (*kimärsä*), *nimersä*, *nersä*, *birägü*, *biräv*, *falan*.

Gumon olmoshlarining bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, jonivor, voqea-hodisalarga nisbatan qo‘llanadi, ba’zilar har ikkala ma’nodan ham ishlatiladi.

Gumon olmoshlarining ko‘pchiligi kelishik qo‘shimchalari bilan ham ishlatiladi, ayrimlariga ko‘plik va egalik affikslari ham qo‘shilishi mumkin.

Gumon olmoshlarining *kimsa, kimársá, birágü, birü* shakllari shaxsga nisbatan qo‘llanadi.

Kimsá, kimársá shakllari bir olmoshning ikki xil ko‘rinishidir.

Kimsá shakli *kim ersi* shaklining qisqargan shakli bo‘lib, *kim ersá* o‘z navbatida kim so‘roq olmoshiga ersá qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan: *kitn+ersci > kim-ersá (kimersá) > kimsü*.

Eski o‘zbek tilida ham bo‘lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab shakllardan iborat. Sodda shaklini *hech* so‘zi tashkil etadi. Murakkab shakllari *hech* so‘ziga so‘roq olmoshlaridan yo gumon olmoshlaridan birining yoki narsa so‘zining birikishi asosida hosil bo‘ladi: *hech kirn, hech kimsá, hech kimársá, hech nimársá, hech narsa, hech qaysi* kabi.

Bo‘lishsizlik olmoshining murakkab shakllaridan bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, voqea-hodisalarga nisbatan qo‘llanadi. Bo‘lishsizlik olmoshining murakkab shakllari kelishik qo‘shimchalari bilan ham ishlatiladi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, olmosh o‘ziga xos so‘z yasash tizimiga ega. U – affiksatsiya va kompozitsiya usuli. Ko‘rsatish, belgilash-jamlash, gumon, bo‘lishsizlik olmoshlari yasash xususiyatiga ham egadir. Shuningdek, o‘zga turkum so‘zlaridan derivatsiyaning boshqa ko‘rinishlari asosida ham olmosh vujudga kelgan: *birov, butun, yalpi, jami, falonchi* kabi.

Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov “*Hozirgi o‘zbek adabiy tili*” (I qism, 1980) kitobida aytib o‘tganidek, “*Olmoshlar konkret ma‘no bilan umum – mavhum (abstrakt) ma‘noning almashinib qo‘llanishini xarakterlovchi so‘zlardir. Demak, olmoshlar predmet, shaxs, belgi yoki miqdorni u yoki bu munosabatga kirishgan holda ifodalaydi. Olmoshlarning konkret ma‘nosi kontekst, situatsiya, nutq potsessida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab aniqlik kasb etadi. Olmoshlarning yasalishi boshqa so‘z turkumlaridek kuchli emas, olmoshlardan sanoqli affikslar orqali ot, ravish, yoki fe‘llar yasalishi mumkin*” – deb o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli gumon olmoshida uchraydi. Bu usul bilan asosan olmoshdan olmosh yasaladi.

Yasash asosiga qo‘shilib, olmosh hosil qiluvchi affiksning so‘z yasash darajasi ham turlicha: *alla-, -dir*. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida olmosh yasaydi: *alla++so‘roq olmoshi/narsa; 1)* asosdan anglashilgan narsa/predmetning gumonligi qolipi hosilalari quyidagicha: *allakim, allanima, allanarsa, allakim, allaqayer* kabi.

so‘roq olmoshi+-dir; 2) asosdan anglashilgan narsa/predmet-ning gumonligi qolipi quyidagi olmoshlarni beradi: *kimdir, nimadir, qayerdadir, qachondir, qaysidir* kabi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo‘shma (ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, bo‘lishsizlik), juft (ko‘rsatish) va takroriy (ko‘rsatish, so‘roq, belgilash) olmoshlar yasaladi.

Xulosa qilib aytganda, ol olmosh so‘z turkumi so‘zlashuv uslubida ham badiiy uslubda ham, umuman olganda barcha uslublarda ishlatiladi. Olmoshlarning shevalarda qo‘llanilishi ham barchaga ma‘lum. Tilshunoslar ushbu holatni ham deyarli to‘liq o‘rganib chiqishgan va turli xil tadqiqot ishlarini ham olib borishgan desak mubolag‘aa bo‘lmaydi. Bundan tashqari, olmosh so‘z turkumini o‘rganishda badiiy asarlarga ham e‘tibor berish kerak, chunki uning uslubini boyitib berishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytmatov CH. – Sarvqomat dilbarim – Toshkent – 2020
2. Hoshimov O‘. – Dunyoning ishlari – Yangi asr avlodi – Toshkent – 2015
3. Abdurahmonov G. – O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi
4. Rahmatullayev Sh. – Hozirgi o‘zbek adabiy tili – 2006
5. Sayfullayeva R. – Hozirgi o‘zbek adabiy tili – 2010
6. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. - Hozirgi o‘zbek adabiy tili, I qism – O‘qituvchi – Toshkent – 1980
7. G‘ulomov A., Asqarova M. – Hozirgi o‘zbek adabiy tili – O‘qituvchi – Toshkent – 1987
8. Abdurahvdonov G‘., Sulaymonov A., Xolyorov X., Omonturdiyev J., - Hozirgi o‘zbek adabiy tili(sintaksis) - O‘qituvchi – Toshkent – 1979

O'ZBEK FOLKLORIDA SEHR-JODU

Annotatsiya. Maqolada o'zbek folklori va uning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berilgan. Xususan, o'zbek folklorida sehr-jodu va uning mohiyati tahlillar orqali oydinlashtirilgan.

Kalit so'zlar: folklor, mif, ertak, badiiy to'qima, haqiqat, kechinma, xayol,

Qadimgi odamlarning tafakkuri ravshanlashib, tasavvuri kengayib borishi natijasida olam haqidagi, yer va osmon, tabiat haqidagi tasavvurlar asosida afsonalar, asotir va miflarni yuzaga keltirdi. Bu miflar odamzodning keyingi hayotini, shodligu quvonchini, qayg'u va g'amini, ishonch e'tiqodini, orzu-intilishlarini belgilab berdi. Asrlar davomida bu jarayon takomillashib bordi. Dinlar vujudga kelgunga qadar takomiliga yetib bordi.

“Mif - ertak emas. Ertak o'ylab topilgan badiiy ijod, sehr - fantastik elementlar bilan boyitilgan, an'anaviy boshlanma va tugallanmalarga ega bo'lgan xayolot mahsulidir. Mohiyatan insonni orzular dunyosi sari yetaklagan, doim shunday tushunilib kelingan. Mifdagi badiiy to'qima haqiqat asosida quriladi. Ertak keyingi davrlar mahsuli. Mif qadimgiroq. Unga ma'lum bir syujet, obraz yoki detalga shubha bilan qarash yot. Mifni yaratgan inson haqiqatning mutlaq bilimni anglatgandek, tasvirlagandek bo'ladi...

... Mif inson qiyofasida ko'ringan tabiat hodisalari jarayonlarining diniy bo'yoqdor tasvirlarida namoyon bo'ladi. Unda tabiat va inson hayotining haqiqat elementlari parchalaridan tiklangan metafizik bog'liqlikdagi tasvirlari aks etadi. Ilohiy va metafizik kuchlar, ramzlar va hodisalarning mohiyati real tushunchalarda emas, balki obrazlarda ko'rinadi”. [1]

Miflar asta-sekinlik bilan, davrlar o'tib odamzodning hayot tarziga kirib borib, ongu-shuurini butunlay egalladi. Natijada miflar odamlarning iymon-e'tiqodiga aylandi. Keyinchalik miflar asosida xalqlarning milliy ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti, san'ati, ilm-fani, arxitekturasi vujudga keldi. Miflar natijasida uzoq yillar davomida o'ziga xos madaniy qatlam, urf-odat va an'analar shakllandi. Bu jarayon yer yuzida din paydo bo'lgunga qadar davom etdi.

Turkiy xalqlarda Ko'k Tangriga e'tiqod qilingan davrlarda shomonlik, sehrgarlik juda rivojlanadi. Ayniqsa, shomonlar jada (yada, jodu) toshlari yordamida qor bo'ronlari, shamol va ko'proq yomg'ir yog'dirishgan. Bu haqda Mahmud Koshg'ariy o'zining mashhur “Devoni lug'otit turk” asarida bir necha bor tilga oladi.

Asrlar o'tib, diniy qarashlar vujudga kela boshladi. Bu qarashlar miflardagiga nisbatan mukammal va asosli bo'lganligi bois miflar asta-sekinlik bilan insoniyat hayotidan chiqib keta boshladi. Folklor va xalq og'zaki ijodi, ertak va dostonlar, afsona va rivoyatlar, ayrim yozma adabiyotlar, qadimiy arxitektura yodgorliklarini istisno qilmaganda miflar o'z o'rnini to'liq dinga bo'shatib berdi.

Yakkaxudolikni targ'ib qilgan barcha dinlar esa mif va asotirlarni, ularda tarannum etilgan ko'pxudolik hamda sehru joduni, turli irim-sirimlar-u an'analarni qoraladi. Din ma'naviy-ma'rifiy omillar hamda qurol kuchidan foydalangan holda mif va asotirlarga qarshi bo'ldi va to'laqonli g'alabaga erishdi. Ajdodlarimiz islom dinini qabul qilgach, mif va asotirlarni umumxotiradan chiqarishgan, to'g'rirog'i, majburan xalq xotirasidan o'chirtirilgan, yozma adabiyotlar kufrdan, sehru jodudan, ko'pxudolikdan so'zlagani bois qoralangan va qo'lyozmalar o'tda yoqilgan, yo'q qilingan.

Abu Rayhon Beruniyning “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Alosor al boqiya an alqurun alholiya”) asarida yozishicha, Qutayba Ibn Muslim tomonidan o'sha davrning barcha savodli insonlari qatag'onga uchragan, qatl qilingan. Yozma manbalar yo'q qilingan Shu bois islom dinigacha bo'lgan davr adabiyoti, yozma yodgorliklari, madaniyati bizgacha yetib kelmagan.

Sehr bilan shug'ullanadiganlar kech bo'lmasdan, o'lim yoqalaridan tutmasdan turib, tezda tavba qilishlari kerak, deyiladi islom dini ta'limotida.

Hanafiy ulamolarimiz sehrgar sehr amalini qilishi bilan dindan chiqadi, deydilar.

“Sehrgarlik, jodugarlik — xalq e’tiqodiga ko‘ra, ayrim odamlarning ziyon yetkazish yoki undan xalos etish, kasalliklarni tuzatish borasidagi mo‘jizaviy qobiliyati. Sehrgarlikning paydo bo‘lishi ibtidoiy din shakllari — animizm, fetishizm, ajdodlar ruhiga sig‘inish va boshqalar bilan bog‘liq. Sehrgarlikka ishonish deyarli hamma xalqlarga xos.

Etnograflar fikricha, ziyon yetkazadigan sehrgarlikning ijtimoiy asosi qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro dushmanlikdan kelib chiqqan. Boshqa qabila kishilariga kasallik, o‘lim tilab afsun o‘qish, yovuz rahbarlarga e’tiqod qilishning manbalaridan biri bo‘lgan. Sehrgarlikka ishonish buddizm, xristianlik, islom va boshqa dinlarda saqlanib qolgan, qisman ular bilan aralashib ketgan. O‘rta asrlarda Yevropada xristian cherkovida sehrgarlik — iblis xatti-harakatidir, degan qarash mavjud bo‘lgan. Cherkov va dunyoviy hokimiyat sehrgarlikda shubha qilingan barcha kishilarni qattiq ta’qib etgan.

Islomda sehrgarlik bilan shug‘ullanish og‘ir gunoh hisoblanadi”. [2] Qadimiy yurtimizga islom dini kirib kelgunga qadar bo‘lgan davr yozma yodgorliklariga yuqorida ta’kidlaganimizdek munosabatda bo‘lingani bois bizgacha yetib kelmagan. Shu sabab o‘sha davr yozma yodgorliklari haqida biror ma’lumotga ega emasmiz. Ammo xalq og‘zaki ijodi va folklori namunalarida, ertak, rivoyat va dostonlarda hamda xalqimizning ayrim urf-odat va an‘analarda miflardan, shomonlikdan, tangrichilikdan bizgacha yetib kelgan sehr va sehrgarlikka oid qarashlar, urf-odat va an‘analar o‘z aksini topgan. Masalan, kelinni olov atrofidan aylantirish, ta’ziya bo‘lgan xonadonda qirq kun chiroq yoqib, Qur‘on tilovat qilish otashparastlikdan, bolaga ko‘z tekkanda qilinadigan kinna, bemorni davolashda baxshi-tabibning doira yordamidagi xatti-harakatlari shomonlikdan, ayollarning “Mushkul kushod” va “Bibi seshanba” tadbirlari, folbinlik, sehru-jodu va boshqalar shu singari eski qarashlardan saqlanib qolgandir.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek miflarining alohida saqlanib qolgan variantlari yo‘q, borlari ham sanoqlidir. Yuqorida aytilgandek, sehrgarlik – magiyadan o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, xususan, ertak va dostonlarimizda keng foydalanilgan. Alvasti, Ajina, Dev, Ajarho, Yalmog‘iz kampir, Pari, Pir, Anqo, Humo qushi, Semurg‘ va boshqa sehrli obrazlar ertak va dostonlarimizda ko‘p uchraydi.

Sehr-jodu tasvirlangan epizod va sahnalarni xalq dostonlarida ham kuzatish mumkin. Bunga “Alpomish” dostonida tasvirlangan Shohimardon pir bilan bog‘liq voqealarni misol keltirish mumkin. Dostonda farzandli bo‘lish orzusida bo‘lgan Boybo‘ri bilan Boysari Allohdan farzand so‘rash o‘rniga Shohimardon pining ziyoratgohiga borib, pining ruhiga iltijo qilishadi. Ma’lumki, Ko‘k Tangriga sig‘inadigan qadimgi turklar ajdodlar ruhiga sig‘inishgan, ajdodlar ruhidan yordam, kuch-quvvat, g‘alaba, rizq-nasiba so‘rashgan. Biz dostonda qadimgi turklarning e’tiqodi bilan bog‘liq ana shu jarayonni ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, miflar, xalq og‘zaki ijodi namunalari – ertak, doston va afsonalardagi sehr-u joduga boy epizodlar ajdodlarimizning o‘ziga xos fantaziyalari hosilasi sifatida vujudga kelgan. Mif va asotirlar, qadimiy ertak va dostonlar xalqimizning o‘tmishi, ajdodlarimizning orzu-intilishlari va milliy-ma’naviy qadriyatlarini, e’tiqodi rivojini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Shu bois magiyaning asrlar davomida badiiy ijodga, yozma adabiyotga ta’siri omillarini o‘rganish fililog-olimlarning oldida turgan dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘rayev Mamatqul. “Ipak yo‘li xalqlari astromifologiyasi”. Toshkent “Pachadigma” nashriyoti.
2. Musurmonov Erkin. “Qadimgi miflarning xitoy madaniyatidagi in’ikosi” Samarqand shahri. “Buyuk ipak yo‘li xabarchisi” jurnali. (35-36-betlar).
3. Qur‘oni Karim (Baqara surasi 102-oyat).
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-tom 598-bet. Toshkent — 2004 y.
5. “Alpomish” dostoni. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent—98. (15-bet).

YURIDIK NUTQDA OCHIQLIK

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik nutq va yuridik nutqda ochiqlik tushunchalari keng yoritilgan. Olimlarning yuridik sohadagi notiqlik, ochiqlik, samimiylik tushunchalari borasidagi qarashlari haqida fikr yuritilgan, ularning bir biriga o'xshash va o'xshash bo'lmagan fikrlari tahlil qilingan. Yuridik nutqdagi ochiqlik, qadimda va hozirdagi yurist nutqi madaniyati nazariy jihatdan asoslangan va misollar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: yuridik nutq, notiqlik, sinegorlar, logograflar, yurisprudensiya, advokatlar, sud hay'ati, sudlanuvchi, tan olish, jazo.

Tilning ko'rki, aql-zakovatning ziynati so'zdir. So'z muqaddas, u faqat ezgullik, yaxshilik uchun xizmat qilishi lozim. Yunon faylasuflarining ta'kidlashlaricha, til aql xazinasining kalitidir va har bir kishining bilimi, odobi uning so'zlaridan yaqqol bilinib turadi. Ayniqsa, yuristlar ijtimoiy hayotda ko'pchilik bilan muloqotda bo'ladilar, har xil toifadagi kishilar (guvohlar, jabrlanuvchilar, aybdorlar, jinoyatchilar va b.) bilan ro'baro keladilar. Tergov va sud jarayonida o'ta ehtiyotkorlik ularning tilga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, yuristlar faoliyatini rasmiy hujjatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tergov ishlari bilan bog'liq turli bayonnomalarni to'ldirish, sud hukmi, ayblov nutqini tayyorlash va boshqa rasmiy hujjatlarni o'ta savodxonlik bilan yozish ham ularning til vositalaridan foydalana olish qobiliyatiga bog'liqdir. Demak, bo'lajak yuristning o'zi mohir notiq, nutqi esa mantiqli va ta'sirli bo'lmog'i davr talabidir.

Yurisprudensiya tarmoqlariga oid orfografik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega til – yuridik tildir. Taniqli huquqshunos olim professor A.X.Saidov ta'kidlaganidek, “Yuridik til - ko'p ming yillik taraqqiyot va ko'p avlodlar tajribasi mahsuli”[1]. “...Huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir”[2].

Ma'muriy notiqlik san'atining taraqqiyotida Grek sud rasmiyatchiligining roli ham e'tiborga loyiq. Eramizga qadar Solon hukmronligi yillarida qonunga ko'ra har bir afinalik sudda o'zini o'zi himoya qila olish huquqiga ega edi. Tabiiyki, bu jarayon kishilarni madaniyatli, o'z navbatida, ta'sirli nutq ijod qilishga majbur qilar edi. Biroq, hamma ham nutq jarayonida notiqlik mahoratini to'liq egallay olmasdi. Shuning uchun, Gretsiyada nutq matnini yozib beruvchilarga ehtiyoj tug'ildi. Notiqlar, yuristlar sudlanuvchilardan muayyan moddiy mablag' evaziga nutq matnini yozib bera boshladilar. Sudlanuvchi bu matndan foydalanib, sud jarayonida o'zini himoya qilardi yoki notiqlikni eplay olmagan kishilar uchun sudda boshqa shaxsni himoyachi sifatida tavsifa qilishga sud tomonidan ruxsat berilar edi. Yunonistonda bunday notiqlik san'ati sohiblari sinegorlar deb atalardi. Ular nutqi sinegoriya deyilgan. Ana shu sinegorlar bugungi kunda sud hay'atining ajralmas qismi hisoblangan advokatlarning ilk avlodi hisoblanadi. Sud jarayonida nutq matnlarini tayyorlab beruvchi shaxslar logograflardir. Sinegorlar nutq matnlarini ham yozib, ham sudlanuvchini himoya qilish bilan logograflardan farqlanganlar.

Yurisprudensiyada nutq og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega bo'ladi. Biroq nutqning bu ikki ko'rinishi bir-biridan ba'zi jihatlari bilan farqlanadi. Og'zaki nutq so'zlovchi - prokuror, sud, advokat, tergovchi gapirib turgan lahzadagina mavjud bo'ladi, so'zlash jarayoni tugashi bilan og'zaki nutq ham tugaydi. Lekin nutq ta'sirida berilgan ma'lumot, axborot, hukm tinglovchi ongida uzoq vaqtgacha saqlanishi, tinglovchi - aybdor, guvoh, sudlanuvchi xulqiga, qalbiga ta'sir etishi mumkin. Bundan tashqari, yuridik og'zaki nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati pauza (to'xtam), ohang, urg'u, unililaming cho'zib talaffuz etilishi; turli xil jest (imo-ishora)lar, mimika (qiyofaning o'zgarishi)lar fikming tinglovchiga yetib borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik til o'z mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga, ya'ni qonun tili, ilmiy yurisprudensiya tili, sud tili, huquqshunos-pedagog tili, huquqshunos-publitsist tili, prokuror tili, advokat tili kabi guruhlarga bo'linadi. Yurisprudensiya tarmoqlariga oid leksik-grammatik xususiyatlar umumiyliigi bilan bir-biriga yaqin tursa-da, lekin o'ziga xos xususiyliklarga ham ega bo'ladi. Masalan, fuqarolik sudi faoliyatida qo'llaniladigan (tarablarning tortishuvi, da'vo qo'zg'atish, hal

qiluv qarori, da'voni ta'minlash) terminlar, jinoyat sudi faoliyatida qo'llaniluvchi terminlar (firibgarlik, genotsid, nomusga tegish, terrorizm)dan tubdan farq qiladi[3.14].

Yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy bo'yoqqa egaligidir. Qat'iylik, mantiqiylik, qisqalik, aniqlik kabi xususiyatlar yuridik tilning nufuzini belgilovchi me'yorlardir. Qonun tili davlatning rasmiy yuridik tili bo'lib, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi "muomala", "muloqot" vositasidir. Qonun tili yuridik tilning o'zagi, tub "mag'zi" hisoblanadi. Qonun tilining asosiy belgilari quyidagilardan iboratdir: a) aniqlik; b) qisqalik; c) shaxssizlik; d) rasmiy buyuqdorlik; xolislik; f) mantiqiy izchillik; j) barqarorlik[4].

Bizning fikrimizcha, potentsial ochiqlik mavjud bo'lgan sohalar nutqining yana bir turi huquqiy nutqdir. Keling, ushbu turdagi nutqda ochiqlikni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini qisqacha bayon qilaylik.

Huquqiy nutq qonun bilan tartibga solinadigan muloqot holatlari, ko'rsatmalari va xatti-harakatlar normalari tizimiga muvofiq uning ishtirokchilarining muayyan maqomga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar to'liq normalarga bo'ysunadi va ularni amalga oshirish ushbu turdagi nutqdagi talablardan biridir. Huquqiy nutq doirasida kommunikantning faoliyat turi bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ maqsadlarga ko'ra, bir qator turlarga ajratiladi. Ular, tergovchi so'rog'i, so'rov, chaqiruv, ariza va hokazolardir. Sudda ushbu shakllardan paydo bo'ladigan qarorlar qabul qilinadi. Boshqa narsalar bilan bir qatorda, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi jinoyat to'g'risidagi shaxsiy bayonot yoki tan olish deb ataladigan tushuncha bilan tavsiflanadi.[5].

Ikkinchisi biz uchun alohida qiziqish uyg'otadi, chunki "tan olish", "ochiq e'tirof" huquqiy nutq va muloqotda ochiqlikni nazarda tutadi. *Siz men bilan oldi-sotti qilmang. Bo'ladigan gapni ayting, kimdan qo'rqaysiz? Sharif uning ko'ziga qarab oldi. Yaqindagina muloyim boqib turgan, ishonch uyg'otishi mumkin bo'lgan nigohda jahl uchqunlarini ko'rib «Endi do'pposlaydi», deb o'yladi. (T.Malik. Shaytanat.1-qism).*

Ushbu misoldagi bo'ladigan gapni ayting deb tergovchi gumondorning aybini tan olishiga, haqiqatni oshkor etishga verbal va noverbal usullarda undashi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, samimiy e'tirof kundalik nutqdagi maxfiy muloqot yoki diniy nutqdagi iqrorlikdan farqli o'laroq, huquqshunoslikda huquqiy asosga ega va huquqiy normalar bilan aniq tartibga solinadi.

Buni ko'pincha sodir etilgan jinoyatning ko'rinishi va hikoyasi bilan cheklanib qolmasligi, aytilganlarning haqqoniyligi esa turli xil tahlillar, jumladan, tergov eksperimentlari yordamida qo'shimcha ravishda tekshirilishi bilan isbotlanadi.

-Mushuk-sichqon o'yinini bas qiling, Shomatova! Mana ekspertiza xulosasi! O'zingiz o'qiysizmi yo o'qib beraymi? "O'lim hodisasi tungi soat o'n ikki bilan ikki o'rtasida ro'y bergan. Sud tibbiy tekshiruvda shu narsa aniqlandiki, yurak faoliyati..." Yig'lashning hojati yo'q! Agar siz o'sha kecha eringizning yonida bo'lganingizda, uyda chinni idishlar, deraza oynasi singanini eshitmasligingiz mumkin emas edi! Stolga yozilgan dasturxoniga oqqan qonni ko'radingiz... Ertalab sutga chiqqaningiz yolg'on! O'sha kuni sut do'koniga bormagansiz! Umuman do'konga sut olib kelinmagan! Binobarin, o'sha kecha siz uyda bo'lmagansiz.(O'. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar)

Tergovchi bilan ochiq suhbat va jinoyatni tan olish ayblanuvchi/sudlanuvchining manfaatlariga mos keladi, chunki bu jazo muddatini qisqartirishga yordam beradi.

Tergovchi jinoyat to'g'risida to'liq ma'lumot olish va hatto ayblanuvchi yashirishga harakat qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni ham aniqlash maqsadini ko'zlaydi. Masalan, Tanimayman, — dedi Namozov gap ohangini o'zgartirmay. U qamoqqa kimning istagi bilan kelib qolganini anglagan, puxta o'ylangan tuzoqqa tushganini fahmlagan edi. Tuzoqdan qanday qutulishni bilmas edi. Tergovchi ham balki ularning odamidir, degan o'y uni nochor ahvolga solib qo'ygan, na ochiq gaplashishni, na o'zini go'llikka solishni bilardi. Qisqa muddat ichida tanlanishi mumkin bo'lgan yagona yo'l — «bilmayman» deb turish. Zohid uning tutgan yo'lini ko'ra bildi. Shuning uchun arqonni uzun tashlab, so'roqni davom ettirdi.(T.Malik.Shaytanat.1-qism)

Jarayon, odatda, gumonlanuvchining ayblov xulosasi matni bilan tanishib, o'z aybiga iqrор bo'lmaganidan boshlanadi. Bunga javoban, sudya sudlovni mohiyati bo'yicha ko'rish sanasini belgilaydi va qoida tariqasida, garovni rad etadi. Prokurorlar sudlanuvchi va uning advokatlari bilan muzokaralar olib borish uchun ba'zan bir necha oyga cho'zilgan pauzadan foydalanadi. Ular unga sudgacha bo'lgan kelishuvni taklif qilishadi. Huquqiy nutqda tergovchi va ayblanuvchi o'rtasidagi maqomga qaratilgan munosabatlardan tashqari, advokat o'rtasidagi munosabatlar ham mavjud. Tabiiyki, mijozdan ochiq suhbat kutiladi.

-Menga qarang, grajdanka Shomatova! Biz haqiqatni aniqlashimiz, eringizning qotillarini topishimiz kerak. Tushunarlimi? Shuning uchun ochiq gapiring! (O'. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar).

Shunday qilib, huquqiy nutqda ochiqlikni amalga oshirish maqomga yo'naltirilgan munosabatlarda potentsial mavjud: tergovchi - mijoz (ayblanuvchi / gumonlanuvchi) va advokat - mijoz. Shu bilan birga, tergovchi va advokatning diskursiv roli faollik darajasi va ochiqlikka chaqirish taktikasini tanlashda bir oz farq qiladi.

Sud jarayoni odatda ikki qarama-qarshi tomonning o'zaro ochiqchasiga tortishuvidan iborat bo'lib, bunda prokuror va jabrlanuvchi - bir taraf, sudlanuvchi va himoyachi - ikkinchi taraf bo'lib turadi. Birining nutqi jinoyatni asoslashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisidiki esa sudlanuvchini oqlashga qaratilgan bo'ladi. Shu tariqa sudda taraflarning so'zga chiqishlari munozaraning og'zaki ko'rinishi, og'zaki shakli bo'lib, bunda sudlanuvchi aybdormi, aybsizmi degan muqobil savolga aniqlik kiritish zarurati asosiy vaziyatni belgilovchi yetakchi mavzu bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, tergovchi shunday shaklda savolni berishi va shunday til vositalarini tanlashi kerakki, u so'ralayotgan odamga tushunarli va yetib boradigan bo'lsin. Buning uchun tergovchi o'z suhbatdoshining nutqiy tajriba darajasini inobatga olishi va o'zi ham yuridik dialogning nutqiy strategiyasi va psixologiyasi ko'nikmalarini to'liq egallagan bo'lishi lozim.

Adabiyotlar

1. Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. T., "Adolat". 1994. 5-bet.
2. Saidov A., Yuridik til xususiyatlari. // Qonun va til. T. 1997, 64-bet.
3. 4. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. Toshkent-2005, 14-bet
4. Ko'chimov SH.N. Til va qonunchilik texnikaxi.// Qonun va til. T., 1997, 114-bet.
5. Палашевская, И.В. Судебный дискурс: функции, структура, нарративность: монография / И.В. Палашевская - Волгоград: Изд-во Парадигма, 2012. - 148 с.

*Holikulova Gulchexra Yorqulovna
SamDCHTI o'qituvchisi
Zayniddinova Dilrabo Sirojiddin qizi
SamDChTI 3-kurs talabasi*

QIPCHOQ LAHJASIDAGI SHEVALARNING FONETIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatining Pstdarg'om tumani Mevali qishlog'ining shevasining fonetik va, morfologik munosabatlari tahlil qilingan.. Adabiy tilning shakllanishida qipchoq va lahjasining ham qanchalik ahamiyatli ekanligi bir qancha misollar yordamida yoritib berilgan. Olimlarning keltirilgan fikr va mulohazalaridan hamda dialektologik amaliyotlardan so'ng, qipchoq lahjasidagi shevalar bilan adabiy til qiyosiy tarzda olib borildi.

Kalit so'zlar: Adabiy til, dialekt, sheva, qipchoq lahjasi, fonetik, morfologik.

"O'zbek dialektologiyasi" o'zbek shevalarini o'rganadigan fandır. Dialektologiya so'zi grek tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'grisidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalishi chegaralarini o'rganadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi [1;3]. Har bir xalq o'z mahalliy shevalarida muloqot qiladi, o'zining shevasida bemalol so'zlashaveradi va shu tariqa o'sha xalqning jonli tili boyib boraveradi. Bizning ham shevamiz juda boy. Bizda uchta lahja ham mavjud: qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi. Bu lahjalarda so'zlashadigan har bir sheva

vakilining shevada soʻzlashuvi adabiy tilimizning boyish manbasi hisoblanadi. Leksik jihatdan ham, fonetik jihatdan ham, morfologik va qisman sintaktik jihatdan ham boyib boradi.

Samarqand viloyati Pastdargʻom tumani shevalarining fonetik jihatdan tahlilida qipchoq lahjasining “ž”lovchi sheva vakillari koʻproq. Shevalarda **j** (adabiy tilda **y**) tovushi **ž** (adabiy tilda **j**) ga (jomon > žāmān, joq > žoq, jūr > žūr), soʻz oxiridagi **γ** (adabiy tilda **gʻ**) undoshi **v** tovushiga (toγ > tov, boγ > bov, buydoj > buyvoj) kabilar. Bundan tashqari metateza hodisalari ham kuzatiladi: anhor > ähnär, supra > surpa, narvon > navran. Tushum kelishigi **-ni** qoʻshimchasi qipchoq lahjasidagi shevalarda **-di, -di, -ti, -ti** shakllarida kuzatish mumkin: ukamni > ukamdī, etakni > etaktī) kabi. Ushbu shevalardagi fonetik qonuniyatlardan yana biri singarmonizm hodisasi saqlangan: bozorini > bāzārini, qildik > qildīq.

Qipchoq shevasining oʻziga xos xususiyatlari:

- a) “j” oʻrnida koʻp hollarda “ž” ishlatiladi;
- b) “γ” oʻrnida “v” ishlatiladi;
- d) “g” tovushini oʻrnida “j” tovushi ishlatiladi. Masalan; sigir > sijir;
- c) “ž”ning oʻrnida “j” tovushi ishlatiladi. Masalan; mažlis > majlis.

Shevada a, ā unlilarining mavjudligi.

Oʻzbek shevalarida jami 13 ta unli qoʻllaniladi. Singarmonizmni yoʻqotgan shevalarda 6, 7 ta, ingarmonizmli shevalarda 11 ta unli qoʻllaniladi. Singarmonizm hodisasi ham qipchoq lahjasida kuzatiladi. Ushbu hudud ham singarmonizmni saqlagan hudud hisoblanadi. Unda 8tdan 10 tagacha unlilar faol qoʻllaniladi **ä, i, ü, ö, ā, e, a, i, o, u.**

Opa – [apa]	Ado – [āda]
Mashina – [māšīn]	Xalta – [xālta]
Dori – [darī]	Sochiq – [sačaq]
Sichqon – [sičqan]	Stol – [istal]
Stolba – [istalba]	Gadoy – [gadaj]
Saryogʻ - [sārīmāj]	Tok (uzum) – [tak]
Ohak – [axak]	Tayoq – [tajaq]
Taroq – [taraq]	Tandir – [tändir]
Oʻchoq – [očağ]	Ariq – [āriq]
Qattiq – [qātti]	Kosa – [kasa]
Qavi – [qāvī]	Qani – [qānī]
Xamir – [xāmīr]	Ayol – [ajal]
Yuribdi – [žürüptü]	Mana bu – [munov]
Yutish – [utuš]	

1. Qadīm zamanda bir qīšlaqta bir ājla barağan.
2. Ālma žegāni daštaği baqqa bāripti.

Oʻzbek shevalaridagi soʻzlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar koʻzga tashlanadiki, bir soʻz ayni maʼnosini saqlagan holda ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin u maʼnoning mosligiga putur yetkazmaydi: toppi (Toshkent) – doʻppi (ad.til), kel (ad.til) - gal (Xorazm), yoʻl (Toshk.) - djol (qipchoq), shu (ad. til)-sho (qipchoq). Bu kabi soʻzlardagi t/d, k/g undoshlari mosligi namoyon boʻladi. Bu, ayniqsa, arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda oʻziga xos xususiyatga ega boʻladi [1;20].

Bu hududda fonetik jarayonlardan biri diftonglashuv hodisasi ham kuzatiladi. Diftonglashuv hodisasi qipchoq lahjalarida koʻplab uchraydi. Bu fonetik jarayonga bir qancha misollarni adabiy til bilan yonma-yon qiyoslagan holda keltirib oʻtamiz:

Oʻn – [ʷon]	Ena – [ʷena]
Oʻtib – [ʷotip]	Endi – [ʷendi]
Uni – [ʷoni]	Oʻrdak – [ʷördäk]
Oʻsha – [ʷoša]	Oʻrta – [ʷorta]

Qipchoq shevasida jarangsiz undoshlar, asosan, unlilardan keyin kelganda yoki unlilar oʻrtasida kelganda jaranglashishi kuzatiladi. Masalan;

Buzoq – [buzāv]	Gapimiz – [gāvīmiz]
-------------------	-----------------------

Qoqib – [qāyīb]

Chopiq – [čāvīq]

Qovoq – [qāvay]

Bu fonetik jarayonlar qipchoq lahjasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Adabiy tildagi F undoshining qipchoq lahjasidagi shevalardagi talaffuzi:

Fe’li – [pejli]

Farosat – [parasat]

Folbin – [polbin]

Qulf – [qulp]

Foyda – [pājda]

To‘qqiz – [toyiz]

Chopib – [čāvub]

Avtomat – [aptamat]

Fahm – [paxim]

Daftar – [daptar]

Fol – [pāl]

Aft – [apt]

Morfologik jihatidan ham adabiy til bilan qiyoslagan holatda ko‘rib chiqildi. Bu sheva vakillarida adabiy tildagi **-lar** qo‘shimchasining quyidagi variantlari ham ishlatiladi:

-ar *bizar*

-ar *kengizar*

-lar affiksi II-shaxs ko‘plik ma’nosida islatilganda **-z** undoshi tushib qolishi kuzatiladi: *sizlar-silar*

Erkalash-kichraytirish affikslari:

-yīna *čirajliyīna*

-ča *buzāvča*

-xān *Širinxān*

-žān *qizimžānim*

-tāj *ilitāj(o‘g‘iltoy)*

-ginā *mittiginā*

Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani hududida qaratqich kelishigi odatda qo‘llaniladigan va qo‘llanilmaydigan holatlari mavjud. Qarluq lahjasidagi kabi tushum kelishigi ishlatiladi. Tushum kelishigining unli, undosh, jarangli va jarangsiz undosh tovushlardan keyin kelishiga qarab turli variantlarga ega ko‘rinishlari mavjud: *-ni, -ni; -di, -di; -ti, -ti*.

Sumkamni ap ke.

Gülni žilma

Uzumdi žuv

Kalışdi kij

Kitāpti ber

Ešikti žāv.

Qaratqich *-ni, -ni* va tushum *-ni, -ni* kelishiklari farqlanmasligiga misollar:

Kimniq ujī – kimni ujī

Meniq sumkam – meni sumkam

Gülniq bargī – güli bargī

Ujniq ešigi – ujnī ešigi

Qaratqich kelishi affiksining quyidagi variantlari mavjud:

-ni, *tāpičkāni raņi*

-ni *qārni sovuyi*

-di *uydi āldi*

-di *gūldi hidi*

-ti *barakti xāmiri*

-ti *kitāpti varayi*

Jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalarining shevadagi o‘ziga xos turlanishi, fonetik o‘zgarishlari:

Jo‘nalish kelishigining *-ga, -ka, -qa, -ya* shakllari mavjud.

Masalan;

-ya

Samarqanğa mazza qīb aylanib keldik.

-ka

Škapka qara.

-ga

Ertägä tävga bāramiz.

O‘rin-payt kelishigining *-da, -dä, -ta, -tä* shakllari bor.

-da

Ajam ujda āvqat qiljäpti

-dä

Sätildä bir qanča gīlāslar bār.

-ta *Kitapta hämmäsi jāzilgän.*

-tä *Dadam ištäjdi.*

Chiqish kelishigining shakllari –dan, -dän, -tan, -tän, -nan, -nän kabilar.

-dan *tāvdan*

-dän *dälädän*

-tan *daraxtan*

-tän *ištän*

-nan *qišīnän*

-nän *mehmännän.*

So‘z turkumlari ichidan olmoshlarning ma’noviy guruhlarini shevalardagi variantlari:

Ko‘rsatish olmoshari:

Bu – [bu]

Mana bu – [manāvī]

U – [u]

Mana shu – [maši], [manši]

O‘sha – [aši]

Ana bu – [anāvī]

Ana – [häjlä], [hijlä]

Ana shu – [ansī], [aši]

Mana – [māni]

Ana shunaqa – [ašīnaqa]

O‘shanaqa – [ašīnaqa]

Anavi – [henāv]

Keltirilgan shevaga oid so‘zlarni adabiy til bilan qiyoslab olingan namunalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, adabiy tilning boyishida, badiiy adabiyotda shevalarning o‘rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev Samixon. “O‘zbek dialektologiyasi”. – Toshkent, 2013.
2. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
3. Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, Наврўз, 2016.
4. Enazarov T., Karimjonova V., Ernazarova M., Mahmadiyev Sh., Rixsiyeva K. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Universitet, 2012.
5. Назаров К., Фуломов Ё. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент, Университет, 1993.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi
7. <https://www.ziyo.uz.net>
- 3 <https://www.tsuull.uz>

Shonazarova Fozila
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

MUHAMMAD YUSUF LIRIKASIDA VATAN TUYG‘USI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan. Shoirning she’rlari asosida vatan tushunchasi tahlil qilingan. Shuningdek, “Vatanim” va “Iqror”kabi asarlaridagi ona -Vatan madhi o‘ziga xos jumlar va o‘xshatishlar bilan bayon etilgani misollar orqali yoritib berilgan .

Kalit so‘zlar: Ona-yurt, vatanparvarlik, sadoqat, ijod, tasvir, muhabbat, istiqloq, mehr .

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijonning so‘lim go‘shalaridan biri Marhamat tumani Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan va voyaga yetgan. Muhammad Yusuf bolalikdan ziyrak, juda qiziquvchan bo‘lganligi bois ko‘p kitoblarni sevib o‘qigan va savollarga javob izlagan. Shu bilan birgalikda Muhammad Yusuf ochiqko‘ngil va xayolparast bola bo‘lib, she’riyat va adabiyotga mehri juda baland bo‘lgan. Bunday mehri uning qalbida buvijonisi Tursunxon ena uyg‘otgan edi. Muhammad Yusuf garchi oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan bo‘lsada, o‘qish va ishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ilmga chanqoq yosh shoir Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutida tahsil oladi , ko‘plab joylarda o‘zining faoliyatini olib boradi. Jumladan: Respublika Kitobsevarlar jamiyatida , “Toshkent oqshomi” gazetasida, “Tafakkur” jurnalida, “ O‘zbekiston ovozi “ gazetasida xizmat qilgan .

Yurtimiz mustaqillikka erishish ostonasidaligidayoq “Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston “ deya kurash maydoniga chiqadi, Vatan va mehr -muhabbatni baralla kuylay oladi . Albatta , bu har qanday yozuvchi va shoirlar qo‘lidan kelavermaydi. Muhammad Yusuf hayot yo‘li, ajoyibotlarga boy ijodi va qizg‘in ijtimoiy faoliyati har bir yosh avlod uchun o‘rnak maktabi bo‘la oladi , shu bilan birga shoir she‘rlari alohida ahamiyat kasb etadi . Uning “Tanish teraklar” ,”Iltijo”, “Osmonimga olib ketaman”, “Ulug‘imsan vatanim” singari o‘nlab she‘riy to‘plamlari adabiyotimizning oltin merosiga aylandi . Muhammad Yusuf “Men o‘z bilganimdan qolmadim” she‘rida she‘r va shoirlikni shunday anglaydi.

Quvroq bo‘l deyishdi.

Yolg‘on ham kerak,

Jindak xushomad ham, quloq solmadim.

Oqni oppoq ko‘rdim, qorani – qora

Men o‘z bilganimdan qolmadim

Muhammad Yusuf lirikasining tarovati nimada...? Avvalo, shoirning badiiyatida, she‘rlarining soddaligida , so‘zlarni mahorat bilan tanlay olganligida va albatta mavzular-fikrlarning teranligidadir. U Vatan madhini she‘rlariga mohirona singdira olganligi ,shuningdek yurt muhabbatini hech bir yozuvchi va shoirlarnikiga o‘xshamagan tashbehlar, o‘xshatishlardan iborat misralar orqali ta‘riflangan she‘rlar va qo‘shiqlari bilan xalqimizning e‘tirofiga sazovor bo‘ldi , shuhrat qozondi , asarlari o‘quvchilar qalbidan joy oldi. Vatanga muhabbat onaga bo‘lgan muhabbat kabi muqaddas va buyuk tug‘yu . Shuni alohida ta‘kidlash joizki, vatan va vatanparvarlik mavzusi eng katta ehtiyoj singari har dam va har vaqt inson uchun kerak bo‘lgan , uning kamol topishida , o‘zligini anglashida, ma‘naviy kamolotga erishishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladigan vosita hisoblanadi . Vatan mavzusi adabiyotlarimizda keng ko‘lam kasb etadi . Ta‘limda o‘quvchilarning ongiga vatan tuyg‘usini singdirish va tushuncha berish ahamiyatli hisoblanadi. Muhammad Yusuf bu mavzuga taktor va takror murojaat etadi. Sababi shoir o‘z yurti , vatanini juda qadrlaydi ,ardoqlaydi va o‘z kindik qoni to‘kilgan bu o‘lkaga mehri bo‘lakcha.

Vatan deb ko‘krak kerish hammaga birdek yod narsa , ammo shoir shunchaki og‘iz ko‘pirtirib qo‘ymaydi , aksincha o‘z xalqiga , vataniga bo‘lgan sof muhabbatini samimiylik va soddalik-la ifoda etadi.

O, ota makon

Onajon o‘lkam

O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga

Senday mehribonim yo‘q,

Seningdek ko‘rkam .

Rimni alishmasman bedapoyangga .

Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarini

Yo xudbinman men , yo bir sodda kasman men

Parijning eng go‘zal restoranlarini

Bitta tandiringga alishmasman men.

Muhammad Yusufning “Iltijo” she‘ri ko‘ngillarga surur bag‘ishlaydi . Ushbu she‘rning lirik qahramoni vatanni shunchaki sevmaydi, balki yurak-yuragidan bir insoniy muhabbat bilan sevadiki, u Rimni bedapoyangga, Parijning eng go‘zal restaranlarini bitta tandiringga almashmayman deb ta‘kidlaydi.

Shoir “Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing , arab ohusidan azizroq menga “, deya ko‘nglini ochar ekan, o‘zbek xalqiga xos kamtarlik bilan “Seni bilganlarga qilaman ta‘zim, seni bilmaganga keladi rahmim” deb yakunlaydi.

Vatanim

Men dunyoni nima qildim,

O‘zing yorug‘ jahonim.

O‘zim xoqon, O‘zim sulton

Sen taxti Sulaymonim.

Yolg‘izim, Yagonam deymi,

Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan Ulug'imsan, Vatanim...
Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri
Ilig'imsan, Vatan.

Muhammad Yusufning "Vatanim" she'rida ona yurtga muhabbat hissi o'zgacha tarzda ifoda etilgan. Shoirning ona yurtdan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq, u bir aka bo'lib, bir o'g'il bo'lib, bu mehrga javob bergisi, agar shu yurt "o'g'lim" deya unga mushtoq bo'lsa, har qanday mushkulot qarshisiga chiqqisi, kelgusi padarkushlardan kelajak ulug'beklarini pana qilib quchgisi keladi...Shoir sodda so'zlardan foydalangan bo'lsada, uning mazmun mohiyatini juda ham boy, chuqur ma'noga ega tarzda yoritib bergan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hamma inson ham Vatan, ona deya kuylashi mumkin-u, ammo ona yurtni maromiga yetkazib, yurakdan kuylay oladigan, xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir bo'la oladi! Muhammad Yusuf bunga yorqin timsol bo'la oladi. Shoir she'rlari orqali odamlarning unutayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Uning she'rlaridagi oddiy obrazlari, ayni paytda munis va qadrdon, tub mohiyati, ya'ni ular timsolida shu ona vatan, muqaddas tuproq, shu vatanning azizligi, mo'tabarligi aks ettirilgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Muhammad Yusuf. "Ulug'imsan vatanim" she'riy to'plami. Toshkent, 2000.
2. Muhammad Yusuf. "Shoir sevgisi" she'riy to'plami. Toshkent, 2014.

*Ibragimova Muqaddas Abdullaevna,
SamDCHTI, o'qituvchi*

SO'Z-GAPLARNING LINGVISTIK TAVSIFI VA ULARNING SINTAKTIK DERIVATSIYASIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. Maqolada so'z-gaplarning lingvistik tavsifi va ularning sintaktik derivatsiyasi xususidagi mavjud qarashlar, o'zbek tilshunosligidagi bunga nisbatan mavjud yondashuvlar xususida fikr bildirilgan. Ishda so'z-gaplarning lingvistik tavsifi va ularning sintaktik derivatsiyasi jahon tilshunosligining yetuk olimlarining fikrlarida qanday tavsif topganiga ham e'tibor qaratilgan. Bunday birliklarning nutq birligi ekani xususidagi qarashlar muallif tomonidan ma'qullangan va bunga Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asaridan keltirilman misollar dalil bo'lib xizmat qilgan.

Til grammatik tizimining gorizontaal tadqiqi va tavsifi fan taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham aktual va bahstalab bo'lgan. Mazkur munosabatlar doirasidagi masalalar va unga bog'liq yechimlarni izlash tilshunoslik fanining bugungi davrida ham o'zining muhim jihatlari bilan tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib turgani sir emas. Buni sintaksisning o'rganish obyekti bo'lgan sodda sintaktik qurilmalarda ham, murakkab sintaktik qurilmalarda ham bemalol kuzatish mumkin. Ana shunday masalalar doirasida sodda gapning alohida bir ko'rinishi sifatida tadqiq etilgan, shunday maqomda tavsiflangan birliklardan biri bu so'z-gaplardir. So'z-gaplar o'zining boshqa bunday nutq birliklaridan tubdan farqlanuvchi bir necha xususiyatlariga egaki, bu xususiyatlar uning lingvistik tabiatini qayta-qayta o'rganishga chorlayveradi. Fikrimiz dalili sifatida so'z-gaplarga xos bo'lgan monopropozitivlik, monopredikativlik, prosodik tugallik, o'ziga xos modallik belgilarini alohida qayd etishimiz o'rinlidir. Zotan, til birligi bo'lgan so'z va

unga teng keluvchi, boshqacha aytganda, nutqdan tashqarida qaralganidan nopredikativ, nominativ xarakter kasb etuvchi til birligi bo'lgan unurning nutq tarkibida kommunikativ planga ko'ra shakllangani bois uning tildagi xususiyatlaridan farqli bo'lgan nutqiy xossalari yuzaga chiqishi mazkur tipdagi qurilmalarning nutq elementi sifatidagi jihatlarini to'la namoyon qiladi. Shu bois, so'z-gaplar ba'zan til birligi sifatida morfologik masalalar doirasidagi mezonlar asosida bahalangan bo'lsa, ba'zan uning tom ma'noda nutqning birligi, uning minimal birligi hisoblangan sodda gaplarning bir ko'rinishi sifatida qayd etilganini alohida ko'rsatish kerak bo'ladi.

Bizningcha, so'z-gaplar haqli ravishda nutq birligidir. Chunki unda nutq birliklariga xos bo'lgan prosodika, predikativlik, modallik belgilari to'la mujassam ekanini inkor etib bo'lmaydi. Shunday ekan, so'z-gaplarni tarkibida birorta ham gap bo'lagi maqomidagi birlik mavjud bo'lmasa ham, gap deb atash tilshunoslik fani tarixining uzoq davrlaridan beri yashab kelmoqda. Albatta, bu qarashlarning lingvistik asoslari ham mavjud. Buni jahon tilshunosligining ko'plab yirik vakillari tomonidan o'rganilganini, tadqiq etilib, muayyan xulosalar berilganini eslashning o'zidayoq kuzatish mumkin.

Qayd etish joizki, sintaksisni, ya'ni yasama so'z derivatsiyasi, so'z birikmasi va uning shakllanishi, gap tushunchasi va u bilan bog'liq qarashlarning shakllanishi, sodda gap yasalishi, qo'shma gap va u bilan bog'liq masalalarni o'rganish XIX-asrning 20-yillaridan boshlangan.

O'zbek tilshunosligida esa XX asrning 20-yillardan so'ng grammatika bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrlarda Fitratning Nahv kitobi bilan bir qatorda, Q.Ramazon, Sh.Zunnunlarning «O'zbek tili» kitobi ham nashr qilindi.

Jahon tilshunosligida so'z-gaplar haqida fikr bildirilganda, ma'lumki, ular bo'laklarga ajratilmaydigan gaplar sifatida talqin qilinadi. Agar tillarning rivojlanishiga, ularning taraqqiyotiga nazar tashlasak, so'z-gaplar haqidagi nazariy qarashlar ham umumlingvistik ta'limot, shu sohadagi yaxlit bilimlarning ajralmas bir qismi sifatida o'zbek tilshunosligida shakllangan.

Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligida so'z-gaplarning o'rganilishi, ularning tasnifi va tavsifi, shuningdek, ularning boshqa sintaktik qurilmalardan farqlanishi rus olimi V.Vinogradovning nazariy qarashlari asosida yuzaga keldi.

Rus akademgrammatikasida so'z-gaplar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- 1) Tasdiq so'z-gaplar
- 2) Inkor so'z-gaplar
- 3) So'roq so'z-gaplar
- 4) Emotsional ma'no ifodalovchi so'z-gaplar
- 5) Qo'zg'alish -undash so'z-gaplar
- 6) Bir so'zdan iborat bo'lgan ko'rishish, minnatdorchilik, iltifot, iltimos, uzr so'z-gaplar.

O'rganilayotgan bo'lishiga qaramasdan, o'zbek tili darsliklariga 60-yillarga qadar so'z-gaplar kiritilmagan. Birinchi bo'lib fanimizga bir xil ma'noli, ya'ni so'z-gap yoki bo'laklarga ajratilmaydigan gap terminini A.G'ulomov olib kirdi. Odatda, so'z-gaplar bir so'z yoki turg'un birikmalar bilan ifodalanishi sababli A.G'ulomov bu atamani *so'z-gaplar* emas, balki *undash gap* deb qo'llaydi.

Yillar davomida so'z-gaplarning funksional, semantik va sintaktik xususiyatiga ko'ra xilma-xil lingvistik terminlar ostida nomlanishi o'zbek tilshunoslarining haqli munozaralariga sabab bo'lmoqda. E.Shodmonov «So'z-gaplarning ba'zi xususiyatlari» maqolasida so'z-gapning bu turi *vokativ gap* tushunchasiga mos kelishi, ya'ni bu atama bilan *bo'linmas gap* atamasini birga qo'llashni tavsiya etadi.

S.Usmonov esa so'z-gaplarning bir turi undov gaplar tadqiqida A.Shaxmatovning undovlarni «egasiz kesim gaplar» guruhiga kiritishini yoqlaydi va ularni *egasiz undov gaplar* deb atalishini ma'qullaydi. Bu kabi yirik tadqiqotlarning barchasi unumli, o'z davri va o'z davridan bugungi kungacha ham e'tirofli natija edi.

Yuqoridagi fikr va qarashlar asosida mavjud adabiyotlarning aksariyatidagi ma'lumotlarni umumlashtirganda, bu borada xulosa shuki, so'z-gaplar masalasiga bag'ishlangan ilmiy ishlar va ilmiy adabiyotlarda ularga xos bo'lgan belgilar alohida ajratib ko'rsatilgan. Aniqlangan bu belgi xususiyatlarning barchasi til materealining real qo'llanishida, ya'ni nutqda so'z-gaplarning

namoyon bo'lishi, kommunikativ aspekti, substitutiv hamda integrativ jihatlarida kuzatilganida so'z-gaplarning amaldagi grammatik tavsifi uning asl lingvistik tabiatidan biroz boshqacha sifatlar bilan namoyon bo'layotganini dalillash imkonini beradi.

Bunday fikr bildirilishining ham o'ziga xos tomonlari bo'lib, o'zbek tili sintaksisini chuqur o'rganish natijasida bu haqda turli xil munozaralar va an'analarga mos kelmaydigan shakllar mavjudligi aniq bo'a boshladi. SHunga ko'ra, o'zbek tilshunosligida so'z-gaplar quyidagicha guruhlanadi:

1) Tasdiq-inkor so'z-gaplar (–Ha.; – Mayli. ; – Xo'sh. ; –Yo'q. ; –Mutlaqo; – Aslo).

Yo, shu ko'rinmish tush bo'ldimi? –H-a, yo'g'-a!

– Ha, tavqi la'natlar! Toshkanniyam olibdimi-a?

2) Taklif-ishora so'z-gaplar (–Ma.; –Mang.; –Qani.; –Marhamat.).

Ijizat, aytingiz!

2) Undov so'z-gaplar (–Oh.; –Voh.; –Barakalla.; –Rahmat.).

(–Oh. Senga aytayapman?!

4) Modal so'z-gaplar (–Xullas.; –Demak...; –Chamasi.; –Tabiiy.; –Ehtimol.;)

– Nihoyat. Muallimlarimiz qaytib keladi.

Modal va undov so'zlar bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Undov so'zlar S.Usmonov, modal so'zlar esa S.Saidov, G'Zikrillayevlar tomonidan chuqur o'rganilgan va tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan xulosalar bu borada bayon qilingan. Bu olimlar mazkur so'z va sintaktik qurilmalarning ko'proq nutqiy bosqichiiga e'tibor qaratishgan bo'lib, ayni birliklarning lisoniy jihatlariga ahamiyat qaratishmadi. Bu yondashuv, bizningcha, haqli edi. Zotan, bunday gaplar ham o'z nomi bilan gap ekani isbot talab qilmasligi aniq. Gap esa, nazarimizda, nutq birligidir. U nutqda shakllanadi. SHuning uchun ham uni nutq birligi ekaniga dalolat qiluvchi belgilari ko'p. SHunlay bo'lgan, so'z-gaplar, hech shubhasiz, nutq birligidir. YUqorida nomlari zikr etilgan o'zbek olimlarining masala mohiyatini yoritishga bo'lgan yondashuvi asosli edi.

So'z-gaplar haqida fikr bildiridganda to'rtta asosiy belgisi bilan bitta majmuaga birlashuvchi hodisalar:

1. Mustaqil holda alohida gap bo'la olish belgisi;

2. Gap tarkibida shu gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik (Mayli, xudo yo'lida bo'lsa, mayli, –deydi, Oqpodsho.);

3. O'ziga xos g'ayrioddiy leksik ma'noga ega bo'lish (Vo darig'o, shu ko'rinmish ajina bo'ldimi? Ha, yo'g'-a! Umri shu dalada o'tdi – bir nima-da ko'rmadi);

4. Bog'lamlar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs-son shakllariga ega emasligi.

So'z-gaplarning ko'pchiligi tarixiy taraqqiyot natijasida boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos nutqiy qo'llash asosida rivojlangan va shakllangan. Masalan, albatta so'zi ravishdan, so'ssiz sifatdan o'sib chiqqan bo'lsa, har holda, har qalay modal so'zlari so'z birikmasidan, nasib bo'lsa kabilar gapdan kelib chiqqan.

Sof so'z-gapga albatta, mutlaqo, hoy, mang kabi undov, modal, tasdiq-inkor, taklif-ishora so'zlaridan hosil bo'lgan so'z-gaplar kiradi. SHuningdek, so'z-gap tushunchasi bilan birga so'z-gapsimon degan tushuncha ham qo'llanilgan o'rinlar ham uchraydi. Bunda so'z-gaplar bo'lmagan lug'aviy birikmalarining so'z-gap vazifasida kelishi tushuniladi.

So'z gaplashgan unsur esa o'zlari tarixan kelib chiqqan so'z bilan omonimik munosabat xosil qiladi va boshqa turkumdan aloqasini mutlaqo uzmagani bo'ladi. So'z-gaplashayotgan unsurlarga o'zi boshqa so'zlar turkumi (ravish, sifat, olmosh, son, fe'l)ga tegishli, lekin so'z gaplarga xos ma'no va vazifada qo'llana oladigan birliklar kiradi va so'z gapsimonlardan farqi shundaki, ushbu qatlamga oid so'z tarixiy taraqqiyot natijasida batamom so'z-gaplarga o'tib ketishi mumkin. So'z-gapsimonlar esa o'z so'z turkumi doirasida qoladi. Xullas, so'z-gaplarning leksik-semantik guruhi bo'lgan sof-so'z gap o'zi tarixan kelib chiqadigan so'z turkumidan batamom uzilgan, deyarli ko'pchiligi ot, sifat, ravish holatida umuman qo'llanmaydi.

Adabiyotlar:

1. Вардуль И.Ф. Основы описательной лингвистики (синтаксис и супрасинтаксис). – М.: Наука, 1977, 351 с.
2. Виноградов В.В. Русский язык (грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1972, 614 с.
3. Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975.
4. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 228 б.
5. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2007, 380 б.
6. Турниёзов Н. Назарий грамматикадан очерклар. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 1998, 47 б.
7. Хайруллаев Х.З. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2002, 80 б.
8. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 168 б.
9. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 250 б.
10. Ҳожиёв А. Лингвистик терминлар изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 144 б.

Marjona Orifova
SamDU filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: dots.U.Rashidova

KIYIM-KECHAK NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEMALARNING BADIY MATNDA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqola tilshunoslik fanining muhim tarmog‘i hisoblangan frazeologiya borasida fikr yuritiladi. Kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazemalarning badiiy matnlarda qo‘llanish xususiyatlari tahlilga tortiladi va bu frazemalarning o‘ziga xos bo‘lgan lingvomadaniy jihatlari ilmiy asoslangan mulohazalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Frazeligiya, lingvokulturologiyaning vujudga kelishi, realiya, kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazema, ularning badiiy matnda qo‘llanishi .

Аннотация: В данной статье рассматривается фразеология, являющаяся важной отраслью лингвистической науки. Анализу подвергаются особенности употребления в художественных текстах фразем, образованных на основе названий предметов одежды, и на основе научно обоснованных рассуждений освещаются лингвокультурные аспекты, присущие этим фраземам.

Ключевые слова: Возникновение фразеологии, лингвокультурологии, реалии, фразеологии, образованной на основе названий предметов одежды, их применения в художественном тексте.

Annotation: This article reflects on phraseology, which is considered an important branch of linguistics. The features of the application of phrasemas in artistic texts, formed on the basis of clothing names, are subject to analysis, and the linguistic aspects of these phrasemas themselves are illuminated on the basis of scientifically based reasoning.

Key words: Phraseology, the emergence of linguoculturalism, phraseology, formed on the basis of the names of clothes, their application in the artistic text.

Yaqin yillargacha lingvokulturologiya Yevropa tilshunosligining yangi yo‘nalishi hisoblanar edi. Biroq, qisqa muddat ichida olimlarning bu yo‘nalishning o‘zigagina xos bo‘lgan kategoriya va tamoyillarni ishlab chiqishlari evaziga, yo‘nalish shiddat bilan shakllandi hamda

XXI asrning boshiga kelib, alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Bir tomondan, lingvokulturologiya o'z tadqiqot predmetini mamlakatshunoslikning o'rganish obyekti negizida hosil qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, madaniyatshunoslikning alohida qarorini o'zida ifoda etadigan bo'ldi. Qayd etish lozimki, madaniyatni, uning metodologiyasi va nazariy negizlarini o'rganuvchi kulturologiya (madaniyatshunoslik)ning obyekti va predmetiga nisbatan tafovutli qarashlar madaniyat tushunchasining nihoyat turlicha talqin etilishi bilan izohlangani kabi lingvistik nuqtayi nazardan til va madaniyat munosabatlarini o'rganish, tadqiq etish hali uzoq davr olimlarning diqqat markazidagi masala bo'lib qoladi. Ta'kidlash lozimki, lingvokulturologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishida Vilgelm fon Gumboldtning qarashlari progressiv ta'sirga ega bo'ldi. Binobarin, til va madaniyatning aloqadorligiga doir masalalar ilk bor Vilgelm fon Gumboldt tomonidan ko'rib chiqildi. U o'z davrida: "Til xalq, g'oyalarining shunchaki ifodachisi emas, balki xalqning bir butun ma'naviy quvvatidir; tillarning turfa bo'lishi esa bitta narsaning turlicha nomlanishi bo'lmay, shu narsani turlicha tasavvur qilish, ko'rishdir. Til hamisha millatning o'ziga xosligini ifoda etadi" deb yozgan edi.¹ Shuningdek, V.Gumboldt bejizga: "Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim miqyosini bildiradi" deb aytmagan. Lingvokulturologiyada jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A Maslova ushbu sohaning rivojini uch bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. fon Gumboldt, E. Benvenist, L. Vaysgerber, A.A Potebnya, E. Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.²

Lingvokulturologiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N. Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi "lingvomadaniy jamoa milliy o'zligini ko'radigan ko'zgudir". Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rinishini namoyon etadi. Masalan, o'zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtayi nazardan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyoqqa kovush-maxsi, etik, boshga shabpo'sh, do'ppi, telpak, ustga chopon, to'n kiyib, belga belbog', qars boylashgan.

Mashhur rus tilshunosi B.A. Larinning ta'kidlashicha, "frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi". Frazeologizmlarning sematikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy- tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy- madaniy me'yorlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avlodlar avlodga uzatiladi.

Tadqiqotchi Y. Odilov o'zbek tilidagi enantiosemik so'zlarga bag'ishlangan tadqiqotida o'z e'tiborini frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlariga qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o'ziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma'noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir".³

Har bir xalqning o'ziga xos milliy kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o'taydi. Masalan, "Atlas ko'ylakka bo'z yamoq" kichik, arzimas nuqsonning yaxshi narsani buzishi, rasvo qilib qo'yishi. *Chilonzor massividan uy solgan xonadonlar bu hangomalardan bezor bo'lib: «quruvchilar atlas ko'ylakka bo'z yamoq yopishtirib ketishibdi...» degan mazmunda shikoyat yozgan edilar.* Mushtum.

"Do'ppisi yarimta" bu ibora hozir nisbatan kam ishlatiladi. Shu sababli ham ma'nosini tushunishga qiynalish mumkin. Bu haqoratmi, achinishmi yo shunchaki tasvirimi? Izohli lug'atga ko'ra, "ishi joyida", "g'am-tashvishi yo'q", "parvoyi falak", "beg'am" kabi ma'nolarni anglatadi.

¹ Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. 20-b.

² "Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlari" moduli bo'yicha o'quv- uslubiy majmua.// D.E.Lutfullayeva. D.S.Xudoyberganova. - Toshkent, 2016.

³ Odilov Y. O'zbek tilida enantiosemiya//Mahmudov N., Odilov Y. So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. O'zbek tilida enantiosemik so'zlarning izohli-lug'ati-Toshkent: "Akademnashr", 2014 -B.103.

Ustaning ishi yirik, uning noni butun, do'ppisi yarimta... S.Abduqahhor. ... odamlar oyog'idan qarzga ilinadi. Hech nima bo'lmaganday, do'ppisi yarimta! Halqumigacha qarzga botganini o'zi sezmay qoladi. Oybek. Qutlug' qon.

Iboraning “do'ppi yarimta”, “do'ppini yarimta qilib”, “do'ppisini yarimta qilib” kabi shakllari ham bor. «Sessiya, sessiya» deb qo'rqitishadi, sessiyasi hech gap emas ekan-ku», – deb, do'ppini yarimta qilib yurishuvdi. P. Qodirov. Uch ildiz.

“Do'ppisini osmonga otmoq” juda xursand bo'lmoq, quvonmoq. Sizni qarang, men «to'rt» olsam, do'ppimni osmonga otgan bo'lardim! O.Yoqubov. Muqaddas. Boshqalarningkelini Xosiyatxondak bo'lsa, do'ppisini osmonga tashlaydi. Faqat sen qadriga yetmaysan. S.Ahmad. Mastonbibi.

“To'nini teskari kiyib olmoq” o'chakishgan holda qaysarlik qilmoq.

Bir majlisda Bekniyoz uni: «Zanglab qolayapsiz, Boqijon aka», – deb tanqid qildi. Shu bo'ldi-yu, Boqijon aka to'nini teskari kiyib oldi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Shu voqeadan yillar o'tdi. Ilgari teri to'nini ters kiyib olgan Zulayho xola bilan Shokir aka asta-asta bitta-yu bitta arzanda qizlarini sog'ina boshladilar.

G'.G'ulom. Qizaloq. Bu sovuq gap tufayli tuyqusdan to'nini teskari kiydi. Sh.Bo'tayev. Qarz.

“Do'ppisini yerga olib qo'yib” fikr-o'yini bir yerga to'plab, keng mushohada yurgizib. Biz o'z aqlimiz bilan ishlashga o'rganib qolganmiz, odamlar bilan mana bundoq yuzma-yuz, yakkama-yakka, do'ppini yerga qo'yib, yurakdan sirdoshlashish kam bo'ladi. I.Rahim.

“Bir ko'ylakni burun yirtmoq” tajribali, yoshi katta, kattaroq; menga o'rgatma, o'zim bilaman. Otabek bir ko'ylakni o'zidan burun yirtgan kishi to'g'risida, go'yo o'z sarguzashtining eski tarixini mulohaza qila boshlagan, qarshisida o'tiruvchini da, qayin ota eshigidan quvlangan kishi deb bilgan edi. A.Qodiriy. O'tkan kunlar.

“Do'ppining tagida odam bor” har qanday nutqni eshitadigan quloq har doim atrofingda topiladi. «Bundan keyin bunaqa gapni sekinroq gapiringlar, do'ppining tagida odam bor-a». U Xayrini imlab ko'rsatdi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

“Do'ppi tor keldi” iloj-imkonsiz og'ir ahvolga tushmoq. Mana endi agar juda do'ppi tor kelsa, balki u qizini podshoh akasining o'g'liga berib, shu yo'l bilan urushni yarashga aylantirar? P. Qodirov. Yulduzli tunlar. U ko'zlarini suzib turib Saidovning uchastka qurayotganini, do'ppisi tor kelib, ikkinchi magazindan pora uchun gurunch olganini gapirgan edi. A.Muhiddin. Qitmir.

“Do'ppisi osmonda” nihoyatda xursand. Sinonimi: bosh(i) osmonda. – Xatoni tuzatsam, sizga yoqmaydi. Xatoga xato qo'shsam, do'ppingiz osmonda! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

“To'n bichmoq” asl holat asosida yoki uni ko'rmay-bilmay xulosa qilmoq, ish qilmoq. Kadrlarning savlatiga, so'zamolligiga qarab emas, ularning ishiga, iste'dodiga qarab to'n bichinglar. «Mushtum». Kabinetdan turib to'n bichishlariga qaraganda, Shovot, Qo'shko'pir, Xonqa tumanlaridagi kitob savdosi yaxshi. «Mushtum».

“To'n kiygizmoq” qo'shib-chatib, pardozlab, o'zgacha tus-mazmun bermoq. Auditoriyada bomba nima qiladi? Gapga ham to'n kiygizasiz-da, Shoazim. P. Qodirov. Uch ildiz. Jo'ra Zamonni o'ziga ashaddiy dushman deb biladi. Shuning uchun hamma shubhalariga to'n kiydirib, go'yo qo'riqchini o'zi yasab, yana uning rostakam «odam» ekanligiga ishongandek bo'ladi. N.Nazarov. Zamon.

“Paytavasiga qurt tushdi” xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik bezovta bo'lavermoq. Kim yig'laydi? Mingboshining o'g'limi? Sevgani, oltini-ya!.. Ko'chada go'yo bo'ron qo'zg'algandek... Har yoqdan hushtak tovushlari churullab eshitildi. Politsiyalarning paytavalari qurt tushdi. Ulardan ikkitasi jon holatda qochib borayotgan Bolani quvlab tutdi. N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri.

“Chorig'ini sudramoq” zo'rg'a-zo'rg'a, amal taqal qilib yashamoq, tirikchilik o'tkazmoq. Mayli o'zicha bir yashab ko'rsin. Burnini tortib, chorig'ini sudrab qaytib keldi, deb ishondi. Kutgani bo'lmadi. Tohir Malik. Shaytanat.

“Birininnng do'ppisini biriga kiygizmoq” aldamoq, mug'ombirlik qilmoq, hiyla-nayrang ishlatmoq. Bir tashkilotning do'ppisini ikkinchisiga kiydirishning o'zidan 50 ming so'm foyda qoldi. Gazetadan.

“Ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq” o‘z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq. Sinonimi: oyog‘(i)ni tirab olmoq. *Otam uylantiraman deb ikki oyog‘ini bir etikka suqib olgan. Hol-jonimga qo‘ymaydi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Qo‘ziboy o‘zi yaxshi bola, menga bir ishi tushibdi, mayli deya qoluvdim. Lekin ikki oyog‘ini bir etikka tiqib turib olayapti. Aytib qo‘yinglar, xafa bo‘lmasin, ertagacha bitkazaman.* H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

“Bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan” yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko‘proq. *Omon mendan bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan.* G‘.G‘ulom. Shum bola.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, frazeologizmlar dunyo, borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Xususan, biz tadqiq etgan kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazemlar o‘zbek xalqining so‘zga donoligini, madaniyati, ma‘rifati, urf-odatlarini ifodalab beruvchi hikmatlar xazinasidir. Frazeologik birliklar bunday xususiyatlarga ega ekanligini yuqorida bir qancha parchalar orqali ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – Toshkent: 2019. -246b.
2. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164b.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent.: Turon zamin ziyo, 2015. – 40b.
4. Sh.Rahmatullayev, O‘zbek tili frazeologik lug‘ati – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyat matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
5. “Antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua// D.E.Lutfullayeva. D.S.Xudoyberganova. - Toshkent, 2016.
6. Odilov Y. O‘zbek tilida enantiosemiya//Mahmudov N., Odilov Y. So‘z ma‘no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tilida enantiosemik so‘zlarning izohli-lug‘ati-Toshkent: “Akademnashr”, 2014 -B.103.

*Abduvohidova Farangiz Vahob qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 3-bosqich talabasi*

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI IBORALARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada ingliz hamda o‘zbek tillaridagi iboralar tahlil qilinish asnosida Ikki tildagi ba‘zi yaqinliklar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Bu iboralardagi o‘xshashliklar, iboralar ma‘nosi hamda o‘zbek tilidagi tarjimasini bilan berib o‘tilgan. Frazeologiya bo‘limi haqida ham qisqacha ma‘lumotlar uchraydi. . Ingliz tilida frazali fe‘llardagi tarjimaning nomosliklarga alohida urg‘u berilgan.

Abstract: the analysis of phrases in English and Uzbek in the article shows that there are some similarities between the two languages. Similarities in these expressions, the meaning of the expressions and their translation in Uzbek language are given. There is also brief information about the department of phraseology. In English, the translation of phrasal verbs is given special emphasis.

Kalit so‘z: Ibora, phrasal verbs, tarjima, sinonim, taqqoslash.

Key words: phrasal verbs, phrasal verbs, translation, synonyms, comparison.

Ingliz tili va o‘zbek tili kelib chiqishi jihatidan bir oilaga mansub emas. Ingliz tili – hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi tildir. O‘zbek tilimiz esa oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga mansub. Bu ikki til bir xil oila va turkumga xos bo‘lmasa ham, ularda ba‘zi o‘xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan, bu ikki tilning frazeologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularda ayrim yaqinliklar mavjud.

Frazeologiya – tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma‘lumot beradi.(H. Jamolxonov) Frazeologiya – tilshunoslikning frazeologiklarini o‘rganuvchi sohasidir. Frazeologiya termini tilshunoslikda ikki ma‘noda qo‘llanadi. 1)tildagi

frazeologik birliklarning jami ma'nosida 2) shunday birliklarni o'rganuvchi soha (fan) hisoblanadi. Bizning tilimizda iboralar ham turg'un ham erkin iboralar shaklida uchraydi. ingliz tilida ham shunday shakl mavjud, hamda u **phrasal verbs** deb yuritiladi.

Phrasal verbs – frazali fe'llar. Bunda ikki va undan ortiq so'zlar birlashib yangicha ma'no kasb etadi. Ularni yakka holda ya'ni ajratib olsak tubdan farq qiladi. Ular birlashib kelgan holdagina bu holat yuz beradi. Endi shu hodisa yuz beradigan holatlar bilan tanishib chiqamiz.

1) born with a silver spoon in one's mouth. U birlashgan holatda qiyinchilik ko'rmagan deb tarjima qilinadi. Hatto ingliz adabiyotida shu nomli asar ham mavjud. **BORN WITH A SILVER SPOON IN HIS MOUTH (1870)** asar muallifi mahoratli yozuvchi **Philip Bennett Power** bo'ladi. Ammo ularni alohida qo'llaganimizda qanday shaklda bo'lar edi?

Born – tug'ilmoq

With – bilan

A silver – kumush

Spoon – qoshiq

One's – kimningdir

In mouth – og'iz

degan tarjimaga ega bo'lardi. Bu iboraning O'zbek tilidagi teng muqobili esa "yegani oldida, yemagani ortida"dir.

2) need something like a hole in the head – tashvish ustiga yana tashvish tushmoq. Bu iborani biz **Clifford Odetsning AWARE AND SING (1933)** nomli asarida qo'llangan. Misol: "I need a wife like a hole in the head" – menga barcha tashvishlarini bo'lishadigan yor kerak"

Need – zarur

Something – biror narsa

Like – yoqtirmoq

A hole – teshik

In the head – bosh ichida

O'zbekcha muqobil varianti: er-xotin qo'sh ho'kiz.

3) everything but the kitchen sink – hamma narsani yig'ishtirib jo'nab ketmoq. Bu frazali fe'l "**The Other Doors**" by **Mary Heaton Vorse** published in Scribner's Magazine-Vol. XXXIX, May 1906, No. 5- page 603:"da qo'llangan. - but Felicia merely remarked, "she had on everything but the kitchen stove, and yet she looked well dressed!"

Everything – hamma narsa

But – ammo

The kitchen – oshxona

Sink – cho'kmoq

O'zbekcha muqobil shakli: daryoni ko'rmasdan oyoq kiyimini yechmoq.

4) put somebody in the cart – yomon, uyatli holga tushmoq. Times, Sunday Times (2007) nashrida The Government put the cart before the horse bu investing heavily before making major reforms.

Put – qo'ymoq

Somebody – kimdir

In the cart – savatda

O'zbekcha muqobili: Yer tagiga kirib ketguday bo'lmoq, yuzi qizardi va yuzini yerga qaratmoq iboralari.

5) keep on one's toes – shoshilmoq.

Keep – saqlamoq, asramoq

On – ustida

One's – bir kishining, birortaning

Toes – oyoq kiyim

O'zbekcha shakli: oyog'ini qo'lga olib chopmoq.

6) fed up to the back teeth – bir xillikdan zerikmoq.

Fed – oziqlangan

Up –yuqoriga

To – ga

The back – orqa

Teeth – tish

O‘zbekcha shakli: hammasidan qo‘l yuvmoq yoki hammasiga qo‘l siltamoq.

7)behind the times – zamondan orqada qolgan.

Behind – orqa

The times – vaqt, soat

O‘zbekcha muqobili: eskilik sarqiti, eski hammom eski tos.

Yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, o‘zbek hamda ingliz tillari bir xil strukturaga ega bo‘lmasa ham ma’no jihatidan bir-biriga teng bo‘lgan iboralarni uchratdik. Iboralar – bevosita nutq jarayonida hosil bo‘lmaydigan, tilda bir butun holda mavjud bo‘lib, shundayligicha nutqqa kiritiladigan so‘z birikmasi yoki gapga teng jumla. Frazеologik iboralarda oddiy so‘zga qaraganda ma’no kuchli darajada ifodalanadi va ularda obrazlilikni yorqin namoyon etish mumkin. Bu holatda tinglovchiga hissiy ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Iboralar faqat bizning tildagina emas, boshqa tillarda ham uchrar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Moskva: ”Rus tili” nashriyoti, 1981.
- 2) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
- 3) English idioms and phrasal verbs. Antology. Sankt-Peterburg
- 4) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-mabaa ijodiy uyi, 2022.
- 5) uz.m.wikipedia.org.

*Rashidova Umida Mansurovna
SamDU dotsenti*

O‘ZBEK TILI FRAZELOGIK TIZIMIDA SOMATIK IBORALARNING O‘RGANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbek tilshunosligida somatik frazemalarning o‘rganilishiga doir ishlar tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, maqolada olimlarning turlicha qarashlari va fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: somatik frazema, lugat, frazeologiya, frazema

O‘zbek tilshunosligida somatik frazemalarning o‘rganilishiga doir ishlar sanoqli bo‘lsa ham, lekin ishlarining ma’lum bo‘limlarida somatik FB larga xos xususiyatlarga to‘xtalib o‘tilgan alohida tadqiqotlar mavjud.

Ma’lumki, Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlari o‘zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojida alohida qimmatga ega. Olimning o‘zbek tili iboralarni to‘plab, «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati»ni¹ yaratgani o‘zbek frazeologiyasida yangilik bo‘ldi. Lug‘at 1978 va 1992-yillarda nashr etilgani bois uni yangilash, tarkibini boyitish ehtiyoji tug‘ildi. Xususan, keyingi yillar badiiy adabiyotlarda qo‘llangan FB larni to‘plash, sistemalashtirish va ularni tahlil etish, lug‘atdan o‘rin olmagan FB larni aniqlash, FB larning yangi ma’nolari, variantlari, sinonimlarini ko‘rsatib ular tarkibini boyitish frazeologiya sohasi rivojida ulkan hissa bo‘lishi tayin. Masalan, *kavakdan ko‘z yasamoq (Oybek), ko‘ziga tuproq to‘lmoq (T.Murod), ko‘zini tupuklab o‘tirmaslik (N.Norqobilov), qo‘li intizor (Oybek), qo‘li siniq (Z.Qurolboy qizi), ikki qo‘li bir tepa (N.Norqobilov), yuragini parmalamoq (S.Ahmad), yuragi qotib qolmoq (Oybek), yuragi muzlamoq (O.Yoqubov), yuragi silqillamoq (A.Suyun)* kabi bir qator lug‘atlarda qayd etilmagan yangi

¹ Рахматиллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.-Т.: 1992 й.

FBlarning tahlili ishimizning keyingi boblarda keltirilgan bo‘lib, ular ish so‘nggida keltirilgan ilovada aks etgan.

O‘zbek tilshunosligida FBlarning grammatik tabiatini o‘rganish Sh.Rahmatullayevning nomzodlik dissertasiyasidan boshlangan edi. O‘zbek tilidagi obrazli fe‘l frazemalari o‘rganilgan mazkur ishda somatik FBlar ham tahlilga tortilgan. Jumladan, FBlar tarkibida qo‘llanuvchi grammatik qo‘shimchalarning qo‘llanilishini:

1. Har ikki komponentida egalik va shaxs-son qo‘shimchalari bir- biriga teng kelgan FBlar: *to ‘nimni teskari kiyib oldim.*

2. Har ikki komponentida egalik va shaxs-son qo‘shimchalari turli shaxslarda kelgan FBlar: *yuragimni yording, yuragingni yordim, yuragimni yordi.*

3. Yuqoridagi ikki jihatni ham o‘zida mujassam qilgan FBlar: *ta‘bimni tirriq qildim, ta‘bimni tirriq qilding* tarzida uchga bo‘lib ko‘rsatgan.

Yoki olim fe‘l frazemalarning gapdagi sintaktik vazifalarini sanaganda, somatik FBlarning gapda bir so‘roqqa javob bo‘lib turli gap bo‘laklari vazifasida kelishiga xoslanganini ta‘kidlaydi. Xususan, *ikki ko‘zi to‘rt bo‘ldi* – kesim, *ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib kutmoq* – hol va h.

FBlarning sintaktik bog‘lanishi va gapdagi vazifalari, morfologik xususiyatlari olimning keyingi «Sintaktik tahlilda frazeologik iboralar ustida ishlash masalasiga doir», «Fe‘l frazeologik birliklar grammatik qurilishining asosiy turlari», «Fe‘l frazeologik birliklarda mavjudlik kategoriyasi», «Fe‘l frazeologik birliklarda moslashuv», «Fe‘l frazeologik birliklarda obyekt kategoriyasi» singari qator ilmiy maqolalarida, frazeologiyaga oid o‘quv qo‘llanmalarida tadqiq etildi.

«Fe‘l frazeologik birliklarda mavjudlik kategoriyasi» nomli maqolasida Sh.Rahmatullayev fe‘llardagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasini mavjudlik kategoriyasi deb atab, fe‘l FBlarning taxminan yarmini har ikki kategoriyada, qolganlarini faqat bir, u yoki bu kategoriyada kelishini ta‘kidlaydi. Fe‘l FBlarning mavjudlik kategoriyasini aspektlarda kelishiga ko‘ra olim uch guruhga bo‘ladi:

1. Har ikki aspektda ham kela oluvchi FBlar: *qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarmoq - qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarma* kabi.

2. Faqat bo‘lishli aspektda keluvchi FBlar: *yuragi orqasiga tortib ketdi, nomini bo‘lak qo‘ymoq* kabi.

3. Faqat bo‘lishsiz aspektda keluvchi FBlar: *boshi chiqmadi, yuragiga qil sig‘maydi* kabi.

Olimning «O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari» nomli doktorlik dissertasiyasi va shu asosda e‘lon qilingan monografiyasida olim o‘zbek tilidagi frazemalarni lug‘aviy birlik sifatida o‘rganishni asoslab berdi. Bu ishda frazemalardagi ko‘p ma‘nolilik, ma‘nodoshlik, antonimlik, shakldoshlik va variantdoshlik hodisalari juda chuqur va asosli materiallar bilan tadqiq etilgan.

Xususan, olimning mazkur monografiyasida frazeologik sinonimlar xususida quyidagi fikrlar keltiriladi: «Har bir frazeologik sinonimga to‘g‘ri va to‘liq xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlari bilan qiyoslab o‘rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalardan tekshiriladi, ular orasidagi o‘xshashlik ham, farqlar ham ta‘kidlanadi. Sinonimlar orasida farqlar qancha oz bo‘lsa, ularni nutqda bir-birining o‘rnida ishlatishga imkoniyat ortadi, va aksincha bo‘lsa, bunday imkoniyat ozayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рахматиллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.-Т.: 1992 й.
2. Солодуб Ю.П. Современный русский язык. Лексика и фразеология (сопоставительный аспект). –Москва: Флинта: Наука, 2002. –С 187.

TOG'AY MUROD ASARLARIDAGI GRAMMATIK VOSITALARNING STILISTIK- PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog'ay Murod asarlarida qo'llangan shevaga xos so'zlarning fonetik, leksik hamda morfologik xususiyatlari stilistik -pragmatik jihatdan atroflicha yoritilgan.

Ma'lumki, jahon tilshunosligi taraqqiyoti bugungi bosqichida kommunikativ munosabatlar antroposentrik tamoyillar asosida o'rganilib, lisoniy hodisalar va ularning ifoda imkoniyatlari keng tadqiq etilmoqda. Tilshunoslikning matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik va boshqa yo'nalishlarida inson omili tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Matn va undagi shaxs omilini chuqurroq o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, badiiy matnda inson omili va uning nutqini lingvopragmatik jihatdan tadqiq etilishi bugungi kun tilshunosligini sifat bosqichiga ko'tarmoqda. Bu boradagi izlanishlar ko'lami XXI asr tilshunoslik nazariyasini yangi konsepsiyalar bilan boyitib, pragmalingvistika borasidagi bilimlarning optimallashtiruviga ma'lum darajada xizmat qilmoqda.

O'zbek tilshunosligida grammatik vositalarning pragmatik xususiyatlari I. Mirzayev, Sh. Safarov, M. Hakimov, M. Yo'ldoshev, A. Pardayev singari olimlarning monografik tadqiqotlarida batafsil yoritilgan.

Tog'ay Murod asarlari bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimizda shevaga xos so'zlarning morfologik xususiyatlari ham to'raligicha namoyon bo'lishi holatlariga guvoh bo'ldi. "So'zlovchining mavjudlikdagi voqelikka munosabatini ifoda etuvchi morfologik vositalar"[Хакимов,2013,53] ham badiiy asarlarda pragmatik mazmun ifodasi uchun xizmat qiladi. "Poetik matnlarda gap va boshqa turdagi lisoniy tuzilmalar hosil bo'lishida, dastlab, inson ongida fikr va hukm tizimi hosil bo'ladi va ushbu botiniy tizim mavhum xarakterdagi kategoriyalardan tarkib topadi. Poetik matnda muallif o'z ichki maqsadini nutqda bayon qilish uchun lisoniy vositalarning shakliy va mazmuniy konstruksiyasiga poetik bo'yoq berib, ma'lum bir mazmunni ifoda etuvchi bir butun, yaxlit lisoniy va pragmatik sistemani yaratadi"[Носирова, 2020,46]. Tog'ay Murod ham o'z qissalarida grammatik vositalardan quyidagicha foydalanib, o'ziga xos shakliy va mazmuniy konstruksiyalarni yuzaga keltirgan:

1. Kelishik qo'shimchalarini tushirib qoldirish yoki o'zgartirib qo'llash holatida: *Ertasi kuni Dushanbe(ga) uchdim. O'tirganlar shahodat barmog'ini likkillatib, o'rtada laylak qushday lo'killab yurgan qizni imladi* [Ot kishnagan oqshom, 96]. *Bolish(ni) quchoqlaydi* [Oydinda yurgan odamlar, 67], *Oq kaltak-qora kaltak yelda, o'zlarini eshik(ka) uradi* [Oydinda yurgan odamlar, 67]. *Ko'plari men(ga) yetib keldi, uloqqa uzaldi* [Ot kishnagan oqshom, 49], *Otamiz esnashdi (ni) o'zicha tushundi* [Oydinda yurgan odamlar, 69] va (h.k.).

2. Egalik qo'shimchasini tushirib yoki almashtirib qo'llash holati: *Momomiz gap bilan andormon bo'lib bilmaydi* [Oydinda yurgan odamlar, 57], *Bobomiz bo'sh piyolani zarda bilan to'ntarib tashlaydi* [Oydinda yurgan odamlar, 57], *Kel-kel, aynam, manavi yerga o'tir,-dedi Hojar ko'r* [Oydinda yurgan odamlar, 89].

Adib asarlarida shevaga xos sifat so'z turkumiga doir so'zlar ham qo'llangan. *Serjant Orziqulov chiyduxoba kamzulini kiyib oldi* [Ot kishnagan oqshom, 46]. *Uloq bu gal maydagina bir to'riqda ketdi* [Ot kishnagan oqshom, 119]. Mazkur gaplardagi *chiyduxoba* - ohori to'kilmagan vilvitga o'xshash material. *Mayda so'zi kichkina* ma'nosida qo'llangan.

Tog'ay Murod qissalarida qo'llangan **dialektizmga xos olmoshlar**, asosan, adabiy tildagi variantidan fonetik jihatdan farqli ravishda qo'llangan. *Polvon bova, manov Ermat polvonni bir sinab ko'ring* [Yulduzlar mangu yonadi, 58]. *Bari ayol shunnay deydi* [Momo Yer qo'shig'i, 45].

Ravish soʻz turkumiga oid soʻzlar ham asar sujetining qiziqarli boʻlishini taʼminlashga xizmat qilganligini koʻrish mumkin: *Shu bois, Tarlonni oshiqcha zarblamadim* [Ot kishnagan oqshom, 130]. *Bovasi ilkisdan turib ketdi* [Oydinda yurgan odamlar, 87]. Ushbu misollarda *oshiqcha* soʻzi *ortiqcha majburlamadim, ilkisdan* soʻzi esa *toʻsatdan* maʼnosini ifodalagan.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida eng katta soʻz turkumi hisoblangan feʼldan ham yozuvchi qissalarida hududga xos milliy koloritni ochib berish jarayonida mohirlik bilan foydalanilgan. *Goʻsht maydalab boshladim* [Ot kishnagan oqshom, 92]. *Daho shoʻrvani muzdayligicha yedi* [Momo Yer qoʻshigʻi, 243]. Yozuvchi mazkur gaplarda *maydalamoq-toʻgʻramoq, yemoq-ichmoq* (suyuq yeguliklar ichiladi, quyuqlari esa yeyiladi) feʼllarini hududga xos sheva elementlarining oʻziga xosligini koʻrsatish maqsadida ishlatgan.

Shuni taʼkidlash joizki, yozuvchining turgʻun birikmalardan, oddiy soʻzlardan, terminlardan, shevaga xos soʻzlardan maʼno koʻchishlarning turli usullarini yaratishi uning mahoratini belgilaydi. Bu borada soʻz yuritganda, Togʻay Murod qissalaridan xohlagancha dalillar topish mumkin. Uning asarlarida har bir soʻzdan mohirona foydalanish, qisqa gaplardan ham fikrni aniq va loʻnda ifodalash oddiylikka intilish hamda xalq tilidan koʻchimning, tildagi oʻzgarishlarning turli usullarini yaratish kuzatiladi. Fikrimizning dalili sifatida bir misolga eʼtibor qaratamiz: *“Viloyat kattalari tasbeh-tasbehdagi tuzilib turdi, kattalar yer chizdi, kattalar qizarib-boʻzardi”* [Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi, 35]. Yuqoridagi gapda *“kattalar”* soʻzi shevaga xos tarzda ishlatilgan boʻlib, *“katta”* soʻzi sifat soʻz turkumi kabi belgi bildiruvchi soʻz emas, balki mansabdor shaxs maʼnosini bildiradi. Shu bilan birga, bunda koʻchimdagi metafora usulining belgi oʻxshashligi shakli qoʻllanadi. Bundan tashqari, *“tasbehdagi-tasbehdagi tuzilib turdi”* ifodasida ham badiiy sanʼat mavjud. *“Tasbeh”* soʻzi asli diniy termin boʻlib, keltirilgan gapda oʻxshatish sanʼatini vujudga keltirishga xizmat qilgan. Yana bir misol: *“Dehqonlar baqa boʻlib qoldi”* [Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi, 7]. Ushbu gapda *“baqa”* zoologik termini orqali, oʻxshatishning yana bir turi yasalgan. Gapda tashbehning belgisiz turi qoʻllangan boʻlib, ushbu holat mazkur oʻrinda oʻxshatishning yuzaga kelganligini koʻrsatadi. Bu jarayon adibning xalq tilidan va shevalaridan mahorat bilan foydalanilganligidan dalolat beradi.

Asarda qoʻllanilgan shevaga xos lingvistik birliklar tahlili shuni koʻrsatadiki, arab raqamiga xos terminlarda ham metaforaning harakat oʻxshashligini kuzatish mumkin: *1934-yil oyoqladi* [Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi, 44]. Mazkur gapdagi shevaga tegishli boʻlgan *oyoq* aslida anatomik termin boʻlib, semantik maʼno ifoda etishiga koʻra, yilning yakunlanganligini bildiradi. Quyidagi gap tarkibida esa, termin sifatida yuritiladigan *“bel”* soʻzi orqali maʼno koʻchishining metaforik usuli (shakliy oʻxshashlik) hosil qilingan: *Raykomning bahaybat mashinasi darvoza oldida bel boʻldi* [Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi, 44].

Yozuvchi asarlarida maʼno koʻchishining turli usullaridan keng foydalanilgan. Xususan, metaforaning turlari, oʻxshatish va uning shakllariga oid faktik materiallarning har biri matn doirasida turli xil maʼno ifodalanganligi bilan oʻziga xos mazmun kasb etadi.

Asarda sheva materiallariga xos maʼno koʻchishining bir turi boʻlgan sinekdoxa hodisasi ham uchraydi: *Men komandirning yolgʻiz tirnogʻini odam qilishim kerak* [Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi, 54]. Ushbu gapda sinekdoxaning qismi orqali butun tushunilish turi qoʻllanilgan. Anatomik termin boʻlgan *tirnoq* koʻchma maʼno hosil qilib, *farzand* maʼnosini ifodalagan.

Xullas, lingvistik vositalar olamning lisoniy manzarasi bilan namoyon etuvchilik xususiyatiga koʻra xarakterlanadi. Ularda inson mentalitetini aks ettiruvchi jarayonlar yetakchilik qiladi. Inson miyasining tuzilish jarayoni turli fanlarning integratsiyasi orqali takomillashib borganligi bois ular sunʼiy tafakkur bilan oʻzaro yaqin aloqadadir. Badiiy asar qahramoni – inson shu jarayonning ichida tasvirlanadi. Shuningdek, mazkur holat badiiy asarni mazmuniy jihatdan tadqiq etishda pragmatikaning ahamiyati alohida ahamiyatga ega ekanligidan ham dalolat berishini aytib oʻtmoq lozim.

Togʻay Murodning qissalari qahramonlari nutqiy muloqoti yuzasidan olib borgan kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, unda shaxs muloqotiga xos hududiy mentalitetning keng qamrovda tasvir etilishi, qahramonlar hayot tarziga singdirilishi grammatik vositalarning stilistik-pragmatik xususiyatlari orqali yuzaga chiqqan.

Adabiyotlar

1. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Т.: Академнашр, 2013.
2. Носирова У. Поэтик матнларнинг прагматик хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс... – Фарғона, 2020.
3. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar . I-II jild. Qissalar.–Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2008.

*Jumanova Shohista,
SamDU tayanch doktoranti*

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA DINIY VA TASAVVUFIIY TUSHUNCHALARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: Biz ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida aks etgan diniy-tasavvufiy tushunchalarni ingliz tili tarjimasini bilan qiyosiy tahlil qildik. Diniy tushunchalarning ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan muammolariga alohida to‘xtalib o‘tdik.

Kalit so‘zlar: din, tasavvuf, Allohu Akbar, Vallohi a‘lam, din, banda, Haq Taolo, gunohkor, duo, zikr, do‘zax, Shayton, jannat, qazo, qiblagoh, qiyomat, farishta, masjid, xonaqo, juma, namoz, so‘fi, murid, eshon.

Bugungi avlod tarbiyasida, ularda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda buyuk ajdodlarimizning, tarixiy asarlarimizning o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan ham Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani talqinini ham diniy-tasavvufiy tushunchalarsiz tasavvur qilish qiyindir. Romanda bir qator diniy tushunchalar o‘rin egallagan bo‘lib, tadqiqotimiz davomida ularni tarjimasini bilan berishga harakat qildik. Shuni ta‘kidlash kerakki, “Diniy tushunchalarni bevosita tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki bu iboralar dinga ishora qiladi. Bundan tashqari, ularni moslashtirish tavsiya etilmaydi. Bunday tushunchalarni ma‘lum bir xalqning diniga moslashtirib milliyashtirish talabalarning dinni noto‘g‘ri tushunishlariga olib keladi”¹. Biz ushbu tadqiqotimizda, diniy tushunchalardan, ya‘ni Allohu Akbar, Vallohi a‘lam, din, banda, Haq Taolo, gunohkor, duo, zikr, do‘zax, Shayton, jannat, qazo, qiblagoh, qiyomat, farishta, masjid, xonaqo, juma, namoz, va tasavvufiy so‘fi, murid, eshon kabi misollarni sanab o‘tdik.

Asliyat matni: Yana uch kundan so‘ng juma kuni erta bilan namozga turgan muridlar eshonning xonaqoda o‘lib yotganini ko‘rdilar. (326-b.)

Kristofor Fort tarjimasini matni: After another three days, On Friday morning the murids went into the mosque to pray only to find their eshon dead. (270-p.)

To‘xtasinov tarjimasini matni: After three days, the murids woke up for juma namaz in the morning and saw the murder of Eshon. (216-p.)

Yuqorida keltirilgan misolda To‘xtasinov tomonidan qilingan tarjimada xonaqo so‘zi, Kristofor Fort qilgan tarjimada esa namoz so‘zi tushib qoldirilgan. Uning o‘rniga pray so‘zi bilan ifodalanadi. To‘xtasinov tarjimasida namoz so‘zi namaz kabi berilmoqda. Qolgan tushunchalar murid, Eshon so‘zlari tarjimasiz qoldirilgan bo‘lib, izohli lug‘atda kitob so‘nggida beriladi. Tadqiqotimiz davomida To‘xtasinov tarjimasida eshon so‘zining ikki xil ifodalanganiga guvoh bo‘ldik. U bir o‘rinda Eshan deb berilsa, ikkinchi holatda Eshon kabi beriladi.

Asliyat matni: Unday bo‘lsa, gap tamom. Omin Allohu akbar! (253-b.)

Kristofor Fort tarjimasini matni: Then enough. Amen, God is great! (218-p.)

To‘xtasinov tarjimasini matni: Then that’s all. Amin Allohu Akbar! (171-p.)

Bilamizki, arab tilidan tarjima qilinganda, *Allohu akbar!* – *Alloh buyuk deya* tarjima qilinadi. Kristofor Fort tarjimasida ma‘noviy tarjimasini keltirilsa, To‘xtasinov ijodida esa ushbu so‘z o‘z

¹ G‘afurov I, Mo‘minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. –: Tafakkur Bo‘stoni, Toshkent, 2012. B.85.

holicha qoldiriladi. Ushbu qilingan tarjimalar ma'noga ta'sir qilmagan va to'la moslikni o'z ichiga oladi.

Asliyat matni: Nomini unutibman... Qora paranjisi boridi... *Vallohi a'lam*, otasining nomi... bir narsaki *so'fi...* ha, Razzoq *so'fi...* Razzoq *so'fi...*(20-bob, 319-b.)

Kristofor Fort tarjimasi matni: I forgot her name ... She was in a black parangi. *Allah remind me something sufi..* yes Razzoq sufi the daughter of Razzoq sufi. (265-p.)

To'xtasinov tarjimasi matni: He then said, " I forgot her name.. She had a black yashmak... *God knows*, her father's name was... that *Sufi* yes, Razzok sufi...Razzok sufi..." (211-p.)
So'fi bilimziki, Islomda tasavvuf qoidalariga rioya qiluvchi inson sifatida namoyon bo'ladi. Ikkala tarjima matnida ham so'fi-sufi kabi beriladi. Bunga sabab ingliz tilida O'o' harfining mavjud emasligidir. Ingliz o'quvchisiga noqulaylik tug'dirmasligi uchun Kristofor Fort *So'fi* so'ziga qisqacha izoh berib o'tadi.

Bundan tashqari, misolda berilgan *Vallohi a'lam* Kristofor Fort matni tarjimasida Alloh menga eslatadi deya tarjima qilinsa, To'xtasinov qilgan tarjimada Allohga ayon, Alloh biladi deya tarjima qilinadi. Fikrimizcha, ikkala qilingan tarjimalar leksik mosliklar ichida to'la moslikni o'z ichiga qamrab oladi.

Asliyat matni: Og'iz bilan til — *bandaning* jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo'lmasa, *Haq taoloning* bandalari it bilan ham gaplasha bersin! (10-b.)

Kristofor Fort tarjimasi matni: The mouth and tongue are the dearest and most blessed parts of a *believer's* body. Should they really be embarrassed by being used in front of such a low creature as a woman? If they were meant to be used with woman, then *God* on high would have granted dogs speech! (50-p.)

To'xtasinov tarjimasi matni: And a mouth is a sacred part of the human body. One should not say everything before a creature called woman! (20-p)

Banda so'ziga ekvivalent sifatida Kristofor Fort *Believer*, ya'ni ishonuvchi, inonuvchi so'zini bersa, To'xtasinov qilgan tarjimada esa *Human*, ya'ni inson so'zini keltirgan. Asliyat matnida berilgan diniy ma'no Kristofor Fort qilgan tarjimada kuchliroq ifodalangan.

Asliyat matni: Keyin ko'zlari Zebiga tikildi, endi u ko'zlarda aybini yashirgan bir *gunohkorning* qarashlari termilardi. (82-bet.)

Kristofor Fort tarjimasi matni: Then her eyes settled on Zebi, looking at her as the *guilty* look upon their victims. (100-p.)

To'xtasinov tarjimasi matni: So, she looked at Zebi as the eyes which hide her *sin*.(65-p.)
Gunohkor so'zi Kristofor Fort tarjimasida *guilty* bilan ifodalangan. To'xtasinov tarjimasida esa matn umumlashtirib, *uning gunohlari* kabi tarjima qilinadi. Ikkala tarjimada ham ma'no saqlangan.

Asliyat matni: Sharqda, *islom* Sharqida suratlashlik *din* tomonidan man qilingani uchun rivoj topmasdan, din tomonidan tarvij etilgan bu xattotlik san'ati yaxshi taraqqiy qilgan edi. (160-b.)

Kristofor Fort tarjimasi matni: Because illustrations were forbidden in the East, the *Islamic* East, that's calligraphy developed as a result. (153-p.)

To'xtasinov tarjimasi matni: In the east, drawing was forbidden by the *Muslim* religion , but it developed and advanced. (116-p.)

Kristofor Fort tarjimasi matnida *din tomonidan* so'z birikmasi tushirib qoldirilgan bo'lsa, To'xtasinov tarjimasida bunday birikma berilgan. Qo'shimcha axborot Kristofor Fort tarjimasida tushib qolgan.

Asliyat matni: Kampir *duo* qila-qila chiqib ketdi. (241-b.)

Kristofor Fort tarjimasi matni: The old woman left, saying *prayers* as she went. (210-p.)

To'xtasinov tarjimasi matni: The old woman went away, *thanked* many times (161-p.)

Kristofor Fort tarjimasida ish-harakat *ibodat qilishi* bilan yakunlansa, To'xtasinov tarjimasida *shukronalik keltirib* sifatida yakunlangan.

Asliyat matni: Ular o‘z mundarijalarida *zikk* etilgan shaxslar singari, to so‘roq kunigacha, yo‘qlanmasdan va esga olinmasdan tashlandiq holda qolib ketdilar. (306-b.)

Kristofor Fort tarjimasida matni: Like Sufis in a trance ignore the world around them, the lawyer put the case out of his mind until the very day of the trial. (254-p.)

Kristofor Fort tarjimasida o‘z mundarijalarida qismi tushib qolgan, biroq bu ma’noga ta’sir qilmagan.

Asliyat matni: — *Shaytonsan*, do‘stim, shayton! Yetti *do‘zax*ga kunda bo‘ladigansan!.. — dedi va tez-tez qadam qo‘yib, ko‘chaga chiqdi. (146-b.)

Kristofor Fort tarjimasida matni: “You’re a *devil*, friend, a real *devil Hellfire* awaits you!” said Miryoqub, quickening his pace as he left the establishment (143-p.)

To‘xtasinov tarjimasida matni: You are the *devil*! My friend! You will be a wood for the seven *hells*!, he said and stepped slowly and went out. (109-p.)

Keltirilgan ikkala tarjimalarda ham *Shayton* so‘zi *Devil* so‘zi bilan ifodalanmoqda. *do‘zax* tushunchasi To‘xtasinov tarjimasida *hells* tarzida ifodalansa, Kristofor Fort tarjimasida *hellfire* tarzida ifodalangan. Ikkala tarjimonda ham to‘la ekvivalentlarni ifodalay olgan.

Asliyat matni: “Dunyoda hamma odam bolalari bizning ikkimizdek bo‘lsalar, dunyo *jannat* bo‘lardi”, deb o‘ylaydi to‘ra. (161-b.)

Kristofor Fort tarjimasida matni: To‘ra often thought to himself: “If everyone got along like we two, this world would be *paradise*!” (154-p.)

To‘xtasinov tarjimasida matni: Tura thought, If all children of men are like us, the world would be *Heaven*. (116-p.)

To‘ra so‘zini Kristofor Fort shakliy jihatdan o‘z holicha qoldirgan bo‘lsa, To‘xtasinov tarjimasida *Tura* kabi ifodalangan. Fikrimizcha, Kristofor Fort o‘zga millat egasi ekanligini hisobga olsak, u bu so‘zni tushunmagan. Ekvivalentini topa olmagan uchun tarjimasini kitob so‘nggida izohli lug‘atda bermoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, diniy iboralar dariy tiliga boy va iboralarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida turli xil ma’nolarni ifodalaydi hamda turli xil sinonimlar orqali tarjima qilinishi mumkin. Lekin har bir sinonim bir-birining to‘liq o‘rnini bosa olmaydi va uning ma’no chegarasi bor, shuning uchun bunday tarjima jarayonlarida ehtiyotkorlik talab qilinadi, ayniqsa, diniy atamalar ko‘proq qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Diniy frazeologik birlik so‘zma-so‘z ma’noda turli ma’noga ega bo‘lishi mumkin, gapda qo‘llanganda esa butunlay boshqacha ma’noga ega bo‘lishi yoki ma’noni bo‘rttirib yuborishi mumkin. Yuqoridagilardan shuni aytib o‘tish joizki, diniy-tasavvufiy tushunchalarning tarjimasini aks ettirishda tarjimondan tasavvufiy bilim, metodologik yondashuv, ulkan tajriba, diniy bilim ham talab etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tukhtasinov I.M., Yoldoshev U.R., Khamidov. A.A. Night and day. Novel/Chulpan. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2023. – 218 p.

2. Christoph F. Night and day – Boston: Academic Studies Press, 2019. – P.278

3. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. – 328 b.

Dilafro‘z Amonova
Samarqand davlat chet tillar
insituti tayanch doktoranti

RUHIY HOLATLAR VA KECHINMALAR IFODALASH USLUBI

Annotatsiya. Mazkur maqolada epik asarda qahramon ruhiy holati, kechinmasi tahlil qilingan. Nazariy qarashlarga muallifning munosabati epik asar tahlili orqali ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ichki dunyo, psixologik tahlil, milliy ruh, tahlil, talqin, ichki monolog, davr ruhi, ijtimoiy muhit.

Adabiyotda inson qalbini, ichki dunyosini tasvirlash – psixologik tahlil uslubining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Shu bois ham A.Iyezuitov, V.V.Kompaneyets, D.N.Ovsyaniko–

Kulikovskiy, A.P.Skaftimov, L.Ya.Ginzburg, A.B.Yesin kabi olimlar bu muammoni oydinlashtirishga harakat qilishadi. Birgina L.Ginzburgning “Nasrda psixologizm” nomli monografiyasida psixologik tasvirga katta e’tibor qaratadi. U insonning xarakterini uning hujjatiga qiyos etadi¹. Yoki tadqiqotchi S.L.Rubinshteyn mulohazalariga e’tibor qaratsak, u inson kechinmalarini, kamolotga erishishidagi individual yo’lini hayotining burilish pallasi deb biladi. Shu sabab ham, uning talqinicha inson kechinmalari real hayotining subyektiv tomoni, shaxs umr yo’lining sub’yektiv aspektiga aylanadi². D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy esa “Tushinish psixologiyasiga doir” asarida “psixologizm”, “psixologik tahlil”, “psixologik tasvir”, “qalb dialektikasi” singari tushunchalar haqida so’z yuritib, uning mazmun-mohiyatini ochishga intiladi³. Umuman, ruhiy holat, ruhiy kechinma borasidagi qarashlar bir-birini to’ldiradi. Shu bois ham ruhiy kechinmalarni ifoda etishda ayol yozuvchilar ham bu muammoga katta e’tibor qaratishadi. Ayniqsa, badiiy asarni kechinmalar, tuyg’ular orqali chuqur va atroflicha tahlil qilgan adibalar bugungi adabiyotda yaqqol ko’zga tashlanadi. Shunday ijodkorlardan biri Saida Zunnunovadir. Saida Zunnunovaning she’riyati va nasriy asarlarida ruhiy holatlar odatda ayol qalbi, ona yuragi, muhabbat, yo’qotish va umidsizlik kabi mavzular bilan uzviy bog’liq. Uning hayoti – turmushdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy to’siqlar – asarlarida tahliliy va dramatik ohang sifatida ko’zga tashlanadi.

“Insonning ruhiy olami, inson hayotining mohiyati, uning izlanishlari, birinchi navbatda, o’zi bilan, nafsi bilan olib borayotgan kurashi, shu kurashdagi qiyin g’alabalari, shu jumladan, o’zi ustidan qozongan g’alabalari, yashash san’atining sirlari ifodalanishi, tahlil qilinishi kerak va shu asnosida chiqarilgan yoki kitobxon o’zi chiqarib oladigan xulosalar uchun buyuk saboq, ibrat manbai bo’lib xizmat etmog’i kerak. Bir so’z bilan aytganda, qahramon ongi va tafakkuridagi o’zgarishlar va bu yangilanishlar uning faoliyatida qay tariqa aks etishini ko’rsatib bermog’i zarur”⁴ – deb hisoblaydi adabiyotshunos O.Sharafiddinov. Saida Zunnunova ham ruhiy kechinmalarni berishda mana shu insoh ruhiyatining mohiyati, uning izlanishlari bilan chambarchas bog’laydi. Shu nuqtai nazardan adibaning “So’qmoqlar” qissasiga e’tiborimizni qaratamiz: *“Egamov gazetaning sayyor muxbiri. Ko’p umri komandirovkada o’tadi. Toshkentda bo’lgan kezarida esa o’zi yozgan yoki o’zi uyushtirgan maqolaning to bosilishiga qo’l qo’yilgan nusxasini o’qimaguncha redaksiyadan ketolmaydi. Shuning uchun ham redaksiyada uni “onasi navbatchilikka tuqqan” deyishadi. Bu gap Egamovni qittay bo’lsa ham ranjitmaydi, qayta xursand qiladi. Chunki u odamning o’z kasbiga mehr qo’yishini oliy fazilat deb biladi. Buni boshqalar ham bilib qo’ysa yomon bo’lmasdi.*

Egamovning xotini Aziza akusher-ginekolog. Na ishda tinim bor, na uyda, na uyquda. Hali telefon qilishadi, hali chaqirib ketishadi. Ba’zan o’zining ko’ngli tinchimaydi. Biron bemoridan xavotirroq joyi bo’lsa, uxlaganday bo’lmaydi. Ertalab ish vaqti bo’lmasdanoq jo’nab ketadi. Shuning uchun ham bu oilada er-xotin o’rtasida eng ko’p aytiladigan gap: biroz uxlab olsangiz-chi, mana buni yeb olsangiz-chi... Ikkalasing ham doim vaqti ziq, doim ishlari zarur. Orzu qila-qila ko’rgan yolg’iz qizlarini bir ertalabu bir kechqurun ko’rishadi”⁵. Zavqu-shavq Egamov ruhiyatidagi parokandalik, o’z taqdiridan norizolik kayfiyatini anglatadi. U jamiyatga hayotini moslashtirgan, u bilan hamqadam yurishga intilgan. Ushbu harakat esa dunyoni, o’ziga tegishli bo’lgan jamiyatni qayta anglash, idrok etishini taqozo etdi. Mana endi asta-sekin ma’naviy hayoti harakatga keladi. Shu vaqtgacha ma’lum ma’noda turg’unlashib qolgan tusunchalar o’z o’rnidan qo’zg’alib, tuslanishga yuz tutadi. Ilgari uni quvontirgan, ko’ngil va ongini zavqu-shavqqa to’yintirgan narsa va hodisalar endi juda ham g’arib ko’rina boshlaydi. Egamovning ko’ngli esa yangilik qidirishga tushadi. To’g’ri adiba zamonning qaynoq nafasini ufurib turganligini, ularning hayotining asosi sifatida ko’rsatadi. Biroq bu qaynoq nafas ham bosh qahramon, Egamov ruhiyatidagi darz ketgan holatni butlay olmaydi. Egamov va Aziza jamiyatda

¹ Гинзбург Л. О психологической прозе. – Ленинград: «Художественная литература», 1976. – 448 с.

² Рубинштейн С. Овновы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С.13

³ Овсяннико-Куликовский Д. Вопросы психологии творчества. – СПб.: Издание, 1902. – 301 с.

⁴ Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 194.

⁵ Зуннунова С. Сўқмоқлар. www.ziyouz.com. [Saida Zunnunova. So’qmoqlar \(qissa\).pdf](#)

o'zini o'tga-cho'qqa urgan, o'zi yashab turgan jamiyat va zamonning bir parchasi. Ular davr ta'siridan qochib keta olishmaydi. Ular real hayot sarhadlariga qadam qo'ygan va zamonga mos bo'lishga, o'zgarishga intilayotgan shaxslar. Biroq bu intilish men, o'zlik, farzand, oila qadriyatlarini qadrlamaydigan tushunchalar qurshovida qolib ketgan, shaxsning g'alayoni singaridir. Aslida "inson tabiati, ruhiyati g'oyat murakkab. Unda nafs, yana ko'p biz uchun qorong'i boshqa haqiqatlar ham bor"¹. Egamovning intizorlik bilan kutgan farzandi ham unga keyinchalik negadir muhim emasdek. Hayotda faqat ijtimoiy muammolar qurshovida yashayotgan shaxs, oilani unutib qo'ygandek. Bizningcha, adibaning mana shu o'ringa keltirgan fikrlariga u darajada qo'shilib bo'lmaydi. Asarni o'qish jarayonida orziqib kutilgan farzand, Nargizning taqdiri onasi Mehri xolaga topshiriladi. Ko'nglidagi darz ketgan joyni bitib ketishi mana shu o'rinda o'zini oqlamagandek. To'g'ri, Mehri xola nabirasini jondan ortiq kuradi. Uni ardoqlashga harakat qiladi. Biroq ona va o'g'il o'rtasidagi munosabatga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular munosabatidagi sovuqqonlik, albatta boshqalarga ham ta'sir etishi turgan gap. Chunki asarda yozilishicha, Mehri xola bilan Qodirjon rishtalarni tiklashga harakat qiladi. Biroq, ikkalasining hatto gaplashadigan gapi ham mavjud emas. Ular xuddi begona odamlardek asardagi munosabatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bizningcha qaynona va kelin munosabati ham to'liq yoritilmagan. To'g'ri, Aziza kelinlarga xos bo'lgan munosabatni olib borishga harakat qiladi. Biroq Mehri xolaning Azizaga bo'lgan simpatiya yoki antisimpatiyasi haqidagi ma'lumotga duch kelmaymiz. Asarda faqat Mehri xolaning Ra'noga bo'lgan munosabati aniq ochiqqlangan. Uni xush ko'rmaydi. Birovning bolasi esa farzand bo'la olmaydi, degan qat'iy qarori bor. Demak, adiba faqat Mehri xola va Ra'no munosabatini tilga oladi, xolos. Mana shu o'rinda ham qarashlar faqat bir tomonlama. Ya'ni Ra'noning Mehri xolaga munosabati haqida lom-mim deyilmaydi. Bizningcha, shu bois ham obrazlardagi ruhiy talqinlar to'liq ochib berilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гинзбург Л. О психологической прозе. – Ленинград: «Художественная литература», 1976. – 448 с.
2. Рубинштейн С. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – С.13.
3. Овсяннико-Куликовский Д. Вопросы психологии творчества. – СПб.: Издание, 1902. – 301 с.
4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 194.
5. Зуннунова С. Сўқмоқлар. www.ziyouz.com. [Saida Zunnunova. So'qmoqlar \(qissa\).pdf](#)
6. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.290.

*Rustamov Mirjalol Azamat o'g'li,
SamDCHTI, O'zbek tili, jurnalistika va
kompyuter lingvistikasi kafedراسи o'qituvchisi,
mirjalolrustamov280@gmail.com*

MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR TARKIBIGA KIRUVCHI SINTAKTIK BIRLIKLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar tahlil qilingan. Bundan tashqari murakkablashgan sodda gaplar tarkibiga kiruvchi sintaktik birliklarning tilshunoslikda o'rganilishi va o'ziga xos xususiyatlari xususida bahs-munozaralar yuritilgan.

Kalit so'zlar: uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh va ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar.

¹ Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.290.

O'zbek tilidagi har bir sath birliklari lisoniy va nutqiy xususiyatlari bilan boshqa tillar sathidan farqlanadi, ma'lum ma'noda betakrorlik kasb etadi. Birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat "... Tilimizdagi so'z boylig'i, ishtiqoq kengligi, qoida tugallig', sarf-nahv ingichlari (xususiyatlari) boshqa sharq tillaridan qolishmas"¹, – degan fikrlari o'zbek tilining imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Bu kabi imkoniyatlar sintaktik sath birliklari hisoblangan va qizg'in muhokamaga sabab bo'layotgan murakkablashgan sodda gaplarga birlashuvchi birliklar orqali ham yuzaga chiqishi mumkin. Dastlab bu terminning tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida qo'llanilishi va uning tarkibiga qaysi til birliklari kirishi haqida fikr yuritsak. Negaki, "murakkablashgan sodda gaplar" atamasi hamda sodda gaplarni murakkablashtiruvchi (shaklan yoki mazmunan) sintaktik birliklar xususidagi fikr va mulohazalar hali hanuz tilshunos olimlar tomonidan bildirilmoqda.

Tilning har bir sathi (makrosistema sifatida) mikrosistemadan tashkil topadi. Shu jihatdan o'zbek tilshunosligida ilk bor sodda gap va qo'shma gap orasidagi oraliq gaplarga nisbatan "murakkab gaplar"ni qo'llagan G'.Abdurahmonov bu tipdagi gaplarga dastlab undalma, ajratilgan bo'lakli gaplar, kirishlar mansubligini ta'kidlagan². A.G'ulomov va M.Asqarovalar esa "sodda gapni murakkablashtiruvchi elementlar xilma-xil: uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, kirish konstruksiyalar va kiritma konstruksiyalar, undalmalar. Bunday murakkablashtirish gapni sodda gap doirasidan chiqarib yubormaydi, balki murakkablashgan sodda gap hosil qiladi", – degan fikrlarni bildiradi.

H.Boltaboeva sodda gaplarning murakkablashishi sintagmatik yoki intonasion bo'laklarning ishtiroki asosida yuzaga kelishini va bu tipdagi gaplar ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish bo'laklar vositasida murakkablashishini ta'kidlab o'tadi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, sodda gap tarkibida ana shu sintagmatik bo'laklar ishtirok etsa, bunday gap murakkablashgan sodda gap bo'ladi. Vaholanki, sintagmatik bo'lak tarkibida ham alohida sintagmalar mavjud bo'lishi mumkin.

Tilshunos B.O'rinboev esa bu mikrosistemani kengaytirgan holda ularga qo'shimcha ravishda ilova qurilmalari, ravishdosh va sifatdosh o'ramlar, harakat nomili tizimlarni ham kiritadi. Ayrim ilmiy adabiyotlarda undalma, kirish va qurilmalar, ba'zan ajratilgan bo'laklarni murakkablashgan gaplar; ravishdosh, sifatdosh, harakat nomili, shart maylidagi fe'lli o'ram (oborot)lar qatnashgan gaplarni murakkablashgan sodda gaplar deb nomlanishi o'zbek tilshunosligida bu masalada aniq fikrga kelmaganligidan dalolat beradi.

Sodda gaplarni yuzaga keltiruvchi birliklarning polufunksional (vazifasi jihatidan xilma xillik) xususiyatga egaligi haqidagi yangi ilmiy-nazariy qarashlar ham tilshunoslar e'tiboridan chetda qolmadi. Ilmiy ahamiyatga molik bo'lgan bu qarashlarning tarixiy asarlar misolida tadqiq etilishi hali o'rganilishi lozim bo'lgan til sathi birliklarining xususiyatlari ko'pligidan darak beradi. Alisher Navoiy nasriy asarlari tilining sintaktik qurilishini uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh, ravishdosh va infinitiv oborotli qurilmalar, undalmali, kirish va kiritmali konstruksiyalarsiz xoli tasavvur qilib bo'lmasligi, bu ayniqsa sintagmatik assimetriya orqali o'zini to'laqonli namoyish etishi haqidagi fikrlar mujassam bo'lgan ilmiy tadqiqot murakkablashgan sodda gaplarning vazifasi turlicha ekanligining ilmiy dalilidir. A.Navoiyning nasriy asarlarida qo'llangan murakkablashgan sodda gaplar haqidagi ilmiy qarashlar va fikrlar dastlab S.Ashirboevning tadqiqotida o'z aksini topgan edi. Olimning fikricha, Alisher Navoiyning nasriy asarlari tilida, umuman, eski o'zbek tilida undalma, kirish so'z, izoh va kiritmalar faol qo'llangan bo'lib, tabiiy ravishda gapni ham shaklan, ham mazmunan murakkablashtirgan.

Murakkablashgan sodda gaplar turkiy tillar miqyosida ham o'rganilgan (A.M.Peshkovskiy, X.M.Esenov, G.A. Gabitova, F.G.Gallyamov, I.G.Agaeva). Turkiy tillardagi sodda gapning murakkablashishi haqidagi fikrlar qozoq, boshqird, tatar, kumik, turk tillari sintaksisida ham tadqiq etilgan. Jumladan, turk tilidagi uyushiq bo'laklar, kiritma konstruksiyalar,

¹ Фитрат А. Тилимизнинг абадийлиги // Танланган асарлар, IV жилд. – Тошкент: Маънавият. – 2006. – Б.132.

² Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.57.

kirish konstruksiyalar yoki undalmalar ishtirokidagi sodda gaplarni murakkablashgan sodda gaplar deya e'tirof etgan olimlar negadir bu qatorga ajratilgan bo'laklarni kiritmaydi.

Sodda gapni murakkablashtiruvchi lingvistik birliklarning pragmatik xususiyatlari haqida ham dastlabki tadqiqotlar yuzaga keldi. M.Mamadaminova ilmiy tadqiqotida murakkablashgan sodda gaplarning grammatik pozitsiyasida lingvopragmatik belgilar xususida to'xtalib, undalma, kirish, kiritmalarning pragmatik imkoniyatlariga umumiy tarzda baho berib o'tadi¹. Tilshunoslikda yangicha yo'nalishlar- pragmatika, semantika, lingvokulturologiya kabi tilshunoslik sohalarining paydo bo'lishi bilan murakkablashgan sodda gaplarga yondashuvlar ham o'zgarib boshladi. D.Boymatova murakkablashgan sodda gaplarda aksiologik modallikning semantik-pragmatik tadqiqini amalga oshirgan. Mazkur tadqiqotda aksiologik modallikning murakkablashgan sodda gaplarda ifodalanish darajasi aniqlangan, tahlil qilingan, sintaktik stah birligi hisoblangan undalma, uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, kirish va kiritmalarning aksiologik mazmunini izohlashga e'tibor qaratilgan².

Tilda mavjud bo'lgan tejamkorlik tamoyili ma'lum ma'noda sodda gaplarning murakkablashishi uchun ham amal qiladi. Zero, "qo'shma gapda berish mumkin bo'lgan axborotni sodda gap vositasida berish sodda gap tarkibiy qismining ba'zi bo'laklar ishtirokiga ko'ra yuz beradi"³. Bunda shakily va mazmuniy jihatdan murakkablashish nazarda tutilgan bo'lib, sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar vazifasi va anglatayotgan ma'nosiga qarab ma'lum guruhlariga bo'linadi. Shunga binoan Rus tadqiqotchisi N.Patroeyeva sodda gapning murakkablashuvini shakliy, shakliy-semantik, semantik turlarga ajratadi⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т. : Фан, 1976, 208б.
2. Фуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 1987, 140 б.
3. Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т.: ўқитувчи, 1996, 47 б
4. Н. Маҳмудов, А. Нурмонов. ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т. : 1995, 97 б.
5. Б. Ўринбоев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Самарқанд, 2006, 120 б.
6. Фитрат А. Танланган асарлар. Наҳв. (IV жилд) –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 197-200.
7. Фуломов А. Содда гап. –Тошкент: ЎзФА, 1955. –Б. 92-97.
8. Ашурова Д., Убаева Ф., Болтабоева Ҳ. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. –Тошкент: Ўзфанакаднашр, 1962. – Б. 179.
9. Холиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти (А. Қаҳҳор асарлари материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди. . . дис. автореф. – Тошкент, 1993. –Б. 8-10.
10. Тожиев Ё. Туркий тилларда гап бош бўлақларининг кенгайиш имкониятлари ва қонуниятлари // Тил илмига садоқат. (Тўплам) –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 3-9.

¹ Mamadaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. – Toshkent, 2023.

² Бойматова Д. Мураккаблашган содда гапларда аксиологик модалликнинг семантик-прагматик тадқиқи. Фил.фан.бўй.фал.док.дисс. – Жиззах, 2022. – 124 б.

³ Nurullayeva Sh. Tilshunoslikda murakkablashgan sodda gaplarning o'rganilishi // Научный импульс, № 11 (100), часть 1 июня, 2023 – С. 197-200.

⁴ Патроева Н. Типы и функции осложняющих конструкций в языке русской поэзии XVIII-XIX в.в. Автореф. дисс. док. фил. наук. Санкт-Петербург. 2005. – 54 с.

MUNDARIJA

I SHO‘BA

TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI

<i>V.A.Xolikov.</i> Zabardast olim	3
<i>Hamidulla Dadaboyev.</i> Ne‘mat Turniyozov – O‘zbek derivatologiyasi quruvchisi.....	5
<i>I.K.Mirzaev.</i> Дериват, деривация, дериватология	8
<i>A.Э.Маматов.</i> Ўзбек дериватологиясининг сардори	10
<i>X.З.Хайруллаев.</i> Атоқли олим, меҳрибон устоз, камтарин инсон	12
<i>S.Mirzayeva.</i> O‘zbek derivatologiyasining asoschisi	14
<i>A.Туробов.</i> Тил илмини “булбул қилиб сайратган” олим (<i>ёхуд устозга таъзим ўрнида портретга чизгилар</i>)	14
<i>Sh.N.Turniyazova.</i> Dadam haqida	16
<i>Ш.Буриева.</i> Бобом ҳақида хотираларим	17

II SHO‘BA

SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

<i>M.X.Hakimov., D.M.Komilova.</i> Deyksis va anafora hodisalari.....	18
<i>R.R.Bobokalonov.</i> Neyropsixolingvistika - zamonaviy fanlardan biri	22
<i>A.A.Фаффоров.</i> Иловали қурималарнинг шаклланишида тенг боғловчиларнинг ўрни	27
<i>D.Sh.Mamirova.</i> Nutqiy aktlarning reklama matnlarida ifodalanishi	30
<i>M.F.Zayniddinov.</i> Til va nutqning tarixan shakllanishi. nutqiy faoliyat masalasi xususida.....	32
<i>F.Sadinov.</i> O‘zbek tili veterinariya terminlarida eponimlarning qo‘llanilishi	33
<i>I.Ernazarova., S.Bozorov.</i> Yasama so‘zlarning kognitiv tahlili (Eshqobil Shukur ijodi misolida)....	38
<i>G.B.Berdiyeva., Y.A.Rahmatova.</i> Sociolinguistics of youth language	41
<i>E.B.Фалеева.</i> Английские термины-неологизмы в современных словарях	44
<i>D.M.Khudaiberdieva.</i> Formation of students' linguistic competence in teaching the russian language	47
<i>Д.Ш.Сафин.</i> Особенности построения электронных словарных статей в netzverb online-wörterbuch	49
<i>X.U.Sultanova.</i> Xurshid Davron ijodida deyksisning ifodalanishi	52

III SHO‘BA

KOGNITIV, PRAGMATIK TILSHUNOSLIK MASALALARI

<i>Бушуй Т.А.</i> Лексикографическое представление оппозиционных конструкций фразеологических комплексов	57
<i>N.S.Amirova.</i> Observer in the modeling of a visual perception situation in the turkish linguistic worldview	59
<i>T.K.Mardiyev., F.T.Kulibayev.</i> Til – madaniyat va xalq tushunchalarining uzviy bog‘liqligi	63
<i>A.V.Faleeva.</i> Differentiation of colloquial rhymed constructions with humorous names of colloquial numerals.....	66
<i>Г.М. Каримова.</i> Кўчиш жараёни - таржимадаги нозик кирра сифатида.....	68
<i>G.Xasanova.</i> Noverbal vositalarning vazifalari xususida ayrim mulohazalar.....	69
<i>U.U.Sattarov.</i> Elektron o‘quv adabiyotlarning metodik xususiyatlari	72
<i>S.D.Shabanova.</i> Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik modellarning o‘rni	74
<i>T.Y.Oyidinov.</i> Fonemalarning differensial va integral belgilari	76
<i>G.B.Berdiyeva., E.R.Elmurodov.</i> Influence of digital media on word games.....	78
<i>M.U.Kamarova.</i> Хорижий тил сифатида кореys тилиning asosiy o‘qitish uslublari.....	80
<i>E.B.Фалеева.</i> Неология и неография английского языка XXI века.....	82
<i>Z.D.Djurayeva.</i> Turizm reklama matnlarining pragmatik xususiyatlari	86
<i>K.Laura.</i> The age criterion in derivation of argots in french language	87

IV SHO‘BA

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA‘LIM USLUBIYATI MASALALARI

<i>М.Равианов.</i> Словрная работа – важный фактор овладения иностранным языком	91
<i>Ш.Н.Турниязова</i> Матн – юкори поғонадаги синтактик бирлик.....	92
<i>R.Samandarov.</i> Makromatn shakllanishida aplikativ modelning o‘rni.....	96
<i>У.Н.Бобоев.</i> К проблеме влияния шок-теймента в медиадискурсе на массовое сознание	103
<i>М.Х.Зайниева.</i> “Матн – текст” тушунчаси ҳамда глобол синтактик курилманинг деривацион ва лексикографик талкинига оид айрим мулоҳазалар.....	107
<i>У.М.Базарова.</i> Словарная работа при изучении грамматических материалов в обучении русского языка	110
<i>A.V.Faleeva.</i> Structural classification of colloquial constructions with colloquial nouns	111
<i>И.Ю.Эргашев.</i> Раскрытие значений многозначности слов и приемы семантизации	113
<i>B.I.Qodirova.</i> Affiks terminining o‘zbek va qozoq tillardagi tahlili.....	115
<i>Z.O.Kurbonov.</i> Gipotaktik qurilma sintaktik derivatsiyasi	117
<i>T.Kavilova.</i> A semiotic approach to symbolic communication through french cinema.....	120
<i>Sh.A.Aliyeva.</i> Some research notes on the derivation of compound words	123
<i>N.A.Nematova.</i> Xitoy va o‘zbek tillarida zidlov bog‘lovchili teng munosabatli murakkab sintaktik qurilmalar.....	127
<i>E.A.Samtarova.</i> Некоторые особенности лексикографической фиксации профессиональных эвфемизмов в речи медицинского персонала (на материале русского и узбекского языков)..	129
<i>Sh.R.Berdiqulova.</i> Bog‘lovchilar tahlilida tinish belgilarining o‘rni.....	132
<i>М.У.Камарова.</i> Использование метода «перевернутого обучения» в процессе начального обучения корейскому языку	133

V SHO‘BA

TIL VA ADABIYOT NAZARIYASI

<i>М.А.Халова.</i> Мумтоз моҳиятнинг янги талкини.....	137
<i>I.M.Pardayeva.</i> “Tarixi muluki ajam”da tarix haqiqati.....	139
<i>М.Равианов.</i> Аффикации в системе узбекского словообразования	140
<i>Н.А.Асланова.</i> Kichik epik janrlar	143
<i>A.V.Faleeva.</i> Features of structural classification of colloquial expressions with different parts of speech	145
<i>D.N.Raxmatova.</i> Til taraqqiyotida siyosiy va madaniy hayotning ta’siri	147
<i>X.T.Mirzayev.</i> Fors-tojik aruzshunoslarining she’r haqidagi qarashlari tadqiqi	151
<i>Z.N.Elboeva.</i> Ertaklarda ramziy obrazlar talqini (O‘zbek va ingliz ertaklari misolida).....	153
<i>M.Shavkatova., U.Rashidova.</i> Eski turkiy tilda olmoshlarning ifodalanishi.....	155
<i>H.Jo‘rayev.</i> O‘zbek folklorida sehr- jodu	160
<i>S.S.Mirzakamolova.</i> Yuridik nutqda ochiqlik.....	162
<i>G.Y.Holikulova., D.S.Zayniddinova.</i> Qipchoq lahjasidagi shevalarning fonetik va morfologik xususiyatlari	164
<i>F.Shonazarova.</i> Muhammad Yusuf lirikasida vatan tuyg‘usi.....	167
<i>M.A.Ibragimova.</i> So‘z-gaplarning lingvistik tavsifi va ularning sintaktik derivatsiyasiga bir nazar	169
<i>M.Orifova., U.Rashidova.</i> Kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazemalarning badiiy matnda qo‘llanish xususiyatlari.....	172
<i>F.V.Abduvohidova.</i> O‘zbek va ingliz tillaridagi iboralarning qiyosiy tahlili.....	175
<i>U.M.Rashidova.</i> O‘zbek tili frazeologik tizimida somatik iboralarning o‘rganilishi.....	177
<i>N.O‘Kobilov.</i> Tog‘ay Murod asarlaridagi grammatik vositalarning stilistik-pragmatik xususiyatlari	180
<i>Sh. Jumanova.</i> Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida diniy va tasavvufiy tushunchalarning qiyosiy tahlili.....	182
<i>D.Amonova.</i> Ruhii holatlar va kechinmalar ifodalash uslubi.....	184
<i>M.Rustamov.</i> Murakkablashgan sodda gaplar tarkibiga kiruvchi sintaktik birliklar.....	186

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI
Samarqand shahri, 2024-yil, 16-oktabr

Muharrir: G.Rahimova
Musahhih: Z.Usmanova
Tex.muharrir: H.Amirdinov

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosmaxona tasdiqnomasi:
№ 8376-525f-572d-f37b-0fd6-3529-7957

2024-yil 14-oktabrda bosishga ruxsat etildi:
Ofset bosma qog‘oz. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}.
“Times new roman” garnituras. Raqamli bosma usulda bosildi.
Hisob-nashriyot t.: 10,1. Shartli b.t. 16,2.
Adadi 10 nusxa. Buyurtma №14/10.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
Manzil: Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93.

